

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

A K A D E M I Y A

J. T. XOLMO'MINOV, A. X. DUSMANOV,
T. N. TILLAYEV, O. A. KAMALOV,
O. J. XOLMUMINOV

FUQAROLIK PROTSESSI

Ma'ruzalar kursi

Toshkent – 2012

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlilik hay’atida ma’qullangan

T a q r i z c h i l a r :

yuridik fanlar doktori **M. M. Mamasiddiqov**;
yuridik fanlar doktori **Z. N. Eanova**

X – 71 Xolmo‘minov J. T.

Fuqarolik protsessi: Ma’ruzalar kursi (Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri) / J. T. Xolmo‘minov, A. X. Dusmanov, T. N. Tillayev, O. A. Kamalov, O. J. Xolmuminov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 251 bet.

Ushbu ma’ruzalar kursida fuqarolik protsessual huquqining mohiyati, predmeti, tizimi, manbalari va prinsiplari, fuqarolik protsessual munosabatlar va ularning subyektlari, fuqarolik ishlarida sudlovga taalluqlilik, protsessual muddatlar, sud xarajatlari va jarimalari, buyruq va da’vo tartibida ish yuritish, fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar masalalari atroflicha yoritilgan. Unda birinchi instansiya suda ish yuritish, sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning boshqa shakllari: xo‘jalik sudi, hakamlar sudi, notariat va boshqa ko‘plab fuqarolik holatlari bilan bog‘liq masalalar yechimiga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Oliy yuridik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan tinglovchi va talabalarga, professor-o‘qituvchilarga, amaliyot xodimlari va fuqarolik protsessi bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

BBK 67.99(2U)92. ya 73

SO‘Z BOSHI

Mustaqil respublikamizda qonunchilik va huquqiy tartibotni mustahkamlash davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Mazkur masala mamlakatimiz Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar hamda boshqa huquqiy normalarda o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, mansabdar shaxslarning, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Ma’lumki, yuridik va jismoniy shaxslar qonunga asosan o‘zlarining shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilish uchun belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqlidirlar.

Prezidentimiz Islom Karimov: «Hokimiyatning uchinchi tarmog‘i bo‘lmish sud tizimini mustahkamlash, sudlarning mustaqilligini, ularning faqat qonunga bo‘ysunishini kuchaytirish borasida mohiyat-e’tiboriga ko‘ra mutlaqo yangi qadam qo‘yildi»¹, deb ta’kidlagan edi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik ishlarining sudlarda va huquqni muhofaza qiluvchi boshqa idoralarda qonunga asosan to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi va hal qilinishini ta’minlashda fuqarolik huquqiy normalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ma’ruzalar kursi O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis tomonidan 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslangan holda tayyorlangan bo‘lib, yuqori malakali huquqshunos kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Ma’ruzalar kursida fuqarolik protsessiga oid mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, mavzular mustaqillik yillarida qabul qilingan yangi Konstitutsiyamiz, Advokatura, Prokuratura, Notariat, Sudlar to‘g‘risidagi qonunlar hamda Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Oila, Mehnat, Soliq kodekslari va boshqa normativ hujjatlar asosida bayon etiladi.

Qo‘lingizdagи kitobda fuqarolik protsessi fanining predmeti, tizimi, manbalari va prinsiplari, fuqarolik-protsessual huquqiy munosabatlar va ularning subyektlari, fuqarolik ishlarida taalluqlilik va sudlovlik, protsessual muddatlar, sud xarajatlari va jarimalari, buyruq va da’vo

¹ Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т., 2003. – 14-б.

tartibida ish yuritish, fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar, birinchi instansiya sudida ish yuritish masalalariga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, davlat organlari va boshqa organlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar va arizalar bo'yicha ish yuritish, alohida tartibda ish yuritish, fuqarolik ishlarining ayrim turlari bo'yicha sudda ish yuritishning xususiyatlari, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish va protest keltirish hamda ularni qayta ko'rish, sud qarorlarining ijrosi, fuqarolarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning boshqa turdag'i shakllarini amalga oshiruvchi organlar, ya'ni xo'jalik sudi, hakamlar sudi, notariat kabi organlarning tashkiliy tuzilishi va faoliyatiga doir masalalar atroflicha yoritilgan.

Mazkur ma'ruzalar kursida yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham bo'lishi tabiiy, albatta. Biz ushbu kitob yuzasidan fikr va mulohazalar bildiruvchi barcha kitobxonlarga o'z minnatdorchiligidanizni izhor qilamiz hamda ularning istak va talablarini hisobga olishga, ulardan kelgusida ma'ruzalarni yanada takomillashtirishda foydalanishga harakat qilamiz.

1-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, MANBALARI, TIZIMI VA PRINSIPLARI

- ∞ *Fuqarolik protsessual huquqining tushunchasi va predmeti.*
- ∞ *Fuqarolik protsessual huquqining manbalari va tizimi.*
- ∞ *Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida sud-huquq tizimini isloh etish masalalariga alohida e’tibor qaratib, quyidagi fikrlarini bayon etdi: «Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallash-tirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda.

Aynan shuning uchun ham biz mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab islohotlarning mazkur yo‘nalishiga alohida e’tibor qaratganimiz beziz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning ko‘لامи, miqyosi va samaradorligi keyingi o‘n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rish mumkin.

Avvalo, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta’minlash, uni sobiq tuzumda bo‘lgani kabi qatag‘on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma’nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo‘linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritildi. Bu esa o‘z

navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini bergenini alohida ta'kidlash lozim»¹.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar hayotimizga o'zgacha bir jo'shqinlik baxsh etmoqda. Voqealar rivoji shu darajada jadal kechmoqdaki, kechagina yangilik deb qabul qilingan mezonlar bugunga kelib zamon talablariga javob bera olmay qolmoqda. Buning boisi, xalq xo'jaligining barcha sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishga kirishilganligi va bu borada yangicha, o'zimizga xos yo'llar kashf etilayotganligidadir.

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlarini hamda ularni himoya qilishni kuchaytirish bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining eng muhim va ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi.

Aholining huquqiy ongini o'stirish, davlat idoralari, muassasalar va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini oshirish hamda aholini huquqiy axborot bilan ta'minlash demokratik islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida muhim o'rinni tutmog'i lozim.

1. Fuqarolik protsessual huquqining tushunchasi va predmeti

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida yangi qonunlar va kodekslar ishlab chiqilib amalga kiritildi. Shuningdek, ushbu qonunlarni qo'llash jarayonida vujudga kelgan muammolar o'rganilib, ularga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi va takomillashtirish davom etmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangi Fuqarolik protsessual kodeksi 1998-yilning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritilgani ham bunga misol bo'la oladi. Kodeksning qabul qilinishi qonunchilikda olamshumul voqe, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati sari qo'yilgan muhim bir qadam bo'ldi.

Ushbu kodeksning asosiy qoidalari har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli, deyiladi. Fuqarolarning bu huquqlari fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 15–16-б.

Da'vo tartibidagi ishlar, organ va mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlar hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibi *fuqarolik protsessual huquqi* predmeti hisoblanadi.

Huquq sohasida ishlatiladigan «protsess» atamasi lotincha «protsessum» so'zidan olingan bo'lib, harakat degan ma'noni anglatadi.

Fuqarolik protsessi fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish bilan bog'liq harakatni, faoliyatni bildiradi.

Fuqarolik protsessi deb, qonun bilan belgilangan tartibda fuqarolik ishlarini ko'rish, hal qilish va sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq faoliyatga aytiladi.

Protsessual qonun sud faoliyatining amalga oshirilishida manfaatdor shaxsga ishda ishtirok etish huquqini, ularga qator protsessual huquqlar berilishini va protsessual burchlar yuklatilishini belgilaydi.

Fuqarolik protsessi davlat, shuningdek, mulkchilikning tarkibi shaklidan qat'i nazar, barcha tashkilotlar va ayrim fuqarolarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud tartibida himoya qilish shakli sifatida ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiysi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda yangi tahrirda qabul qilgan «Sudlar to'g'risida»gi qonunining 1-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oliy sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari faoliyat ko'rsatadi.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi. Fuqarolik protsessi *mulkiy va shaxsiy* huquqlarning sud tomonidan himoya qilinishi shakli sifatida namoyon bo'ladi. Shu munosabatlar bilan muayyan fuqarolik protsessual harakatlar amalga oshiriladi.

Bunday harakatlar sudda fuqarolik ishining taraflari sifatida qatnashuvchilar va ishning boshqa ishtirokchilari tomonidan qilinadigan protsessual harakatlar, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlojni amalga oshiruvchi sudning protsessual harakatlaridan iborat bo'ladi.

Sudning, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning muayyan fuqarolik protsessual huquq va burchlari bor. Bu huquq va burchlar fuqarolik protsessida ishtirok etuvchilarning ma'lum protsessual harakatlar qilishlari orqali amalga oshiriladi.

Biror-bir huquqni amalga oshirishda manfaatdor shaxs ishni sudda muayyan shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atish yo'li bilan yoki biror-bir huquqning tan olinishi, tasdiqlanishini iltimos qilib boshlaydi. Sud bu ishning sudga taalluqli bo'lish-bo'lmasligini tekshirib, arizani qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida ajrim chiqaradi. Da'veoning qo'zg'atilishidan xabardor bo'lgan javobgar da'vo yuzasidan bayonot beradi yoki e'tirozini bildiradi yoxud qarshi da'vo qo'zg'atadi. Sud, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bunday harakatlardan tashqari, qonun bilan belgilangan boshqa harakatlarni ham qila oladilar. Bu harakatlarning barchasi *fuqarolik protsessual harakatlar* bo'lib, fuqarolik sud ishlarini yurgizish, ya'ni fuqarolik protsessi sifatida ko'rildi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar deb, sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan va bu shaxslarning sudga nisbatan bo'lgan fuqarolik protsessual huquq va burchlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga aytildi.

Sud orqali himoyalanish huquqi to'g'risida shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK)ning 1-moddasida belgilangandek, O'zbekiston Respublikasining Konstitut-siyasiga muvofiq har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashma-larining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emasdir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari, FPKning 4-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini

o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etishdan iboratdir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta’minlashga ko‘maklashishi lozim.

FPKning 2-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibi belgilangan. Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlaridan iborat ekanligi qayd etilgan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari da’vo tartibidagi ishlarni, organlar va mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha ishlarni hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Da’vo tartibidagi ishlar FPKning 2-bo‘limi 21–25-boblarida keltirilgan ishlardan iborat.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ish yuritish FPKning 26–29-boblarida ko‘rsatilgan moddalari bilan tartibga solinadi.

Alohida tartibdagi ishlar esa FPKning 30–35-boblarida bayon etilgan.

Fuqarolik ishlarini yuritish ishni ko‘rish, alohida protsessual harakatlarni bajarish yoki sudning hal qiluv qarorini ijro etish vaqtida amalda bo‘lgan FPK va boshqa qonunlar asosida olib boriladi.

FPKning 12-moddasida ta’kidlanganidek, Sud ishlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarga zid bo‘lmasa, boshqa normativ hujjatlarni ham qo‘llaydi. Sud qonunga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq, chet el davlatlarining huquq normalarini ham qo‘llaydi.

Nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo‘lmagan taqdirda, sud shunga o‘xhash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bordi-yu, bunday qonun ham bo‘lmasa, Respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va ma’nosiga tayanadi.

Sudda fuqarolik ishi, FPKning 5-moddasida ko‘rsatilganidek, quyidagi hollarda qo‘zg‘atilishi mumkin:

1) o‘zining huquqi yoki qonuniy manfaatlarini himoya qilishni so‘rab murojaat qilgan shaxsning arizasi bo‘yicha;

2) prokurorning arizasi bo‘yicha;

3) agar davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo‘lsalar, ularning bergen arizalari bo‘yicha.

Fuqarolik ishi qo‘zg‘atilganidan keyin sud ishlarini yuritish muayyan shaklda amalga oshiriladi. Fuqarolik protsessual shaklning mohiyati quyidagilardan iborat:

1) fuqarolik ishlari bo‘yicha ish yuritish tartibi oldindan protsessual qonun bilan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi;

2) sud himoyasi uchun qonunda belgilangan yozma shaklda sudga murojaat qilish huquqi beriladi;

3) ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual huquqlardan, xususan, ishni ko‘rishda sud majlisida ishtirok etish huquqidan foydalanadilar;

4) sudning hal qiluv qarori protsessual qonunda ko‘rsatilgan dalillar vositasi bilan aniqlangan faktik ma’lumotlarga va qonunga asoslanishi shart qilib qo‘yiladi.

Ishni ko‘rish protsessi, umumiylar qoida bo‘yicha, ochiq sud majlisida olib boriladi. Sud ish bo‘yicha obyektiv haqiqatni aniqlash uchun ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida taraflarni xabardor qiladi, sud majlisida ularga huquqlarini himoya qilish, bayonot berish, ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, ikkinchi tarafga e’tiroz bildirish, o‘zining da’vosini yoki da’voga bo‘lgan e’tirozini tegishli dalillar bilan isbotlash imkoniyatlarini beradi.

Odil sudlovnning bunday protsessual shakli sudga ish bo‘yicha chin haqiqatni aniqlash va qonunga asoslangan hal qiluv qarorini chiqarish imkoniyatini berish bilan birga, taraflarga sud orqali shaxsiy va mulkiy huquqlarning va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarning himoya qilinishi imkoniyatini ham yaratadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar *protsessual huquqlarini va protsessual burchlarini* tegishli protsessual harakatlar qilish yo‘li bilan amalga oshiradilar.

Masalan, fuqarolik sud ishi boshlanishida da’vogar da’vo qo‘zg‘atish huquqini sudga da’vo arizasini berish yo‘li bilan amalga oshiradi, javobgar esa da’voga qarshi himoya huquqini e’tiroz bildirish yoki qarshi da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan amalga oshiradi.

Sudning protsessual burchi taraflar o‘rtasidagi nizoga oid masalalarni aniqlash uchun taraflarni so‘roq qilish, dalillar to‘plash,

keltirilgan dalillarni tekshirish va boshqa ba’zi protsessual harakatlarni bajarishdan iborat bo‘ladi.

Fuqarolik protsessining mohiyati huquqiy demokratik davlat qurayotgan respublikamizda qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatning qaror topishini ta’minalash, ma’naviy va madaniy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyat va fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning siyosiy huquqlarini, mehnatga, uy-joyga oid huquqlarini hamda shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qiladigan, manfaatlarini sud yo‘li bilan qo‘riqlash, qonunchilikka rioya qilinishini ta’minalash vazifalarini ko‘zlashdan iborat.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish (fuqarolik sud ishlarini yuritish) tartibi, sudning va protsessda ishtirok etuvchilarining protsessual harakatlari, shuningdek, ularning protsessual huquq va burchlari protsessual qonunlarda, jumladan FPKda belgilangan.

Yuridik adabiyotlarda «fuqarolik protsessual huquqi» tushunchasiga bir-biriga o‘xhash ta’riflar beriladi.

Atoqli protsessualist olim SH.SH.Shoraxmetovning fikricha, *fuqarolik protsessual huquq* – fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, fuqarolik ishlarining sud tomonidan ko‘rilishi, shuningdek, sud qarorlarining ijro etilishi tartibini belgilaydigan huquq normalarining majmui¹.

Mashhur protsessualist olma M.S. Shakaryan *fuqarolik protsessual huquqi* – fuqarolik ishlarini qo‘zg‘atish, mazmunan ko‘rish va hal etish, sud qarorlarini qayta ko‘rish, shuningdek, sud qarorlarini ijro etish tartibini, umuman fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish tartibini belgilaydigan huquq normalarining majmui, deb ta’rif beradi².

Yuridik fanlar doktori M.M.Mamasiddiqov esa *fuqarolik protsessual huquqini* o‘zida fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish jarayonida sud va protsessning boshqa ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga

¹ Qarang: Шорахметов ІІІ.ІІІ. Ўзбекистон Республикаси фуқаролик процессуал хуқуки: Дарслик. – Т., 2011. – 12–13 -б.

² Qarang: Гражданское процессуальное право: Учебник / С.А.Алехина, В.В.Блажеев и др. Под ред. М.С.Шакарян. – М. , 2004. – С. 12

keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan protsessual normalar tizimini jamlagan huquq sohasi, deb hisoblaydi¹.

Fuqarolik protsessual huquqining predmeti – sud majlislarida tekshiriladigan va hal qilinadigan fuqarolik ishlari tufayli bo‘ladigan, sud faoliyati natijasida vujudga keladigan sud va protsessining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar.

Fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishda sud faoliyati ma’lum bosqichlarga (qismlarga) bo‘linib amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlar quyidagilardan iborat:

- 1) fuqarolik ishini qo‘zg‘atish;
- 2) ishni sudda ko‘rish uchun tayyorlash;
- 3) ishni sud majlisida ko‘rish va hal qilish;
- 4) sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari yuzasidan shikoyatlar berish va protestlar keltirish;
- 5) sudning hal qiluv qarori ijrosi.

Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida fuqarolik protsessining quyidagi bosqichlar ko‘rsatib o‘tilgan:

- fuqarolik ishini qo‘zg‘atish;
- ishni sudda ko‘rishga tayyorlash;
- sud muhokamasi;
- sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan berilgan shikoyat va protestlar bo‘yicha ish yuritish;
- hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarni nazorat tartibida qayta ko‘rish; yangi ochilgan holat bo‘yicha ish yuritish;
- ijro ishlarini yuritish².

Fuqarolik protsessual huquqi o‘z mazmuniga ko‘ra fuqarolik ishlarini yuritishni tartibga solib, qo‘zg‘atilgan fuqarolik ishi yuzasidan sudning, protsess ishtirokchilarining, sud qarorlarini ijro etuvchilarning qanday harakatlarni qaysi tarzda bajarishlari lozimligini, bunday harakatlarning oqibatlari nimadan iborat bo‘lishini (masalan ish haqini undirish yoki keltirilgan zararni to‘latishni) belgilaydi.

Fuqarolik protsessual huquqi mazmuniga nazar solinsa, uning boshqa huquq sohalari bilan ma’lum darajada bog‘liq ekanligini ko‘ramiz.

¹ Qarang: *Мамасидиқов М.М.* Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм / Олий ўқув юрти талаблари учун дарслик. – Т., 2010. – 14–15-б.

² Qarang: *Алексий П.В., Эрвили Н.Д., Гулузо В.Н. и др.* Гражданское процессуальное право России: Учебник для вузов / Под ред. проф. П.В.Алексия, проф Н.Д.Амаглобели. – М., 2005. – С. 5.

Chunonchi, fuqarolik protsessual huquqi jinoyat-protsessual huquqi bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘riladi. Bu huquqlarning har ikkisi ham odil sudlovni amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Shuningdek, konstitutsiyaviy huquq fani bilan ham bog‘liq, ikkisi ham davlat hokimiyat organi bo‘lgan sudning faoliyatini tartibga soladi.

Fuqarolik protsessual huquqi yana fuqarolik, mehnat, oila, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, moliya huquqi, shuningdek, ma’muriy huquq sohalari bilan ham uzviy bog‘liqdir, chunki fuqarolik protsessida yuqoridagi kabi munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar tekshiriladi va hal qilinadi.

Aksariyat hollarda fuqarolik huquqi, mehnat huquqi, oila huquqi, moliya huquqi va ma’muriy-huquqiy munosabatlardan, ya’ni davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xattiharakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va ariza bo‘yicha ko‘rilayotgan ishlar bilan bog‘liq ishda ishtirok etuvchi shaxslar zimmalaridagi burchlarini o‘z ixtiyorlaricha bajaradilar.

Barcha fuqarolar o‘zlariga berilgan huquqlardan foydalangan holda o‘z faoliyatlarini amalga oshirar ekanlar birinchi navbatda qonunlarning ustuvorligiga qat’i rioya etishlari kerak. Aks holda huquqlarining buzilishiga o‘zları ham sababchi bo‘lib qoladilar. Huquqning buzilishi holatlari albatta o‘z-o‘zidan kelib chiqmaydi, uning buzilishiga shaxs (jismoniy va yuridik) tomonidan g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir qilish sabab bo‘ladi. G‘ayriqonuniy harakatlar sodir qilish natijasida bir shaxs ikkinchi bir shaxsning huquqlarini, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini buzadi. Bunday holatlarda huquqi buzilgan shaxs o‘z huquqlarini sud orqali qonunda ko‘rsatilgan protsessual shaklda himoya qilishi mumkin. FPKning 1-moddasida aytilganidek, «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarning g‘ayriqonuniy xattiharakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli».

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas».

Amaldagi qonunlarga asosan buzilgan huquqni himoya qilish turli shakllarda amalga oshiriladi. Huquqning va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatning sud tomonidan qo‘riqlanishi fuqarolik protsessual huquqida ko‘rsatilgan protsessual shakllarda amalga

oshiriladi. Chunonchi, fuqarolarning sog‘lig‘iga g‘ayriqonuniy ravishda shikast yetkazilganida ko‘rilgan moddiy zararni undirishga bo‘lgan huquq (moddiy huquq) fuqarolik huquqi normalari bilan belgilansa, FPH normalarida esa bunday buzilgan huquqni qo‘riqlash (zarar haqini undirish uchun zarur dalillar to‘plash, talabning (da‘voning) ko‘rilishi, hal qilinishi, tegishli haqning undirilishi) tartibi belgilanadi.

FPKning 13-moddasiga binoan, barcha birinchi instansiya sudlarida ishlar sudyaning yakka o‘zi tomonidan ko‘riladi. Ishni sudyaning yakka o‘zi ko‘rganida, u sud nomidan ish yuritadi.

Ishni appelyatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rish Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, nazorat tartibida ko‘rish esa Rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida ishlar appelyatsiya, kassatsiya tartibida va nazorat tartibida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida – Rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumida – Plenum tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda ko‘riladi. Ishni ko‘rish paytida kelib chiqadigan hamma masalalar sudyaning yakka o‘zi tomonidan, ishni sud hay’ati ko‘rayotgan holatlarida esa, sudyalarning ko‘pchilik ovozi bilan hal etiladi. Har bir masala hay’at tomonidan hal qilinganida sudyalarning birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Ozchilik tomonida qolgan suda, o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo‘shib qo‘yiladi, biroq e’lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydilar.

Sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning huquqiy holatini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlash uchun qonunga asoslangan holda choralar ko‘rishga haqli. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmslikning oqibatlari to‘g‘risida ogohlantirish hamda ularga o‘z huquqlarni ro‘yobga chiqarishlarida yordam ko‘rsatishi lozim.

FPKning 16-moddasiga ko‘ra, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimi va qarori barcha davlat organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi lozim.

Sudning hal qiluv qarori, ajrimi va qarori majburiyligi manfaatdor shaxslarni o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni so‘rab, basharti bu huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarga daxldor nizo sudda ko‘rib chiqilmagan va hal etilmagan bo‘lsa, sudga murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etmaydi.

2. Fuqarolik protsessual huquqining manbalari va tizimi

Huquqning, shu jumladan fuqarolik protsessual huquqi (FPH)ning ham yagona manbai O‘zbekiston xalqining irodasi hisoblanadi. FPHning yuridik manbalari qonunda belgilangan. Umuman, fuqarolik protsessual huquqiga taalluqli bo‘lgan barcha normativ hujjatlar bu fanning manbasi bo‘lishi mumkin.

FPKning 12-moddasida belgilanganidek, sud ishlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilinishi shart. Sud, agar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo‘lmasa, boshqa normativ hujjatlarni ham tatbiq qiladi.

Sud qonunga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, chet el davlatlarining huquq normalarini ham qo‘llaydi.

Nizoli munosabatlarni tartibga soladigan qonun bo‘lmasa qonun bo‘lmasa qonun bo‘lmasa, Respublika qonun hujjatlarining umumiyligi asoslari va ma’nosiga tayanadi.

Umuman olganda, bugungi kunda fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining FPK, «Sudlar to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari:

- da’vo tartibidagi ishlarni;
- organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha ishlarni;
- hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 3-moddasiga binoan, basharti O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston

Respublikasining fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridan boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomalar qoidalari qo‘llaniladi. Shunga ko‘ra FPHning yuridik manbalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi* O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil topishi va faoliyati prinsiplarini, shuningdek, fuqarolar va davlat organlarining huquq va burchlarini belgilaydigan asosiy qonun hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobi 11, 44, 106–116-moddalari butunlay O‘zbekiston Respublikasining sud hokimiyatiga taalluqli.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan, har bir shaxs o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 106-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy Xo‘jalik sudi, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining xo‘jalik sudidan hamda shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari hamda jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sudlaridan iborat.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilgan «*Sudlar to‘g‘risida*» (yangi tahrir)gi qonuni odil sudlov vazifalarini belgilovchi, barcha sud organlarining tuzilishi, tashkil topishi va faoliyati prinsiplarini, shuningdek, sudyalarning huquq va burchlarini, ularni moddiy va ijtimoiy ta‘minlash hamda sud ijrochisining huquqiy faoliyatini belgilovchi muhim normativ aktdir.

Ushbu qonunning 3-moddasida O‘zbekiston Respublikasida odil sudlovnii faqat sud amalga oshiradi, 4-moddasida sudyalar mustaqildirlar, faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biror-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi, deb belgilab qo‘yilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasining *Fuqarolik protsessual kodeksi* (1997-yil 30-avgustda qabul qilingan va 1998-yil 1-yanvardan amalga kiritilgan kodeks 5 bo‘lim, 40 bob, 391 moddadan iborat) fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovnii amalga oshirishning protsessual tartibini batafsil qoidalashtiruvchi qonundir. FPKning 2-moddasida aytilganidek, fuqarolik sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Kodeks va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 13-dekabr qabul qilgan «*Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida*» (yangi tahrir)gi qonuni.

Ushbu qonun 28 ta moddadan tashkil topgan bo‘lib, fuqarolarning davlat organlariga, jamoat birlashmalariga, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga, shuningdek, sudga murojaat qilish huquqini ifoda etuvchi asosiy qoidalarni hamda fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

5. O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilgan «*Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida*»gi qonuni. Ushbu qonun 10-moddadan iborat.

6. Protsessual masalalar yuzasidan huquqiy manbalarga:

- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi;
 - O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, shuningdek, transportga oid qonunlari, avtorlik, ixtirochilikka oid qonunlar ham kiradi.
7. FPHning manbalariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining normativ xarakterga ega bo‘lgan aktlari ham qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumlarining qarorlari bu fanning huquqiy manbai hisoblanmasa ham, ammo bu qarorlarda protsessual qonunlarni to‘g‘ri tatbiq etish yuzasidan beriladigan rahbariy tushuntirishlar muhim ahamiyatga egadir. Bunday izohlar tushuntirilayotgan qonunni tatbiq qiluvchi sudlar va boshqa mansabdar shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Protsessual qonunlarning hudud va vaqt bo‘yicha amalda bo‘lishi to‘g‘risida shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining barcha qonunlari respublika hududida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari hududida, davlat hokimiyatining mahalliy organlari tomonidan qabul qilingan normativ aktlar mazkur hududlarda hamma uchun, ya’ni fuqarolar va tashkilotlar uchun majburiy kuchga ega bo‘ladi.

Umumiy normativ xarakterga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, jumladan fuqarolik protsessual qonunlar ham, agar ularning qaysi vaqtidan e’tiboran kuchga kirishi to‘g‘risida e’lon qilinayotgan qonunning o‘zida maxsus ko‘rsatma bo‘lmasa, umumiy qoida bo‘yicha, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan kundan keyin kuchga kiradi.

Fuqarolik protsessual huquqining tizimi FPKga muvofiq tarzda tuzilgan bo‘lib, quyidagicha ifodalanadi:

Birinchi bo‘limda sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari bilan birga, sudning tarkibi, otvod berish, ya’ni fuqarolik ishini hal qilishda ishtirok etuvchilarning biri yoki bir nechtasiga norozilik bildirishi; taalluqlilik, ya’ni ishning qaysi sud yoki boshqa idora tomonidan hal qilinishi; protsess ishtirokchilari; dalillar; ish yuritishni to‘xtatib turish; arizani ko‘rmasdan qoldirish; ish yuritishni tugatish; sud xarajatlari, sud jarimalari; protsessual muddatlar va nihoyat sud xabarnomalari va chaqiriqlari to‘g‘risidagi normalar berilgan.

Ikkinci bo‘limda birinchi instansiya sudida ish yuritish 4 ta kichik bo‘limga bo‘lingan: *birinchisi* umumiy qoidalari, ya’ni sudlovga taalluqlilik; ish qo‘zg‘atish; fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash; sudda ishni ko‘rish; sudning hal qiluv qarori; sirtdan ish ko‘rish va hal qiluv qarori chiqarish, birinchi instansiya sudining ajrimlari hamda buyruq tartibida ish yuritish; *ikkinchisi*, da’vo ishlarini yuritish, jumladan uning umumiy qoidalari, da’vo ishlarini yuritishning sudlovga taalluqliligi; qarshi da’vo; da’voni ta’minalash va da’vo ishlarini ko‘rishning xususiyatlari; *uchinchisi*, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ish yuritish tartibi, ya’ni uning umumiy qoidalari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan

xatti-harakatlar va qarorlar ustidan shikoyatlar; notariusning, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organining muayyan harakatlarni bajarishni rad etganligi yoki noto‘g‘ri bajarganligi ustidan shikoyatlar, shuningdek prokurorning huquqiy hujjatni g‘ayriqonuniy deb topish haqidagi arizasi ko‘rsatilgan; *to‘rtinchisi*, alohida tartibda ish yuritish, ya’ni uning umumiyligini qoidalari, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash, fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqaroni o‘lgan deb e’lon qilish, fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish, g‘ayriixtiyoriy tartibda pisixatriya statsionariga yotqizish, mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish, taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolgan taqdirda ular bo‘yicha huquqlarni tiklash (chaqirib ish yuritish) to‘g‘risidagi qoidalari; *beshinchisi*, hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq nizolarni yuritishning umumiyligini qoidalari, hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish, hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish borasidagi jarayonlar.

Uchinchi bo‘limda appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritishning umumiyligini qoidalari; appellatsiya instansiyasida ish yuritishga oid hamda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarolarning qonuniy, asosli va adolatli ekanligini kassatsiya va nazorat tartibida tekshirish va nihoyat qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarolarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha ishni qayta ko‘rishga taalluqli qoidalari belgilangan.

To‘rtinchi bo‘limda sud qarorlarining ijro etilishiga oid qoidalari bayon etilgan.

Beshinchisi bo‘limda fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning ishtirok etishga oid qoidalari berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual qonunlarining yuqorida ko‘rsatilgan tarzda fuqarolik protsessual huquqi *umumiy* va *maxsus qismlarga* bo‘linib, tizimlashtirilganligini ko‘rsatadi.

Umumiy qismda protsessning hamma bosqichlarida yuritiladigan ishlarning barcha turlari uchun umumiyligini qoidalari beriladi.

Maxsus qismda esa fuqarolik ishlarining ayrim toifalarini ko‘rish, hal qilish uchun va fuqarolik protsessining ayrim bosqichlari uchun maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan normalar bayon etiladi.

Fuqarolik ishlarini ko‘rishda odil sudlov oldiga yangidan yangi vazifalarning qo‘silishi munosabati bilan fuqarolik protsessual huquq tizimi ham rivojlanib, takomillashib boradi va doimiy harakatda bo‘ladi.

FPHning *umumiyl qismida* ko'rsatilgan fuqarolik protsessining asosiy prinsiplari, dalillar, protsess ishtirokchilari (subyektlari), taalluqlilik va sudlovlik, FPHning manbalari to'g'risidagi normalar yuqorida aytilganidek, ishlarni yuritishning hamma turlari, protsessning hamma bosqichlari uchun umumiyl ahamiyatga ega.

Fuqarolik protsessining *subyektlari*: taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar, shuningdek, protsessual huquq layoqati haqidagi normalar protsessning turli bosqichlari uchun ham, sudda ko'riladigan turli toifadagi fuqarolik ishlari, birinchi instansiya sudi, ishni yuqori sudda ko'rish va hal qiluv qarorini ijro qilish bosqichi uchun ham bir xil umumiyl ahamiyatga egadir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qilinadigan protsessual harakatlar sudning hamda protsessning boshqa subyektlari harakatlaridan iborat bo'ladi.

Sud protsessual harakatlarni fuqarolik ishlarini to'g'ri hal qilish, bu borada davlat manfaatlari va taraflarning huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ya'ni qo'riqlash, qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'yilmaslik maqsadida amalga oshiradi.

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi taraflar protsessual harakatlarni o'z huquqlarini amalga oshirish va zimmalariga yuklangan protsessual burchlarni ado etish maqsadida bajaradilar.

Protsessual harakatlar muayyan protsessual oqibatlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, da'vo qo'zg'atilishi, da'vo yuzasidan sud protsessining o'tkazilishi, ko'rilgan da'vo ishi bo'yicha sudning hal qiluv qarori chiqarilishi, hal qiluv qarorining majburan ijro etilishi, shuningdek, taraflarning shikoyatlari va prokurorning ishni appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish to'g'risida keltirgan protesti esa ishning yuqori sud organi tomonidan qaytadan ko'rilihi oqibatlarini keltirib chiqaradi.

FPKning maxsus qismi fuqarolik ishlarining turli kategoriyalari bo'yicha ishlarning yuritishini tartibga soladigan maxsus protsessual normalar yig'indisidan iboratdir.

FPKning 2-moddasida fuqarolik sud ishlarini yuritishning quyidagi 4 ta tartibi belgilangan:

- da'vo tartibida;
- buyruq tartibida;

– organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha;

– alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish.

Da’vo tartibidagi ishlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda muayyan huquq to‘g‘risidagi nizo bo‘ladi. Sudda da’vo ishlarining yuritilishi da’vo qo‘zg‘atish paytidan boshlanadi.

Buzilgan yoki nizolashilayotgan fuqarolik huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi talab sifatida ko‘riladigan da’vo sudda ish ko‘rishning predmeti bo‘ladi va isbotlanishiga qarab, yo qondirishga yoki rad qilishga tegishli bo‘ladi.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishlari uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish hamda da’vo arizalari va shikoyatlarni qabul qilish hamda ularni ko‘rib chiqish borasidagi dastlabki jarayonlarni yanada soddalashtirish maqsadida fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va hal qilishning bir muncha soddalashtirish tartibi “*Buyruq tartibida ish yuritish*” (FPKning 20¹-bobi) joriy etildi.

Organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha kelib chiqadigan ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunda taraflarning munosabatlari davlat boshqaruv organlarining faoliyati bilan bog‘liq holda ko‘riladi.

Alohdida ish yuritish tartibida ko‘riladigan ishlar shunday fuqarolik ishlaridirki, bularda huquq to‘g‘risida nizo bo‘lmaydi, birovga nisbatan da’vo ham qo‘zg‘atilmaydi, arizachi sudga faqat muddaosini bildiradi. Agar sud alohida tartibda ish ko‘rayotganda manfaatdor shaxs biror-bir huquqi to‘g‘risida nizo qo‘zg‘atsa, sud ishni umumiylashtirishda da’vo tartibida hal qilish uchun qoldiradi.

FPKning maxsus qismi normalari protsessning quyidagi bosqichlarini:

1) birinchi instansiya sudida ish ko‘rishi;

2) hal qiluv qarorlarining appellatsiya tartibida yuqori sudlarda tekshirilishini;

3) hal qiluv qarorlarining kassatsiya va nazorat tartibida qaytadan ko‘riliishi;

4) hal qiluv qarorlarining yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qaytadan ko‘riliishi;

5) qarorlarning ijro etilishiga oid qilinadigan harakatlarni tartibga soladi.

Fuqarolik ishlarining birinchi instansiya sudida, shuningdek, ba’zi murakkab ishlarning yuqori sudda birinchi instansiya sudi sifatida

ko‘rilishida ham ishning haqiqiy holatlari tekshiriladi, keltirilgan dalillarga baho beriladi, moddiy huquq (fuqarolik, mehnat, oila va boshqa huquqlar) normalari tatbiq etiladi va ishning mazmuni bo‘yicha hal qiluv qarori chiqariladi.

Qonuniy kuchga kirmagan sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlarini *apellatsiya tartibida* qayta ko‘rish fuqarolik protsessual qonunchiligidagi yangilik bo‘lib, bu bosqichda fuqarolik ishi mazmunan to‘liq ko‘riliши mumkin.

Ishning *kassatsion tartibda* yuqori sudda ko‘rilishida uni asoslash uchun ko‘rsatilgan faktlar va keltirilgan dalillar tekshirilmaydi, faqat hal qiluv qarorining qonuniy va asosli bo‘lishigina tekshiriladi.

Hal qiluv qarorini sud *nazorati tartibida* qaytadan ko‘rish fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining asoslangan, to‘g‘riliqi va qonunga muvofiq chiqarilganligini tekshirishdan iboratdir.

Ishni ko‘rish vaqtida mavjud bo‘lgan, ammo taraflarga oldin ma’lum bo‘limgan va ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar ochilganida, sudning hal qiluv qarori bekor qilinadi va fuqarolik ishi *yangi ochilgan holatlar* bo‘yicha qaytadan ko‘riladi.

Hal qiluv qarorini *ijro qilish* bosqichida, agar taraflar sudning hal qiluv qarorini o‘z ixtiyorlaricha bajarmasalar, bu qaror taraflarning ishtirokida sud ijrochisi tomonidan majburiy tartibda ijro etiladi.

3. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari

Fuqarolik protsessining prinsiplari deb, fuqarolik protsessual huquqining asosiy, rahbariy qoidalariiga aytiladi. Bu prinsiplar sudning fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilish borasidagi vazifalari va faoliyatini to‘g‘risidagi prinsiplar sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuridik fanlar doktori M.M.Mamasiddiqovning fikriga ko‘ra, *fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari* – qonun normalarida mustahkamlangan, protsessual instittlarning barcha tizimlari uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan, fuqarolik ishlarining o‘z vaqtida, to‘g‘ri va tez ko‘rib chiqilishida odil sudlovnini amalga oshirishni ta’minlaydigan asosiy rahbariy qoidalardir. Ular barcha fuqarolik protsessi institutlarini o‘z ichiga olib, qonuniy, asosli hamda adolatli hal qiluv qarori chiqarilishini va ularning ijro etilishini ta’minlashga xizmat qiladi.¹

¹ Qarang: *Мамасидиков М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм / Олий ўқув юрти талаблари учун дарслик. – 2010. – 54-б.*

Protsess prinsiplari tizimi sud tuzilishi to‘g‘risidagi qonunlarda va FPKning normalarida bir-birlari bilan o‘zaro uzviy bog‘liq holda ifodalangan bo‘lib, amalda bo‘lishi, tatbiq etilishi yuzasidan 2 guruhga:

1) sud tuzilishi hamda sud ishlarini yuritishga oid umumiy prinsiplarga;

2) faqat sud ishlarini yuritishga xos prinsiplarga bo‘linadi.

Birinchi guruhga oid prinsiplar:

– odil sudlovning faqat sud tomonidan hamda fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishiga (FPK 6-m.) (Sud 3-m.);

– sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi (FPK 7-m.) (Sud 4-m.);

– sud ishlari yuritiladigan til (FPK 9-m.) (Sud 8-m.);

– sudda ish ko‘rishning oshkorligi (FPK 10-m.) (Sud 7-m.);

– odil sudlovning saylangan yoki tayinlangan sudyalar tomonidan amalga oshirilishi, sud hokimiyatining mustaqilligi (Sud 4-m.)

– fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay’at tomonidan ko‘rilishi (FPK 13-m.).

Ikkinchi guruhga oid prinsiplar:

– ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi (FPK 12-m.);

– dispozitivlik (erkinlik) prinsipi;

– taraflarning tortishuvi va teng huquqligi (FPK 8-m.);

– ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va mjburiyatlari sud tomonidan aniqlanishi (FPK 15-m.) – bu obyektiv haqiqat prinsipi;

– sudda ishni ko‘rishning bevositaligi va og‘zakiligi (FPK 11-m.);

– sud himoyasidan foydalanish imkoniyatining ta’milanishi (FPK 1-m.; Sud 9-m.).

Fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirish prinsiplari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qonuniy tarzda mustahkamlangan. Jumladan, uning 19, 26, 44-moddalari hamda 11 ta moddadan iborat XXII bobida sud hokimiyatini qay tarzda amalga oshirish, sud tizimi, sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik, jinoiy va ma’muriy ishlar bo‘yicha sud ishlarini yuritish borasida sud hokimiyatining oliy organi ekanligi, odil sudlovning sud tomonidan amalga oshirilishiga oid asosiy prinsiplari o‘z ifodasini topgan.

Fuqarolik protsessual huquqning konstitutsiyaviy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

– fuqarolarning sud orqali himoyalanish huquqining ta’milanishi (44-m.);

- sud hokimiyatining mustaqilligi (106-m.);
- sud ishlarining saylangan yoki tayinlangan sudyalar tomonidan ko‘rilishi (107-m.);
- sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi (112-m.);
- hamma sudlarda ishlar ochiq ko‘rilishi (113-m.);
- sud hokimiyati chiqargan hujjatlarning barcha uchun majburiyligi (114-m.);
- sudlov olib boriladigan til (115-m.).

Protsessual huquqning konstitutsiyaviy prinsiplari va ularning amalda bo‘lishi kafolatlari to‘g‘risida to‘xtalib, bu prinsiplarning o‘zlashtirilishini osonlashtirish maqsadida, avvalo, yuqorida ko‘rsatilgan 1-guruhga oid prinsiplarni bayon etamiz.

1. Odil sudlovnning faqat sud tomonidan hamda fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshirilishi prinsipi. Respublikamizda odil sudlovnvi amalga oshirish uchun maxsus tashkil etilgan davlat organi – sudlarga topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasida har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi belgilangan. 106-moddasida esa O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi, deb ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha oliy sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan, shu muddatga tayinlanadigan fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, harbiy va xo‘jalik sudlaridan iborat.

Sudlarni tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Favqulodda sudlar tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-m.).

FPKning 6-moddasiga ko‘ra, fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlov faqat sud tomonidan hamda barcha fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい,

shuningdek boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolik huquqlari asosan sudlar tomonidan himoya qilinadi. FPKning 1-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Sudning fuqarolik ishlari bo'yicha chiqargan qarorlari faqat yuqori sudlar tomonidangina bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Ma'lum huquqning buzilganligini belgilash va huquqni buzuvchi shaxsni muayyan fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka, ya'ni mulkiy javobgarlikka tortish huquqi asosan sndlarga berilgan.

Odil sudlovnii amalga oshirishda jamoatchilikni jalg etish uning yana ham demokratlashtirishdan dalolat beradi.

Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan ayrim fuqarolik ishlari ko'rlishi va hal qilinishi uchun boshqa idoralarga ham yuborilishi mumkin. Ammo bunday hollarda ham sud o'zining ustunlik huquqini saqlab qoladi, chunki ularning chiqargan qarorlari qonunga muvofiq bo'lish-bo'lmasligini tekshirish vazifasi sudga yuklatilgan.

2. Sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi prinsipi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida belgilanganidek, sudyalar faqat qonunga bo'ysunadilar, sudyalarning odil sudlovnii amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Sudyalarning daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi raislari va a'zolari Oliy Majlisning deputati bo'la olmaydilar.

Sudyalar, shu jumladan tuman sudyalari siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishlari va boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Sudya vakolat muddati tugagunga qadar sudyalik vazifasidan qonunda ko'rsatilgan asoslar bo'lgandagina ozod etilishi mumkin. Bu konstitutsiyaviy prinsip FPKda ham o'z ifodasini topgan.

FPKning 7-moddasida aytishicha, fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovnii amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo‘ysunadilar. Sudyalar ishni qonun asosida, ishning holatiga muvofiq, sudyalarga chetdan ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lmaydigan sharoitda hal qiladilar.

Sudyalarning mustaqilligi qator protsessual normalar bilan ta’milanadi. Chunonchi, qaror chiqarishda sudyalar maslahati sir saqlanadi; ish yuzasidan biron-bir masalani hal qilishda, qaror chiqarishda suda mustaqildir. Qarorga qo‘silmagan suda o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqlidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrdagi qabul qilgan «Sudlar to‘g‘risida» (yangi tahrir)gi qonunining 2-moddasida aytigani-dek, O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi. Ushbu qonunning 67–70-moddalarida sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo‘ysunishi prinsipiga aniq ta’rif berilgan.

3. Sud ishlari yuritiladigan til prinsipi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasida ko‘rsatilishicha, O‘zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to‘la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’milanadi.

Bu konstitutsiyaviy prinsip ham FPKda o‘z ifodasini topgan, Kodeksning 9-moddasida aytigani-dek, O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik sud ishlari o‘zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko‘pchilik aholi so‘zlashadigan tilda yuritiladi.

Sud ishlari yuritiladigan tilni bilmaydigan shaxslarga ishga taalluqli materiallar bilan o‘z ona tilida to‘liq tanishib chiqish, ona tilida ko‘rsatma va tushuntirishlar berish, sudda so‘zlashish, arz bilan murojaat etish va iltimosnomalar taqdim etish, shuningdek, ushbu Kodeksda belgilangan tartibda tarjimonning xizmatidan foydalanish huquqi ta’milanadi.

Sud hujjatlari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning ona tillariga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib topshiriladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan qonun normalari sudlar to‘g‘risidagi qonunning 8-moddasida ham o‘z aksini topgan.

Sud ishlarini milliy tilda yuritilishi prinsipi sud ishning yuritishida ishtirok etuvchilarga va sud majlisi zalida hozir bo‘lgan shaxslarga protsessning tushunarli bo‘lishini va shuning o‘zi bilan sudda ish ko‘rishning tarbiyaviy xarakterda bo‘lishini ta’minlaydi.

Bu prinsip protsessning barcha bosqichlariga ham taalluqlidir. Sud ishlari yuritiladigan til to‘g‘risidagi prinsipning buzilishi, FPKning 314-moddasi 3-bandida ko‘rsatilganidek, sudning hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bekor qilinishiga asos bo‘ladi.

4. *Sudda ish ko‘rishning oshkoraliyi prinsipi.* Qonun bilan belgilangan ayrim istisnolardan tashqari, barcha holatlarda, ishlarning hamma sudlarda ochiq ko‘rilishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 113-moddasida belgilangan. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi qonunining 7-moddasida ham ko‘rsatilgan.

Fuqarolik sud ishlarining ochiq, oshkora ko‘rilishi ishda ishtirok etuvchilarga, shuningdek, sud zalida hozir bo‘lgan boshqa shaxslarda ham katta taassurot qoldirib, sud protsessining tarbiyaviy rolini ta’minlaydi.

Ishlarning ochiq ko‘rilishi fuqarolarga ular tomonidan tayinlangan yoki saylangan sudyalarning ishlari bilan bevosita tanishish, ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi va fuqarolik ishlarining to‘g‘ri hal etilishini ta’minlaydi. FPKning 10-moddasida ko‘rsatilganidek, barcha sudlarda ishlar oshkora ko‘riladi, davlat yoki tijorat sirlarini saqlash manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasno.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning hayotiga taalluqli ma'lumotlar oshkor bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek farzandlikka olish sirlari va yozishmalar siri saqlanishini ta’minlash maqsadida sudning asoslantirilgan ajrimiga binoan, ish sudning yopiq majlisida ko‘rilishiga yo‘l qo‘yiladi. Ish sudning yopiq majlisida ko‘rilganida ishda ishtirok etayotgan shaxslar, zarur hollarda esa guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar ham qatnashadilar.

Sudning yopiq majlisida sudlov ishlari ish yuritishning barcha qoidalariga rioya qilingan holda ko‘riladi.

Sudning hal qiluv qarori barcha holatlarda oshkora e’lon qilinadi.

5. *Fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay’at tomonidan ko‘rilishi prinsipi.* FPKning 13-moddasida ko‘rsatilganidek, barcha birinchi instansiya sudlarida ishlar sudyaning yakka o‘zi tomonidan ko‘riladi va u sud nomidan ish yuritadi.

Ishni appellatsiya va cassatsiya tartibida ko‘rish Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudida, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, nazorat tartibida ko‘rish esa Rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’atida ishlar appellatsiya, cassatsiya tartibida va nazorat tartibida uch nafar sudyadan iborat tarkibda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Rayosatida – Rayosat a’zolarining ko‘pchiligi hozir bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumida – Plenum tarkibining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgan taqdirda ko‘riladi. Ishni ko‘rish paytida kelib chiqadigan hamma masalalar sudyaning yakka o‘zi tomonidan, ishni sud hay’ati ko‘rayotgan hollarida esa, sudyalarning ko‘pchilik ovozi bilan hal etiladi. Har bir masala hay’at tomonidan hal qilinayotganda sudyalarning birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Raislik qiluvchi hammadan keyin ovoz beradi.

Ozchilik tomonida qolgan suda o‘zining alohida fikrini yozma ravishda bayon qilishga haqli, uning bu fikri ishga qo‘sib qo‘yiladi, biroq e’lon qilinmaydi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudyaning alohida fikri bilan tanishtirilmaydilar.

Sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklamasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlash uchun qonunga asoslangan holda choralar ko‘rishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmslikning oqibatlari to‘g‘risida ogohlantirishi hamda ularga o‘z huquqlarini ro‘yobga chiqarishlarida yordam ko‘rsatish lozim.

6. Odil sudlovning saylangan yoki tayinlangan sudyalar tomonidan amalga oshirilishi prinsipi. Sudyalar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasiga asosan saylanadi yoki tayinlanadi.

«Sudlar to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahririda sudyalarni saylash, tayinlashda nomzodlar masalasiga ham bir qancha yangiliklar kiritilgan. Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining 25 yoshga to‘lgan, oliy yuridik ma’lumotli, huquq ixtisosligi bo‘yicha kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan, malaka imtihonini topshirgan fuqarosi tumanlararo, tuman (shahar) sudi, xo‘jalik sudi sudyasi etib tayinlanishi; oliy yuridik ma’lumotli, huquq ixtisosligi bo‘yicha kamida 5 yillik, shu

jumladan sudyalik lavozimida kamida 2 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan, malaka imtihonini topshirgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sndlari, viloyat sudi, Toshkent shahar sudi, harbiy sudi sudyasi etib tayinlanishi hamda kamida 7 yillik, shu jumladan sudyalik lavozimida kamida 5 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan va malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan respublikamiz fuqarosi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo‘jalik sudi sudyasi etib saylanishi mumkin.

Endi ikkinchi guruhga oid bo‘lgan prinsiplarni ko‘rib chiqamiz.

1. Ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi prinsipi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar.

Bu norma FPKning 12-moddasida ham o‘z ifodasini topgan. Unda ko‘rsatilishicha, sud ishlarni O‘zbekiston Respublikasining qonunlari asosida hal qilishi shart. Sud, agar ko‘rilayotgan masala O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo‘lmasa, boshqa normativ hujjatlarni ham qo‘llaydi.

Sud, qonunga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga muvofiq chet el davlatlarining huquq normalarini ham qo‘llaydi.

Nizoli munosabatni tartibga soladigan qonun bo‘lmagan taqdirda, sud shunga o‘xhash munosabatlarni tartibga soladigan qonunni tatbiq etadi, bordi-yu, bunday qonun ham bo‘lmasa, Respublika qonun hujjatlarining umumiy asoslari va ma’nosiga tayanadi.

Fuqarolik protsessida ishlarning amaldagi qonunlar asosida hal qilinishi prinsipi ishlarning protsessual huquq normalariga aniq rioya qilingan holda ko‘riliши, ishlarning hal qilinishida moddiy huquq normalariga qat’iyan amal qilinishi bilan ta’milanadi.

2. Sudda ishni ko‘rishning bevositaligi, og‘zakiligi va uzluksizligi prinsipi.

Sudda ish ko‘rishning bevositaligi prinsipiga binoan, fuqarolik ishlarini ko‘rvuchi va ish yuzasidan qaror chiqaruvchi sudyalar ish materiallari bilan shaxsan tanishishlari, dalillarni tekshirishlari va ularni sud majlisida bevosita o‘zları, shuningdek, ishda qatnashuvchilarning ishtirokida tekshirishlari lozim bo‘ladi.

FPKning 11-moddasida aytilganidek, birinchi instansiya sudi fuqarolik ishini ko‘rayotganida ishga oid dalillarni bevosita tekshirishi:

ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini, guvochlarning ko'rsatmalarini, ekspertlar va mutaxassislarning xulosalarini eshitishi, yozma dalillar bilan tanishishi, ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirishi shart.

Bu prinsipga muvofiq, sud fuqaroviylar huquqiy nizolarni hal qilishda taraflarning huquqlari paydo bo'lishi, o'zgarishi yoki tugashi bilan bog'liq bo'lган faktlarni bevosita aniqlaydi. Sud umumiy qoida bo'yicha, topshirilgan hujjatlarning asl nusxalarini ko'radi, faqat istisno tariqasida, bunday hujjatlarni sud majlisiga topshirish mumkin bo'lмаганда, hujjatlarning ikkinchi nusxalaridan foydalanishi mumkin.

Sudda ishni og'zaki ko'rish prinsipi. Bu prinsip sudda ishtirok etuvchi taraflardan protsessual harakatlarni og'zaki ravishda ifodalashni talab qiladi.

Sud ishni og'zaki ko'rganda taraflar, guvohlar, ekspertlar, tarjimonlar, shuningdek, ishda ishtirok etuvchi prokuror bilan ish yuzasidan bevosita munosabatda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Fuqarolik ishiga izohlar yozma ravishda taqdim etilgan bo'lsa ham, sudda ish materiallari og'zaki ravishda tekshiriladi. Sud majlisida og'zaki ravishda aniqlangan va tasdiqlangan materiallargina sud qaroriga asos qilib olinadi. Sud majlisida aytilgan so'zlarning hammasi sud majlisi bayonnomasiga yozilishi og'zakilik prinsipiga xilof kelmaydi. Aksincha sud majlisida aytilgan so'zlarning bayonnomaga yozilmasligi sud qarorining qonuniy va asosli bo'lishini tekshirish imkoniyatidan mahrum qiladi. FPKning 11-moddasi 2-bandida aytiganidek, sudda ishni ko'rish og'zaki ravishda o'tadi. Ishni ko'rish jarayonida suda almashtirilgan taqdirda, ish boshidan qayta ko'riliши kerak.

Sudda ishning uzluksiz ko'riliши prinsipi. Bu prinsip sud ishining boshlanishidan to oxirigacha, ya'ni sudning hal qiluv qarori chiqarilishiga qadar uzluksiz sud majlisida va sudning o'zgarmas tarkibida ko'riliшини va bu ish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarilmaguncha boshqa ishlarning ko'rilmasligini anglatadi.

Protsessning uzluksizlik prinsipiga binoan, ishning ko'riliши tamom bo'lган zamon darhol qaror chiqarilishi va uning e'lon etilishi lozim bo'ladi. Ko'riliyatgan ish yuzasidan chiqarilgan qarorni e'lon etmasdan turib sud boshqa ishni ko'rishga haqli emas. Faqat ayrim hollardagina, istisno sifatida, murakkab ishlar bo'yicha sudning asoslantirilgan qarorining tayyorlanishi 3 kundan oshiq bo'lмаган muddatga kechiktirilishi mumkin bo'ladi.

Sud qarorini chiqarishda faqat ishni mazmunan boshidan oxirigacha ko‘rishda ishtirok etgan sudyalargina qatnasha oladilar. Har bir ish bo‘yicha sud majlisi, dam olish uchun belgilangan vaqtdan tashqari, uzlucksiz davom etadi.

3. Taraflarning tortishuvi va teng huquqligi prinsipi.

Fuqarolik protsessida bu prinsipning mazmuni quyidagilardan iborat:

1) ishda ishtirok etuvchi har qanday shaxs fuqarolik ishi to‘g‘risida arz qilishi, bayonotlar berishi, e’tiroz bildirishi, iltimoslar qilishi, sudga dalillar topshirish yo‘li bilan o‘zining haqligini isbotlash, ish mazmuni bo‘yicha o‘z fikrini aytishi mumkin;

2) prokuror ish holatlarini isbotlashi, ishning ayrim masalalari yuzasidan, shuningdek, hamma ish bo‘yicha sudga o‘z fikrini berishi mumkin;

3) sud obyektiv haqiqatni belgilash maqsadida o‘z tashabbusi bilan dalillar to‘plash huquqiga egadir. Ishda qatnashuvchi taraflarning o‘z talablari va e’tirozlarini isbotlash uchun keltirgan dalillari sud tomonidan tekshiriladi va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa faktlar bilan solishtiriladi hamda zarur bo‘lganda taraflardan boshqa qo‘sishimcha dalillar keltirish talab qilinadi yoki bu dalillarni sud o‘z tashabbusi bilan to‘playdi.

Tortishuvchilik prinsipi. Sud chiqargan hal qiluv qarorining qonuniyligi va asosliliginи appellatsiya tartibida tekshirish ikkinchi instansiya sudida amalga oshiriladi. Tortishuvchilik prinsipiga muvofiq, har bir taraf o‘zining talablari va e’tirozlariga asos qilib ko‘rsatilgan holatlarni isbotlashi kerak.

Taraflarning teng huquqligi prinsipi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ko‘rsatilganidek, O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.

Fuqarolik ishida har ikki taraf ham teng darajada da’vo qo‘zg‘atish-qo‘zg‘atmaslik, da’vo talablariga e’tiroz bildirish-bildirmaslik, da’voni butunlay yoki qisman tan olish yoki butunlay tan olmaslik huquqiga egadirlar. FPKning 8-moddasida bu prinsip o‘z ifodasini topgan.

4. Ishning haqiqiy holati, taraflarning huquq va majburiyatları sud tomonidan aniqlanishi prinsipi (obyektiv haqiqat prinsipi).

Bu prinsip FPKning 15-moddasida belgilangan. Ushbu moddada aytishicha, sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlash uchun qonunga asoslangan holda choralar ko‘rishga haqli. Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, ularni protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki amalga oshirmslikning oqibatlari to‘g‘risida ogohlantirishi hamda ularga o‘z huquqlarini ro‘yogha chiqarishlarida yordam ko‘rsatishi lozim. Shu asosda obyektiv haqiqatni belgilash yoki aniqlash imkonni bo‘ladi. Ushbu prinsip fuqarolik protsessining hamma bosqichlariga tegishlidir.

5. Dispozitivlik prinsipi (erkinlik).

Fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari va qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlari bu huquqlarining tiklanishi to‘g‘risida, odatda, sud organlariga murojaat qilinadi. Bunday hollarda moddiy huquq hamda uni himoya qilish vositalari bo‘lgan protsessual huquq normalarini ishlatish huquqi *fuqarolik protsessining dispozitivligi*, ya’ni protsessdagi erkinlik huquqi deb ataladi.

Erkinlikning mazmuni:

- 1) da’vo qilish huquqi;
- 2) da’vodan voz kechish huquqi yoki da’voni e’tirof etish (tan olish) huquqi;
- 3) o‘zaro kelishib ishni tamomlash huquqi;
- 4) sudning qarori ustidan shikoyat qilish;
- 5) sud qarorini majburiyat sifatida bajartirishni talab qilish huquqlaridan iborat bo‘ladi.

Moddiy huquqi buzilgan fuqaro dispozitivlik prinsipiga binoan da’vo qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atmaslik huquqiga ega.

Dispozitivlik prinsipi da’vo ishi qo‘zg‘atishidan boshlanib, to da’vo yuzasidan chiqarilgan qarorning ijro etilishigacha qo‘llaniladi va ishda ishtirok etuvchilarining protsessual huquqlari qonun bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

6. Sud himoyasidan foydalanish imkoniyatining ta’minlanishi prinsipi.

FPKning 1-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasiga muvofiq har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, mansabdor shaxslarning, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli.

Sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas.

Bu prinsip Sudlar to‘g‘risidagi qonunning 9-moddasida ham o‘z ifodasini topgan.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Fuqarolik protsessual huquqining vazifalari nimalardan iborat?*
2. *Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy prinsiplarini aytib bering.*
3. *Bu fanning boshqa huquqiy fanlar bilan bog‘liqligi haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Fuqarolik protsessual huquqining asosiy manbalarini aytib bering.*
5. *Sud himoyasida bo‘lgan huquqning mohiyatini tushuntirib bering.*
6. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – fuqarolik protsessual huquqining manbai mavzuida referat yozing.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy prinsiplari ko‘rsatilgan moddalarni konspekt qiling.*

2-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIY MUNOSABATLAR VA ULARNING SUBYEKTLARI

- ∞ *Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi, subyektlari, ularning huquq va muomala layoqati.*
- ∞ *Fuqarolik protsessida taraflar.*
- ∞ *Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar.*
- ∞ *Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yilning 12-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida sud-huquq tizimini isloh etish masalalariga to‘xtalib, quyidagi fikrlarini bayon etdi:

«Umumiylar yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tashkil etildi. Bu, o‘z navbatida, ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko‘rib chiqish, inson huquq va erkinliklarini to‘la va har tomonlama himoya qilish bo‘yicha faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta’minalash bo‘yicha katta ko‘lamdagagi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Aynan ushbu davrda cassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko‘rishning appellatsiya tartibi joriy yetilgani ham muhim yangilik bo‘ldi. Mazkur o‘zgarishlarga muvofiq endilikda appellatsiya instansiyasi ishni yangitdan ko‘rib chiqishga yubormasdan, uni o‘zi to‘la hajmda ko‘rib chiqishi mumkin.

Bugungi kunda fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini cassatsiya instansiyasida, o‘z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo‘lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko‘rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta’kidlash lozim. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, joriy yetilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni

o‘z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikning muhim kafolatiga aylandi»¹.

Mustaqil respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotining o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘lidan dadil odim tashlamoqda. Bu yo‘lning mohiyati bozor munosabatlariga asoslangan erkin, huquqiy, demokratik fuqarolar jamiyatini barpo etish, xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratib berishdan iboratdir.

Ko‘zlagan oliy maqsadga erishishda aholining huquqiy madaniyati va siyosiy faolligi, demokratik tamoyillarining kishilar ongiga chuqur singib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy tafakkur jamiyatda qonun ustuvorligi, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashning hal qiluvchi shartidir.

1. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi, subyektlari, ularning huquq va muomala layoqati

Ma’lumki, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 1997-yil 20-may kuni Respublika huquq-tartibot idoralari rahbarlari, huquqshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan o‘tkazgan uchrashuvida xalqimizning huquqiy madaniyatini oshirish, malakali huquqshunos kadrlar tayyorlash, qabul qilingan qonun va qonunchilik hujjatlari mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazish bilan bog‘liq dolzarb vazifalarni belgilab berdi. Darhaqiqat, qonun va huquq ustuvorligi nafaqat bugungi jamiyat, balki kelajak avlodlar uchun ham juda zarur.

Haqiqatan ham, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, xalqimizning huquqiy jihatdan bilimli bo‘lishi, fuqarolar huquqiy ongi va madaniyatining yuksalishi, har bir insonning o‘z haq-huquqini to‘la anglab yetishiga erishish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmash vazifalardan biri bo‘lib, bu mamlakatimizda erkin, huquqiy demokratik davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, biz o‘z huquq va burchlarimizni qay tarzda bilamiz? O‘zgalar bilan huquqiy munosabatga kirishar ekanmiz, o‘z haq-huquqimizni himoya qila olamizmi?

Adolat prinsipi shakllangan mamlakatda uch asosiy subyekt – *davlat, jamiyat va fuqarolar* orasidagi uzviy bog‘liqlik huquqiy jihatdan tartibga solinadi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 17– 18-б.

Ma'lumki, huquq har bir jamiyatning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi va davlat tomonidan ta'minlanadi.

Inson yaxshi xulq-atvorli yoki aksincha bo'lishi mumkin. Lekin bu unga biror-bir huquq bermaydi, balki shaxs sifatida tavsiflaydi, xolos.

Har bir fuqaro o'z faoliyati, xatti-harakati tufayligina ma'lum huquqlarga ega bo'lishi mumkin. Lekin bu harakatlar jamiyat va davlat manfaatlari zarar yetkazmasligi lozim. Aks holda u huquq bo'la olmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, huquq shaxsning xalq va jamiyat manfaatlari yo'lida amalga oshiradigan xatti-harakatlari mahsulidir.

Albatta, hamma ham bir xil huquqga ega bo'lavermaydi. Kimdir aqlan zaif, kimdir ustun, kimdir tadbirkor bo'lishi mumkin.

Inson tug'iladi, ulg'ayadi, ishlaydi, shu tariqa huquq subyekti sifatida shakllana boradi. Yashash huquqi uning tabiiy huquqidir.

Inson ikki xil: *tabiiy* va *hosila* huquqlar subyekti bo'lishi mumkin. Tabiiy huquq hech kim tomonidan cheklanishi mumkin emas.

Hosila huquqlari, masalan: mashinani boshqarish, muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqini cheklasa bo'ladi, lekin uning tabiiy huquqqa mutlaqo aloqasi yo'q. To'g'ri, shaxsning tabiiy huquqini jamiyat manfaatlari yo'lida cheklash mumkin. Masalan Xitoy Xalq Respublikasida amal qilinayotgan oilani rejalashtirish siyosatini bunga misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Hosila huquq shaxs tomondan yaratiladi, aniqrog'i hosil qilinadi. Qisqa qilib aytganda, inson huquqlari va erkinliklari har bir jamiyatning eng katta boyligidir.

Huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar *huquqiy munosabatlar* deb ataladi. *Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar* fuqarolik, ya'ni fuqarolar bilan fuqarolar, tashkilotlar bilan fuqarolar o'rtasida bo'ladigan shaxsiy, mulkiy munosabatlar, oila huquqi munosabatlaridan, mehnatga oid va boshqa huquqiy munosabatlardan, ayrim tashkilotlar o'rtasidagi ba'zi xo'jalik munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarning sudda ko'riliши va hal qilinishida, sud, xo'jalik sudi va boshqa organlar qarorlarining ijro qilinishida ishtirok etuvchilar o'rtasida bo'ladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Demak, *Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar* deb, sudning ishda ishtirok etuvchi shaxslarga nisbatan va bu shaxslarning sudga nisbatan bo'lgan fuqarolik protsessual huquq va burchlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatga, ya'ni faoliyatga aytildi.

Bunday huquqiy munosabatlar sud bilan fuqarolik ishi yuzasidan bo‘la- digan da’vogar o‘rtasida, sud bilan javobgar o‘rtasida, sud bilan prokuror va boshqa organlar o‘rtasida, sud bilan taraflarning vakillari o‘rtasida bo‘lib, fuqarolik protsessual huquq normalari bilan tartibga solinganligi tufayli fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Sud bilan fuqarolik protsessining boshqa ishtirokchilari o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar ham fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan tartibga solinganligi sababli fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar sifatida ko‘riladi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Sud har bir fuqarolik protsessual munosabatda albatta ishtirok etuvchi subyekt hisoblanadi. Ammo bunday munosabatlar sud bilan protsessning barcha ishtirokchilari o‘rtasida bir vaqtning o‘zida vujudga kelmaydi.

Binobarin, fuqarolik protsessual munosabatlarda barcha holatlarda faqat ikkita subyekt bo‘lib, ulardan biri albatta suddir.

2. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarda asosiy subyekt bo‘lgan sudning manfaatlari protsessual huquqiy munosabatning boshqa subyektlari manfaatlariga zid kelmaydi. Shuning uchun ham, FPKning 15-moddasida ko‘rsatilganidek, sud taqdim etilgan materiallar va tushuntirishlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va majburiyatlarini har taraflama, to‘liq va xolisona aniqlash uchun qonunga asoslangan holda choralar ko‘rishga haqli.

Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, ularning protsessual harakatlarni amalga oshirish yoki oshirmsaslikning oqibatlari to‘g‘risida ogohlantirishi hamda ularga o‘z huquqlarini ro‘yogga chiqarishlarida yordam ko‘rsatishi lozim.

3. Protsessual faoliyatni amalga oshirishda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar faqat yuridik munosabatlar tarzidagina mavjud bo‘lishi mumkin. Sud huquq normalari bilan tartibga solinmaydigan munosabatlar bo‘yicha buzilgan huquqni, *masalan*: shaxs qimor o‘ynab pul yutqazgan bo‘lsa, bunday mulkiy huquqni himoya qila olmaydi.

4. Fuqarolik protsessual munosabatlarda protsessning barcha ishtirokchilari faqat sud bilan protsessual munosabatlarda bo‘lsa ham, ammo bu holat yagona kompleks protsessual huquqiy munosabatni vujudga keltirmaydi. Chunonchi, sudning da’vogar bilan bo‘lgan protsessual munosabati o‘zining mazmuni, vujudga kelish assosi va vaqtin bo‘yicha sudning uchinchi shaxs bilan yoki guvoh bilan bo‘ladigan

munosabatidan farq qiladi. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari, ya’ni fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslar orasida eng asosiysi va hal qiluvchisi sud hisoblanadi. Ikkinchisi esa O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, davlat korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, jamoa xo’jaliklari hamda jamoat tashkilotlari bo’ladi. Qonun fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida mamlakatimizda yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo’lmagan shaxslarni ham tan oladi. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida ko’rsatilganidek, ularning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi.

Ular O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar. Shu bois, ularning o’zlariga tegishli shaxsiy, mulkiy, oilaviy va boshqa huquqlarni himoya qilish uchun sudga va davlatning boshqa organlariga murojaat qilish huquqi kafolatlanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari doirasi ularning protsessda ishtirok etish maqsadlari va vazifalari bilan belgilanadi.

Sudning vazifasi, yuqorida aytilganidek, odil sudlovnii amalga oshirishdan iborat bo’lganligi sababli fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar subyektlari orasida alohida hal qiluvchi o’rinni egallaydi, chunki faqat sudya tomonidan da’vo arizasi qabul qilingandagina fuqarolik ishi qo’zg’atilishi va bu ish yuzasidan protsessual harakatlar qilinishi mumkin bo’ladi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari faqat birinchi instansiya sudlarigina bo’lmasdan, ishni shikoyat va nazorat tartibida ko’rvuchi ikkinchi instansiya sudlari va boshqa yuqori sud organlari ham bo’lishi mumkin.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari orasida muhim o’rinni ishda ishtirok etuvchi shaxslar egallaydilar. Chunki ularning protsessual faoliyati fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning borishiga va rivojlanishiga, fuqarolik protsessining vujudga kelishi, o’zgarishi va bekor qilinishiga jiddiy ta’sir qiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tarkibi FPKning 33-moddasida sanab o’tilgan. Ushbu moddada ko’rsatilishicha, *ishda ishtirok etuvchi shaxslar* deb, taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat

boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning muayyan ishning olib borilishida huquqiy jihatdan qanchalik manfaatdor bo‘lishlari darajasi har xildir. Bunday shaxslarning bir guruhi, jumladan, da’vo ishida ishtirok etuvchi tarafdarlar va uchinchi shaxslar, shuningdek, organlar va mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha ishlarda ishtirok etuvchilar (FPKning 264-m.) va alohida tartibda ko‘riladigan ish yuzasidan arz qiluvchilar (FPKning 279-m.) o‘zlarining subyektiv huquqlari yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini qo‘riqlash uchun protsessda qatnashganliklari sababli, ishning qanday oqibat bilan tugallanishidan moddiy-huquqiy va protsessual jihatdan manfaatdor bo‘ladilar.

Ishda qatnashuvchi shaxslarning ikkinchi bir guruhi, masalan, prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar o‘z huquqlarini qo‘riqlamasdan, balki davlat yoxud jamoatchilik manfaatlarini yoinki ayrim fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar va ish yuzasidan qabul qilinadigan qarorlar ularning subyektiv huquq va manfaatlariga ta’sir qilmaydi.

Ishning ko‘rilishi va hal qilinishida ularning manfaatdorligi moddiy-huquqiy xarakterda bo‘lmasdan, balki protsessual-huquqiy xarakterda bo‘lib, ish yuzasidan qonuniy va asoslantirilgan qarolarning chiqarilishi maqsadini ko‘zlaydi.

Fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslarning har biri protsessda qatnashishlarining maqsadlari va asoslariga qarab qator protsessual huquq va burchlarga ega bo‘ladilar. Bu shaxslar FPKning 34-moddasida ko‘rsatilganidek, quyidagi huquq va majburiyatlarga egadirlar: ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar olish, nusxalar ko‘chirish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar taqdim etishga, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, arz qilish, iltimosnomalar taqdim etish, sudga og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni sudda ko‘rish davomida tug‘iladigan hamma masalalar bo‘yicha o‘zlarining vajlarini bayon qilish, boshqa shaxslarning arzları, iltimosnomaları, vajlariga qarshi e’tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarori, ajrimi va qarori ustidan shikoyat qilish, sud chiqargan hal qiluv qarori, ajrimi va qarorning majburiy ijrosini talab qilish, sud ijrochisining harakatlari vaqtida hozir bo‘lish va o‘z huquqlarini amalga oshirish huquqiga egadirlar. Shuningdek, ishda

ishtirok etuvchi shaxslar o‘zlariga FPK bo‘yicha berilgan boshqa protsessual huquqlardan ham foydalanadilar.

Ular o‘zlariga berilgan barcha protsessual huquqlardan vijdonan foydalanishlari va o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishlari shart.

Ishning qay tarzda hal bo‘lishiga yuridik jihatdan manfaatdor bo‘limgan, ammo protsessning subyektlari bo‘lib hisoblangan va muayyan protsessual huquq va burchlarga ega bo‘lgan odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar ham protsessda qatnashadilar. Bunday shaxslarga FPKning 35-moddasida ko‘rsatilganidek, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, yozma va ashyoviy dalillarni saqlovchilar, xolislari va ijro ishlarini yuritishda mol-mulkni saqlovchilar kiradi. Ularning huquq va majburiyatlari FPKning 36-moddasida berilgan bo‘lib, protsessual harakatlari doirasi ancha cheklangan. Ular faqat aniq belgilangan harakatlarni qilish uchun zarur bo‘lgan huquq va majburiyatlargagina ega bo‘ladilar.

Qonunga binoan protsessual huquq va muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar)gina fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning subyektlari bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik protsessual huquq layoqati deb, fuqarolik protsessual huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqatiga aytiladi.

Fuqarolik protsessual huquq layoqati mamlakatimizning barcha fuqarolariga, shuningdek, yuridik shaxs huquqidan foydalanadigan tashkilotlarga teng darajada beriladi (FPKning 37-m.).

Fuqarolik protsessual huquq layoqatiga muvofiq ishda ishtirok etuvchi shaxslar FPKning 34-moddasida ko‘rsatilgan huquqlardan o‘zları bevosita yoki vakillar orqali foydalanishda va zimmalaridagi burchlarni bajarishlarida huquqlari teng darajada ko‘rilib, ularning hech biriga ustunlik huquqi berilmaydi.

Agar fuqarolik huquq layoqati qonunda nazarda tutilgan ba’zi holatlarda sud hukmiga binoan cheklansa, masalan: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasiga muvofiq, fuqaro 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan muddatga muayyan mansabni egallash yoki muayyan ish bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilinsa, fuqarolik protsessual huquq layoqatidan mahrum etish qonunda nazarda tutilmagan.

Fuqarolik protsessual huquq layoqati ham fuqarolik huquq layoqati kabi fuqaroning tug‘ilishi bilan vujudga kelib, vafot etishi yoki o‘lgan deb, e’lon qilinishi bilan tugaydi (FKning 17-m.).

Fuqarolik protsessual muomala layoqati tushunchasi FPKning 38-moddasida berilgan. Ushbu moddada ko‘rsatilishicha, sudda o‘z huquqini shaxsan amalga oshirish va ishni olib borishni vakilga topshirish *layoqati* (Fuqarolik protsessual muomala layoqati) voyaga yetgan fuqarolarga va yuridik shaxslarga tegishlidir. Voyaga yetmagan, ya’ni yoshi 14 dan 18 gacha bo‘lgan fuqarolar, shuningdek, muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari sudda ularning ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiyalar tomonidan himoya qilinadi. Ammo bu hol voyaga yetmaganlarni va muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarni bunday ishlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum qilmaydi.

Mehnat bilan bog‘liq huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar bo‘yicha voyaga yetmaganlar sudda o‘z huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini shaxsan o‘zlari himoya qilish huquqiga egadirlar.

16 yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muomalaga to‘la layoqatli deb e’lon qilingan (emansipatsiya) taqdirda sudda o‘z huquqlari va majburiyatlarini shaxsan o‘zi amalga oshirishi mumkin.

Yosh bolalar, ya’ni 14 yoshga to‘lmagan fuqarolarning, shuningdek, ruhiy kasallik yoki aqli zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sudda ularning qonuniy vakillari: ota-onalari, ularni farzandlikka olganlar yoki homiyalar himoya qiladilar.

Bizning mamlakatimizda fuqarolarning to‘la muomala layoqati 18 yoshdan boshlanadi. Bu yoshga kirgan fuqarolar to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lib, mustaqil ravishda turli bitim va shartnomalar tuzadilar hamda noqonuniy harakatlari uchun javobgar bo‘ladilar.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari va mazmuni haqida shuni aytish kerakki, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar muayyan shartlar bo‘lgandagina yoki boshqacha qilib aytganda, *huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan asoslar* bo‘lgandagina vujudga kelishi mumkin.

Bunday asoslar:

- huquq normalari;
- protsessual huquq layoqati va muomala layoqati;
- yuridik faktlar hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning mazmunini fuqarolik protsessual huquq va majburiyatlar tashkil etadi. Huquqiy

munosabatlarning mazmunida bunday munosabatlarning subyektlari qanday protsessual harakatlar qilishlari zarurligi va qanday harakatlarni qilmasligi kerakligi belgilanadi.

2. Fuqarolik protsessida taraflar

Fuqarolik ishlarining sud majlisida ko‘rilishida, ya’ni fuqarolar bilan fuqarolar, davlat tashkilotlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudda ko‘rilishida albatta ikki taraf: *da’vogar va javobgar* ishtirok etadi.

FPKning 39-moddasida aytilganidek, *da’vogar* va *javobgar* fuqarolik protsessining taraflaridir.

Da’vogar – o‘zining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat etgan shaxs.

Javobgar – sud tomonidan *da’vogar*ning buzilgan huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari yuzasidan javob berish uchun jalg qilingan shaxs.

Demak, nizoli huquqning yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatning subyekti *da’vogar* hisoblansa, nizoli burchning subyekti esa *javobgar* sifatida qaraladi.

Fuqarolik protsessida taraflar – *da’vogar* va *javobgar* fuqarolar, shuningdek, yuridik shaxs huquqidan foydalanuvchi davlat tashkilotlari bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik protsessida *da’vo* faqat *da’vogar* tomonidangina qo‘zg‘atilmasdan, balki buzilgan huquqlarning barcha holatlarda himoya qilinishini ta’minlash maqsadida qonun sudda *da’vo* qo‘zg‘atish huquqini boshqa shaxslarga ham beradi. Chunonchi, FPKning 5-moddasida ko‘rsatilishicha, o‘zining huquqi yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilishni so‘rab murojaat qilgan shaxsnинг arizasi bo‘yicha, shuningdek, prokuror hamda davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar qonunga muvofiq boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishga haqli bo‘lsalar, bergen arizalari bo‘yicha qo‘zg‘atilgan protsess to‘g‘risida sud tomonidan ular xabardor qilinadi va o‘zining huquqini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun ariza bergen shaxs bilan bir qatorda protsessda *da’vogar* tarafida turib, ishtirok etishi mumkin.

Sudda ishning hal qilinishida har ikki taraf – da’vogar va javobgar teng huquqlardan foydalanadilar.

Fuqarolik protsessida taraflar deb, subyektiv huquqlari va shaxsiy manfaatlari bo‘yicha sud tomonidan ko‘rilayotgan va hal qilinayotgan nizoda qatnashuvchi shaxslarga aytildi.

Taraflar (da’vogar va javobgar) protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo‘ladilar. Jumladan: taraflar ish materiallari bilan tanishish, ish materiallaridan ko‘chirmalar va nusxalar olish, rad etish to‘g‘risida arz qilish, dalillar keltirish yoki dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ishda ishtirok etish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga va odil sudlovnii amalga oshirishga ko‘maklashayotgan shaxslarga savollar berish, sudga iltimoslar qilish, og‘zaki yoki yozma bayonotlar berish, ishning sudda ko‘rilishi davomida vujudga kelgan barcha masalalar yuzasidan o‘z vajlarini keltirish va fikrlarini aytish, ikkinchi tarafning iltimoslariga, ko‘rsatgan vajlari va aytgan fikrlariga qarshi e’tirozlar bildirish, sudning hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan shikoyat berish, hal qiluv qarorini majburiy ravishda ijro etilishini talab qilish, sudning hal qiluv qarorlari ijro etilishida sud ijrochisining muayyan harakatlarida qatnashish, shuningdek, qonun bilan berilgan boshqa protsessual huquqlardan teng darajada foydalanishga haqli bo‘ladilar.

Da’vogar da’vo arizasida bayon qilingan talablarning asosini yoki predmetini o‘zgartirishga, da’vo talablarining miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga, ulardan butunlay yoki qisman voz kechishga haqli.

Javobgar esa da’vogarning talabini to‘liq yoki qisman tan olishga yoki uni rad qilishga haqlidir.

Da’vo ishining taraflari protsessning istalgan bosqichida kelishuv bitimi tuzish orqali ishni yakunlashga haqlidir.

Agar da’vogarning da’vodan voz kechishi, javobgarning da’voni tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi qonunga xilof bo‘lsa yoki boshqalarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzsa, sud da’vodan kechishni, da’voni tan olishni qabul qilmaydi va kelishuv bitimini tasdiqlamaydi.

FPKning 41-moddasida aytiganidek, sudga bir necha da’vogar (sherik da’vogarlar) tomonidan bиргаликда yoki bir necha javobgarga (sherik javobgarlarga) nisbatan talab qo‘yilgan ariza berilishi mumkin.

Protsessual sherik ishtirokchilik deb, muayyan fuqarolik ishining sudda ko‘rilishida har ikki tarafdan ham bir necha da’vogarlar yoki bir necha javobgarlar ishtirok etishiga aytildi. Da’vogar tomonidan

bo‘ladigan sherik ishtirokchilar odatda *aktiv ishtirokchilar* va javobgar tomonidan ishda qatnashadigan sherik ishtirokchilar esa *passiv ishtirokchilar* deb ataladi.

Agar protsessda bir vaqtning o‘zida bir necha da’vogarlar va javobgarlar ishtirok etsa, *aralash* sherik ishtirokchilik to‘g‘risida so‘z boradi.

Protsessda sherik ishtirokchilik majburiy va nomajburiy bo‘lishi mumkin.

Sherik ishtirokchilik turlari nizoning predmeti nimadan iborat bo‘lishiga va sherik ishtirokchilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatning xarakteriga qarab belgilanadi.

Da’vogarlar va javobgarlardan har biri boshqa tarafga nisbatan protsessda mustaqil ravishda ishtirok etadi.

Uchinchi shaxslar ham protsessda birgalikda ishtirok etishlari mumkin.

Protsessda birgalikda ishtirok etish deb, muayyan fuqarolik ishining sudda ko‘rilishida har ikki tarafdan ham bir necha da’vogarlar yoki bir necha javobgarlar ishtirok etishiga aytildi.

Protsessda birgalikda ishtirok etishga ish yuritishning quyidagi holatlarda yo‘l qo‘yiladi:

1) bir necha da’vogar va javobgarning umumiyligi huquq va majburiyatlari nizoning predmetini tashkil etsa;

2) bir necha da’vogar va javobgarlarning huquq va majburiyatlari bitta asosga ega bo‘lsa;

3) nizoning predmeti bir turdagisi huquq va majburiyatlardan tashkil topgan bo‘lsa.

Protsessda birgalikda ishtirok etish shartlari quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

– da’vo predmeti bo‘lmish moddiy-huquqiy munosabatning bir xilda bo‘lishi;

– nizoli huquqning yoki nizoli munosabatning bir necha shaxslarga tegishli bo‘lishi;

– sud faoliyati va sud hal qiluv qarorining yagona bo‘lishi;

– sherik ishtirokchilar manfaatining o‘zaro mushtarakligi.

Birgalikda ishtirok etuvchilar ishni olib borishni sherik ishtirokchilardan biriga topshirishlari ham mumkin.

Fuqarolik ishlarining sudda ko‘rilishida aksariyat holatlarda da’vogar ham, javobgar ham da’vo arizasida ko‘rsatilgan shaxslar bo‘ladi. Ammo, ba’zi holatlarda esa protsessda yo da’vogar, yo javobgar taraf yoki har

ikki tomon ham xatolik bilan ishga jalg etilishlari tufayli *tegishsiz taraf* (taraflar) bo‘lib chiqishi, ya’ni da’vogar da’vo ishi qo‘zg‘atishga haqli bo‘lman taraf, javobgar esa mazkur da’vo yuzasidan javob berishga majbur bo‘lman shaxs bo‘lib topilishi mumkin.

Shunday holatlarni nazarda tutib, qonun ishga tegishli bo‘lman tarafni sudning tashabbusi bilan yoki prokurorning talabi bo‘yicha yo ikki taraflardan birining iltimosiga ko‘ra boshqa tegishli taraf bilan almashtirishga yo‘l qo‘yadi.

FPKning 42-moddasida ko‘rsatilishicha, sud ishni tekshirish vaqtida da’voni talab qilish huquqiga ega bo‘lman shaxs tomonidan qo‘zg‘atilganini yoki javob berishi lozim bo‘lman shaxsga nisbatan qo‘zg‘atilganligini aniqlasa, da’vogarning roziligi bilan ishni bekor qilmasdan, dastlabki da’vogarni yoki javobgarni ishga daxldor da’vogar yoki javobgar bilan almashtirilishiga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Agar da’vogar o‘zining boshqa shaxs bilan almashtirilishiga rozi bo‘lmasa, bu shaxs nizo predmeti yuzasidan mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs sifatida ishga kirishishga haqli.

Ishga tegishli bo‘lman tarafni almashtirish haqida sud ajrim chiqaradi.

Nizoli yoki sudning hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan taraflarning biri, uchinchi shaxs yoki ularning qonuniy vakili chiqib ketgan taqdirda (fuqaroning o‘limi, yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi, boshqa shaxs foydasiga talabdan voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o‘tkazilishi va h.k.) sud bu shaxslarni ularning huquqiy vorislari bilan almashtirilishiga yo‘l qo‘yadi. Huquqiy vorislik protsessning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy vorisning protsessga kirganligi haqida sud ajrim chiqaradi.

Huquqiy voris protsessga kirishgunga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorisga o‘rnini bo‘shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo‘lsa, huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir.

Protsessual huquqiy vorislik amalga oshirilganda o‘z huquqini topshirgan shaxs sud protsessining qaysi bosqichidan chiqib ketgan bo‘lsa, ishni ko‘rib chiqish shu bosqichda davom ettiriladi, lekin huquqiy voris ishga doir hamma materiallar bilan tanishishga haqli.

3. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar

Fuqarolik ishining sudda ko‘rilishida odatda ikki taraf: da’vogar va javobgar ishtirok etadi, sud ular o‘rtasidagi nizoli da’voni hal qiladi.

Ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, nizoning hal etilishidan taraflardan tashqari boshqa shaxslar ham manfaatdor bo'ladilar. Bunday shaxslarning manfaati huquqiy manfaat bo'lib ko'riladi. Chunki ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori ma'lum darajada ularning fuqarolik huquqiga ta'sir etishi, ishning sudda hal etilishi natijasida ularga nisbatan muayyan huquq yoki majburiyat vujudga keltirishi mumkin. Shu tufayli bu shaxslar o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida boshlangan fuqarolik ishiga aralashishlari yoki boshlangan protsessda ishtirok etish uchun sud tomonidan jalb qilinishlari mumkin.

Shuning uchun ular *uchinchi shaxslar* deb ataladilar.

Uchinchi shaxslar manfaatining xarakteriga va ish yuzasidan chiqariladigan qaror bilan bog'liq bo'lgan oqibatlarga qarab ular ikki turga bo'linadi:

- 1) mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar;
- 2) mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.

Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxs – da'vogar bilan javobgar o'rtasidagi nizoning predmeti o'ziga tegishli bo'lishi to'g'risida arz qiluvchi shaxs.

FPKning 44-moddasida ko'rsatilganidek, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar sud hal qiluv qarorini chiqarguniga qadar ishga kirishishlari mumkin. Ular da'vogarning hamma huquqlaridan foydalanadilar va uning hamma majburiyatlarini o'z zimmalariga oladilar.

Masalan: fuqaro A. otasi vafot etgani va shu munosabat bilan meros ochilganini bilib, meros mulkini egallab turgan ukasi B. ga nisbatan meros hissasining ajratib berilishini talab qilib, sudda fuqarolik ishini qo'zg'atadi. Bundan xabardor bo'lgan fuqaro V. (marhumning qizi) meros mulkining hammasi notarial tartibda rasmiylashtirilib, o'ziga otasi tomonidan vasiyat qilinganligini aytib, nizoning predmeti o'ziga topshirilishi to'g'risida suddan qo'zg'atilgan ishga kirishishini talab qilishi mumkin.

Bunday holatlarda sud bu ishda ikki da'voni:

1. fuqaro A.ning fuqaro B. ga bo'lgan da'vosini;
2. fuqaro V.ning fuqarolar A. va B. ga nisbatan bo'lgan da'vosini hal qilishi lozim bo'ladi.

Shu tartibda uchinchi shaxsning nizo predmetiga o'zining mustaqil haqqi borligini bildirishi uning mustaqil da'vo bilan protsessda ishtirok etishi uchun asos bo'ladi.

Mustaqil talab bilan arz qiluvchi shaxs arizasiga tegishli hujjatlarni ilova qilishi, sudga taklif qilinishi kerak bo‘lgan guvohlarni ko‘rsatishi va agar davlat boji to‘lashdan ozod qilinmagan bo‘lsa, tegishli bojni to‘lashi lozim bo‘ladi.

Uchinchi shaxsning protsessual holati da’vogarniki bilan babbavaradir.

Dastlabki da’vogardan uchinchi shaxsning farqi faqat shundaki, da’vogar da’vo qilish yo‘li bilan ishni boshlasa, uchinchi shaxs birov tomonidan boshlangan protsessga kirishadi.

Uchinchi shaxslar fuqarolar yoki yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin.

Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslarning protsessga kirishi protsessni og‘irlashtiradi, chunki ikkita da’voni birdaniga ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bu holatda ish ko‘rishning hajmi ortadi, ko‘riladigan masalaning doirasi ham kengayadi.

Uchinchi shaxslarning protsessda qatnashishiga o‘z vaqtida e’tibor bermaslik quyidagi oqibatlarga olib keladi:

1) ularning qatnashmasligi ishni obyektiv hal qilinmasligiga olib keladi.

2) ularning talablarini birga ko‘rmaslik bitta da’voli ish bo‘yicha ikkita bir-biriga qarama-qarshi hal qiluv qarorini qabul qilishga olib keladi.

Uchinchi shaxslarning talablarini rad etishga asos bo‘lib, da’vo talablarining bir-biriga bog‘liq bo‘lmasligi xizmat qiladi.

Protsessga uchinchi shaxs kirishganida javobgar shaxs dastlabki nizo yuzasidan har ikki holatda ishtirokchi bo‘ladi. Bunday hollarda bir protsessda ikki nizo (ikki ish): dastlabki da’vogarning dastlabki javobgarga bo‘lgan da’vo ishi va uchinchi shaxsning protsessdagi da’vogar va javobgarga nisbatan bo‘lgan da’vo ishi mavjud bo‘ladi.

Ammo har qaysi nizoning da’vogarlari teng darajada protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladilar.

Uchinchi shaxs ishtirok etishi lozim bo‘lgan fuqarolik ishining barcha manfaatdor shaxslar qatnashgani holda ko‘rilishi: sud va taraflarning vaqtlarini ancha tejashta imkon beradi; agar dastlabki mulkiy nizo alohida ko‘rilsa, bu to‘g‘rida chiqarilgan qarorga muvofiq nizoli mulkning keyinchalik sotilishi yoki ishlatib yuborilishining oldi olinadi; nizoli huquq alohida-alohida ko‘rilganda, uning yuzasidan qarama-qarshi hal qiluv qarorlarining chiqarilmasligi ta’minlanadi.

Protsessda uchinchi shaxsning ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilishi to‘g‘risida sudyaning yoki sudning chiqargan ajrimi qat’iy bo‘lib,

shikoyat qilinmaydi. Uchinchi shaxsning ishda ishtirok etishi to‘g‘risidagi iltimosini rad qilinganligi to‘g‘risidagi ajrim yuzasidan esa shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin.

Uchinchi shaxsning manfaati hamma vaqt nizoning predmetiga nisbatan mustaqil huquqqa ega bo‘lishdan iborat bo‘lavermaydi. Ba’zi holatlarda uchinchi shaxsning huquqiy manfaati boshqacha bo‘ladi. Ba’zan dastlabki taraflarning ishi yuzasidan qaror chiqarilishi munosabati bilan protsessdagi taraflardan biriga nisbatan uchinchi shaxs uchun qandaydir huquq va majburiyat paydo bo‘lishi, shu tufayli uchinchi shaxs nizoning predmetini talab qilmasa ham, qonuniy va asosli qaror chiqartirish va shu bilan protsessdagi taraflardan biriga bo‘lgan talabini ta’minalash yoki protsessda ishtirok qiluvchi taraflardan birining o‘zidan bir narsa talab qilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun protsessda qatnashadi.

FPKning 45-moddasida ko‘rsatilganidek, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablari bo‘lmagan uchinchi shaxslar, agar ish bo‘yicha chiqariladigan hal qiluv qarori ularning taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlariga ta’sir etadigan bo‘lsa, sud hal qiluv qarori chiqarguniga qadar mustaqil talabi bo‘lmagan uchinchi shaxslar sifatida da’vogar yoki javobgar tomonida ishda qatnasha oladilar.

Qonunning bu qoidasini misol bilan tushuntiraylik. Bir tashkilotning xodimi fuqaro A. aybi bilan fuqaro B. ga zarar yetkazildi. Qonun bo‘yicha fuqaro B. tashkilotga nisbatan da’vo qo‘zg‘atadi. Fuqaro A. yetkazgan zarar haqini tashkilotdan undirish to‘g‘risida sud qarori chiqarilgani holda, bu javobgar tashkilot keyinchalik unga (fuqaro A. ga) nisbatan regress (qaytarma) da’vo qilishi mumkinligini bilib, zarar yetkazilishida o‘z aybini yo‘qligini isbotlash maqsadida ishda javobgar tomonida turib qatnashishi mumkin.

Shuningdek, uchinchi shaxslar taraflarning, prokurorning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosi bo‘yicha yoki sudning tashabbusi bilan ishda ishtirok etishga jalb qilinishlari mumkin.

Demak, nizoning predmetiga nisbatan *mustaqil da’vosi bo‘lmagan uchinchi shaxs* deb, muayyan ish yuzasidan chiqarilgan sud qarori, taraflardan biriga nisbatan bo‘lgan uning huquq va majburiyatlariga ta’sir etishi mumkinligi tufayli boshqa birovlarining ishida ishtirok etuvchi shaxslarga aytildi.

Mustaqil da’vosi bo‘lmagan uchinchi shaxs, odatda, da’vogar yoki javobgar tomonida bo‘ladi va taraflardan birining yordamchisi sifatida ishda ishtirok etib, o‘z huquqini himoya qilish maqsadida unga yordam beradi. Uchinchi shaxs bilan protsessdagi taraflardan birining manfaati

faqat ish yuzasidan qaror chiqarilgunicha bir-biriga to‘g‘ri kelib, keyinchalik ularning manfaatlari bir-biriga zid keladi.

Uchinchi shaxs moddiy-huquqiy jihatdan ishda taraf bo‘lib hisoblanmasada, ish yuzasidan chiqarilgan qaror unga bevosita joriy qilinmasa ham, ammo u ishning sudda ko‘rilishida taraflarga beriladigan qator protsessual huquqlardan foydalanadi va o‘z zimmasiga majburiyatlar oladi.

Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar da’voning asosini va predmetini o‘zgartirish, da’vo talablarining miqdorini ko‘paytirish yoki kamaytirish, shuningdek, da’vodon voz kechish, da’voga iqror bo‘lish yoki kelishuv bitimi tuzishdan tashqari, taraflarga oid hamma protsessual huquqlardan foydalanadilar va ularning protsessual majburiyatlarini zimmalariga oladilar (FPKning 45-m.).

Uchinchi shaxs ham taraflarga, guvohlar va ekspertlarga savollar berib, zarur hujjatlarni sudga topshirib, ishning haqiqiy holatini aniqlashda protsessda faol qatnashadi.

Yuqorida ko‘rsatilganidek, ish yuzasidan qaror chiqarilishi munosabati bilan protsessdagi taraflardan biriga nisbatan uchinchi shaxsda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan huquq va majburiyatlar, uning ishga aralashishi yoki jalb etilishi uchun asos bo‘ladi.

Agar paydo bo‘lgan majburiyatlar ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, uchinchi shaxsning yoki protsessdagi sobiq taraflardan birining yangidan da’vo qo‘zg‘atishiga (regress da’voga) sabab bo‘lishi mumkin.

Bunday hollarda bir protsessda ikki da’voni: dastlabki da’vogarning javobgarga; javobgarning uchinchi shaxsga yoki aksincha, uchinchi shaxsning javobgarga bo‘lgan da’vosini bir protsessda hal qilib bo‘lmaydimi, degan savol tug‘iladi. Umumiy qoida bo‘yicha bunday murakkab protsessning bir vaqtda o‘tkazilishi mumkin emas.

Bunga sabab shuki:

1) chiqarilgan qaror yuzasidan uchinchi shaxsda yoki taraflarning birida paydo bo‘ladigan huquqlarni majburiy ravishda amalga oshirish kerak bo‘lish-bo‘lmasligi dastlabki da’vo bo‘yicha qaror chiqarilganda hali ma’lum bo‘lmaydi;

2) sudning qarori to qonuniy kuchga kirguncha qat’i bo‘lmaydi, binobarin, huquq va majburiyatlarning paydo bo‘lishi to‘g‘risida vaqtincha gapirib bo‘lmaydi;

3) taraflar o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘risida qat’i bir xulosaga kelmasdan turib, taraflardan birining uchinchi shaxs bilan bo‘lgan munosabatini aniqlash ham qiyin bo‘ladi.

Ammo qonun, istisno sifatida, bir protsessda ikki da'voni hal qilishga ham yo'l qo'yadi.

Bunday istisnoga noto'g'ri bo'shatilgan xodimni ishga tiklash to'g'risidagi ishlari bo'yicha uchinchi shaxslarni jalg qilishda yo'l qo'yiladi.

Agar sud xodimning ishdan noto'g'ri bo'shatilishi to'g'risidagi ishni hal qilishda uning majburan bekor yurgani uchun to'lanadigan haqni mansabdor shaxsdan uni protsessga jalg qilmasdan undirish to'g'risida qaror chiqarsa, bunday qaror fuqarolarning huquqlarini qo'pol buzish tarzida ko'rilib, yuqori sud tomonidan bekor qilinadi.

Agar mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'z harakati yoki harakatsizligi oqibatida da'vogarning huquqlari buzilganligi to'g'risida arz qilingan talablarni tan olsa, sud majburiyatni bajarishni uchinchi shaxs zimmasiga yuklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishga haqli. Aynan shunday holatlarda, da'vogar va mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi tuzilishiga yo'l qo'yiladi (FPKning 45-m.).

4. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki

Yangi FPKning qabul qilinishi respublikamizda huquq-tartibotni mustahkamlash, bozor munosabatlarni shakllantirish, odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlashga keng shart-sharoit yaratdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonunining 4-moddasida fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha sud qarorlari qonuniyligini ta'minlash va tekshirish, ular yuzasidan prokuror ishtiroki va vakolatini ta'minlash prokuratura idoralarining asosiy yo'naliшlaridan biri deb ko'rsatilgan.

Ushbu qonun ijrosini to'liq ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublika Bosh prokurorining «Sudlarda fuqarolik va xo'jalik ishlari ko'riliшida prokuror vakolati ta'sirchanligini oshirish haqida»gi 16-sonli buyrug'ida respublikamizda yangi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning tarkib topishi va rivojlanishini ko'zda tutgan holda, yangi protsessual normalarni tartibga soluvchi asosiy yo'l-yo'riqlar aks ettirilgan.

Ahamiyat berilsa, yangi FPKda har bir shaxsga o'z huquqi va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan.

Shu sababli fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari, manfaatlarini, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish borasidagi fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish sudlarning asosiy vazifalardan biridir.

FPKning 5-moddasida prokuror arizasi bo‘yicha sudda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish vakolati alohida ko‘rsatilgan.

Ta’kidlash lozimki, yangi FPKda fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqligi asosida amalga oshiriladi.

Ahamiyatlisi shundaki, Respublika Oliy sudidan tashqari barcha birinchi bosqich suddarida fuqarolik ishlarini ko‘rish bitta sudya tomonidan, Oliy sudda esa uch sudyadan, kassatsiya va nazorat tartibida esa kamida uchta sudyadan iborat tartibda amalga oshiriladi.

Kodeksning 46-moddasi sud protsessida prokurorning ishtirokiga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, sud ishida prokurorning qatnashuvi zarur deb topilgan fuqarolik ishini ko‘rishda, shuningdek, prokurorning arizasi bilan qo‘zg‘atilgan ishlarda prokuror ishtirok etishi shart. Umuman olganda, prokuror boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish, boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo‘zg‘atilgan ishlarni ko‘rishda boshidan ishtirok etish huquqiga egadir.

«Prokuratura to‘g‘risida»gi qonun prokurorning fuqarolik protsessida ikki shaklda ishtirok qilishini:

- 1) da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan ish boshlashini;
- 2) manfaatdor shaxs tomonidan boshlangan ishga protsessning har qanday bosqichida kirishi mumkinligini belgilaydi.

Yuridik fanlar doktori M.M.Mamasiddiqov fuqarolik ishlarining ko‘rilishida prokuror o‘z vakolatini quyidagi to‘rt usulda amalga oshirishini ta’kidlaydi:

- 1) boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish;
- 2) boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo‘zg‘atilgan ishni ko‘rishda boshidan ishtirok etish;
- 3) o‘zi ishtirok etgan va etmagan fuqarolik ishlari yuzasidan chiqarilgan sud hal qiluv qarori ustidan appellatsiya, kassatsiya protestlarini keltirish va ishlarning appellatsiya, kassatsiya tartibida ko‘rib chiqilishida ishtirok etish;

4) qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari ustidan nazorat protesti keltirish va ishning nazorat tartibida qayta ko‘rilishida ishtirok etish¹.

Fuqarolik protsessida qonunchilikka rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun prokuror qator protsessual huquqlardan foydalanadi.

Prokurorning protsessual huquq va majburiyatlari, fuqarolik ishlari yuzasidan prokuror vakolati FPKning 47-moddasida o‘z aksini topgan. Prokuror fuqarolik ishini qo‘zg‘atishga, protsessning har qanday bosqichida ishga kirishishga, ish materiallari bilan tanishishga, ulardan ko‘chirmalar va nusxalar olishga, chetlatish to‘g‘risida arz bildirishga, dalillar taqdim etishga, guvohlarga, ekspertlarga, tarjimonlarga, da’vogarlar va javobgarlarga hamda ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga savollar berishga, dalillarning tekshirilishida ishtirok etishga, iltimoslar qilishga, sudga og‘zaki va yozma bayonotlar berishga, ish mazmuni bo‘yicha, shuningdek, ishni ko‘rish vaqtida kelib chiqqan ayrim masalalar bo‘yicha sudga yozma va og‘zaki fikr berishga, vaj va mulohazalarini bayon qilishga, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimos, vaj va mulohazalariga qarshi e’tirozlar bildirishga, sud majlisining bayonnomasi bilan tanishishga, bayonnomaga (protokolga) izohlar berishga, sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest keltirish huquqiga ega.

Agar da’vogar rozi bo‘lmasa, prokuror o‘zi arz qilgan talablarining asosini yoki predmetini o‘zgartirishga, da’vo talablarining miqdorini ko‘paytirish yoxud kamaytirishga haqli emas.

Prokurorning boshqa shaxsning huquqi va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun bergan o‘z arizasidan voz kechishi, bu shaxsni suddan FPKning 104-moddasiga rioya etgan holda ishni mazmunan ko‘rib chiqishni talab qilish huquqidan mahrum etmaydi. Bulardan tashqari, prokuror O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonuni bo‘yicha berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanishga haqlidir.

Umuman, prokuorning qanday protsessual huquqlarga ega bo‘lishi uning protsessda ishtirok etish shakliga qarab belgilanadi.

¹ Qarang: *Мамасиддиқов М.М., Каримов М.Х. Фуқаролик процессида прокурор иштироки: қонунчиликдаги ютуқлар ва айrim муаммолар хусусида // Мустақиллик йилларида суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар фаолиятининг янгича асосларда шаклланиши: ютуқлар ва муаммолар мавзусидаги илмий-амалий анжуман материаллари.* – Т., 2007. – 112–117-б.

Prokuror da'vogar tarafning ba'zi huquqlaridan foydalana olmaydi, chunonchi, prokuror javobgar shaxslar bilan kelishuv bitimini tuza olmaydi, prokurorga nisbatan muqobil da'vo qo'zg'atish mumkin emas, prokuror davlat bojini to'lamaydi va hokazo.

Prokuror ishda qanday shaklda ishtirok qilsa ham, u hamma vaqt davlat vakili, qonunning bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi bo'lib qolaveradi. Shu sababli prokuror protsessda qaysi tomonning huquqini himoya qilishga qaramasdan, protsessda qaysi tarafning huquqi buzilsa, barcha holatlarda shu buzilishga qarshi chiqishi lozim.

Yuqorida prokurorning asosan birinchi instansiya sudida ishtirok etish to'g'risida bayon qilindi.

Prokurorning ikkinchi instansiya sudida ishtirok etishi to'g'risida shuni aytish kerakki, bu instansiyada prokuror:

- 1) sud qarori ustidan shikoyat protesti keltirish (yo'zish) yo'li bilan;
- 2) taraflardan biri sud qaroridan norozi bo'lib shikoyat arizasi bergenida, bu to'g'rida fikr bildirish yo'li bilan ishtirok eta oladi.

Apellatsiya protestini hamma prokurorlar, ya'ni tuman, shahar, viloyat va yuqori turgan prokurorlar bera oladilar.

Ikkinchi instansiya sudida protest ko'rilganida prokuror ishtirok etadi va protestni quvvatlaydi. U sudning g'ayriqonuniy ravishda chiqargan yoki asoslanmagan hal qiluv qarori ustidan protest keltiradi.

Prokuror yordamchilari, boshqarma va bo'limlarning prokurorlari o'zлari ishtirok etgan ishlar yuzasidangina protest keltirishlari mumkin.

Agar taraflardan biri sud qarori ustidan shikoyat arizasi bergen bo'lsa, bu shikoyat sudda ko'rlishida prokuror, garchi o'zi protest bermagan bo'lsa ham, ishtirok eta oladi va o'zining og'zaki yoki yozma fikrini beradi.

Prokuror birinchi va ikkinchi instansiya sudlarida ishtirok etishdan tashqari, yuqorida aytilganidek, sud qarorlari ustidan nazorat qilishga ham haqlidir.

Uning bu huquqi sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimlari va qarorlari yuzasidan protest keltirishdan iborat.

Nazorat tartibida protest keltirish huquqi FPKning 349-moddasida ko'rsatilgan shaxslarga berilgan.

Nazorat tartibida berilgan protest sudda ko'rlishida prokurorning ishtirok etishi shart va ish bo'yicha o'zi yoki yuqori turgan prokuror keltirgan protestni quvvatlaydi, vakolatli shaxslarning bergen protestlari bo'yicha ish yuzasidan xulosa beradi.

Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirok etishi yana sud ijrochisining sud qarorlarini ijob qilish vaqtidagi harakatlarini qonuniy bo‘lishi ustidan, shuningdek, notarial organlarning harakatlari ustidan nazorat qilish shaklida ham bo‘ladi.

FPKning ish yuritishni belgilovchi 15-bobida sudsizda ariza qabul qilish va uning asosida ish qo‘zg‘atish yoki ariza qabul qilishni rad etish, uni rasmiylashtirish, arizani harakatsiz qoldirish tartiblari keng yoritilgan.

Bu esa prokurorlarga vakolati doirasida sud qarorlari qonuniyligini ta’minlash ishini tashkil etishni taqozo qiladi.

FPKning 17-bobida belgilanganidek, sudda nizolarni ko‘rish tartibiga to‘la rioda etilishi ham sud qarorlari qonuniyligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonning qonuniy amalga oshirilishida prokurorlar o‘z vakolati doirasida sudsizda yaqindan yondashishlari kerak.

FPKning 199-moddasiga asosan, ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mohiyati bo‘yicha o‘z xulosasini berishi ko‘rsatilgan. Prokuror xulosasining ishdagi to‘plangan hujjat va dalillarga asoslanganligi, faqat qonunga binoan talqin etilishi, ish holatiga xolisona baho berilishi sudsiz tomonidan adolatli va qonuniy qaror qabul qilinishining garovidir.

Yana bir muhim masalani ta’kidlab o‘tish zarur. Ma’lumki, sudsiz hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirdi, ijroga qaratiladi. FPKning 218, 219-moddalari tartibida nafaqa, xodimga 3 oylik miqdorida ish haqi undirish, mayiblik yoki sog‘liqqa boshqa tarzda shikast yetishi, boquvchisining vafoti oqibatida ko‘rilgan zararni qoplash uchun to‘lovlar undirish, mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy bekor qilingan xodimni yoki g‘ayriqonuniy boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni qayta ishga tiklash, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslari ta’rifini o‘zgartirish, sudda ishni ko‘rishda javobgar da’voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qaramay, to‘liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo‘yicha qabul qilingan hal qiluv qarorlari darhol ijob etiladi. Bu holatlar inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalardir.

FPK 2-bo‘limining 3-kichik bo‘limida davlat idoralari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ish yuritish tartibi belgilangan.

Shu bo‘limning 276, 278-moddalariga asosan, prokuror qonun hujjat- larida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra huquqiy hujjatni g‘ayriqonuniy deb topish haqida sudsiz ariza berishi va *yigirma kun* ichida prokuror ishtirokida ko‘rib chiqilishi zarur.

FPKning 3-bo‘limi sud qarorlari ustidan shikoyat berish va ularni qayta ko‘rishga bag‘ishlangan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish uchun shikoyat (ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda murojaat etishga haqlidir.

Prokuror esa, ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o‘z vakolati doirasida protest keltirishi mumkin.

Yangi FPKga muvofiq, sudning hal qiluv qarori qabul qilingan kundan e’tiboran, taraflarga va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslarga *yigirma kun* ichida hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berish, prokurorga esa protest berish vakolati berilgan.

Qonunning buzilish holatlari, jumladan FPKning 313, 314-moddalari bo‘yicha moddiy va protsessual huquq normalari buzilgani yoki noto‘g‘ri qo‘llangani sud qarorlarini appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida bekor qilishga asos bo‘ladi.

Shu sababli prokurorlar protsessual qonun bilan berilgan vakolatlaridan to‘liq foydalanishlari zarur. Chunki, Bosh prokurorning yuqorida 16-sonli buyrug‘ida prokurolarning protest keltirish faoliyati ular tashabbusi bilan bekor qilingan sud qarorlari natijasiga qarab baholanishi ta’kidlangan.

FPKning 39-bobi kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirishni tartibga soluvchi normalarni o‘z ichiga olgan.

Nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar vakolati FPKning 349-moddasida ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan prokurorning fuqarolik protsessidagi vazifasi ham zamon talablaridan kelib chiqib o‘zgartilganligini aytib o‘tish joizdir. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuratura organlari o‘z oldiga qo‘yilgan va qonunda ko‘rsatilgan qator vazifalarni amalga oshirish bilan birga, sud protsessida faol qatnashib, ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarori, ajrim va qaror chiqarilishini ta’minlashga ko‘maklashmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 11-maydag‘i «Sudlarda fuqarolik ishlari ko‘rilishida prokuror ishtirokining samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish to‘g‘risida»gi 22-sonli buyrug‘ida ham fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sndlarda prokuror vakolatini malakali ta’minlash, sndlarning qonunga zid bo‘lgan

qarorlari ustidan protest keltirish bu sohadagi prokuror faoliyatining asosiy vazifasi ekanligi ta'kidlandi.

Xulosa qilib aytganda, prokuror fuqarolik protsessida ishtirok etishda o‘z huquqlarini hech qanday organning va hech bir mansabdor shaxsning ta’sirisiz, faqat qonunga¹ va respublika Bosh prokurorining ko‘rsatmaliga asoslangan holda amalga oshiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda taraflarning huquq va burchlari nimalardan iborat?*
2. *Sudda vakillik qilish tushunchasi va uning mohiyati nima?*
3. *Ishga aloqasi bo‘lmagan tarafni almashtirish tartibini aytib bering.*
4. *Protsessual sherik ishtirokchilik va ularning turlarini tushuntiring.*
5. *Odil sudlovnii amalga oshiruvchi shaxslarning huquq va majburiyatlarini nimalardan iborat?*
6. *Fuqarolik protsessual huquq va muomala layoqatining bir-biridan farqini aytib bering.*
7. *Da’vogar bilan uchinchi shaxsning farqi bormi?*
8. *Kimlar sudga murojaat etish huquqiga ega?*
9. *Fuqarolik protsessida prokurorning ishtirokinini tushuntirib bering.*

¹ Ўзбекистон Республикаси прокуратураси органлари фаолиятини ташкил этишга оид норматив-хуқуқий ҳужжатлар ва Бош прокурорнинг буйруқлари тўплами (2006 йил 5 апрелгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалар билан). – Т., 2006. – 295 – 296-б.

3-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARIDA TAALLUQLILIK VA SUDLOVLIK. FUQAROLIK PROTSESSUAL MUDDATLAR. SUD XARAJATLARI VA JARIMALARI

- ∞ *Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlarga taalluqliligi.*
- ∞ *Cudlovlik tushunchasi va uning turlari.*
- ∞ *Fuqarolik protsessual muddatlar.*
- ∞ *Cud xarajatlari va jarimalari.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasida: «Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, davlatga oid huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya etish bo‘yicha oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalar sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish masalasini kun tartibiga qo‘yayotganini biz o‘zimizga albatta yaxshi tasavvur etamiz.

Bu boradagi vazifalarni samarali hal qilish maqsadida quyidagi tashkiliy-huquqiy choralarni amalga oshirish taklif etiladi.

Birinchidan, bundan o‘n yil oldin qabul qilingan amaldagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning yangi tahririni qabul qilishni bugun hayotning o‘zi talab qilmoqda. Ya’ni, o‘tgan davrda qonun ijodkorligi jarayoni kengaygani va murakkablashgani, normativ-huquqiy hujjatlarning asoslanganiga va sifatiga nisbatan talablar sezilarli darajada oshgani bu sohada qonuniylikni ta’minalashning yangi va yanada samarali mexanizmlarini yaratishni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojlariga mos bo‘lishini taqozo etmoqda.

Ushbu vakolatlarning prokurordan sud organlariga o‘tkazilishi surishtiruv va dastlabki tergov jarayonida sud nazoratini kuchaytirish, jinoyat protsessida “Xabeas korpus” institutini qo‘llash sohasini yanada kengaytirish imkonini beradi. Eng muhimi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida umume’tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishini ta’minlaydi¹, deya fikr bildiradi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Т., 2010. – 23 – 24-б.

Barchaga ayonki, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq hamda erkinliklari daxlsizdir.

Sud qarorisiz ularni bundan mahrum etish yoki cheklashga hech kim haqli emas. Shu bilan birga, fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish jarayonida davlat, jamiyat yoxud mansabdor shaxslarning qonuniy manfaatlariga putur yetkazuvchi har qanday harakatdan tiyilishi hamda boshqalarning erkinliklariga biror-bir tarzda ziyon yetkazmasliklari shart.

Mustaqil mamlakatimizda umumbashariy demokratik prinsiplarga amal qilinayotganligi bois, inson, uning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Boshqacha aytganda, davlat idoralari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar.

Qonunlarimizda har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat idoralari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlangan. Bu esa joylardagi sudlar zimmasiga alohida mas’uliyat yuklaydi.

1. Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlarga taalluqliligi

Huquqiy-demokratik jamiyatni barpo etish, barcha sohada qonun ustuvorligini ta’minlashda aholining huquqiy saviyasi va madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Xo‘sish, bu borada ahvol qanday? Fuqarolarimiz o‘z huquq va burchlarini yaxshi bilishadimi? Masalaning ana shu jihatni hamma narsadan muhimroqdir. Bu borada zarur siyosiy hujjatlar, Prezident farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning asl ma’nosi-yu, mohiyati o‘z vaqtida omma ongiga yetkazilishi katta ahamiyatga ega.

Zero, o‘z huquq va burchini anglab yetgan kishi qachon, qayerga va kimga murojaat qilishini yaxshi biladi, insoniy sha’ni hamda qadr-qimmatining toptalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu biz qurayotgan adolatli demokratik davlatning asosiy shartlaridan biridir.

Albatta, hamma ishda tartib va me’yor bo‘lgani ma’qul.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish sud organlari vakolatiga kirsa-da, lekin qaysi holatlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri sudga murojaat qilish ko‘rilishi yoki masalani sudsiz hal qilinishini aniqlash lozim. Shuning uchun har qanday manfaatdor shaxs tegishli organlarga murojaat qilishdan oldin, hal etilishi lozim bo‘lgan masala shu organga taalluqli yoki taalluqli emasligini aniqlash zarur bo‘ladi.

Fuqarolik ishlarining taalluqliligi deganda, bunday ishlarni ko‘rish va hal qilish vazifasi qonun bilan muayyan davlat organi yoki jamoat tashkilotiga yuklatilganligi tushuniladi.

Shuning uchun ham fuqarolarimiz qaysi masalani o‘zi ishlab turgan korxona yoki xo‘jalik rahbari, qaysi birini tuman, viloyat hokimi yoki huquqni muhofaza qilish idoralari, sudlar e’tiboriga havola qilishni bilishlari lozim. Aks holda o‘zlarini ham, boshqalarni ham sarson qilib qo‘yadilar.

Hozir barcha tashkilot, korxona va jamoa xo‘jaliklari, jumladan hokimiyatlar huzurida huquqshunoslar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ana shu huquqshunoslar joylardagi adliya boshqarmalari xodimlari bilan birgalikda aholining huquqiy madaniyatini oshirishda bosh-qosh bo‘lishlari lozim. Bu borada mahalliy axborot vositalari, radio va televide niye imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Qonun talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, mansabdor shaxslar fuqarolarning murojaatlariga nisbatan hamisha sezgir va hozirjavob bo‘lishlari talab qilinadi. Bu o‘z-o‘zidan tushunarlidir. Zotan, har qanday yozma yoki og‘zaki shikoyat zamirida inson taqdiri, uning qonuniy haq-huquqlari yotishini unutmasligimiz lozim.

Har bir korxona yoxud xo‘jalik rahbari qo‘l ostidagi xodimning shaxsi, dunyoqarashi, qiziqishi va nihoyat, oilaviy ahvoldidan yaxshi xabardor bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Aks holda u hayot talablaridan orqada qoladi. Demoqchimizki, mansabdor shaxslar mavjud muammoni hal etish yoki eta olmasligidan qat’i nazar, fuqarolarni qabul qilishga, ularning arz-dodini tinglab, tegishli javob yoki zarur tushuncha berishga burchlidir.

Demak, fuqarolik ishlarini ko‘rvuchi va hal qiluvchi organlar sud, prokuratura, ichki ishlar organlari, xalq deputatlari tuman, viloyat kengashlarining bo‘limlari, kasaba uyushma tashkilotlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO), notariat, hakamlar sudi, xo‘jalik sudi va fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishga vakolatli (huquqli) bo‘lgan boshqa tashkilotlar va jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Xullas, *taalluqlilik* deganda, sud va boshqa organlar o‘rtasida fuqarolik ishlarini yuritish va ularni hal etishda berilgan vakolatga (huquqiga), ya’ni aniqlovchi yoki chegaralovchi institut tushuniladi.

Davlat hokimiyati organi bo‘lgan *sud* qonunan o‘ziga taalluqli fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishga haqli.

Fuqarolik ishlarining qanday turlari *sudga* va qaysi biri boshqa organlarga taalluqli bo‘lishini qonun belgilaydi.

Yuridik fanlar doktori M.M.Mamasiddiqov «taalluqlilik» tushunchasiga ikki ma'noda, ya'ni keng va tor ma'noda ta'rif berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Keng ma'nodagi taalluqlilik qonun va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarga ko'ra yuzaga kelgan huquqiy ishlarni u yoki bu davlat hokimiyati organlari yoxud mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida hal qilinishini belgilab beruvchi mexanizm vazifasini bajaruvchi sohalararo institut hisoblanadi.

Tor ma'nodagi taalluqlilik esa subyektiv huquqning mazmuni va ishda ishtirok etuvchi shaxslar tarkibi xususiyatidan kelib chiqib, fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish vazifasi qonun hujjatlari bilan muayyan davlat organlari, jamoat tashkilotlari yoki boshqa vakolatli organlar zimmasiga yuklatilganligi tushuniladigan fuqarolik protsessual huquqi faniga oid ilmiy toifa hisoblanadi.

O'z navbatida, fuqarolik protsessual huquq nazariyasida taalluqlilik quyidagi turlarga ajratilgan:¹

- mustasno;
- alternativ;
- shartnomaviy;
- shartli (imperativ) taalluqlilik.

Mustasno taalluqlilik. Fuqarolik, oila, uy-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan aksariyat nizoli ishlar bevosita sudlarga taalluqli bo'lib, boshqa organlar tomonidan mazmunan ko'riliishi mumkin emas. Taalluqlilikning bunday turi mustasno taalluqlilik deb nomlanadi. Mustasno taalluqlilikka muvofiq, nizoli ishni sudda ko'rib hal qilish uchun sudga qadar u yoki bu organlarda mazkur ishning ko'riliishi talab etilmaydi. Masalan, xodimni ishga tiklash, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan er va xotinni nikohdan ajratish, turar joyga nisbatan berilgan orderni haqiqiy emas deb topish va shu kabi ko'plab fuqarolik ishlari mustasno taalluqlilikka misol bo'la oladi.

Alternativ taalluqlilikka ko'ra, subyektiv huquq to'g'risidagi nizo manfaatdor shaxslarning xohishiga ko'ra sudda yoki boshqa davlat organlari yoki jamoat tashkilotlarida ko'riliishi mumkin. Masalan, FPKning 269-moddasiga ko'ra, fuqaro o'zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga

¹ Qarang: *Мамасидиков М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Умумий қисм / Олий ўқув юрти талаблари учун дарслик.* – Т., 2010. – 255 – 256-б.

haqli bo‘ladi. Shu o‘rinda fuqaroning shikoyatini ma’muriy tartibda ko‘rilishi uni sudga murojaat qilish huquqidan mahrum etmaydi. Yuridik adabiyotlarda oxir-oqibat fuqarolarning sud orqali himoya huquqi saqlanar ekan, hozirgi kunda alternativ taalluqlilikning alohida tur sifatidagi mustaqil huquqiy ahamiyati yo‘qolib boradi va u aralash taalluqlilikka o‘zgaradi, degan fikrlar ilgari surilmoqda.

Shartnomaviy taalluqlilik alternativ taalluqlilikka o‘xshab ketadi. Bunda ham taraflar nizoni hal etish vakolatiga ega bo‘lgan organni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Faqat bu yerda nizoni qaysi organda ko‘rilihini taraflar o‘zaro kelishib belgilaydilar. Masalan, taraflar yuzaga kelgan nizoni hal qilishni hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimini tuzishlari shular jumlasidandir.

Qonun hujjatlarida yoki shartnomalarda nazarda tutilgan ayrim hollarda ishlar dastavval sudga qadar boshqa organlarda ko‘riganidan keyingina sudga taalluqli bo‘ladi. Bunday taalluqlilik turi *shartli taalluqlilik* deb nomlanadi.

Aksariyat fuqarolik ishlarining ko‘riliishi va hal etilishi qonunchilik bilan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasining «Sudlar to‘g‘risida»gi qonuni va Fuqarolik protsessual kodeksiga asosan sud organlariga taalluqli.

Fuqarolik protsessual kodeksining 31-moddasiga muvofiq, sud organlariga taalluqli fuqarolik ishlariga quyidagilar kiradi:

1) taraflardan hech bo‘lmaganda bittasi fuqaro bo‘lgan nizolarga doir ishlar, qonunda bunday nizolarni hal qilish xo‘jalik sudi yoki boshqa organlarga topshirilgan hollar bundan mustasno;

2) ushbu kodeksning 279-moddasida sanab o‘tilgan alohida tartibda ko‘rildigan ishlar;

3) qonun bilan sndlarning vakolatiga berilgan boshqa ishlar.

FPKning 32-moddasida bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan, ba’zilari sudga, ba’zilari esa, xo‘jalik sndlari taalluqli bo‘lgan bir qancha talablar birlashtirilganda, bu talablarning hammasi sudda ko‘riliishi kerakligi ko‘rsatilgan.

Shu o‘rinda sndlар amaliyotida ko‘rib chiqiladigan ariza va shikoyatlarning tartib-qoidalari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Chunki, bu aholining huquqiy saviyasini oshirish bilan bog‘liq muhim masalalardan biridir. Tuman sndlari tomonidan chiqarilgan qarorlar ustidan faqatgina prokuror, himoyachi, fuqarolik da‘vogari, javobgari yoki ularning vakillari yuqori sndlarga o‘z e’tirozlari bilan murojaat qilishlari mumkinligi qonunda ko‘rsatilgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki,

sudlar tomonidan ko‘rilgan ishlarga oid murojaatlar faqat yuqori sud organiga taalluqlidir. Boshqa biror davlat organi sud qarorlari yuzasidan ariza va shikoyatlarni hal etish vakolatiga ega emas. Fuqarolik ishlarining sud va ma’muriy organlarga taalluqli bo‘lishi fuqarolik huquqiy nizoni vujudga keltirgan huquqiy munosabatlarning xususiyati va nizolashuvchi shaxslarning tarkibiga qarab belgilanadi.

FPKning 239-moddasiga ko‘ra, sudda da’vo ishlarini yuritish tartibida ko‘riladigan ishlarga fuqarolik, mehnatga, oila, uy-joyga doir va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da’volar bo‘yicha ishlar kiradi, basharti qonun hujjatlarida ularni ko‘rishning o‘zgacha tartibi belgilangan bo‘lmasa. Agar nizo yuridik shaxslar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan bo‘lsa, nizo qoida bo‘yicha xo‘jalik sudi organlariga taalluqli bo‘ladi.

Agar *nizo* davlat huquqi, ma’muriy, moliya yoki yer huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ma’muriy huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan bo‘lsa, bunday nizo qatnashuvchilar tarkibidan qat’i nazar, ish tegishli ma’muriy organlar tomonidan hal qilinadi, amaldagi qonunda ko‘rsatilgan sudning sudloviga taalluqlilikning alohida hollari bundan mustasnodir.

FPKning 242-moddasiga ko‘ra, imoratga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to‘g‘risidagi da’volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqlidir.

Meros qoldiruvchining kreditorlari meros vorislari tomonidan qabul qilinguniga qadar taqdim etgan da’volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan hududdagi sudning sudloviga tegishlidir. Yo‘lovchi, bagaj yoki yuk tashish shartnomalaridan yuk tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da’volar belgilangan tartibda talab qo‘yilgan transport tashkilotining organi joylashgan hududga taqdim etiladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning taalluqligi to‘g‘risida shuni aytish kerakki, mehnat nizolarini mazmuni bo‘yicha 2 guruhga ajratish mumkin:

1) mehnat shartlarini belgilash yoki o‘zgartirish bo‘yicha kelib chiqadigan nizolarga;

2) qonun, shartnomalarini belgilash yoki ichki mehnat tartibi qoidalari bilan belgilangan mehnat shartnomalarini qo‘llash bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarga bo‘linadi.

Mehnat shartnomalarini belgilash yoki o‘zgartirish haqidagi nizolar sud organlariga taalluqli bo‘lmaydi. Chunki, bunday nizolar bevosita ish

beruvchi tomonidan yoki tegishli kasaba uyushmasi organi yoxud xodimlarining boshqa vakillik organining ishtirokida ish beruvchi bilan birgalikda hal qilinadi (MKning 280-m.).

Mehnat nizolari – ish beruvchi va xodim o‘rtasida mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan mehnat shartlarini buzish yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar.

Mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlarga MKning 260-moddasiga ko‘ra quyidagi organlar kiradi:

- 1) mehnat nizolari komissiyalari;
- 2) tumanlararo sudlar kiradi.

Mehnat nizolari komissiyasini tuzish jamoa shartnomasida, agar u tuzilmagan bo‘lsa, ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi o‘rtasidagi kelishuvda nazarda tutiladi. Mehnat nizolari komissiyasi mehnat nizosini ariza berilgan kunidan e’tiboran *10 kun* muddat ichida ko‘rib chiqishi shart.

Basharti, mehnat nizolari *komissiyasi 10 kunlik muddat* ichida mehnat nizosini ko‘rib chiqmasa yoki hal qilmasa, shuningdek mehnat nizolari komissiyasining qarori ustidan manfaatdor xodim yoki ish beruvchi komissiya qarorining nusxasi topshirilgan kundan e’tiboran *10 kunlik muddat ichida tumanlararo sudga* murojaat qilishga haqlidir.

Mehnat nizosini ko‘rishni so‘rab sudga murojaat qilish huquqiga quyidagilar ega:

- 1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari;
- 2) mehnatning huquq bo‘yicha inspektori;
- 3) ish beruvchi;
- 4) prokuror.

MKning 269-moddasiga binoan, mehnat nizolari quyidagi hollarda bevosita tumanlararo sudlarda ko‘rib chiqiladi.

∞agar xodimning ish joyida mehnat nizolari komissiyasi tuzilmagan bo‘lsa;

∞ular mehnat shartnomasini bekor qilish asoslardan qat’i nazar, ishga tiklash to‘g‘risida, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqt va asoslari ta’rifini o‘zgartirish to‘g‘risida, majburiy progul yoki kam haqi to‘lanadigan ishni bajargan vaqt uchun haq to‘lashga doir bo‘lsa;

∞ular xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazgan zararning to‘lanishi haqida bo‘lsa;

○ular mehnat vazifasini bajarayotganda xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni (shu jumladan ma’naviy zararni) yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to‘lanishi haqida bo‘lsa;

○ular MK 78-moddasining 2-qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qilish rad etilishi haqida bo‘lsa;

○ular ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo‘lsa.

Jamoa xo‘jaligida mehnatni tashkil etish munosabati bilan vujudga keladigan (tarif stavkalarini, mansab maoshlarini hamda mehnat kuniga berilishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari va pullarning miqdorini belgilash to‘g‘risidagi) nizolar sudga taalluqli emas. Bunday nizolar jamoa xo‘jaligi a’zolarining umumiyligi majlisi vakolatiga taalluqli bo‘lgani uchun sud organlarida ko‘rilmaydi.

Oilaga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqligi qonunlar bo‘yicha, jumladan Oila kodeksining 42,43-moddalarida nazarda tutilgan hollarda, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshirilsa, qolgan barcha holatlarda sud tartibida nikohdan ajratish mumkin.

2. «Cudlovlik» tushunchasi va uning turlari

«Sudlovlik» tushunchasi ikki ma’noni bildiradi, *birinchisi*, ayrim fuqarolik ishlarining ko‘rilishi va hal qilinishi sud organlariga taalluqli bo‘lishini bildirsa; *ikkinchisi*, sudlovlik yagona sud tizimiga kiradigan sudlarning (tumanlararo sudlar, viloyat, Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining) qaysi biri muayyan fuqarolik ishini ko‘rish va hal qilishga huquqli bo‘lishini bildiradi.

Sudlovlik deb, sud organlariga taalluqli bo‘lgan hamma ishlarning sud tizimi o‘rtasida taqsimlanishiga aytildi. Ishning sudlovligini belgilash, mazkur ishni aynan qaysi sud ko‘rishga va hal etishga vakolatli bo‘lishini belgilash demakdir.

Sudlovlik *turdosh* sudlovlikka va *hududiy (territorial)* sudlovlikka bo‘linib chegaralanadi.

Ishning qaysi sudga tegishli bo‘lishini belgilashda ko‘riladigan ishning turiga ham, nizoning predmeti nimadan iborat bo‘lishi va

taraflarning kimlar bo‘lishiga ham qaraladi. Sudlovning bunday chegaralanishi *turdosh sudlovlik deb* ataladi.

Demak, *turdosh sudlovlik* ishning turi yoki xususiyatiga qarab har xil turdag'i sudlarga ishlarning tegishli bo‘lishligi tushuniladi. FPKning 141-moddasiga asosan sud organlariga taalluqli fuqarolik ishlari tumanlararo sudlarda ko‘riladi. Qonunda bunday ishlarni ko‘rish boshqa sudlar vakolatiga berilgan hollar bundan mustasno.

FPKning 142, 144-moddalarida ko‘rsatilganidek, yuqori sudlarda bevosita ko‘rilihi lozim bo‘lgan ishlar doirasi qonun bilan belgilanmagan. Yuqori sudlar, alohida holatlarni hisobga olib, har qanday fuqarolik ishini o‘z hududidagi quyi sudlardan olishga va uni birinchi instansiya sudi sifatida o‘zining ish yuritishiga qabul qilishga yoki bir suddan boshqa tegishli sudga o‘tkazishga haqlı.

Hududiy (territorial) sudlovlik deb, fuqarolik ishlarining, asosan javobgarning, qonun bilan nazarda tutilgan alohida hollarda esa da’vogarning ham yashash joyida ko‘rilihiga aytiladi.

FPKning 145-moddasidagi sudlovga taalluqlilikning umumiy qoidalariga binoan, arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg‘ul bo‘lgan joydagi sudga beriladi. Tashkilotlarga nisbatan ariza ularning organlari joylashgan hududdagi sudga beriladi.

Hududiy (territorial) sudlovlik quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) alternativ sudlovlikka;
- 2) mustasno sudlovlikka;
- 3) kelishilgan sudlovlikka;
- 4) bir-biri bilan bog‘liq ishlar sudlovligiga.

Alternativ sudlovlik deb, fuqarolik ishlarini qaysi sudda ko‘rilihi da’vogarning tanlashi bo‘yicha belgilanishiga aytiladi.

FPKning 241-moddasida ko‘rsatilganidek, da’vogarning tanlashi bo‘yicha sudlovga taalluqlilik:

– yashash joyi noma’lum bo‘lgan javobgarga nisbatan da’volar uning mol-mulki turar joyida yoki uning yashagan joyida taqdim etilishi mumkin;

– O‘zbekiston Respublikasida yashash joyiga ega bo‘limgan javobgarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasida uning mol-mulki turgan joyda yoki ma’lum bo‘lgan so‘nggi yashash joyida taqdim etilishi mumkin;

– alimend undirish to‘g‘risidagi, otalikni belgilash haqida va mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik yoxud

boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zarar o‘rnini to‘lash to‘g‘risidagi da’volarni da’vogar o‘zi yashab turgan joyda;

– kemalar to‘qashuvni natijasida ko‘rilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi, shuningdek, suvda yordam bergenlik va qutqarganlik uchun haq to‘lash to‘g‘risidagi da’volar ham javobgarning kemasi turgan yoki kema ro‘yxatga olingan port joylashgan manzilda;

– ijro qilish joyi ko‘rsatilgan shartnomalardan kelib chiqadigan da’volar shartnomasini ijro qilish joyida;

– fuqaroning yoki yuridik shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da’volar zarar yetkazilgan joyda;

– yuridik shaxsning filiali faoliyatidan kelib chiqadigan da’volar filial joylashgan manzilda;

– turli joylarda yashovchi yoki turuvchi bir necha javobgarga nisbatan yoki yuridik shaxs bo‘lib, turli manzilda joylashgan javobgarlarga nisbatan da’vo da’vogarning tanlashi bo‘yicha javobgarlardan biri yashaydigan yoki turgan joyda;

– g‘ayriqonuniy hukm qilish, g‘ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortish, ehtiyyot chorasi sifatida g‘ayriqonuniy qamoqqa olish yoki ahloq tuzatish ishlari tarzida ma’muriy jazoni g‘ayriqonuniy qo‘llash natijasida fuqaroga yetkazilgan zarar o‘rnini qoplash bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat, pensiya va uy-joyga doir huquqlarni tiklash, mol-mulkni yoki uning qiymatini qaytarib berish to‘g‘risidagi da’volar da’vogarning yashash joyida;

– agar da’vogarning voyaga yetmagan bolalari borligi, shuningdek, nogironligi yoki og‘ir kasalligi tufayli, u javobgar yashab turgan joydagi tuman (shahar) yoki tumanlararo sudga borishga qiyalsa, nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi da’volar da’vogarning yashaydigan joyida;

– bedarak yo‘qolgan, yoxud ruhiy holatining buzilganligi sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek, uch yildan kam bo‘limgan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar bilan nikohni bekor qilish haqidagi da’volar da’vogarning xohishiga qarab uning yashash joyida ko‘riliши mumkin.

Mustasno sudlovlik deb, ba’zi fuqarolik ishlarining turlariga nisbatan ularning xususiyatlarini e’tiborga olib, qonun bunday ishlarning faqat muayyan sudga tegishli bo‘lishini belgilashga aytildi. Bunday ishlar FPKning 242-moddasida ko‘rsatilgan. Jumladan:

– imoratga bo‘lgan huquq to‘g‘risidagi, mol-mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash

to‘g‘risidagi da’volar imorat, mol-mulk yoki yer maydoni joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqli;

– meros qoldiruvchining kreditorlari meros vorislar tomonidan qabul qilinguniga qadar taqdim etgan da’volar meros mol-mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan hududdagi sudning sudloviga tegishli;

– yo‘lovchi, bagaj yoki yuk tashish shartnomalaridan yuk tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da’volar belgilangan tartibda talab qo‘yilgan transport tashkilotining organi joylashgan hududda taqdim etiladi.

Kelishilgan sudlovlik deb, taraflarning o‘zaro kelishuvlari bo‘yicha ixtiyoriy ravishda belgilangan sudlovlikka aytildi.

Qonun ayrim hollarda taraflarga hududiy sudlovlikni o‘zaro kelishuv bo‘yicha o‘zgartirish huquqini beradi. Lekin, FPKning 242-moddasida belgilangan sudlovga taalluqlilik taraflarning kelishuvi bilan o‘zgartirilishi mumkin emas (FPKning 243-m.).

Bir-biri bilan bog‘liq ishlarning sudlovligi to‘g‘risida shuni aytish kerakki, ba’zi holatlarda taraflarning haqiqiy o‘zaro munosabatlarini har taraflama aniqlash, ishning ko‘rilishini tezlashtirish, sud xarajatlarini kamaytirish maqsadida bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar birga qo‘sib ko‘riladi.

FPKning 32-moddasida aytiganidek, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zilari sudga, ba’zilari esa xo‘jalik sudlariga taalluqli bo‘lgan bir qancha talablar birlashtirilganda, bu talablarning hammasi sudda ko‘rilishi kerak. Sud sudlovga taalluqlilik qoidalariga rioya qilgan holda o‘zining yuritishiga qabul qilib olgan ishni, garchi keyinchalik bu ish boshqa sudning sudloviga taalluqli bo‘lib qolsa ham mazmunan hal qilishi lozim.

FPKning 146-moddasiga ko‘ra ishni ko‘rish uchun boshqa teng darajali sudga o‘tkazish huquqi quyidagi holatlarda beradi:

1) muayyan ish boshqa sudda, xususan, dalillarning ko‘pchilik qismi joylashgan yerdagi sudda o‘z vaqtida va har tomonlama ko‘rib chiqiladi deb hisoblasa;

2) ilgarigi turar joyi noma’lum bo‘lgan javobgar ishni o‘zi yashab turgan joydagi sudga o‘tkazishni iltimos qilsa;

3) bir yoki bir necha suda rad qilingach, bu sudda ularni almashtirish mumkin bo‘lmay qolsa;

4) ish muayyan sudda ko‘rilayotganda bu ish sudlovga taalluqlilik qoidalari buzilgan holda yuritishga qabul qilinganligi ma’lum bo‘lib qolsa;

FPKning 147-moddasida belgilangan, ishni bir suddan boshqasiga o'tkazish tartibi mavjud. Ish bir suddan boshqasiga sudning ajrimiga asosan, bu ajrim ustidan shikoyat berish yoki unga nisbatan protest keltirish muddati o'tganidan keyin, shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan taqdirda esa, shikoyatni yoki protestni qanoatlantirmay qoldirish haqida ajrim chiqarilgandan keyin o'tkaziladi. Bir suddan boshqa sudga yuborilgan ish ana shu keyingi sud tomonidan ko'rilishi uchun qabul qilinishi kerak. Sudlovga taalluqlilik to'g'risida nizolarga yo'l qo'yilmaydi.

3. Fuqarolik protsessual muddatlar

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli deyiladi, FPKning 1-moddasida.

Fuqarolarning bu huquqlari fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Bu normativ hujjatlari da'vo tartibidagi ishlarni, organ va mansabdor shaxslarning xattiharakatlari ustidan berilgan shikoyatlar bo'yicha ishlarni, alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko'rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va manfaatlarini, shuningdek, korxona, muassasa, tashkilotlar, jamoa birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to'g'ri, o'z vaqtida ko'rib chiqish va hal qilishdan iboratdir. Shu sababli ham fuqarolik ishlari sudlarda belgilangan muddatlarda ko'riladi va hal qilinadi.

Huquqni himoya qilishda sud faoliyatini sustkashlik bilan amalgalashish fuqarolik ishida ishtirok etuvchi taraflarning qonuniy manfaatlarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Fuqarolik ishlarining tezda ko'rilishi muhim protsessual harakatlarni qilish uchun muayyan muddatlar belgilash bilan ta'minlanadi.

FPKning 126-moddasida ko'rsatilishicha, protsessual harakatlar qonunda belgilangan muddatlarda bajariladi.

Protsessual muddatlar qonunda belgilanganda ularning bajarilishini sud ta'minlaydi.

Protsessual harakatlarni bajarish muddatlari aniq kalendar sana bilan albatta yuz berishi lozim bo‘lgan voqeani ko‘rsatgan holda yoki muayyan davr bilan belgilanadi. Muayyan davr bilan belgilanganda harakat butun davr mobaynida boshqarilishi mumkin.

Protsessual muddatlar deb, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish va hal qilish uchun qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarga aytildi. Qonun fuqarolik ishlarini ko‘rishda muddatning ikki, ya’ni *umumiyl* va *maxsus* turini belgilaydi.

Fuqarolik ishlarini ko‘rishning *umumiyl* *muddati 1 oydan* oshmasligi lozim.

Maxsus muddatlar ko‘riladigan ishlarning turlariga qarab har xil belgilangan.

FPKning 131-moddasida belgilanishicha, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash va ko‘rish ariza tushgan kundan boshlab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash ariza qabul qilingan kundan boshlab *10 kunlik* muddatdan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.

Bu muddat alohida hollarda o‘ta murakkab ishlar bo‘yicha sudyaning asoslantirilgan ajrimiga binoan kechiktirilib, *20 kunga* yetkazilishi mumkin.

Aliment undirish haqidagi, mayib bo‘lish yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganligi, shuningdek boquvchining o‘limi natijasida ko‘rilgan zararning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi ishlar hamda mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar, agar taraflar bir tuman yoki shaharda joylashgan bo‘lsa, birinchi instansiya sudi tomonidan sudda ko‘rishga tayyorlab bo‘lingan kundan e’tiboran *10 kundan* kechiktirmay, boshqa hollarda *20 kundan* kechiktirmay ko‘rilishi lozim.

Qolgan fuqarolik ishlari sudda ko‘rishga tayyorlab bo‘lingan kundan e’tiboran *1 oydan* kechiktirmay ko‘rilishi lozim.

Protsessual muddatlar yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi.

Muddatning o‘tishi kalendar sananing yoki muddatning boshlanishi deb belgilangan voqeal yuz bergen kuning ertasidan boshlanadi.

Yillar bilan hisoblanadigan muddat uning oxirgi yilining tegishli oyi va kunida tamom bo‘ladi.

Agar oylar bilan hisoblanadigan muddatning oxirgi tegishli kuni bo‘lmagan oyga to‘g‘ri kelsa, muddat shu oyning oxirgi kunida tamom bo‘ladi. Bu muddatning oxirgi kuni ish kuni bo‘lmagan kunga to‘g‘ri

kelgan taqdirda undan keyingi birinchi ish kuni muddatning tamom bo‘lish kuni hisoblanadi.

Muddati belgilangan protsessual harakat muddatning oxirgi kuni soat 24⁰⁰ gacha bajarilishi mumkin.

Agar protsessual harakat sudda bajarilishi lozim bo‘lsa belgilangan qoidalarga muvofiq sudda ish tugagan soatda muddat tamom bo‘lgan hisoblanadi.

Agar ariza, shikoyat, hujjatlar yoki pul summasi muddatning oxirgi kuni soat 24⁰⁰ gacha aloqa tashkilotiga topshirilgan bo‘lsa, muddat o‘tmagan hisoblanadi.

Protsessual harakatlarni bajarish huquqi qonunda belgilangan yoki sud tayinlagan muddatning o‘tishi bilan bekor bo‘ladi.

Protsessual muddatlar o‘tgandan so‘ng berilgan arizalar, shikoyatlar va hujjatlar ko‘rilmaydi.

FPKning 129-moddasiga asosan, ish yuritish to‘xtatib turilganida tugamagan hamma protsessual muddatlarning o‘tishi ham to‘xtatib turiladi. Ish yuritish tiklangan kundan e’tiboran protsessual muddatning o‘tishi davom etadi.

Notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki bunday harakatni bajarish rad etilganligi arizachiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran 20 kunlik muddatda beriladi (FPKning 273-m.).

FPKning 23-moddasiga ko‘ra, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisining bayonnomasi bilan tanishib chiqishga va u imzolangan kundan e’tiboran 5 kun ichida unda yo‘l qo‘yilgan noto‘g‘riliklarni yoki uning to‘liq emasligini ko‘rsatib, bayonnomada yuzasidan yozma ravishda fikr bildirishga haqlidir.

Sud topshiriqlari esa, FPKning 65-moddasiga binoan, o‘sha sud uchun majburiy bo‘lib, 15 kunlik muddat ichida bajarilishi lozim.

Sud majlisiga kelmagan taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sudning hal qiluv qarori yoki ish yuritishni to‘xtatib turish, tugatish yoki arizani ko‘rmay qoldirish to‘g‘risidagi ajrimning nusxasi hal qiluv qarori yoxud ajrim chiqarilgan kundan e’tiboran 5 kundan kechiktirilmay yuboriladi.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan sudga beriladigan shikoyat va arizalar FPKning 269 (1 oy), 273 (20 kun), 277-moddalarida ko‘rsatilgan muddatlar davomida amalga oshirilishi belgilangan. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning muayyan harakatlar qilishlari FPKning 124,

147, 305, 320, 331, 365, 377, 384-moddalarida ko‘rsatilgan muddatlar davomida amalga oshirishlari ko‘rsatilgan. Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng ijro etiladi (FPKning 218-m.).

FPKning 219-moddasiga asosan, sudning quyidagi hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi shart:

1) alimentlar undirish to‘g‘risidagi;

2) xodimga uch oylik ish haqidan ortiq bo‘lmagan ish haqini undirib berish to‘g‘risidagi;

3) mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek boquvchisining o‘limi natijasida ko‘rilgan zararni qoplash uchun to‘lovlar undirish to‘g‘risidagi;

4) mehnat shartnomasi g‘ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni avvalgi ishga tiklash to‘g‘risidagi, shuningdek, mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta’rifini o‘zgartirish to‘g‘risidagi;

5) sudda ishni ko‘rish vaqtida javobgar da’voni butunlay yoki qisman tan olganligiga qarab, to‘liq yoki qisman qanoatlantirilgan talablar bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari.

FPKga muvofiq, sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran *yigirma kun* ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berishlari, prokuror protest keltirishi mumkin.

Sudya yoki sud raisi shikoyat yoki protestni olgandan so‘ng ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxasini yuborishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga appellatsiya instansiyasida ishni ko‘rish vaqt va joyi to‘g‘risida ma’lum qilishi, shikoyat berish va protest keltirish muddati o‘tgan kundan e’tiboran 10 kun ichida ishni tushgan shikoyat bilan birga appellatsiya sudiga yuborish shart. Appellatsiya sudi appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran 20 kundan kechiktirmay ko‘rishi lozim, alohida hollarda sudning raisi bu muddatni 10 kunga kechiktirishi mumkin. Respublika Oliy sudining cassatsiya instansiyasi uchun bu muddat 1 oy qilib belgilangan.

Oliy sud raisi yoki uning o‘ribbosari bu muddatni 1 oyga kechiktirishi mumkin. Sudning hal qiluv qarori kuchga kirgan kundan e’tiboran 3 yil o‘tgandan keyin berilgan arizalar ko‘rilmaydi.

Ariza bir oy muddatda ko‘rib chiqilishi kerak. Sudning hal qiluv qarori, agar qonunda boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa, kuchga kirgandan boshlab 3 yil ichida ijro etish uchun topshirilishi mumkin.

FPKning 130-moddasiga binoan, sud tayinlagan muddatlar sud tomonidan kechiktirilishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchilar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborgan bo‘lsalar, mazkur muddat tiklanadi.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash to‘g‘risidagi ariza protsessual harakat bajarilishi yoki hujjat topshirilishi lozim bo‘lgan sudga beriladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilingan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq ularning sudga kelmasligi sud oldiga qo‘yilgan masalani hal etishga to‘sinqilik qilmaydi.

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklash to‘g‘risida ariza berish bilan bir vaqtda, muddati o‘tkazib yuborilgan harakat bajarilishi yoki hujjat topshirilishi lozim.

O‘tkazib yuborilgan protsessual muddatni tiklashni rad etish to‘g‘risida sud chiqargan ajrim ustidan xususiy shikoyat yoki protest keltirish mumkin.

Sud tomonidan tayinlangan muddatlar sudda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi, prokuorning arizasi va sudning o‘z tashabbusi bilan ham o‘zgartirilishi mumkin.

Protsessual muddatning o‘zgartirilishi bu muayyan protsessual harakatlar qilish uchun yangi muddatning tayinlanishidir.

FPKning 380-moddasida ko‘rsatilganidek, sud undiruvni, qarzdor yoki sud ijrochisining arizasiga binoan hal qiluv qarorining ijrosini ushbu kodeksning 216-moddasida belgilangan tartibda kechiktirilib bajarilishiga yo‘l qo‘yishga, uni ijro etish usuli va tartibini o‘zgartirishga haqlidir.

4. Cud xarajatlari va jarimalari

Fuqarolik ishlari bo‘yicha odil sudlovni amalga oshirishda davlat tomonidan sarflanadigan mablag‘larning muayyan qismi ishdan manfaatdor shaxslar tomonidan to‘lanadi.

Qonun bu shaxslarga sudlarda fuqarolik ishlarini yuritishda sarf qilinadigan sud xarajatlarini, ya’ni davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarni qoplashni yuklaydi.

FPKning 103-moddasiga binoan, sud xarajatlarining turlari davlat boji va ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlardan iboratdir.

Davlat boji – sud tomonidan fuqarolik ishining yuritilishi munosabati bilan qilinadigan xarajatlar uchun olinadigan haq.

Davlat boji sndlarga da'vo arizalari, organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan shikoyatlar, alohida tartibda yuritiladigan ishlar bo'yicha arizalar, sndlarning hal qiluv qarorlari ustidan appellatsiya, kassatsiya tartibida shikoyatlar va nazorat tartibida protest keltirish to'g'risida arizalar bergenlik uchun, shuningdek, sndlар tomonidan hujjatlarning nusxalari berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda undiriladi (FPKning 104-m.).

Davlat bojining miqdori va uni to'lanishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi qabul qilingan «Davlat boji stavkalari to'g'risida»gi 533-sonli qarori bilan tartibga solinadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasining 1993-yil 8-iyunda tasdiqlagan «Davlat boji to'g'risida»gi yo'riqnomasi; shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlari bo'yicha sud xarajatlarining va jinoyat ishlari yuzasidan sud chiqimlarini undirish amaliyoti to'g'risida»gi 1996-yil 20-dekabr qarori hamda FPKning 103–121-moddalari bilan belgilangan.

Davlat boji fuqarolardan ham, korxona, muassasa, tashkilotlardan ham olinadi.

Davlat boji oddiy, ya'ni qat'i stavkalarda so'm va tiyinlar bilan hisoblab olinadigan bojga va proporsional bojga, ya'ni da'vo qiymatiga nisbatan foiz bilan hisoblab undiriladigan bojga bo'linadi.

Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi 533-sonli qaroriga asosan, quyidagi miqdorda davlat boji olinadi:

- da'vo qiymati eng kam ish haqining *20 barobariga* teng bo'lган da'vo arizalaridan *da'vo qiymatining 5 foizi*;
- eng kam ish haqining *20 – 40 barobarigacha* bo'lsa – da'vo qiymatining *10 foizi*;
- eng kam ish haqining *40 – 80 barobarigacha* bo'lsa – da'vo qiymatining *15 foizi*;
- eng kam ish haqining *80 barobaridan ko'p* bo'lsa – da'vo bahosining *20 foizi*;
- nikohni bekor qilish to'g'risidagi ariza bo'yicha eng kam ish haqining *50 foizi* miqdorida olinadi¹.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1995. – № 1– 2. – 35-б.

Demak, davlat boji dastlabki va muqobil da'vo arizalari beruvchilardan mustaqil da'vo talablari bilan sudga murojaat qiluvchi uchinchi shaxslardan, shuningdek, alohida tartibda ko'rildigan ishlar to'g'risida ariza beruvchilardan hamda appellatsiya, kassatsiya shikoyatlar va nazorat tartibida protestlar keltirish to'g'risidagi ariza beruvchilardan olinadi. Xususiy shikoyatlar berilishida boj undirilmaydi.

Bundan tashqari, yuqorida aytilganidek, davlat boji taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimoslari bo'yicha ishda bo'lган qog'ozlar va hujjatlarning nusxalarini olishda undiriladi.

FPKning 105-moddasiga asosan, da'veoning bahosi quyidagicha belgilanadi:

1) pul undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – undiriladigan summaga qarab;

2) mulk talab qilish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – da'vo qilinayotgan mulkning qiymatiga qarab;

3) bir qancha mustaqil talablardan iborat da'volar bo'yicha – hamma talablarining umumiyligi summasiga qarab;

4) aliment undirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – bir yillik to'lovlarining yig'indisiga qarab;

5) muddatli to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – to'lovlarining yoki beriladigan pullarning yig'indisiga qarab, lekin ko'pi bilan uch yillik yig'indisiga qarab;

6) muddatsiz yoki umrbod to'lovlar va pul berish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – to'lovlarining yoki pullarning 3 yil ichidagi yig'indisiga qarab;

7) to'lovlarни yoki pul berishni kamaytirish yoxud ko'paytirish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – to'lovlar yoki beriladigan pullar kamaytiriladigan yoki ko'paytiriladigan summaga, lekin ko'pi bilan 1 yillik summaga qarab;

8) to'lovlarни yoki pul berishni to'xtatish to'g'risidagi da'volar bo'yicha – qolgan to'lovlar yoki pullar yig'indisiga, lekin ko'pi bilan 1 yillik yig'indisiga qarab;

9) mulk ijarasi shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish haqidagi da'volar bo'yicha – shartnoma amal qilishning qolgan muddatida mulkdan foydalanish uchun to'lanadigan to'lovlarining, lekin ko'pi bilan 3 yil ichidagi to'lovlarining yig'indisiga qarab;

10) xususiy mulk huquqi asosida fuqarolarga tegishli imoratga egalik huquqi to'g'risidagi da'volar bo'yicha – imoratning haqiqiy qiymatiga qarab, lekin bu miqdor inventarizatsiya bahosidan, inventarizatsiya

bahosi bo‘lma ganda esa, majburiy sug‘urta bahosidan kam bo‘lmasligi kerak, tashkilotga qarashli imoratlarga doir da’volar bo‘yicha esa, imoratlarning haqiqiy bahosidan kam bo‘lmasligi kerak.

Davlat bojining miqdori qonun bilan belgilangan bo‘lib, qoida bo‘yicha da’vo qiymati, ya’ni da’volarning mulkiy manfaatining pul bilan ifodalangan summasi miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Sud orqali talab qilinadigan pul yoki mulk qiymati qancha ko‘p bo‘lsa, olinadigan davlat boji shunga yarasha bo‘ladi.

FPKning 106-moddasida da’voning bahosini belgilash tartibi ko‘rsatilgan bo‘lib, da’voning bahosi da’vogar tomonidan ko‘rsatiladi. Da’vogar ko‘rsatgan baho da’vo qilinayotgan mulkning haqiqiy qiymatiga muvofiq emasligi yaqqol bo‘lsa, da’voning bahosini sudya belgilaydi.

Da’vo taqdim etilgan vaqtida uning bahosini belgilash qiyin bo‘lsa, davlat bojining miqdorini sudya dastlabki tarzda belgilaydi va keyinchalik ishni hal qilish vaqtida sud belgilagan da’vo bahosiga muvofiq, bojning kam qismi undiriladi yoki ortiqcha olingan qismi qaytariladi.

Shuni ham aytib o‘tish lozimki, agar da’vogar o‘zining talablaridan voz kechgan, taraflar ishni kelishuv bitimi bilan tamomlagan hollarda to‘langan boj qaytarilmaydi. Arz qilingan talablar ko‘paytirilganda yetishmagan summa da’voning ko‘paytirilgan bahosiga muvofiq ravishda qo‘shimcha tarzda to‘lanadi.

FPKning 108-moddasiga binoan, to‘langan davlat boji quyidagi hollarda qisman yoki to‘la qaytarilishi lozim:

- 1) qonun hujjatlari bo‘yicha talab qilinganidan ortiq boj to‘langan bo‘lsa;
- 2) arizani (shikoyatni) qabul qilish rad etilgan bo‘lsa;
- 3) arizalar (shikoyatlar) FPKning 154-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha, ya’ni ariza harakatsiz qoldirilganligi natijasida da’vogarga qaytarib berilsa;
- 4) ish sudga taalluqli bo‘lmanligi sababli ishni yuritish tugatilgan bo‘lsa (FPKning 100-m.);
- 5) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilganligi sababli ko‘rilmasdan qoldirilgan bo‘lsa (FPKning 97-m. 1-b.).

Davlat bojini qaytarish sudning ajrimi asosida moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

FPKning 109-moddasiga ko‘ra, ishni ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqimlarga quyidagilar kiradi:

∞guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlarga to‘lanishi lozim bo‘lgan summalar;

∞joyga borib ko‘zdan kechirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

∞ushbu kodeksning 140-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgarlarni qidirish uchun qilingan xarajatlar;

∞sudning hal qiluv qarorini ijro etish bilan bog‘liq xarajatlar.

Sud idoralarida ko‘riladigan fuqarolik ishlari bo‘yicha hamma holatlarda ham sud xarajatlari undiraverilmaydi.

Qonunga binoan, sud yoki sudya fuqarolarning mulkiy ahvoliga qarab, taraflarning biri yoki har ikkalasini ham davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to‘lashni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashga yo‘l qo‘yishi, shuningdek, bu xarajatlarni to‘lashni kechiktirishga yoki butunlay ozod qilishi mumkin.

Shuningdek, FPKning 110–111-moddalariga asosan, ayrim davlat budjetida turgan muassasalar, tashkilotlar ham davlat bojini to‘lashdan ozod qilinishi mumkin.

FPKning 116-117-moddalarida, sud xarajatlari (davlat boji va sud chiqimlari)ning sud taqsimlanishi belgilangan. Unga ko‘ra:

∞hal qiluv qarori qaysi tarafning foydasiga chiqarilgan bo‘lsa, sud shu tarafga ikkinchi tarafdan, garchi bu taraf davlat daromadiga tushadigan sud xarajatlarini to‘lashdan ozod etilgan bo‘lsa-da, ish bo‘yicha qilingan hamma xarajatlarni undirib beradi.

∞agar arz qilingan talablar qisman qanoatlantirilgan bo‘lsa, ushbu moddada ko‘rsatilgan summalar javobgardan da’vogarga talablarning sud qanoatlantirgan qismiga mutanosib ravishda, javobgarga esa da’vogardan u arz qilgan talablarning rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirib beriladi.

∞ushbu moddada bayon qilingan qoidalar appellatsiya, kassatsiya shikoyati va nazorat tartibida protest keltirishni so‘rab ariza berganda taraflar to‘lagan davlat bojiga ham taalluqlidir.

∞agar yuqori turuvchi sud ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun yubormay, chiqarilgan hal qiluv qarorini o‘zgartirsa yoki yangi hal qiluv qarori chiqarsa, u sud xarajatlari taqsimotini ham tegishlicha o‘zgartiradi.

∞davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyat va arizani ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlar, sud tomonidan, basharti sud fuqaroning shikoyati yoki arizasini qanoatlantirishni rad etish haqida hal qiluv qarorini chiqarsa, ana shu fuqaroning zimmasiga yoki, agar organlar yoki mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari g‘ayriqonuniyligini aniqlagan bo‘lsa, ana shu organ yoki mansabdor shaxs zimmasiga yuklashi mumkin.

Fuqarolik ishlarining sudda ko‘rilishi va chiqarilgan qarorlarning ijro etilishi to‘g‘risida kelib chiqadigan hamma masalalarini sud o‘z ajrimlari bilan hal qiladi. Bu ajimlar ustidan belgilangan tartibda xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Fuqarolik protsessining ishtirokchilari o‘zlariga qonun bilan yuklangan barcha protsessual burchlarini qoida bo‘yicha ixtiyoriy ravishda va vijdonan bajaradilar. Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar protsessual burchlarini bajarmasalar, bunday hollarda sud muayyan jazolarni, ya’ni protsessual ta’sir etish choralarini qo‘llashga majbur bo‘ladi.

Bunday jazo (ta’sir etish chorasi) asosan sud jarimalari shaklida tatbiq etiladi.

Sud jarimalari – protsessual burchlarini yoki sud majlisida tartibni buzgan shaxslarga, qonunda ko‘rsatilgan hollarda, pul bilan belgilangan protsessual ta’sir etish chorasiga aytildi.

Sud tomonidan jarima solinishi holatlari va uning miqdori FPKning 75, 81, 86, 166, 176, 253 va 381-moddalarida ko‘rsatilgan. Sud qonunda ko‘rsatilgan hollardan tashqari va belgilangan summadan ortiq jarimalar solishga haqli emas.

Sud majlisiga uzsiz sabablar bo‘yicha kelmagan guvohlarga, sud chaqirig‘i bo‘yicha kelmagan yoki fikr bildirishdan bosh tortgan yoxud atayin yolg‘on fikr bergen ekspertlarga, mutaxassislarga qonunda qancha miqdorda jarima solinishi mumkinligi ko‘rsatilgan (FPKning 86, 91-m.).

Sud chaqirig‘i bo‘yicha kela olmaslikning sababi uzlri bo‘lishi sudga avvaldan ma’lum qilinishi kerak, aks holda sudda hozir bo‘lmaslik sababi uzsiz deb qaraladi.

Sud talab qilgan dalillarning ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan uzsiz – sabablar bilan keltirilmasligi, shuningdek, ularning umumiyligi yoki belgilangan muddatga keltirish mumkin bo‘lmasligi to‘g‘risida sudga xabar berilmaganlik uchun aybdor shaxslarga, shu jumladan mansabdor shaxslarga ham eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solish mumkin. Hatto ashyoviy dalillarni yetkazib bermaganlik uchun ham (FPKning 81-m.) jarima solinishi ko‘zda tutilgan.

Da’voni ta’minalash yuzasidan ko‘rilgan choralar buzilganda aybdor shaxslarga sud ajimi bo‘yicha jarima solinishi mumkin (FPKning 244, 253-m.).

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda jamoat tashkilotlari-ning mansabdor shaxslariga sud tomonidan solinadigan jarimalar ularning shaxsiy mablag‘laridan undiriladi (FPKning 123-m.).

Jarima solish to‘g‘risidagi sud ajrimlarining nusxasi jarimaga tortilgan shaxslarga darhol bilan yuboriladi. Bu shaxs sud ajrimining nusxasini olish bilan besh kun muddat ichida jarima solgan suddan jarimani olib tashlash yoki kamaytirish to‘g‘risida iltimos qilishi mumkin. Bu ariza jarima solingan shaxsni chaqirgan holda sud majlisida ko‘rib chiqiladi. Biroq uning sudga kelmasligi arizani ko‘rib chiqish uchun to‘sinqinlik qilmaydi (FPKning 124-m.).

FPKning 125-moddasiga binoan, sudning jarimadan ozod qilish yoki uning miqdorini kamaytirishni rad etish to‘g‘risidagi ajimi ustidan xususiy shikoyat yoki protest keltirilishi mumkin.

Fuqarolik ishlarining sudga taalluqlilagini o‘zlashtirishda FPKning 2 va 31-moddalarida ko‘rsatilgan ish yuritishning uch turiga e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Fuqarolik protsessual huquqi tizimida fuqarolik ishlarining qaysi sudning sudloviga tegishli ekanligini belgilovchi qoidalarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun sudlovlikning taalluqlilikdan qaysi belgilari bilan farqlanishini aniqlash zarur hamda sudlovlik turlarini to‘g‘ri o‘zlashtirish kerakdir.

Sud xarajatlari, sud jarimalari va protsessual muddatlarga oid mavzular mustaqil bo‘lib, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq emas. Bular ichida sud xarajatlari bilan bog‘liq masala murakkabroq hisoblanadi.

Shu sababli bu mavzuni o‘rganishda, avvalo, sud xarajatlari nimalardan tashkil topishini aniqlash lozim. Bu masala aniqlangandan so‘ng, davlat boji masalasiga o‘tib, bunda taraflar o‘rtasida sud xarajatlari qanday taqsimlanishini va ularni qaysi holatlarda sud ozod qilish mumkinligini bilish kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko‘riladigan ishlarning turlarini aytib bering.*
- 2. Fuqarolik ishlarining sudlarga taalluqliligining sudlovlikdan farqini bilasizmi?*
- 3. Protsessual muddatlarning ahamiyati nimalardan iborat?*
- 4. Sud xarajatlarining jarimadan farqini bayon qilib bering.*
- 5. Da‘voning bahosi qanday asoslarga ko‘ra belgilanadi?*
- 6. Davlat bojini qaytarib berish tartibini tushuntirib bering.*
- 7. Ishni ko‘rish bilan bog‘liq chiqimlarga nimalar kiradi?*
- 8. Protsessual muddatlar qanday amalga oshiriladi?*

4-MAVZU. BUYRUQ VA DA'VO TARTIBIDA ISH YURITISH. FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR

- ∞ *Buyruq va da'vo tartibida ish qo'zg'atish va uni ta'minlash tartibi.*
- ∞ *Da'vo tushunchasi, uning elementlari va turlari.*
- ∞ *Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar tushunchasi.*
- ∞ *Dalillarning turlarga bo'linishi va ularni ta'minlash asoslari.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasi o'laroq hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida, «Sudlar to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligidagi tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa o'z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini bergenini alohida ta'kidlash lozim¹.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish jarayonida fuqarolarimizning siyosiy faolligi o'smoqda, ularning davlat organlariga murojaat qilish madaniyati yuksalmoqda. Fuqarolar o'z murojaatlari orqali davlatning ijtimoiy-siyosiy va boshqaruv faoliyatida bevosita ishtirok etib, fuqarolik jamiyatini shakllantirishga hamda mamlakatda qonunchilik va huquq tartibotni mustahkamlashga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida «Har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega. Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart»ligi qayd etilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normaning ijrosini ta'minlash va uni hayotga tatbiq etish maqsadida ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning o'ninch sessiyasida «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 16-б.

Buzilgan yoki nizolashilayotgan subyektiv moddiy-huquqiy yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan qonuniy manfaatni himoya qilish huquqi O‘zbekiston fuqarolarining hamda korxona, muassasa, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida davlat fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari, erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlarini ta’minlashi qayd etilgan.

1. Buyruq va da’vo tartibida ish qo‘zg‘atish va uni ta’minlash tartibi

Qonun fuqarolarga, tashkilotlarga sud himoyasidan foydalanish huquqini beradi. Ular bu huquqdan, avvalo, buyruq tartibida va da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan foydalanadilar.

Buyruq tartibida ish yuritish amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksiga alohida 20¹-bob sifatida «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi 568-II-sonli O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan kiritildi. Ushbu bob jami 11ta, ya’ni 238¹-238¹¹-moddalardan iborat bo‘lib, ushbu moddalar buyruq tartibida ish yuritishning huquqiy asoslarini o‘zida mujassam-lashtirgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevralda qabul qilgan «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 4-sonli hamda 2009-yil 24-noyabrda qabul qilgan «Buyruq tartibida ish yuritishni tartibga soluvchi qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 15-sonli qarorlari ham bu masalaga yanada oydinlik kiritgan. Unda sudlar va fuqarolar buyruq tartibida ish yuritish jarayonida ahamiyat berishlari zarur bo‘lgan holatlar va asos sifatida tayanishlari lozim bo‘lgan qonun hujjatlari ko‘rsatilgan.

Sud buyrug‘i – undiruvchining pul mablag‘larini undirish to‘g‘risidagi yoki ko‘char mol-mulkni nizosiz talablar bo‘yicha qarzdordan talab qilib olish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha sudyaning sudda ishni ko‘rmasdan chiqargan hujjati.

Sud tizimini moliyalashtirishdagi o‘ziga xoslik hamda shtat birligining belgilanganligi muayyan darajada sudyalarining ish yuklamalari ko‘payishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Protsessual huquq tizimida nisbatan yangi institut bo‘lgan sud buyrug‘i esa aynan

sudyaning nisbatan yuqori bo‘lgan ish yuklamalarini kamaytirishga, buzilgan huquqlarning tez va soddalashtirilgan shaklda himoya qilinishiga erishish uchun xizmat qiladi.

Yuridik fanlar doktori M.M.Mamasiddiqov sud buyruqlarini o‘ziga xos bo‘lgan quyidagi belgilari bilan sud qarorlaridan farqlaydi¹:

birinchidan, sud buyrug‘i ishni mazmunan ko‘rmasdan, mavjud yozma hujjatlar asosida chiqariladi. Sudya ushbu holatda guvoh ko‘rsatmalarini, ekspert xulosalarini tekshirmaydi, taraflarning tushuntirishlari va uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitmaydi;

ikkinchidan, arz qilingan talabning mazmuni bo‘yicha sud buyrug‘i ariza kelib tushgan kundan e’tiboran uch kun ichida sudya tomonidan chiqariladi. Sud hal qiluv qarori chiqarilib, hal etiladigan fuqarolik ishlari esa sudda ko‘rishga tayyorlab bo‘lingan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rilishi lozim;

uchinchidan, buyruq tartibida ish yuritish jarayonida taraflar sifatida undiruvchi va qarzdor e’tirof etiladi;

to‘rtinchidan, sud buyrug‘i faqat qonunda belgilangan asoslar (FPKning 238²-m.) mavjud bo‘lgandagina chiqariladi. Sud buyrug‘i nizosiz talablar yuzasidan chiqarilib, qonunda belgilanmagan asoslar yuzasidan chiqarilishi mumkin emas;

beshinchidan, sud buyrug‘ini chiqarish uchun qator shartlar mavjud bo‘lishi talab etiladi. Birinchi shart shundan iboratki, undiruvchi sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza bilan birga, qarzdorning o‘z zimmasiga olgan majburiyatini tasdiqlovchi hujjatlarni ham taqdim etishi shart. Ikkinci shart taqdim etilgan hujjatlar ishning mohiyatini o‘zida to‘laqonli aks ettirishi lozim. Uchinchi shart – nizoning mavjud bo‘imasligi;

oltinchidan, sud buyrug‘i ijro hujjati kuchiga ega bo‘lib, sud xarajatlarini ijro etish uchun qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Sud buyrug‘i FPKning 238²-moddasiga asosan quyidagi hollarda chiqariladi:

1) agar talab notarial tasdiqlangan bitimga asoslangan bo‘lsa;

2) agar talab yozma bitimga asoslangan va javobgar tomonidan tan olingan bo‘lsa, shu jumladan, agar kommunal xizmatlar to‘lovi bo‘yicha qarzni undirish haqidagi talab arz qilingan bo‘lsa;

¹ Qarang: *Мамасидиков М.М. Фуқаролик процессуал ҳукуқи. Умумий қисм / Олий ўқув юрти талаблари учун дарслик.* – Т., 2010. – 348–349-б.

3) agar voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish haqidagi, otalikni belgilash bilan yoki uchinchi shaxslarni jalg etish zarurati bilan bog‘liq bo‘lmagan talab arz qilingan bo‘lsa;

4) agar hisoblangan, lekin xodimga to‘lanmagan ish haqini va unga tenglashtirilgan to‘lovlarini undirish haqidagi talab arz qilingan bo‘lsa.

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi ariza yozma shaklda beriladi. Unda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

– ariza berilayotgan sudning nomi;

– undiruvchining nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) hamda uning yashash joyi (yuridik shaxsning joylashgan yeri va rekvizitlari);

– qarzdorning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) hamda uning yashash joyi (yuridik shaxsning joylashgan yeri va rekvizitlari);

– undiruvchining talabi va talabga asos bo‘lgan holatlari;

– arz qilingan talabni tasdiqlovchi, ilova etilayotgan hujjatlar ro‘yxati.

Sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risida ariza berganlik uchun qonun hujjatlarida da’vo ishi yuritish uchun belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi.

Undiruvchi tomonidan to‘langan davlat boji arizani qabul qilish rad etilgan taqdirda qaytarib beriladi.

Undiruvchi tomonidan to‘langan davlat boji sud buyrug‘i bekor qilingan taqdirda qaytarib berilmaydi. Undiruvchi tomonidan to‘langan davlat boji, undiruvchi qarzdorga da’vo ishi yuritish tartibida da’vo taqdim etgan taqdirda, to‘lanishi lozim bo‘lgan boj hisobiga o‘tkaziladi.

Sudya sud buyrug‘ini chiqarish to‘g‘risidagi arizani qabul qilishni FPKning 152-moddasida nazarda tutilgan asoslar bo‘yicha rad etadi. Bundan tashqari sudya quyidagi hollarda arizani qabul qilishni rad etadi, agar:

1) arz qilingan talab ushbu Kodeksning 238²-moddasida nazarda tutilmagan bo‘lsa;

2) qarzdor O‘zbekiston Respublikasi sudsulari yurisdiksiyasi doirasidan chetda bo‘lsa;

3) arz qilingan talabni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo‘lsa;

4) huquq to‘g‘risida nizo mavjud deb hisoblansa;

5) arizaning shakli va mazmuni ushbu Kodeks 238³-moddasining talablariga javob bermasa;

6) ariza berganlik uchun davlat boji to‘lanmagan bo‘lsa.

Sudya arizani qabul qilishni rad etish to‘g‘risida ariza sudga kelib tushgan kundan e’tiboran uch kunlik muddat ichida ajrim chiqaradi.

Arizani qabul qilishning rad etilishi undiruvchining ana shu talab bo'yicha da'vo ishini yuritish tartibida da'vo taqdim etish imkoniyatiga to'sqinlik qilmaydi (FPKning 238⁵-m.).

Agar ariza ushbu Kodeks 238³-moddasining talablariga javob bermasa yoki ariza bergenlik uchun davlat boji to'lanmagan bo'lsa, sudya sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi arizani qabul qilishga va o'z ajrimi bilan undiruvchiga kamchiliklarni bartaraf etish yoxud davlat bojini to'lash uchun ko'pi bilan uch kun muhlat belgilashga haqli.

Agar undiruvchi sudyaning ko'rsatmalariga muvofiq, u belgilagan muddatda kamchiliklarni bartaraf etsa, davlat bojini to'lasa, ariza sudga dastlab taqdim etilgan kuni berilgan hisoblanadi. Aks holda, sudya ushbu Kodeksning 238⁵-moddasiga muvofiq arizani qabul qilishni rad etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Arz qilingan talabning mazmuni bo'yicha sud buyrug'i ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran uch kun ichida sudya tomonidan chiqariladi.

FPKning 238⁸-moddasiga asosan, sud buyrug'ida quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) ish yuritish tartib raqami va buyruq chiqarilgan sana;
- 2) sudning nomi, buyruq chiqargan sudyaning familiyasi hamda ismi va otasi ismining bosh harflari;
- 3) undiruvchining nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), yashash joyi yoki joylashgan yeri;
- 4) qarzdorning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi), yashash joyi yoki joylashgan yeri;
- 5) talabni qondirish uchun asos bo'lgan qonun;
- 6) undirilishi lozim bo'lgan pul summasining miqdori yoki talab qilib olinishi lozim bo'lgan ko'char mol-mulkning qiymati ham ko'rsatilgan holdagi belgisi;
- 7) agar qonunda yoki shartnomada neustoyka undirish nazarda tutilgan bo'lsa, neustoyka miqdori;
- 8) qarzdordan undirilishi lozim bo'lgan davlat bojining summasi;
- 9) arz qilingan talabga qarshi qarzdor tomonidan e'tiroz bildirish muddati va tartibi.

Voyaga yetmagan bolalar uchun alimentlar undirish to'g'risidagi sud buyrug'ida ushbu moddaning 1–5 va 8-bandlarida nazarda tutilgan ma'lumotlardan tashqari quyidagilar ko'rsatiladi: qarzdorning tug'ilgan sanasi va joyi, ta'minoti uchun aliment undirilishi lozim bo'lgan har bir

bolaning ismi va tug‘ilgan sanasi, qarzdordan har oyda undiriladigan to‘lovlar miqdori va ularni undirish muddati.

Sud buyrug‘i sudya tomonidan imzolanadi.

Sud buyrug‘i chiqarilganidan keyin sudya uning ko‘chirma nusxasini darhol qarzdorga yuboradi.

Sud buyrug‘ining ko‘chirma nusxasini olgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida qarzdor arz qilingan talabga qarshi o‘z e’tirozlarini buyruqni chiqargan sudga yuborishga haqli.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan arz qilingan talabga qarshi e’tirozlar tushsa, sudya sud buyrug‘ini bekor qilib, bu haqda ajrim chiqaradi. Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimda sudya undiruvchi arz qilgan talab da’vo ishlarini yuritish tartibida taqdim etilishi mumkinligini tushuntiradi. Sud buyrug‘ini bekor qilish to‘g‘risidagi ajrimning nusxalari ajrim chiqarilganidan keyin uch kundan kechiktirmay taraflarga yuboriladi.

Agar belgilangan muddatda qarzdordan sudga e’tiroz tushmasa, sudya sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug‘ini ijro etishga taqdim qilish uchun undiruvchiga beradi. Undiruvchining iltimosiga ko‘ra, sud buyrug‘i ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuborilishi mumkin.

Qarzdordan davlat bojini undirish maqsadida sudning muhri bilan tasdiqlangan sud buyrug‘ining alohida nusxasi ijro etish uchun bevosita sud tomonidan yuboriladi

Da’vo qo‘zg‘atilishi muhim protsessual akt bo‘lib, da’vo muddatining o‘tishini uzadi (FKning 157-m.). Bu qonunda belgilanishicha, da’vo muddatining o‘tishi belgilangan tartibda da’vo qo‘zg‘atilishi bilan, shuningdek, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko‘rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uzeladi.

Shu paytdan e’tiboran fuqarolik ishining harakati boshlanadi. Sudning taraflar o‘rtasidagi nizoni ko‘rish va bu to‘g‘rida qaror chiqarish burchi vujudga keladi.

Qonun (FPKning 1-m.)da belgilanishicha, har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizoli huquqini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli bo‘ladi.

Masalan, Respublika Oliy sudi Plenumining 1997-yil 2-mayda qabul qilgan «Xususiy lashtirilgan turar joylarga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf qilish bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarorida fuqarolar egallab turgan turar joylarni

xususiyashtirishni rad qilinishi natijasida fuqarolik huquqi bo'yicha nizo vujudga kelishini hisobga olib, bunday ishlar sudlar tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida hal qilinishi ko'rsatilgan.

Sudda fuqarolik ishi prokurorning arizasi bo'yicha ham, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, kasaba uyushmasi, tashkilotlar yoki ayrim fuqarolarning arizalari bo'yicha ham (agarda qonunga kura ular boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishlari mumkin bo'lsa) qo'zg'atiladi.

Sudda fuqarolik ishi qo'zg'atilishida da'vo arizasi yozma ravishda beriladi. FPKning 149-moddasida ko'rsatilganidek, da'vo arizasining mazmunida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ariza berilayotgan sudning nomi;
- 2) da'vogarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va uning yashash joyi, agar da'vogar yuridik shaxs bo'lsa, uning joylashgan joyi, shuningdek agar ariza vakil tomonidan berilgan bo'lsa, vakilning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va manzili;
- 3) javobgarning nomi (familiyasi, ismi va otasining ismi) va uning yashash joyi yoki agar javobgar yuridik shaxs bo'lsa uning joylashgan joyi;
- 4) da'vogarning talabi;
- 5) agar da'voni baholash kerak bo'lsa, uning qiymati;
- 6) da'vogar o'zining talablarini asoslayotgan holatlar va da'vogar bayon qilgan holatlarni tasdiqlaydigan dalillar;
- 7) arizaga ilova qilingan hujjatlarning ro'yxati.

Ariza da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Vakil tomonidan berilgani arizaga vakilning vakolatini guvoh-lantiruvchi vakolatnama yoki boshqa hujjat ilova qilinishi lozim.

Sudga ariza javobgarlarning soniga qarab nusxalari bilan beriladi.

Sudya ishning murakkabligi va mazmuniga qarab, da'vogarning arizasiga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini javobgarning soniga qarab keltirishga majbur eta oladi (FPKning 150-m.).

Arizalar tumanlararo va tuman (shahar) sudida sudya, boshqa sudlarda esa – sudning raisi, uning o'rinosi yoki sudya tomonidan qabul qilinadi. Fuqarolik ishi bo'yicha arizani qabul qilish masalasini sudyaning yolg'iz o'zi hal qiladi. Agar ariza pochta orqali yuborilgan bo'lsa, sud idorasida olingan kunning o'zidayoq, har holda ikkinchi kundan kechiktirmasdan sudyaga topshirilishi lozim.

Sudya arizani FPKning 149-150-moddalarida belgilangan talablarga rioya qilmasdan yoki davlat boji to'lanmasdan berilganligini aniqlasa,

arizani harakatsiz qoldirilishi to‘g‘risida ajrim chiqaradi va bu haqda da’vogarlarni xabardor qilib, kamchiliklarini tuzatish uchun ularga muddat beriladi.

Arizani ko‘rilmasdan qoldirilishi to‘g‘risidagi sudya tomonidan chiqariladigan ajrimda arizaning kamchiliklari, uni tuzatish yo‘llari va muddati, sudyaning takliflarini bajarmaslik oqibatlari ko‘rsatiladi. Agar da’vogar belgilangan muddatda arizaning kamchiliklarini tuzatsa, fuqarolik ishi harakatga kiritiladi va bunday holda da’vo muddatining o‘tishi ariza berilgan kunning o‘zidayoq uzilgan hisoblanadi. Aks holda sudya ariza berilmagan deb hisoblanishi to‘g‘risida ajrim chiqaradi va arizani da’vogarga qaytaradi. Ariza qaytarilganda, da’vo muddatning o‘tishi uzilmaydi. Ariza keyinchalik da’vo muddati davomida qonun talablariga rioya qilinib, qayta berilishi mumkin.

Qonun sud himoyasiga bo‘lgan huquqni ta’minlab, faqat qonunda alohida belgilangan hollardagina, fuqarolik ishlari bo‘yicha arizalarning sudya tomonidan qabul qilinmasligi mumkinligini belgilaydi. Bunday holatlar FPKning 152-moddasida belgilangan.

Sudya qonunda ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha arizani qabul qilishni rad etganida, bu haqda asoslantirilgan ajrim chiqaradi. Ajrimda agar ish sudning sudloviga tegishli bo‘lmasa, ariza beruvchi qaysi organlarga murojaat qilishi lozimligi yoki ish qo‘zg‘atilishiga to‘sinqlik qiladigan holatlarni qanday qilib bartaraf qilishi kerakligi ko‘rsatilishi lozim.

Ariza ilovalar va ajrimning nusxasi bilan birga tegishli organga yoki sudga topshirish uchun da’vogarga qaytariladi (FPKning 153-m.).

Da’voni ta’minalash uchun asoslar FPKning 248-moddasida berilgan. Bu moddada ko‘rsatilishicha, sud yoki sudya ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimos bo‘yicha yoki o‘z tashabbusi bilan da’voni ta’minalash choralarini ko‘radi. Da’voni ta’minalash choralarini ko‘rmaslik sudning hal qiluv qarori ijrosini qiyinlashtiradigan yoki uning bajarilmasligiga sabab bo‘ladigan bo‘lsa, ishning har qanday holatida ham da’voni ta’minalashga yo‘l qo‘yiladi.

Umumiy qoida bo‘yicha da’voni ta’minalash chorasi da’vo qo‘zg‘atilganidan so‘nggina ko‘riladi. Bu qoidadan ayrim istisnolar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi qoidalari bilan belgilangan bo‘lib, ba’zi sharoitlarda hali qo‘zg‘atilmagan da’volarni ham ta’minalash choralarini ko‘rishi nazarda tutiladi. Jumladan, JPKning 57, 276-moddalarida ko‘rsatilishicha, jinoyat orqasida moddiy zarar yetkazilganligi to‘g‘risida yetarli ma’lumotlar bo‘lgan taqdirda tergovchi, prokuror, surishtiruvchi shaxs sudda qo‘zg‘atilgan yoki kelajakda

qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lgan fuqarolik da’vosini ta’minlab qo‘yish chorasini ko‘rishga majbur.

Yuqorida keltirilgan qonunlarga asoslanib chiqariladigan qarorning ijro etilishini ta’minlash uchun sud va boshqa vakolatli organ tomonidan chora ko‘rilishiga da’voni ta’minlash deb aytildi.

Fuqarolik da’vosini ta’minlash, ya’ni da’vogarga tegishli haqning kelgusida undirilishini ta’minlash yuzasidan bunday choraning belgilanishi javobgarning g‘ayriqonuniy harakatiga qarshi bo‘lib, da’vogarning manfaatini himoya qilish uchun zarur.

Da’voni ta’minlash to‘g‘risidagi ajrim sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro qilinadi.

Da’voni ta’minlash to‘g‘risidagi arizani ishni ko‘rayotgan sudya yoki sud o‘sha kunning o‘zidayoq javobgarni yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilmasdan hal qiladi.

FPKning 249-moddasiga ko‘ra, da’voni ta’minlash choralari quyidagilardan iborat:

1) javobgarga tegishli bo‘lgan va uning o‘zida yoki boshqa shaxslarda turgan mol-mulk yoki pul summasini xatlash;

2) javobgarning muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash;

3) boshqa shaxslarning javobgarga mol-mulk berishini yoki unga nisbatan boshqa majburiyatlarni bajarishini taqiqlash;

4) mol-mulkni xatlashdan chiqarish to‘g‘risida da’vo qo‘zg‘atilgan taqdirda, ro‘yxatga olingan mulkni sotishni to‘xtatish;

5) agar qarzdor ijro hujjati yuzasidan da’vo tartibida nizolashsa va bunday nizolashishga qonun bo‘yicha yo‘l qo‘yilsa, bu hujjat bo‘yicha undiruvni to‘xtatish.

Aliment undirish to‘g‘risidagi, mayib bo‘lish yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek, boquvchining o‘lishi natijasida kelgan zararni qoplash to‘g‘risidagi, o‘zgalar mol-mulkini talon-toroj qilish natijasida kelgan zararlarni undirish to‘g‘risidagi da’volardan boshqa da’volarni ish haqiga, daromadlarga, pensiya va stipendiyalarga xatlash yo‘li bilan ta’minlashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Zarur bo‘lganda sud da’voni ta’minlash chorasing bir necha turiga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin ularning umumiyligi summasi da’voning qiymatidan oshmasligi lozim.

Da’voni ta’minlash choralarini ko‘rishda qonun javobgarning ham manfaatlarini ko‘zlagan holda sud ishida ishtirok etuvchi shaxslarning bayonotlarini eshitib, da’voni ta’minlashning bir turini boshqa turi bilan almashtirishga yo‘l qo‘yish mumkinligini belgilaydi.

Da'voni ta'minlashning bir turini boshqa turi bilan almashtirish masalasi ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinib, sud majlisida hal etiladi. Lekin bu shaxslarning kelmasligi da'voni ta'min qilishning bir turini boshqa turi bilan almashtirish masalasini ko'rib chiqish uchun to'sqinlik qilmaydi.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim sudning hal qiluv qarorini ijro etish uchun belgilangan tartibda darhol ijro qilinadi.

Da'voni ta'minlash yuzasidan xatlangan (arest solingan) mulk nobud qilinmasligi (sotilmasligi, bekitilmasligi, umuman biror-bir usulda saqlash kafilini olgan shaxs qo'lidan chiqarilmasligi) kerak. Aks holda aybli shaxslarga sudning ajrimi bo'yicha eng kam belgilangan ish haqining besh barobar miqdorida jarima solinadi. Bundan tashqari, da'vogar mazkur shaxslardan sudning da'voni ta'minlash to'g'risida ajrimini bajar-maganlikdan kelgan zararlarni undirishga haqlidir (FPKning 253-m.).

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi iltimosni qanoatlantirish yoki uni rad etish haqidagi ajrim, shuningdek, da'voni ta'minlash chorasini bekor qilish yoki ta'minlash chorasining bir turini boshqasi bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan appellatsiya tartibida xususiy shikoyat qilinishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin.

Agar da'voni ta'minlash to'g'risidagi xususiy ajrim shikoyat qilgan shaxsni xabardor qilmasdan chiqarilgan bo'lsa, shikoyat qilish muddati bu ajrimning nusxasi topshirilgan yoki shikoyat bergen shaxsga sud ajrimi ma'lum bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilish yoki protest keltirish bu ajrimning nusxasi topshirilgan yoki shikoyat bergen shaxsga sud ajrimi ma'lum bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

Da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilish yoki protest keltirish oqibatlari FPKning 257-moddasida ko'rsatilgan. Bu moddada ayttilishicha, da'voni ta'minlash to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilish yoki protest keltirish bu ajrimning ijrosini to'xtatmaydi, ammo da'voni ta'minlashni bekor qilish to'g'risidagi yoki da'voni ta'minlashning bir turini boshqa turi bilan almashtirish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish bu ajrimning ijrosini to'xtatadi.

Bunday ajrimlar xususiy shikoyat berish uchun belgilangan muddat o'tishi bilan yoki uning appellatsiya instansiyasi tomonidan oqibatsiz qoldirilganligidan so'nggina ijro etiladi.

2. «Da’vo» tushunchasi, uning elementlari va turlari

Mamlakatimizda har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilish huquqi kafolatlangan.

FPKning 1-moddasida har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizoli huquqini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish uchun qonunda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishga haqli ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuridik shaxs huquqidan foydalanuvchi tashkilotlar o‘zaro nizolar yuzasidan mulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish xususida belgilangan tartibda xo‘jalik sudiga murojaat qilishga haqlidirlar (XPKning 3-m.).¹

Ba’zi da’volar, qonunda nazarda tutilgan hollarda, hakam-lar (xolislardan) sudida qo‘zg‘atilib hal qilinishi mumkin. Yuqorida keltirilgan qonun ko‘rsatmalariga asoslasak, *da’vo* – huquqning yoki qonun bilan qo‘riqlangan manfaatning himoya qilinishi to‘g‘risida sudga yoki boshqa vakolatli tashkilotga murojaat etish demakdir.

Da’vo qo‘zg‘atish huquqi fuqarolar, davlat manfaatlarini hamda tashkilotlarning shaxsiy va mulkiy huquqini himoya qilishning protses-sual vositasi bo‘lib ko‘rildi.

Shariat huquqida fuqarolar o‘zlarining manfaatlarini, haq-huquqlarini himoya qilishda arz-shikoyatlar bilan bir qatorda da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan ham qozilarga (qozilar sudiga) murojaat qilganlar. Ushbu atamani nafaqat fuqarolik, balki jinoiy ishlarda ham ishlatganlar.

«Da’vo» asli arabcha so‘z bo‘lib, «o‘z haq-huquqini sud orqali yoki boshqa yo‘llar bilan himoya etish haqidagi qo‘yilgan talab» tushuniladi. Da’voning bir qancha turlari mavjud:

1) xun da’vosi – o‘ldirilgan kimsaning qoniga qon olish yoki qonun bilan jazo talab etish;

2) birovni ayblash, tuhmat qilish da’vosi;

3) o‘zida yo‘q haq-huquqni yoki xislat-fazilatlarning e’tirof etilishi yo‘lidagi talab qilishga bo‘lgan noo‘rin yoki nohaq urinish (iddao) talabi, da’vo qilishi va hokazo.

Islom huquqida huquqi buzilgan shaxs muddaiy deb yuritilgan.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Хўжалик процессуал кодекси. – Т., 2011.

Da'vo qo'zg'atuvchi shaxs sudga murojaat qilishdan oldin, o'z talabini ixtiyoriy ravishda qanoatlantirishi to'g'risida majburiyat subyektiga murojaat qiladi, tashkilotlarning talabi (pretenziyasi) butunlay qanoatlantirilmasa yoki qisman qanoatlantirilgan bo'lsa yoxud talabga javob bermasa, manfaatdor shaxs (fuqaro yoki tashkilot) buzilgan yoki nizoli huquqning yoxud qonun bilan himoya qilinadigan manfaatning qo'riqlanishi to'g'risida maxsus ariza bilan sudga murojaat qiladi.

Fuqarolik da'vo ishi nizoli ish bo'lib ko'rildi. Bunday ishlarda albatta nizolashuvchi taraflar: da'vogar va javobgar qatnashadi va ular o'rtasida nizoli huquqiy talab bo'ladi. Bunday nizoli huquqiy talab bo'lmasa, da'vo ham, nizoli sud ishi ham bo'lmaydi.

Fuqarolik protsessual huquqida da'vo masalasi eng asosiy, murakkab va bahsli masalalardan biridir. Bu huquq sohasini da'vosiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ba'zida biror-bir da'vosiz, nizosiz, da'vogari va javobgari bo'lмаган fuqarolik ishlari ham sudda ko'riliши mumkin. Nizosiz huquqlarning yoki qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarning qo'riqlanishi to'g'risida sudga murojaat qilish mumkinligi qonunda nazarda tutilgan. Alovida tartibda ko'riliadigan ishlarda, masalan, fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topish yoki o'lган deb e'lon qilish (FPKning 286–290-m.); spirtli ichimliklarni yoki narkotik moddalarni suiiste'mol qilganlik uchun fuqarolarning muomalaga layoqatini cheklash yoki fuqaroning ruhiy kasalligi tufayli uni muomalaga layoqatsiz deb topish (FPKning 291-m.) to'g'risidagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishda faqat muddao bayon qilinadi. Bunday fuqarolik ishlarida nizoli huquqiy talab bo'lмагани uchun da'vo ham bo'lmaydi.

Da'vo ishida muayyan huquq to'g'risidagi nizo hal qilinadi va shu munosabat bilan da'vogarning talabi hamda javobgarning e'tirozi qonuniy va asosliligi tekshiriladi. Oqibatda sud da'voni (da'vogarning javobgarga bo'lган talabini) butunlay yoki qisman qanoatlantiradi yoinki da'voni rad etadi (da'vogarning talabi qaytariladi).

Har qanday fuqarolik da'vosining ikki tomoni mavjud:

Birinchisi, moddiy-huquqiy tomoni. Bunda, avvalo, da'vogarning javobgarga nisbatan muayyan nizoli moddiy-huquqiy talabi bo'lishi, masalan, biror-bir ashyoning topshirilishi, pul to'lanishi, xizmat ko'rsatilishi, zararning qoplanishi xususidagi talabi bo'ladi;

Ikkinchisi, protsessual huquqiy tomoni. Bunda taraflar o'rtasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinishi bo'ladi.

Da'voning bu ikki tomoni birga qo'shilganda, u nizoli huquqning himoya qilish vositasi bo'lib ko'riladi.

Da'vo qilish sudda fuqarolik ishi qo'zg'atilishi uchun asos bo'ladi. Ishni yuritish uchun da'vo arizasi qabul qilingan kundan e'tiboran, mazkur ish yuzasidan fuqarolik protsessual huquqiy munosabat vujudga keladi.

Fuqarolik munosabatlarni tartibga soluvchi Fuqarolik, Mehnat, Oila kodekslari va boshqa qonunlar qisqa vaqt ichida qabul qilinib, amalga kiritilganligi mamlakatimizda huquqiy davlat sari qadam qo'yilayotganligining yaqqol dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10 ta moddasida fuqarolik huquqlari sud tomonidan himoya qilinishi ta'kidlangan. Demak, buzilgan huquqlarni himoya qilish va barcha nizolar sudda hal etilishi lozim.

Prezidentimiz Islom Karimovning «Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarida islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dasturlarni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni, mazkur farmon bilan ma'qullangan «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi ma'rzasida belgilangan asosiy vazifalarni sud-huquq sohasida amalga oshirish» dasturi hamda «O'zbekiston Respublikasining sud tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 2000-yil 14-avgust farmoni fuqaroviylar qonunchilikni takomillashtirish borasida qo'yilgan jiddiy qadamlar bo'ldi.

Fuqarolik huquqlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan hollarda va tartibda kasaba uyushma tashkilotlari va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu tartib FPKning normalarida, xo'jalik sudi, hakamlik sudi va boshqa organlarda ish ko'rish to'g'risidagi qoidalar bilan ham belgilangan.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, «sud va sud xizmatchilari obro'sini ko'tarish zarur. Sud hokimiyatning uchinchi tarmog'idir. Davlatning obro'si, jamiyatning obro'si sud organlari va sudyalarning qonun me'yorlariga qanchalik rioya qilishiga, ular qabul qilgan qarorlarningadolat me'yorlariga nechog'lik mos kelishiga bevosita bog'liq»¹.

Sud himoyasida bo'lgan huquqni faqat manfaatdor shaxslargina sudga murojaat qilish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin. Masalan,

¹ Каримов И.А. Бунёдкорлик – фаровон хаёт асоси // Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. – Т., 1996. – 185-б.

FPKning 5, 42 va 44-moddalariga ko‘ra prokuror fuqarolik ishini qo‘zg‘atishi hamda boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza bilan murojaat qilish, shuningdek, boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruv organlari, kasaba uyushmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ayrim fuqarolar sudga ariza bilan murojaat qilib, o‘zlarining emas, balki boshqa shaxslarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishi mumkin. Bu shaxslar qonunda ko‘rsatilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga ariza bilan murojaat qilgan bo‘lishiga qaramay, lekin ular sudda ko‘rilib, hal qilinadigan ishdan bevosita manfaatdor bo‘lmaydilar. Bu organlar va shaxslar o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni uddalash maqsadida protsessda qatnashadilar.

O‘zbekiston Respublikasi FPKning 1-moddasida manfaatdor shaxsning buzilgan yoki nizolashayotgan huquqini yoxud qonuniy manfaatini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan, lekin qanday asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda sudga murojaat qilish mumkinligi ko‘rsatilmagan. Shuning uchun huquqi buzilgan shaxs o‘zining subyektiv huquqini himoya qilish uchun tegishli tartibda sudga da’vo bilan murojaat qilgan bo‘lsa, sud uni mazmunan ko‘rib, hal qilishi kerak bo‘ladi.

Qonun bilan alohida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish ma’muriy tartibda amalga oshiriladi (FKning 10-m. 2-q.). Bunday tartib, masalan, (tashkilot yoki fuqaroning) birovning kvartirasini o‘zboshimchalik bilan egallagan shaxsni prokurorning sanksiyasi bilan ko‘chirishda va shu bilan buzilgan huquqni tiklashda qo‘llaniladi. Bunday hollarda protsessual tartib qo‘llanilmaydi.

Da’vo, ya’ni nizoli moddiy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan va muayyan protsessual tartibda ko‘rish va hal qilish uchun sud yoki boshqa vakolatli organda qo‘zg‘atilgan talab tushunchasi bilan da’voga bo‘lgan huquq tushunchasi chambarchas bog‘liqdir¹.

Da’voga bo‘lgan huquq deganda, fuqarolik huquqning, oila, mehnat, uy-joy va hokazo masalalarga oid huquqning, fuqarolik protsessi tartibida sud himoyasini olishga bo‘lgan huquqning, shuningdek, sud tomonidan

¹ Qarang: Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари. – Т., 1996. – 16-б.

qonuniy va asosli deb topilgan da'vo talabining qanoatlantirishiga bo'lган huquq tushuniladi.

Da'vo qilish, da'vo qo'zg'atish uchun asos, ya'ni huquqning bo'lmasligi oqibatida – da'vo arizasi qabul qilinishini rad etish yoki FPKning 100-moddasida ko'rsatilganidek, ish yuritishni tugatish taqozo etadi. Da'vening qanoatlantirilishi uchun huquqning bo'lmasligi da'voni rad qilish bilan yakunlanadi.

Har bir da'vening o'ziga xosligini hisobga olib, ya'ni bir da'voni ikkinchi da'vordan ajratish maqsadida da'volar ikki elementga, tarkibiy qismga: da'vo predmeti (da'vo qilinayotgan narsa)ga va da'vo asosiga bo'linadi. Bu ikki element da'vening mazmunini tashkil etadi.

Da'vening elementlari fuqarolik ishlari bo'yicha sudda ish ko'rish chegarasini belgilabgina qolmasdan, isbotlash predmetini ham belgilaydi.

Da'vening predmeti da'vogarning talabi, ya'ni javobgardan sud orqali talab qilayotgan narsasi bo'ladi. Da'vo predmeti biror-bir narsani undirish to'g'risidagi talabdir. Chunonchi, muayyan summaning undirilishi, biror-bir mulkning topshirilishi, xizmat ko'rsatilishi to'g'risidagi moddiy-huquqiy yoinki shaxsiy huquqqa asoslangan talab bo'lishi mumkin.

Da'vo predmeti muayyan huquqiy munosabatning bo'lishi yoki bo'lmasligi, masalan, nizoli mulkda da'vogarning hissasi bo'lishi, meros mulkiga nisbatan voris deb tanilishi, asarning muallifi deb tanilishi to'g'risidagi talablar bo'lishi mumkin.

Da'vening asosi deb, da'vo talabini tasdiqlaydigan dalillarga aytildi. FPKning 149-moddasi 4 va 6-bandlarida aytilgandek, da'vogar arizasida talabi qanday holatlarga asoslanganligini va bu hollarning mavjudligini tasdiqlaydigan dalillarni ko'rsatish lozim. Bunday dalillar muayyan yuridik faktni vujudga keltiradigan yoki o'zgartiradigan yoxud bekor qiladigan holatlar hisoblanadi.

Ma'lumki, da'vogar sudga murojaat qilishida biror-bir protsessual maqsadni ko'zlaydi. Uning bu maqsadi buzilgan yoki nizoli huquqning yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatning himoya qilinishi to'g'risidagi sud qaroriga erishishga qaratiladi.

Bunday qaror, masalan, birovdan tegishli pulni undirish yoki biror-bir mulkning egasi deb topilishi to'g'risida bo'lishi mumkin.

Da'vogarning qanday maqsadni ko'zlashiga, nima to'g'risida qaror chiqarilishini suddan iltimos qilishiga qarab, da'volar ikki turga: undirish (olib berish) va tan olish to'g'risidagi da'volarga bo'linadi.

Undirish to‘g‘risidagi da’volarda da’vogar birinchidan, muayyan huquqni olishga haqli bo‘lishini belgilashni, masalan, mulkka nisbatan egalik huquqini olishga, turar joydan foydalanishga, voyaga yetmagan bolani o‘z tarbiyasiga olishga haqli bo‘lishini va ikkinchidan, javobgarning muayyan harakatlar qilishini, masalan, da’vogarga nizoli mulkni topshirish, turar joyni bo‘shatib berish, bolani tarbiyalash uchun topshirishi lozimligi to‘g‘risida sud qarorining chiqarilishini iltimos qiladi. Agar sudning qarori javobgar tomonidan ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, qaror belgilangan tartibda ijro uchun topshiriladi. Shu tufayli bunday da’vo – ijro etiladigan da’vo, deb ham ataladi.

E’tirof etish, tan olish to‘g‘risidagi da’volarda da’vogar nafaqat nizoli huquqning o‘ziga tegishli bo‘lishini tan olishni, balki nizoli huquqiy munosabatning mavjud bo‘lgan yoki bo‘lmanligini iltimos qiladi. Bunday da’volarda, masalan, da’vogar vasiyatnomaning haqiqiy emas deb topilishini, asarning muallifi deb tanilishini suddan iltimos qiladi. Bunday da’volarda da’vogar javobgarni biron-bir harakat qilishga, masalan, meros hissasini ajratib berishga, muallifga qalam haqi (gonorar) to‘lashga majbur etish to‘g‘risida qaror chiqarilishini iltimos qilmaydi.

Da’volar, yuqorida ko‘rsatilgandek, faqat protsessual maqsad bo‘yicha emas, balki da’vo talablarning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan nizoli huquqiy munosabatlarning turi bo‘yicha ham turlarga bo‘linadi (klassifikatsiya qilinadi). Masalan, mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan da’volar, aliment undirish to‘g‘risidagi da’volardan farq qiladi. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan da’volar esa turar joylardan ko‘chirish to‘g‘risidagi da’volardan farq qiladi. Bunday da’volar bir-biridan moddiy-huquqiy mazmuni jihatidan emas, balki bunday nizolarni ko‘rish va hal etish uchun qonun bilan belgilangan protsessual xususiyatlari jihatidan ham farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 56-moddasiga muvofiq, jinoyat, xuddi shuningdek, aqli noraso shaxsning jamoat uchun xavfli qilmishi shaxsga, korxonaga, muassasaga yoki tashkilotga mulkiy zarar yetkazgan deb hisoblash uchun dalillar bo‘lsa, ular fuqaroviy da’vogar deb e’tirof etiladi. Fuqaroviy da’vogar deb e’tirof etish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi.

Voyaga yetmaganlarning, shuningdek, muomalaga layoqatsiz deb e’tirof etilgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish uchun fuqaroviy da’vo ularning qonuniy vakillari va prokuror tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin.

Jinoyat ishidagi fuqarolik da'vosi – jinoyat tufayli ko‘rilgan mulkiy zarar to‘g‘risidagi jabrlanuvchining jinoyat ishida ayblanuvchiga yoki uning harakatlari uchun moddiy javobgar bo‘lgan shaxsga nisbatan qilgan talabi.

Fuqaroviylar da’vogar quyidagi huquqlarga ega:

- 1) fuqaroviylar da’vo qo‘zg‘atish va uni quvvatlash;
- 2) dalillar taqdim qilish; qo‘zg‘atilgan da’vo bo‘yicha tushuntirishlar berish;
- 3) o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish;
- 4) iltimosnama berish va rad qilish;
- 5) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki suddan da’voni ta’minalash choralarini ko‘rish haqida iltimos qilish;
- 6) dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ish materiallari bilan tanishish va undan zarur ma’lumotlar yozib olish;
- 7) birinchi instansiya, appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtiroy etish;
- 8) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish;
- 9) sud hukmi va ajrimining fuqaroviylar da’voga tegishli qismi ustidan shikoyat qilish;
- 10) ish bo‘yicha keltirilgan shikoyatlar, protestlardan xabardor bo‘lish va ularga nisbatan e’tirozlar bildirish.

Fuqaroviylar da’vogarning majburiyatları:

- 1) surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo‘lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviylar da’voga tegishli bo‘lgan dalillar taqdim etishi;
- 2) haqiqatni aniqlashga dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to‘sinqlik qilmasligi;
- 3) ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi.

Fuqaroviylar da’vogar deb e’tirof etilgan shaxs ayni vaqtda jabrlanuvchining barcha huquqlaridan foydalanadi va uning majburiyatlarini bajaradi (JPKning 57-m).

Ayblanuvchi tomonidan yoki ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan aqli noraso shaxs tomonidan yetkazilgan zarar uchun qonunga ko‘ra mulkiy javobgar shaxs, korxona, muassasa yoki tashkilot ishda fuqaroviylar javobgar sifatida ishtiroy etish uchun jalb qilinishi mumkin. Fuqaroviylar javobgar sifatida jalb qilish haqida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud esa ajrim chiqaradi (JPKning 58-m.).

Fuqaroviylar quyidagi huquqlarga ega:

- ayblov va fuqaroviylar da'voning mazmunini bilish;
- da'voga e'tiroz bildirish; tushuntirish berish;
- 'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil olish;
- dalillar taqdim qilish; iltimosnomalar berish va rad qilish;
- dastlabki tergov tamom bo'lganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma'lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o'z hisobidan ko'chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma'lumotlarni o'zga shaklda qayd etish;

▫birinchi instansiya, appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudining majlislarida ishtirok etish;

▫surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish;

▫sud hukmi va ajrimining fuqaroviylar da'voga tegishli qismi ustidan shikoyatlar berish;

▫ish bo'yicha keltirilgan shikoyat va protestlardan xabardor bo'lish va ularga nisbatan e'tirozlar bildirish huquqiga egadir.

Fuqaroviylar javobgarning majburiyatları:

- surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi va ularning talablariga asosan fuqaroviylar da'voga tegishli bo'lgan dalillar taqdim qilishi;
- haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi;
- ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart (JPKning 59-m.).

3. Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar tushunchasi

Fuqarolik protsessida ishtirok etuvchi taraflarning nizolarini to'g'ri hal qilish uchun sud ularning o'zaro huquqiy munosabatlari mazmunini belgilashi, da'vogarning talablari, javobgarning da'voga qarshi e'tirozlari asosli bo'lishini tekshirishi, da'vogarning huquqi buzilgan-buzilmaganligini, da'vogarning buzilgan huquqini javobgar deb faraz qilingan shaxs tiklashga majbur bo'lish-bo'lmasligini aniqlashi lozim. Bu masalaning hammasini nizoli huquqiy munosabatga oid bo'lgan faktik holatlar belgilangandan so'ngina hal qilish mumkin bo'ladi.

Nizosiz fuqarolik ishlarida, chunonchi, alohida tartibda ko‘riladigan ishlarda muayyan yuridik faktlar belgilanadi. Buning uchun muddaosini arz qiluvchi shaxs muayyan faktik holatini, masalan, meros olish yoki pensiya olish uchun biror-bir shaxsning qaramog‘ida bo‘lganligini belgilash uchun asos borligini isbotlashi lozim bo‘ladi.

Binobarin, *isbotlash* fuqarolik protsessi subyektlari bo‘lgan taraflar, sud, prokuror va boshqa shaxslarning fuqarolik ishini hal qilish uchun zarur bo‘lgan faktlarning mavjud bo‘lish-bo‘lmasligini aniqlashga qaratilgan faoliyat.

Isbotlash taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning sudga dalillar keltirishi, bayonotlar berish, qarshi tomonning tushuntirishlari va keltirilgan dalillarga qarshi e’tiroz bildirish, dalillarni tahlil qilish, nizoli faktlar to‘g‘risidagi dalillardan xulosalar chiqarishdan iborat bo‘ladi.

Sudda isbotlashning maqsadi protsessual qonunda ko‘rsatilgan tartibda muayyan fuqarolik ishini hal qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilashdan iborat.

Sudda nizoli fuqarolik da’vosi qo‘zg‘atilganida, avvalo taraflardan isbot keltirish, ya’ni da’vo talabining asosli bo‘lishini yoki uning asossizligini isbotlash talab qilinadi.

Fuqarolik protsessida isbotlash vositalari *dalillar* hisoblanadi. *Sudga oid dalillar* deb, fuqarolik ishi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olishning qonun bilan belgilangan protsessual vositalariga va isbotlash uchun ahamiyatli bo‘lgan faktlarning o‘ziga aytiladi.

Fuqarolik protsessining xususiyati shundan iboratki, sudlar obyektiv haqiqatni belgilash uchun taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan keltirilgan dalillarni baholash bilangina cheklanmasdan, balki dalillarni o‘z tashabbuslari bilan to‘plash huquqiga ham egadirlar.

FPKning 56-moddasida dalillar tushunchasi berilgan hamda nimalarning dalil va isbotlash vositalari bo‘lishi ko‘rsatilgan. Bu moddada belgilanishicha, taraflarning talablari va e’tirozlarini asoslaydigan hamda ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarning mavjudligi yoki yo‘qligini, muayyan qonun bilan belgilangan tartibda sudda aniqlashga asos bo‘ladigan har qanday faktik ma’lumotlar fuqarolik ishi bo‘yicha dalil bo‘lib hisoblanadi.

Shu moddaning o‘zida isbotlash vositalari ham sanab o‘tilgan. Bular taraflar va uchinchi shaxslarning bayonotlari, guvohlarning bergen

guvohliklari, yozma dalillar, ashyoviy dalillar va ekspertlarning fikrlaridir.

FPKning 56-moddasida ko'rsatilgan faktik ma'lumotlar va isbotlash vositalari bir-biri bilan bog'liq holda ko'rildi. Bu yerda sudga oid dalillar masalasida ham mazmun bilan shaklning dialektik bog'liq bo'lishi nazarda tutiladi. Mazmun deganda faktlar to'g'risidagi ma'lumotlar nazarda tutilsa, shakl deganda, isbotlash vositalari (dalillar) nazarda tutiladi. Da'voni isbotlash yoki inkor etish uchun har ikki element mavjud bo'lishi kerak. Faktlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'limgan isbotlash vositasi hech narsani isbotlamaydi va aksincha, faktik ma'lumotlar isbotlash vositalarining qonun bilan belgilangan manbalaridan olinmagan bo'lsa, dalil sifatida foydalanilmaydi va sud qarorining asosiga qo'yilmaydi.

Amaldagi yangi Fuqarolik protsessual kodeksida muallifi ko'rsatilmagan holatlar va manbai noma'lum bo'lgan yoki g'ayriqonuniy tarzda olingan boshqa ma'lumotlarning dalil bo'la olmasligi ko'rsatilgan. Bu qoidaning kiritilishi sud amaliyotida turli xil usul bilan «dalil» deb ishda foydalanadigan harakatlarning oldini olishga sabab bo'ladi.

Dalillarning daxldorligi to'g'risidagi FPKning 58-moddasida sud faqat ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni tasdiqlaydigan dalillarnigina ko'rish uchun qabul qiladi, deb ko'rsatilgan.

Sud taraflar tomonidan keltirilgan dalillarni qabul qilish - qilmaslik masalasini va qo'shimcha dalillarni talab qilib olish to'g'risidagi iltimoslarini hal qilishda, shuningdek, o'z tashabbusi bilan dalillar to'plashda bu qonunga amal qiladi.

Dalillarning ko'riladigan ishga daxldor bo'lish-bo'lmasligini to'g'ri hal qilish oz kuch va kam vaqt sarf qilib, ishning barcha holatlarini to'liq va xolisona aniqlash imkonini beradi. Chunonchi, voqeadan xabardor bo'lgan ko'p guvohlardan faqat bir nechtasigina sud majlisiga chaqirilib, qolgan fuqarolar asosiy ishlarini, xizmat vazifalarini bajarishdan qoldirilmaydilar, ortiqcha (keragidan ko'p) chaqirilgan guvohlarning bergen guvohliklarni eshitib, sud protsessi ham ko'pga cho'ziladi.

Sudya ishni sud majlisida ko'rishga tayyorlash jarayonida, protsessda ishtirok etish uchun taklif qilinadigan shaxslarni belgilash bilan birga, ishga daxldor, ish uchun zarur bo'lgan hujjatlarnigina qabul qilib ishga qo'shadi.

Dalillarning daxldorligi to'g'risidagi qoida bilan FPKning 71, 72, 75, 79 va 81-moddalarida belgilangan normalar bog'liqdir. Bu moddalarda guvohlarning chaqirilishini, yozma yoki ashyoviy dalillar keltirilishini

yoki ularning talab qilib olishini iltimos qiluvchi shaxs qanday holatlar guvohlarning guvohliklari bilan tasdiqlanishi yoki yozma yoxud ashyoviy dalillar bilan aniqlanishi mumkinligini ko'rsatishga majbur ekanligi aytilgan.

Agar dalillarning daxldorligi prinsipi masalasida sudyalar o'zlarining ichki tushunchalariga asoslanishlari mumkin bo'lsa, dalillarga yo'l qo'yilishi prinsipini qo'llashda faqat qonun ko'rsatmalariga qat'iyan rioya qilishlari talab qilinadi. Qonun bilan isbotlash vositasi bo'la olmaydigan dalillarni, ularning mazmuni va ish uchun ahamiyatdan qat'i nazar, qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, fuqarolik protsessida dalillarning belgilari quyidagilardan iborat:

birinchidan, dalillar, avvalo, faktik ma'lumotlar, ya'ni ishni hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni o'z mazmunida aks ettiruvchi ma'lumotlar bo'lishi bilan xarakterlanadi;

ikkinchidan, dalillar taraflarning talablari va e'tirozlarini asoslaydigan holatlarni hamda ishga doir boshqa holatlarning mavjud bo'lish-bo'lmasligini belgilaydigan faktik ma'lumotlar bo'ladi;

uchinchidan, dalillar protsessual qonun bilan belgilangan tartibga rioya qilinib, sud tomonidan olingan faktik ma'lumotlar bo'ladi;

to'rtinchidan, dalillar sud tomonidan nazarda tutilgan isbotlash vositalaridan olingan ma'lumotlar bo'lib ko'rildi.

Qonunda nazarda tutilmagan manbalardan olingan faktik ma'lumotlar, chunonchi, anonim xatlar, mish-mish gaplar va shu kabilar dalil hisoblanmaydi.

Isbotlash predmeti deb, muayyan huquqni vujudga keltiradigan yoki o'zgartiradigan yoxud bekor qiladigan yoinki huquqning amalgamoshirilishiga to'sqinlik qiladigan faktlarga aytiladi.

Dalillar taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan taqdim etiladi. Agar taqdim etilgan dalillar yetarli bo'lmasa, sud taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga qo'shimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi yoki ularni to'plashga yordamlashadi (FPKning 57-m. 3-q.).

Ba'zi hollarda fuqarolik ishi bo'yicha taraflar isbotlash burchidan ozod qilinishlari ham mumkin. Taraflarni isbotlash burchidan ozod qiladigan holatlar (asoslar) FPKda ikkiga: hammaga ma'lum deb topilgan holatlarga va avvaldan aniqlangan faktlarga bo'linadi.

FPKning 60-moddasida sud hammaga ma'lum deb topgan holatlar isbotlashga muhtoj emas, deb ko'rsatiladi. Darhaqiqat, hammaga ma'lum

bo‘lgan, shu jumladan sudyalarga ham ma’lum bo‘lgan shunday faktlar borki, ularning bo‘lgan-bo‘lmasligini isbotlash mutlaqo talab qilinmaydi. Masalan, Toshkentda 1966-yil aprel oyida bo‘lgan zilzila hammaga ma’lum. Shu tufayli uning bo‘lgan-bo‘lmasligini, belgilash, aniqlash, isbotlash talab qilinmaydi.

Biror-bir faktning hammaga ma’lum bo‘lishi, bu faktga aloqador shaxslar doirasi va uning sodir bo‘lgan vaqtin hamda joyiga qarab belgilanadi.

Barcha mamlakatlar hududida hammaga ma’lum yuridik faktlar (masalan, Toshkent zilzilasi) bo‘lishi bilan birga faqat aholining bir qismidagina, ya’ni muayyan viloyat, shahar, tuman hududida yashovchi aholiga, jumladan sudyalarga ham muayyan vaqtida ma’lum faktlar bo‘lishi mumkin. Masalan, biror-bir tumanda bir yili iyul oyida qurg‘oqchilik yoki suv toshqini bo‘lishi fakti shu tuman va viloyatda yashovchilar uchungina ma’lum bo‘ladi.

Agar sud fuqarolik ishini ko‘rishda barcha davlat hududida hammaga ma’lum bo‘lgan holatlarning mavjudligini aniqlasa, qarorda isbotlashning zarur bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Agar mazkur fakt muayyan tuman, viloyatda yashovchilar uchungina ma’lum bo‘lsa, sud bunday faktni isbotlovsiz qabul qila turib, o‘z qarorida bu holat shu joyda yashovchi hamma aholiga ma’lum ekanligini va shu sababdan bu holatning da’vogar yoki javobgar tomonidan dalillar bilan isbotlash zarur bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

Masalan, Toshkent viloyatining Angren shahrida yer ko‘chishi, Farg‘ona vodiysida sel kelganligi, toshqin bo‘lganligi tufayli jamoa xo‘jaliklari, fuqarolar ko‘rgan zararlarning butunlay yoki qisman to‘lanishi to‘g‘risida davlat sug‘urtasi organlariga nisbatan da’vo qo‘zg‘atganlarida sud toshqin bo‘lganligini isbotlashni talab qilmasdan, faqat ko‘rilgan zarar uchun to‘lanadigan haqning miqdori to‘g‘risidagi masalani hal qiladi.

Agar sud muayyan shaxsni jinoyat qilishda aybli deb topish bilan birga, jabrlanuvchiga sudlanuvchining jinoiy harakatlari bilan mulkiy zarar yetkazilganligini belgilasa-da, lekin yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun ish materiallarida yetarli dalillar bo‘lmasa, jabrlanuvchi shaxsning da’vosini qanoatlantirishga huquqi borligini belgilab, zararning miqdorini aniqlash va yetkazilgan zarar haqini undirish uchun ishni fuqarolik ish yuritish tartibida ko‘rishga yuborishi mumkin. Fuqarolik ishi ko‘rinishida zarar yetkazilishi fakti va bunda mahkumning aybi bo‘lishi-bo‘lmasligi isbotlanmaydi.

4. Dalillarning turlarga bo‘linishi va ularni ta’minlash asoslari

Sudga oid dalillar tasnif (klassifikatsiya) qilinishi yuzasidan vujudga kelish manbalariga, shakliga, tuzilishi (paydo bo‘lishi) dalil bilan aniqlanishi lozim bo‘lgan faktning uzviy bog‘lanishiga qarab turkumlarga bo‘linadi.

Vujudga kelish manbalariga qarab dalillar *shaxsiy* va *ashyoviy* dalillarga bo‘linadi.

Shaxsiy dalillarga taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning bayonotlari, guvohlarning guvohliklari va ekspertlarning xulosalari kiradi.

Ashyoviy dalillarga ko‘riladigan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan har xil narsalar kiradi.

Dalillarning bunday bo‘linishi ularni tekshirish va baholash uchun, xususan, dalillarning olinishi tarzini tekshirish uchun, chunonchi, hodisa va harakatlarni guvohning qabul (idrok) qilishi, o‘zlashtirishi, xotirasida saqlashi, sud huzurida aytishini tekshirish uchun hujjatning tuzilishidan oldingi holatlarni, hujjatning rasmiylashtirilishi, undan olingan nusxa va hokazolarni tekshirish uchun ahamiyatga egadir.

Sud tomonidan olinadigan dalillar ifodalanish shakliga qarab: *og‘zaki, yozma* va *ashyoviy* dalillarga bo‘linadi.

Dalillar tuzilishi, paydo bo‘lishiga qarab *dastlabki* va *hosila* dalillarga bo‘linadi. Dastlabki dalil bevosita birinchi manbadan olingan dalil bo‘ladi. Masalan, hujjatning asli yoki hodisani o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan guvohning ko‘rsatmasi shunday dalil bo‘ladi. Hosila dalillar dastlabki dalilning mazmunini aks ettiradi. Masalan, hujjatning nusxasi, fakt to‘g‘risidagi ma’lumotlarni boshqa shaxslarning so‘zidan olib aytuvchi guvohning ko‘rsatmasi bo‘ladi. Hosila dalillarni tekshirish va baholashda va ehtiyyotkor bo‘lish, xususan, dastlabki dalilning qanchalik to‘g‘ri aks ettirilishini aniqlash lozim bo‘ladi.

Dalil bilan isbotlanuvchi fakt o‘rtasidagi uzviy bog‘lashishiga qarab dalillar *to‘g‘ri* va *egri* dalillarga bo‘linadi. Agar bunday bog‘lanish bir turda bo‘lsa va isbotlanuvchi faktning mavjudligi to‘g‘risida faqat bиргина dalillar bilan xulosa chiqarish mumkin bo‘lsa, *to‘g‘ri* dalil bo‘lib ko‘riladi. Masalan, qarz to‘g‘risidagi tilxat qarzning berilgan va olinganligini isbotlaydigan birdan-bir *to‘g‘ri* dalil hisoblanadi.

Agar isbotlanadigan dalil bilan fakt o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘p turda bo‘lsa va isbotlanadigan faktning mavjudligi faqat faraz qilinsa, dalil *egri* dalil bo‘lib ko‘riladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudida ko‘rilgan bir

ishda da' vogarning meros qoldiruvchi tomonidan farzand qilib olinganligi egri dalillar bilan isbotlanishi ko'rsatilgan. Bunday dalillar sifatida:

birinchidan, da'vogar meros qoldiruvchi tomonidan ikki yashar vaqtidan boshlab tarbiyalanganligi;

ikkinchidan, da'vogar meros qoldiruvchining familiyasida bo'lishi;

uchinchidan, da'vogar meros qoldiruvchi bilan to o'lgan kuniga qadar birga yashaganligi ko'rsatiladi.

Sudga oid dalillar (isbotlash vositalari)ning turlari quyidagicha:

1) taraflar, uchinchi shaxslar va vakillarning bayonotlari;

2) guvohlarning ko'rsatmalari;

3) yozma dalillar;

4) ashyoviy dalillar;

5) ekspertlarning fikrlari.

Taraflar, uchinchi shaxslar va vakillarning bayonotlari. Bunday bayonotlar taraflar va uchinchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish va sudda xolis haqiqatni belgilash uchun muayyan ahamiyatga egadir.

Fuqarolik ishi sudda taraflarning bayonotlarini eshitish bilan boshlanadi va sud majlisida aniqlanadigan faktlar to'g'risida tushuntirishlar olish maqsadida taraflarga savollar beriladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisida taraflarning hozir bo'lishlari umumiyligida qoida bo'yicha majburiy emas. Ammo aliment undirish to'g'risidagi ishlari bo'yicha sudga kelish majburiy bo'lib, uzsiz sabablarga sudga kelmagan taqdirda jarimaga tortilishi va majburiy tartibda keltirilishi mumkin.

Sud faqat taraflarning tushuntirishlarini emas, umuman, har qanday dalilni ham boshqa dalillar bilan taqqoslab tekshirishi lozim.

Taraflarning faqat ishga oid haqiqiy holatlari to'g'risida bergen ma'lumotlari dalil sifatida ahamiyatga ega bo'ladi. Binobarin, har xil fikrlar, xulosalar, vajlar dalil hisoblanmaydi.

Guvohlarning guvohliklari (ko'rsatmalari). Sudda ko'rildigan fuqarolik ishiga oid holatlardan xabardor bo'lgan har qanday fuqaro guvoh bo'la oladi. Guvoh sifatida fuqarolik ishi uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lgan fakti bevosita ko'rgan yoki boshqa shaxslardan eshitgan ma'lumotlar to'g'risida ko'rsatma berish uchun sudga chaqiriladigan fuqaro ishning oqibatidan (qanday hal bo'lishidan) huquqiy jihatdan manfaatdor shaxs bo'lmasligi kerak.

Guvoh shaxsiga nisbatan qo'yiladigan shartlardan yana biri, guvoh bo'ladigan fuqaro ro'y bergen hodisani o'zlashtirish, yodida (esida)

saqlash va so‘ngra ular to‘g‘risida ma’lumot berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Agar chaqirilgan guvoh sud majlisiga uzsiz sabablarga ko‘ra kelmasa, u sudga hurmatsizlik qilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 180-moddasiga asosan javobgarlikka tortilishi, ikkinchi chaqirishda ham kelmasa, u sudning ajrimiga ko‘ra ma’muriy tartibda keltirilishi (FPKning 176-m) mumkin.

Guvoh sud tomonidan asossiz deb topilgan sabablar bilan sudga ko‘rsatma berishdan bosh tortsa yoki bo‘yin tovlasa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 238–240-moddalari bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Sudda guvohlik berish ko‘pincha fuqaroning asosiy ishidan qolishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday bo‘lsa ham qonun fuqarolarga sudda guvohlik berish majburiyatini yuklaydi va bunday ijtimoiy burchni bajarishdan bosh tortuvchilar yuqorida ko‘rsatilganidek, jazoga tortilishini nazarda tutadi.

Qonun fuqarolarga sudda guvohlik berish burchini yuklash bilan birga, ularga qator huquqlar ham beradi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 115-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi FPKning 9-moddasiga asosan, guvohlar sudda o‘z ona tillarida ko‘rsatma berishga haqlidirlar. Agar guvoh ish yuritilayotgan tilni bilmasa, sud tarjimon taklif qilishga majbur bo‘ladi.

Fuqarolik ishning ko‘rilishi boshqa kunga qoldirilganida, agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisida hozir bo‘lsalar va guvochlarning ikkinchi marta kelishi qiyin bo‘lsa, sud kelgan guvochlarni so‘roq qilishi mumkin. Bu guvochlarni sud majlisiga qaytadan chaqirishga faqat zarur bo‘lgan hollardagina yo‘l qo‘yilishi mumkin (FPKning 178-m.).

Guvohdan birmuncha aniq va to‘g‘ri ko‘rsatmalar, ma’lumotlar olish maqsadiga sudda raislik qiluvchi ish yuzasidan o‘ziga shaxsan ma’lum bo‘lgan holatlar to‘g‘risida gapirib berishni taklif qiladi (FPKning 183-m.). Bu qoida guvochlarning erkin himoya shaklida bayon etishini savol-javob shaklida olinadigan ko‘rsatmalardan afzalligi bilan ajralib turadi.

Guvoh sud majlisida so‘roq qilinishidan oldin ko‘rsatma berishdan bosh tortganlik va atayin yolg‘on ko‘rsatma bergenlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantiriladi.

Yozma dalillar ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bayon etilgan hujjatlar bo‘lib, xizmatga daxldor va shaxsiy yozishmalardan iborat bo‘ladi (FPKning 73- m.).

Yozma dalillar fuqarolik ishlarini hal qilishda muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z mazmunida yozma ravishda ifodalangan hujjat hisoblanadi. Bunday hujjatlar turli guvohnomalar, attestatlar, diplomlar, ma’lumotnomalar, shartnomalar, tilxatlar va boshqa mazmundagi hujjatlar, yozishmalar bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik protsessida yozma dalillar muhim ahamiyatga ega, chunki ularning mazmunida ifodalanadigan ma’lumotlar aniqlashtirilgan shaklda beriladi.

Yozma dalillarning taqdim qilinishi va talab qilib olinishiga oid normalar FPKning 74-76 moddalarida belgilanadi.

Odatda, yozma dalillarning asli taqdim qilinadi. Agar hujjatning nusxasi taqdim etilgan bo‘lsa, sud zarur bo‘lganda hujjatning aslini taqdim etishni talab qilishga haqli.

Yozma dalillarni sudga taqdim qilish qiyin bo‘lsa, masalan, ular nihoyatda ko‘p bo‘lsa yoki ulardan faqat bir qismi ish uchun ahamiyatli bo‘lsa, sud ularning tegishli ravishda guvohlantirilgan ko‘chirmasini talab qilishi yoki dalillar saqlanayotgan joyida ko‘zdan kechirish va tekshirish mumkin.

Ёзма далилларни қуидаги турларга бўлиш мумкин:

1. Hujjatning asli (originali) va nusxasi. Fuqarolik ishi ko‘rilishida umumiyl qoida bo‘yicha hujjatning asli talab qilinadi. Uning topshirilishi mumkin bo‘lmagan taqdirda nusxasi qabul qilinishi mumkin.

2. Mazmuni bo‘yicha muayyan erkni ifodalaydigan va ma’lumotlar bildiradigan hujjatlarga bo‘linadi. Erkni ifodalaydigan yozma dalillarda, masalan, shartnoma yoki bitimda (vasiyatnomani ifodalashda) shaxsning erki ko‘rsatiladi. Ma’lumotlarga oid yozma dalillarda esa bunday erkning ifodalanishi bo‘lmaydi. Bularda axborot xarakteridagi ma’lumotlar, masalan, fuqaroning tug‘ilishi, nikohga kirishi, o‘limi holatlarini ro‘yxatga olish organlari tomonidan berilgan hujjatlar bo‘ladi.

3. Yozma dalillar rasmiy va xususiy hujjatlarga bo‘linadi. Davlat organlari, kooperativ va jamoat muassasalari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan berilgan hujjatlar rasmiy hujjatlar hisoblanadi. Ular jumlasiga sud qarorlari va hukmlari, davlat boshqaruv organlarning aktlari va shu kabi hujjatlar kiradi. Fuqarolar qo‘li bilan yozilgan yoki imzolangan hujjatlar norasmiy yoki xususiy hujjatlar hisoblanadi. Bunday hujjatlar jumlasiga turli yozishmalar, bitimlar, shartnomalar va boshqalar kiradi.

4. Yozma dalillar ifodalanish shakliga ko‘ra oddiy yozma va notarial guvohlantirilgan hujjatlarga bo‘linadi. Yozma shakldagi hujjatlar o‘z navbatida oddiy yozma va murakkab hujjatlarga bo‘linadi. Oddiy yozma dalillar qonun talabiga binoan tegishli tartibda, masalan, notarial tartibda yoki hokimiyatlarda va o‘zini o‘zi boshqaradigan idoralarda guvohlantirilmagan hujjatlar bo‘ladi.

Ashyoviy dalillar – ishni mazmunan hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni aniqlash vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan narsalar (predmetlar) (FPKning 79-m.).

Binobarin, muayyan faktlar (holatlar)ning mavjud bo‘lishi biror-bir ashyo bilan, uning xususiyatlari, turgan joyi, unda qoldirilgan izlar bilan isbotlanishi mumkin bo‘lgan hollarda, bunday ashyo fuqarolik ishida isbotlash vositasi (dalil) bo‘ladi. Ashyoviy dalillar ko‘pincha nizoning predmeti bo‘ladigan narsalar: kiyim-kechak, mebel, uy-ro‘zg‘or ashylari, fotorasmlar va shu kabilardan iborat bo‘ladi.

Ashyoviy dalillarni sudga taraflar topshiradilar, ammo sud ularni o‘z tashabbusi bilan ham talab qilib olishi mumkin. Ashyoviy dalilni taqdim etuvchi yoki uni talab qilib olishni iltimos qiluvchi shaxs dalil bilan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan qanday holatlarni aniqlash mumkin ekanligini ko‘rsatishga majbur.

Ashyoviy dalillarni talab qilib olish yoki taqdim etish tashabbusi to‘g‘risidagi qoidalar FPKning 80-moddasida keltirilgan.

Ekspertning xulosasi – ishni tekshirish vaqtida fan, san’at, texnika yoki hunar sohasida maxsus bilim talab qiladigan masalalarni tushuntirish uchun sud taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimoslariga ko‘ra yoki o‘z tashabbusi bilan ekspertiza tayin qilishi mumkin (FPKning 84-m.).

Ekspertiza turli masalalar bo‘yicha tayinlanishi mumkin, chunonchi fuqaro ruhiy holati tekshirilganida – psixiatriya ekspertizasi, yozuvlar, xatlar tekshirilganda – xatshunoslik ekspertizasi va hokazo ekspertizalar tayinlanishi mumkin.

Ekspertiza vositalarida faktlar tahlil qilinadi. Faktlarni ekspertlar fan nuqtai nazaridan yoki o‘zlarining maxsus tajribalariga asoslanib tushuntiradilar.

Ekspert sifatida tayinlangan shaxs sudning chaqiruvi bo‘yicha kelishga va o‘z oldiga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha xolis fikr berishga majbur.

Agar ekspert sudning chaqiruvi bo'yicha sud uzsiz deb topgan sabablarga ko'ra kelmasa, unga FPKning 86-moddasida belgilangan miqdorda jarima solinadi.

Ekspert fikr berishdan bosh tortsa yoki bo'yin tovlasa, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksning 238–240-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi (FPKning 86-m.).

Ekspertning huquqlari FPKning 87-moddasida belgilangan. Bu moddada ko'rsatilishicha, ekspert o'zini ekspert sifatida qiziqtiradigan holatlarni aniqlash uchun ish materiallari bilan tanishishga, ishda ishtirok etayotgan shaxslarga hamda guvohlarga savollar berishga, joyni borib ko'rishda ishtirok etishga va unga qo'shimcha materiallar berilishi to'g'risida suddan iltimos qilishga haqlidir.

Ekspert, agar unda berilgan materiallar yetarli bo'lmasa yoki o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajarish uchun yetarli bilimga ega bo'lmasa, fikr berishdan bosh torta oladi.

Sud amaliyotida manfaatdor shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish muhim ahamiyatga egadir. Dalillarni ta'minlash bilan ish ko'rish tezlashadi, bu boradagi ayrim to'siqlar bartaraf etiladi.

FPKning 61-moddasida ko'rsatilganidek, o'zлари uchun zarur bo'lgan dalillarni keyinchalik taqdim etish mumkin bo'lmay qoladi yoki qiyinlashadi, deb xavotirlanish uchun asosi bo'lgan shaxslar ish ko'rilib yotgan vaqtda suddan yoki da'vo qo'zg'atilishidan oldin va keyin sudyadan o'sha dalillarning ta'minlanishini iltimos qilishlari mumkin.

Qonunga muvofiq, taraflar biror-bir guvohning boshqa joyga ketib qolishini nazarda tutib, uni so'roq qilishni, biror-bir hujjatning yo'qotilishi to'g'risida xavotirlanish bo'lganida uning asli yoki tasdiqlangan ko'chirmasi olinishini va shu kabi boshqa dalillarning sud majlisiga qadar saqlanishini ta'minlash to'g'risida iltimos qilishlari mumkin. Ariza dalillarni ta'minlash uchun protsessual harakatlar qilinishi lozim bo'lgan joydagi sudga topshiriladi.

Arizada ta'minlash kerak bo'lgan dalillar, bu dalillar tasdiqlanishi zarur bo'lgan holatlar, dalillarni ta'minlash to'g'risida iltimos bilan murojaat qilishga olib kelgan sabablar, shuningdek, ta'minlanadigan dalil zarur bo'lgan yoki ular keyinchalik asqatishi mumkin bo'lgan ish ko'rsatilishi lozim (FPKning 62-m.). Dalillarni ta'minlash to'g'risidagi arizada yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham ko'rishi mumkin.

Dalillarni ta'minlash tartibi FPKning 63-moddasida belgilangan. Ushbu moddada aytishicha, dalillarni ta'minlash suda tomonidan

FPKda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ariza beruvchiga va boshqa manfaatdor shaxslarga dalillarni ta'minlash vaqtiga joyi haqida xabar qilinadi, lekin ularning kelmay qolishi dalillarni ta'minlash haqidagi arizani ko'rishga to'sqinlik qilmaydi. Keyinga qoldirish mumkin bo'Imagan hollarda, shuningdek, oqibatda ariza beruvchi bilan kimning o'rtasida nizo kelib chiqishini aniqlash mumkin bo'lган hollarda dalillarni ta'minlash faqat birgina ariza beruvchining o'zini xabardor qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dalillarni ta'minlash tartibida sudyalar taraflarning, uchinchi shaxslarning bayonotlarini eshitadi, guvohlarni so'roq qiladi, ekspertiza tayinlaydi, yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib oladi, ko'rib chiqadi yoki joyga borib ko'zdan kechirish o'tkazadi.

Dalillarni ta'minlash tartibida to'plangan hamma materiallar ishni ko'radigan sudga yuboriladi yoki ariza beruvchining o'ziga beriladi.

FPKning 62-moddasida da'veoni ta'minlash to'g'risidagi arizaning sudya tomonidan ko'rishi va to'plangan materiallarning ishni ko'radigan sudga yuborilishi muddati ko'rsatilmagan. Bunday holatlarda sudning protsessual harakatlari mazmuni va natijalari jihatidan sud topshiriqlarini bajarish harakatlariga o'xhash bo'lганligi tufayli analogiya bo'yicha FPKning 65-moddasida ko'rsatilgan o'n besh kunlik muddatda bajarilishi kerak. Bu to'g'rida tuzilgan bayonnomalar esa tuzilgan zahoti darhol yuborilishi lozim. Dalillarni ta'minlash to'g'risida chiqarilgan ajrim ustidan shikoyat berish mumkin emas. Dalillarni ta'minlashni rad qilish to'g'risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 64-m.).

Qonunda ishni ko'rayotgan sudning dalillar to'plash maqsadida boshqa sudlarga ayrim topshiriqlar berishi mumkinligi ham nazarda tutilgan. Fuqarolik protsessining bevosita o'tkazilishi prinsipidan istisno tariqasida, ayrim holatlarda dalillarni to'plash va ta'minlash bo'yicha protsessual harakatlarni boshqa shahar yoki tumanda o'tkazish zarur bo'lsa, ishni ko'rayotgan sud tegishli sudga bu to'g'rida topshiriq berishi mumkin.

Sud topshirig'i ajrim bilan rasmiylashtiriladi va unda ko'rileyotgan ishning mazmuni, aniqlanishi zarur bo'lган holatlar, topshiriqni bajaruvchi sud to'plashi lozim bo'lган dalillar ko'rsatiladi. Bu ajrim qaysi sud nomiga yozilgan bo'lsa, shu sud uchun majburiydir va besh kungacha bo'lган muddat ichida bajarilishi lozim (FPKning 65-m.).

Sud topshirig'ini bajarish tartibi FPKning 66-moddasida belgilangan. Bu moddada ko'rsatilishicha, sud topshirig'ini bajarish sud majlisida

belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar majlisning vaqtি va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi, lekin ularning kelmasligи topshiriqni bajarishga to‘sinqinlik qilmaydi. Topshiriqni bajarish vaqtida tuzilgan bayonnomalar va yig‘ilgan hamma materiallar ishni ko‘rayotgan sudga darhol yuboriladi.

Agar ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki topshiriqni bajarayotgan sudga ko‘rsatma bergen guvohlar ishni ko‘rayotgan sudga kelib qolsalar, ular umumiy tartibda bayonot yoki ko‘rsatma beradilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Jinoyat ishida fuqaroviy da’vo deganda nimani tushunasiz?*
2. *Da’vo arizalarini qabul qilish va ularni rad etish asoslarini aytib bering.*
3. *Isbotlashdan ozod qilish asoslarini bilasizmi?*
4. *Dalillarning daxldorligi deganda nimani tushunasiz?*
5. *Da’vo arizasining shakli va mazmuni to‘g‘risida ma’lumot bering.*
6. *Ekspertrning huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?*
7. *Da’voni ta’minlash qoidalariga rioya etmaganlik uchun javobgarlik masalalarini tushuntirib bering.*

5-MAVZU. BIRINCHI INSTANSIYA SUDIDA ISH YURITISH

❖ *Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlashning ahamiyati va uning mazmuni.*

❖ *Sud xabarlari va chaqiriqlari.*

❖ *Sudda ishni ko‘rish tushunchasi, ahamiyati va uning protsessual tartibi.*

❖ *Ish yuritishni to‘xtatib turish, arizani ko‘rmasdan qoldirish va ish yuritishni tugatish asoslari.*

Mustaqillik yillarida sud-huquq sohasida olib borilgan islohotlar natijasida fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini cassatsiya instansiyasida, o‘z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo‘lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko‘rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta’kidlash lozim. Amalga oshirilgan o‘zgarishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, joriy yetilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘ylgan xatolarni o‘z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Shu borada quyidagi raqamlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo‘lsa, 2009-yil yakunlariga ko‘ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig‘i appellatsiya va cassatsiya tartibida bartaraf etilgan¹.

Bizga ma’lumki, fuqarolik ishlarini mazmuni bo‘yicha ko‘rib, hal etish asosan sud tizimining quyi bo‘g‘inlarida amalga oshiriladi.

1. Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlashning ahamiyati va uning mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to‘qqizinchi

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 18-б.

sessiyasidagi «O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari» nomli dasturiy ma’ruzasida Vatan taraqqiyoti, yurt tinchligi, xalq farovonligiga erishishga qaratilgan strategiya va siyosatimizning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Jumladan, ma’ruzada oltinchi ustuvor yo‘nalish bo‘yicha asosiy vazifa sud-huquq sohasini isloq qilish bo‘yicha belgilangan va bosqich-ma-bosqich amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirishdan iborat ekanligi ko‘rsatilib, bu sohadagi eng muhim vazifa sud-huquq idoralarining mustaqilligi va ta’sirchan faoliyatini so‘zda emas, amalda ta’minalash, sudlar tom ma’noda mustaqil bo‘lgan holdagina qonunlarning qat’i ijrosi, ularning haqiqiy ustuvorligi so‘zsiz ta’minalishi, qayerda sud mustaqil bo‘lmas ekan, shu yerda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrarligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbarining ma’ruzasi yuzasidan 2002-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori qabul qilindi. Unga asosan, sud-huquq tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan konsepsiyada va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-sentabrdagi 1625-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan Tashkiliy ma’rifiy ishlar dasturida sud hokimiyati mustaqilligini ta’minalashga qaratilgan keyingi ikki yilga mo‘ljallangan aniq tadbirlar belgilab berildi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan davlat hokimiyati organlarining taqsimlanish prinsipi va bunda sud hokimiyatining tom ma’noda mustaqilligini ta’minalashga qaratilgan diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa odil sudlovni amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud orqali himoya qilish jarayonlarida o‘zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

Sud organlariga nisbatan fuqarolarning ishonchini belgilab berishda o‘ziga xos barometr bo‘lgan fuqarolarning sudsiga murojaatlari yil sayin o‘sib borayotganligi jarayon ijobiy tomonga o‘zgarganligidan dalolat beradi.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash fuqarolik protses-sining mustaqil va muhim bosqichi bo‘lib, fuqaroviy-huquqiy nizolarning mumkin qadar tez, to‘liq va har tomonlama ko‘rilishi va hal qilinishini ta’minalash maqsadida o‘tkaziladi.

FPKning 158-moddasida bayon etilganidek, suda arizani qabul qilib, fuqarolik ishini qo‘zg‘atganidan so‘ng, ishni o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqish hamda hal qilish maqsadida uni sudda ko‘rishga tayyorlaydi.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash vazifalari quyidagilardan iborat:

1) taraflarning huquqiy munosabatlarini va ishni ko‘rishda amal qilinishi lozim bo‘lgan qonunni aniqlash;

2) taraflarning talab va e’tirozlarini asoslovchi faktlarni, shuningdek, nizoni to‘g‘ri hal etish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa faktlarni aniqlash;

3) ishni hal etish uchun zarur bo‘lgan dalillar doirasini aniqlash va ularning o‘z vaqtida sud majlisiga taqdim etilishini ta’minlash;

4) ishda ishtirok etishi mumkin bo‘lgan shaxslar tarkibi masalasini hal etish.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi fuqarolik ishlari bo‘yicha sud amaliyotini umumlashtirib, fuqarolik ishlarini ba’zi sudlarda juda sustlik bilan hal qilinishini, ishlarning ko‘rilishi ko‘p marotaba qoldirilishini, yuqori sud instansiysi tomonidan qarorlarning qayta-qayta bekor qilinishi tufayli bir ishning o‘zi bir suddan boshqasiga bir necha marotaba o‘tkazilishini va shu kabi boshqa kamchiliklarni Plenum qarorlarida ko‘rsatib o‘tgan.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlashdan qonun bilan belgilangan talablarning sudlar tomonidan bajarilmasligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrda qabul qilgan «Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi, 2011-yil 20-iyulda qabul qilgan «Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi va boshqa qarorlarida sudda ishlar bo‘lgan fuqarolar, tashkilotlarning sarson bo‘lishlari, huquqlari hamda qonuniy manfaatlarining o‘z vaqtida va lozim darajada himoya qilinmasligiga olib kelishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi fuqarolik ishlari sudda ko‘rilishi uchun to‘liq va har tomonlama tayyorlanganidan so‘nggina tayinlanishi lozimligi to‘g‘risida ko‘rsatma beradi.

Sudga tayyorlash ishlarini olib borishda sudyalar faoliyatida nuqson, kamchilik bo‘lmasisligi kerak. Ish ko‘rilishining sifati, fuqarolik protsessining tez va aniq bo‘lish asosan fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish uchun to‘g‘ri tayyorlashga bog‘liq.

Ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashda muayyan fuqarolik ishlarning turkumlari (kategoriyalari), ularning xususiyatlari, shuningdek, aniq nizoning turi e’tiborga olinadi. Chunki bir xil turkumdagi ishlarni tayyorlashda bajarilishi lozim bo‘lgan protsessual harakatlar boshqa turdagи ishlarni ko‘rish uchun tayyorlashda bajarilishi talab qilinmasligi mumkin. Chunonchi; mehnat nizolarini ko‘rishga tayyorlashda qilinadigan harakatlar aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlashdan farq qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 06-sonli «Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo‘yicha qonunchilikni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi 2011-yil 20-iyul qarorida ishni sudda ko‘rishga puxta tayyorlash zarurligiga sudlarning e’tiborini qaratish, sudya tomonidan FPKning ishni sudga tayyorlashga oid moddalariga muvofiq olib borilishi lozim bo‘lgan barcha tayyorgarlik harakatlari ajrimda o‘z aksini topishi lozimligi ko‘rsatilgan.

Bulardan tashqari sudya nikohdan ajratish haqidagi arizani qabul qilib, odatda javobgarni chaqirishi, uning ushbu arizaga munosabatini aniqlashi, er-xotinni yarashtirish choralarini ko‘rishi, qolaversa, sudya taraflarning har biri bilan alohida, shuningdek, ularning har ikkalasi bilan birgalikda oilani saqlab qolish masalasida suhbat o‘tkazishi lozimligi hamda ishni sudda ko‘rishga tayyorlash jarayonida sudya er-xotin o‘rtasida sud tomonidan hal etiladigan boshqa nizoli masalalar boryo‘qligini aniqlashi, qanday talablar nikohdan ajralish haqidagi da’vo bilan birgalikda ko‘rilishi mumkinligini tushuntirishi, taraflar o‘rtasida muqaddam nikohdan ajralish haqida ish bo‘lgan-bo‘lmaganligini aniqlashi, agar bunday ish bo‘lsa, taraflarning haqiqiy munosabatlarini aniqlash maqsadida, sud majlisida ko‘zdan kechirish uchun chaqirilishi ham belgilangan (Plenum qarorining 12-band).

Fuqarolik ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash to‘g‘risida N.M.Gurbatov tahriri ostida chiqarilgan kitobda sudda ko‘rildigan fuqarolik ishlari (da’volari) yigirma sakkiz turkumga bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha sudga qanday hujjatlar, dalillar keltirilishi zarurligi, ishni hal qilishda qo‘llaniladigan huquqiy normalar ko‘rsatilgan¹.

Fuqarolik ishi sudda mazmunan ko‘rligunga qadar da’vogar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlarni bajargan, hamma dalillarni keltirgan bo‘lsa, javobgar ham da’voga qarshi e’tirozlarini sudga ko‘rsatgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, ishni ko‘rish

¹ Qarang: Справочник по подготовке гражданских дел к судебному разбирательству / Под. ред. Н.М. Гурбатова. – М., 1989.

uchun tayyorlashda yuzasidan barcha protsessual harakatlar sudya tomonidan qilinganidan so‘nggina ish yetarli darajada tayyorlangan hisoblanadi.

Agar taraflar o‘rtasidagi nizoni sudning bir majlisida hal qilish uchun qiyinchilik yuzaga kelmasa, da’vogar o‘zining barcha talablarini to‘g‘ri bayon etgan va ularni asoslash uchun zarur dalillarni keltirgan bo‘lsa, u holda sudya da’vogarning huzurida ishni ko‘rish vaqtini belgilash bilan hamda bu to‘g‘rida ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarni xabardor qilish bilan cheklanadi. Ammo bunday holda ham sudya ishni sudda ko‘rish uchun ma’lum darajada tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Bunday tayyorgarlik da’vogardan ariza qabul qilishdan, qator masalalar bo‘yicha suhbatlashishdan iborat bo‘ladi.

Yuqoridagi harakatlar amalga oshirilgandan so‘nggina sudya FPKning 158-moddasida ko‘rsatilgan harakatlarni bajargan bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining bergen tushuntirishlarida barcha fuqarolik ishlari bo‘yicha ishni sudda ko‘rishga tayyorlash majburiyligi aytildi¹.

Ishni sud majlisida ko‘rilishiga tayyorlash barcha hollarda (protsessual harakatlarning hajmi va murakkabligidan qat’i nazar) o‘tkaziladi va fuqarolik protsessining har qanday bosqichi kabi maxsus rasmiylashtiradi.

FPKning 158-moddasida belgilanishicha, sudya fuqarolik ishini sudda ko‘rish uchun tayyorlashga bu to‘g‘rida ariza qabul qilganidan so‘nggina kirishadi. Binobarin, arizani qabul qilmasdan avval sudda keyinchalik ko‘riladigan ishlar yuzasidan ba’zi harakatlar qilinishi (chunonchi, biron-bir hujjatlar, dalillar talab qilib olinishi) qonunga hisoblanadi. Ammo sudya da’vo arizasini qabul qilishdan avval fuqarolik ishini sudda qo‘zg‘atish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni da’vogardan so‘rab olishi mumkin.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash uchun kirishish rasmiy ravishda bu to‘g‘rida sudya tomonidan ajrim chiqarilganidan so‘ng, ya’ni ishni sud majlisida ko‘rish uchun tayinlashdan avval boshlanadi.

Sudya tomonidan chiqarilgan ajrim ishni tayyorlash uchun rasmiy ravishda kirishilganini va tamomlanishinigina bildirsa ham, ammo ishni ko‘rishga oid ba’zi harakatlar oldin ham, keyinchalik ham qilinishi mumkin. Jumladan, da’vogarning nizoni hal qilish uchun hakamlar sudiga

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1998. – №3. – 16-б.

murojaat qilishga huquqiga ega bo‘lishi to‘g‘risida tushuntirishlar berish yuzasidan sudyaning qilgan harakatlari da’vo arizasi qabul qilingunga qadar ham bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik ishining sudda ko‘rilishiga oid harakatlar keyinchalik, ya’ni sud ishi boshlanganidan so‘ng ham, ishning ko‘rilishi boshqa vaqtga qoldirilganida ham yoki yuqori sudning ko‘rsatmasi bo‘yicha ham qilinishi mumkin.

Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga tayyorlash yuzasidan qilinadigan protsessual harakatlarning mazmuni qonunda belgilangan. Jumladan, FPKning 159-moddasiga ko‘ra, suda ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

1. Da’vogarni arz qilgan talablarining mohiyati bo‘yicha so‘roq qiladi, undan javobgar bildirishi mumkin bo‘lgan e’tirozlarni aniqlaydi va agar zarur bo‘lsa, da’vogarga qo‘srimcha dalillar taqdim etishni taklif qiladi, shuningdek, uning arz qilgan talablaridan voz kechish huquqiga ega ekanligini va voz kechishning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.

2. Qoida tariqasida javobgarni chaqiradi, ishning holatlari bo‘yicha uni so‘roq qiladi, da’vogarning talabiga qarshi qanday e’tirozlari borligini va bu e’tirozlar qanday dalillar bilan isbotlanishi mumkinligini aniqlaydi. Shuningdek, unga da’vogarning talablarini tan olish yoxud qarshi talablar taqdim etish huquqiga ega ekanligini tushuntiradi, alohida murakkab ishlar bo‘yicha esa, ish yuzasidan javobgarga yozma tushuntirishlar taqdim etishni taklif qiladi.

Javobgar sud majlisiga kelmaganligi hamda yozma tushuntirishlar va dalillar taqdim etmaganligi ishdagi mavjud dalillar asosida ishni ko‘rish uchun to‘sinqlik qilmaydi.

3. Taraflardan kelishuv bitimi tuzish ehtimolini aniqlaydi va kelishuv bitimining huquqiy oqibatlarini tushuntiradi.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda suda FPKning 160-moddasida belgilangan quyidagi harakatlarni bajaradi:

1) ishga uchinchi shaxslarning jalb etilishi yoki kirishishi to‘g‘risidagi masalani hal qiladi va ishda ishtirok etishga yo‘l qo‘yilgan uchinchi shaxslarni FPKning 159-moddasiga muvofiq so‘roq qiladi;

2) ishni ko‘risha vakillarning qatnashishi masalasini hal etadi;

3) ishda prokurorning ishtiroki masalasini va tegishli davlat boshqaruv idoralarini protsessda qatnashishga jalb etish haqidagi masalani hal qiladi;

4) ishda qatnashishga jalb qilinmagan tashkilot yoki ayrim fuqaroning ishning yakunidan manfaatdorligi aniqlansa, ularga, shuningdek, prokurorga yuritilayotgan ishni va uni ko‘rish vaqtini ma’lum qiladi;

5) guvohlarni sud majlisiga chaqirish yoki ularni FPKning 72-moddasida nazarda tutilgan tartibda so‘roq qilish masalasini hal qiladi;

6) tashkilotlar yoki fuqarolardan yozma va ashyoviy dalillarni talab qilib oladi yoki bu dalillarni olib, sudga taqdim etish uchun ishtirok etuvchi shaxslarga talabnomaga beradi;

7) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini hisobga olib, ekspertiza tayinlash va mutaxassis jalg qilish masalasini hal qiladi;

8) kechiktirib bo‘lmaydigan hollarda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilib, joyda ko‘zdan kechirish o‘tkazadi;

9) boshqa sudlarga sud topshiriqlari yuboradi;

10) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Ishni sud majlisiga tayyorlash, tegishli harakatlarni qilish to‘g‘risidagi ajrimni sudyaning o‘zi chiqaradi va bu ajrim ustidan appellatsiya shikoyatidan alohida tarzda shikoyat qilinmaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan harakatlar sudyaning shaxsan o‘zi tomonidan qilinsa ham, ammo ular sud nomidan amalga oshiriladi.

Demak, fuqarolik sudlarida ishlarni ko‘rishga tayyorlashdan maqsad, ishlarni mazmunan to‘g‘ri ko‘rish uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi bilan birga da’vo talablari asosli ekanligini aniqlash, taraflarning huquqiy munosabatlarini, tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan huquqiy me’yorlarni aniqlash, ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini, shuningdek, nizoni mazmunan hal etish uchun taqdim etilishi lozim bo‘lgan dalillarni aniqlashdan iborat bo‘ladi.

FPKning 161-moddasiga ko‘ra, sudya ishni yetarli darajada tayyorlangan deb topgach, uni sud majlisida ko‘rishga tayinlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi, taraflar va protsessning boshqa ishtirokchilariga ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida ma’lum qiladi.

2. Суд хабарлари ва чақириқлари

Fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, boshqa shaxslarning manfaatlarini qo‘riqlash maqsadida sudda ishtirok etuvchi shaxslar, ishning ko‘rinish joyi va vaqt to‘g‘risida xabardor qilinadilar. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarning ishning ko‘rinishi vaqt va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmasliklari keyinchalik ishning appellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko‘rinishida bekor qilinishi uchun asos bo‘ladi. Bular FPKning 313–314-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishga

tayyorlash va ularni ko‘rish muddatlari haqida»gi 1999-yil 24-sentabr qarorida ko‘rsatilgan¹.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar sudga chaqiruv xatlari, zarur hollarda esa telegramma va telefonogrammalar orqali chaqiriladilar va sudning ayrim protsessual harakatlari to‘g‘risida xabardor qilinadilar.

Sudya chaqiruv xati bilan bir vaqtida javobgarga arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini ham yuboradi. Agar javobgar sudga yozma bayonot bergen bo‘lsa, sudya uning nusxasini murojaat qilgan manfaatdor shaxsga chaqiruv xati bilan yuboradi.

Sudga chaqiruv xati ishda ishtirok etuvchi shaxslarga va ularning vakillariga shunday hisob bilan yuborilishi kerakki, ularning sudga o‘z vaqtida yetib kelishlari va ishga tayyorlanishlari uchun yetarli fursatlari bo‘lsin.

FPKning 132-140-moddalarida sudning chaqiruv xati mazmuni, chaqiruv xatini topshirish muddati, bu xatni yetkazib berish va topshirish, umuman sud xabarlari va chaqiriqlariga oid asosiy qoidalar belgilangan.

Sudga chaqiruv xatida quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- 1) sudning nomi va aniq manzili;
- 2) kelish joyi va vaqt;
- 3) shaxs qanday ish yuzasidan chaqirilayotganligi;
- 4) shaxsning kim tariqasida chaqirilayotganligi;

5) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish bo‘yicha ularda mavjud bo‘lgan hamma dalillarni taqdim etish to‘g‘risidagi taklif;

6) chaqiriluvchining shaxsan o‘zi bo‘limganligi sababli chaqiruv xatini qabul qilib olgan shaxsning birinchi imkoniyat bo‘lishi bilan uni chaqiriluvchiga topshirish majburiyat;

7) sudga kelmaslik (FPKning 86, 174, 175, 176-m.) oqibatlari ko‘rsatiladi.

FPKning 135-moddasiga binoan, chaqiruv xati chiqarilayotgan shaxsga taraf yoki ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxs tomonidan xatda ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha yetkazib beriladi. Agar sudga ma’lum qilingan manzilda fuqaro yashamasa, chaqiruv xati uning ishslash joyiga yuborilishi mumkin.

Chaqiruv xati topshirilganligi to‘g‘risida tilxat olish yo‘li bilan pochta orqali yoki xat tashuvchi orqali ham yuboriladi.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси.
– 1999. – №3 – 4. – 14-б.

Sudya ishda ishtirok etuvchi shaxsning roziligi bilan unga ish bo'yicha chaqirilayotgan boshqa shaxsga topshirish uchun chaqiruv xati berishi mumkin.

Sudya chaqiruv xatini yetkazib berish vazifasini topshirgan shaxs chaqiruv xatining ikkinchi nusxasini chaqiruv xatini olganligi to'g'risida manzilda yashovchiga qo'l qo'ydirib, sudga qaytarishga majbur.

Chaqiruv xati fuqaroga topshirilganda, u chaqiruv xatining qaytariladigan ikkinchi nusxasiga xatni olgan vaqtini ko'rsatib, imzo chekadi.

Korxonalar, muassasalar, jamoat birlashmalari, tashkilotlar nomiga yozilgan xat tegishli mansabdor shaxsga chaqiruv xatining ikkinchi nusxasiga qo'l qo'ydirib topshiriladi.

Agar chaqiruv xatini olib borgan shaxs ish bo'yicha chaqirilayotgan fuqaroning yashash yoki ishlash joyida topmasa, chaqiruv xati u bilan birga yashaydigan oila a'zolarining katta yoshdagilaridan birortasiga, ular ham bo'limganda, o'zini o'zi boshqarish idorasi yoki ish joyi ma'muriyatning mansabdor shaxsiga topshiriladi. Ko'rsatilgan hollarda chaqiruv xatini qabul qilib olgan shaxs uning ikkinchi nusxasida o'zining familiyasi, ismi, otasining ismini, fuqarolarga munosabatini (eri yoki xotini, otasi, onasi, o'g'li, qizi va hokazo ekanligini) yoki egallab turgan lavozimini ko'rsatishga majbur. Chaqiruv xatini qabul qilib olgan shaxs uni imkoniyat bo'lishi bilan kechiktirmasdan chaqiriluvchiga topshirishi kerak.

Chaqiriluvchi vaqtincha biror joyga ketgan bo'lsa, chaqiruv xatini keltirgan shaxs uning ikkinchi nusxasiga chaqiriluvchi qayoqqa ketganligi va qachon kelishi kutilayotganligi to'g'risida yozib qo'yadi.

Bu ma'lumotlar tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari yoki chaqiriluvchining ishslash joyidagi ish beruvchi (ma'muriyat) vakilining imzosi bilan tasdiqlanishi va guvohlantirilishi lozim.

Chaqirilayotgan shaxs sudning chaqiruv xatini olishdan bosh tortsa, chaqiruv xatini olib kelgan shaxs bu to'g'rida chaqiruv xatiga yozib, uni sudga qaytarib topshiradi. Chaqiruv xatini olishdan bosh tortganlik haqidagi yozuv fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari yoki chaqiriluvchining ish joyidagi ish beruvchi (ma'muriyat) yoxud kamida ikkita fuqaroning imzosi bilan tasdiqlanadi. Chaqiruv xatini qabul qilishdan bosh tortish ishni ko'rishga to'sqinlik qilmaydi.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslar ish yuritilayotgan vaqtida o'z manzili o'zgarganligi haqida sudga ma'lum qilishlari lozim. Aks holda chaqiruv qog'ozи sudga ma'lum bo'lgan oxirgi manzil bo'yicha

yuboriladi va chaqiriluvchi bu manzilda yashamayotgan bo‘lsa-da, chaqiruv qog‘ozi unga topshirilgan hisoblanadi (FPKning 138-m.).

Javobgarning haqiqiy turadigan joyi noma'lum bo‘lgan taqdirda, javobgarning ma'lum bo‘lgan oxirgi turar joyidagi pochta bo‘limi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralari yoxud oxirgi ish joyidagi ish beruvchi (ma’muriyat) chaqiruv xatining ikkinchi nusxasiga chaqiruv xati olinganligi va chaqiriluvchining qayerda ekanligi ma'lum emasligi sababli uni topshirishni mumkin bo‘lmaganligi haqida yozib yuborgan ma'lumot sudga kelib tushgach, sud ishni ko‘rishga kirishadi.

Aliment undirish haqidagi, mayib bo‘lish yoki sog‘liqqa boshqacha shikast yetishi, shuningdek boquvchisining o‘limi natijasida kelgan zararlarni qoplash haqidagi da‘volar bo‘yicha javobgarning haqiqiy yashab turgan joyi noma'lum bo‘lsa, javobgar qidirilishi shart.

Bunday hollarda sud javobgarni ichki ishlar idoralari orqali qidirish to‘g‘risida ajrim chiqaradi.

3. Sudda ishni ko‘rish tushunchasi, ahamiyati va uning protsessual tartibi

Fuqarolik ishlarining sud majlisida ko‘rilishi va hal etilishi fuqarolik protsessining muhim bosqichi bo‘lib, katta siyosiy va protsessual ahamiyatga ega. Bu bosqichda sud birinchi instansiya tariqasida ishni mazmunan ko‘radi, to‘plangan dalillarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlaydi, taraflarning huquqiy munosabatlarini tekshiradi va ishning holatiga qarab, qonunga rioya qilgan holda hal qiluv qarori chiqaradi.

Sud fuqarolik ishlarini ko‘rish va hal qilishda o‘z faoliyatini davlat, fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratadi. Sud ayni shu bosqichda odil sudlovning maqsad va vazifalarini amalga oshiradi.

Sudda ishni ko‘rish deganda, tegishli fuqarolik ishlarinigina (FPKning 31, 239-m.) sud majlisida ko‘rilishi nazarda tutiladi. Fuqarolik ishlarining sudda ochiq, oshkora ko‘rilishi muayyan tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ishning sudda ko‘rinishida davlat tashkilotlari va fuqarolar huquqlari buzilishining oldini olish, qonunlarni og‘ishmay bajarish va xalqimizning urf-odatlari, turmush tarzi qoidalariiga rioya qilish ruhida tarbiyalash maqsadlari ko‘zlanadi.

Odil sudlovni amalga oshiradigan sudning jamiyat oldida javobgarligi kattadir. Qonunlarning har qanday buzilishiga qarshi kurashish sud faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sudyaning fuqarolik ishi bo‘yicha qonunni to‘g‘ri tatbiq qila bilishga ham bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining chiqargan qator qarorlarida fuqarolik ishlarini sudda ko‘rishda qonunchilikka qat’i rioya qilish, protsessual normalarning, taraflarning huquqlarini buzilishiga, yo‘l qo‘ymaslik zarurligi qayd qilinadi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarning sud protsessini to‘g‘ri, aniq tashkil qilishi nizolar kelib chiqishining oldini olishga va eng muhimi, fuqaroviy-huquqiy munosabatlar buzilishining oldini olishga yordam beradi. Protsessual qonunlarning buzilishi, masalan, sud muhokamasida ish huquqiga ega bo‘lgan, ammo ishda ishtirok etuvchi sud majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida xabardor qilinmasdan ko‘rilishi – ish yuzasidan chiqarilgan qaror appellatsiya, cassatsiya yoki nazorat tartibida bekor qilish uchun asos bo‘ladi (FPKning 314-m.) va fuqarolik ishlarini sudlarda ko‘rishda protsessual qonunlarni tatbiq qilishda sud amaliyoti to‘g‘risidagi 1993-yil 12-dekabr Plenum qarorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Fuqarolik ishi ishda ishtirok etuvchi shaxslarni albatta xabardor qilingan holda sudning ochiq majlisida ko‘riladi (FPKning 162-m.).

Ishning ko‘rinishida sudda ishtirok etayotgan taraflar va boshqa shaxslarning harakatlari qat’i o‘rnatilgan protsessual tartib asosida olib borilishi talab qilinadi.

Sud majlisini raislik qiluvchi sudya, sudning raisi yoki uning o‘ribbosari boshqaradi. Tumanlararo va tuman (shahar) sudining majlisida sudya, yuqori sudlarning majlisida esa rais, uning o‘ribbosari yoki sudyalardan biri raislik qiladi.

Raislik qiluvchi sud majlisiga rahbarlik qilib, ishdagi barcha holatlarni, taraflarning huquq va vazifalarini to‘liq, har tomonlama xolisona ravishda aniqlashni ta‘minlaydi, ko‘rilayotgan ishga aloqasi bo‘limgan hamma narsani sud tekshiruvidan chiqarib tashlaydi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, guvohlardan birortasi raislik qiluvchining xatti-harakatiga qarshi e’tiroz bildirgan taqdirda, bu e’tiroz sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi va masala sudning to‘la tarkibida hal qilinadi. Raislik qiluvchi sud majlisida tegishli tartibni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan choralarни ko‘radi (FPKning 164 –m.).

Ishni ko‘rish vaqtida tartibni buzgan shaxsni raislik qiluvchi sud nomidan ogohlantiradi. Ishda qatnashuvchi shaxslar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar tartibni takroran buzsalar, sudning ajrimi bilan, boshqa fuqarolar esa raislik qiluvchining farmoyishi bilan sud majlisi zalidan chiqarib yuborilishi mumkin. Shuningdek, sud ishni ko‘rishda tartibni buzgan fuqarolarga eng kam belgilangan ish haqining besh baravari miqdorida jarima solishga haqli.

Prokuror yoki advokat raislik qiluvchining farmoyishlariga itoat qilmasalar, ular ogohlantiriladilar. Mazkur shaxslar raislik qiluvchining farmoyishlariga yana itoat etmasalar, agar ularni ishga zarar yetkazmay turib boshqa shaxs bilan almashtirish mumkin bo‘lmasa, ishni ko‘rishni sudning ajrimi bilan keyinga qoldirish mumkin. Ayni vaqtda sud bu haqda yuqori turgan prokurorga yoki advokatlar malaka komissiyasiga ma’lum qiladi.

Sud majlisida hozir bo‘lgan taraflar va uchinchi shaxslar tartibni buzzsalar, sud ishni ko‘rishni keyinga qoldiradi yoxud tartibni buzuvchini ish ko‘rishning hamma vaqt yoki uning bir qismi sud majlis zalidan chiqarib yuboradi.

Uning yo‘qligida qilingan protsessual harakat bilan tanishtiradi. Agar sud majlisidagi tartibni har ikki taraf, uchinchi shaxslar buzsa, sud ish ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin (FPKning 166-m.). Bordi-yu, sud majlisi jarayonida fuqarolar ommaviy tartibsizliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsalar, sud bunday hollarda ham ishni ko‘rishni keyinga qoldirishi mumkin.

Sud majlisida tartibni buzgan yoki sudga nisbatan hurmatsizlik qilgan shaxs sud tomonidan ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin¹.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘zaro va sud bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi va ayrim protsessual masalalarning shoshilmay, har taraflama o‘ylab hal etilishi, sud tomonidan qilinadigan turli protsessual harakatlar oqibatlarining aniq tushuntirib borilishi sud obro‘sini ko‘taradi, sudda ish ko‘rishning tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi.

Fuqarolik ishlarining sudda ko‘rilishi bamaslahat olib boriladi. Ishni ko‘rish va hal qiluv qarorini chiqarish bilan bog‘liq hamma masalalarni hal qilishda sudyalar sud majlisida raislik qiluvchi bilan teng huquqlardan foydalanadilar.

Fuqarolik ishlari umumiy qoida bo‘yicha oshkora ko‘riladi, bu esa, o‘z navbatida odil sudlovni amalga oshirishda xalqning nazorat etishini ta’minlaydi. Qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda ish yopiq sud majlisida ko‘riladi, chunonchi, davlat sirlarini saqlash, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy qonuniy manfaatlari talab qilgan hollarda ish yopiq sud majlisida ko‘riladi. Ishda ishtirok etuvchining hayotiy sirlariga oid ma’lumotlarning fosh bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ham ish yopiq majlisda ko‘rilishi mumkin. Fuqarolik ishining yopiq sud majlisida

¹ Qarang. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2011. – № 16. – 162-м.

ko‘rilishida kimlarning qatnashishlari mumkinligi FPKning 10-moddasida ko‘rsatilgan. Ishning ko‘rilishi sudyalarning o‘zgarmas tarkibida olib boriladi. Agar protsess davomida sudyalardan biri almashtirilsa, bu ish yana qaytadan boshlab ko‘rilishi kerak.

Har bir ish bo‘yicha sud majlisi (dam olish uchun belgilangan vaqtdan tashqari) uzluksiz davom etadi. Sud boshlangan ishning ko‘riliшини tamomlamasdan yoki uni ko‘rishni boshqa vaqtga qoldirmasdan turib, boshqa ishlarni ko‘rishga haqli emas (FPKning 11-m. 3-q.).

Fuqarolik ishlarini hal qilishda sud majlisi quyidagi qismlargacha bo‘linadi:

- 1) tayyorlov qismiga;
- 2) ishni mazmuni bo‘yicha ko‘rish qismiga;
- 3) sud muzokalaralari qismiga;
- 4) agar ishda ishtirok etsa, prokurorning fikr berish qismiga;
- 5) qaror chiqarish va uni e’lon qilish qismiga bo‘linadi.

Sud majlisining har qaysi qismi mustaqil ahamiyatga ega va bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, ketma-ket o‘tkaziladi. Ularning har birida muayyan masalalar hal qilinadi va keyingi qismga o‘tish uchun tayyorgarlik ko‘riladi.

Sud majlisining tayyorlov qismida sud fuqarolik ishini mazkur sud majlisida ko‘rish uchun zarur shart-sharoitlar bo‘lish-bo‘lmasligini aniqlaydi. Buning uchun sud ishni sudning mazkur tartibda chiqarilgan shaxslarning ishtirokida ko‘rish mumkin bo‘lish-bo‘lmasligi va to‘plangan dalillarning yetarli bo‘lish-bo‘lmasligi masalalarini hal qiladi.

Sudning bu masalalarni hal qilish borasidagi protsessual harakatlari quyidagi tartibga amalga oshiriladi. Avvalo sudda raislik qiluvchi sud majlisini ochib, qanday ishning ko‘riliшини e’lon qiladi. So‘ngra sud majlisi kotibi ish bo‘yicha chaqirilgan shaxslardan kimlarning kelganligini, sud majlisiga hozir bo‘Imaganlarga chaqiruv xatlari topshirilgan-topshirilmaganligini va sud majlisiga kelmaganlik sabablari to‘g‘risida qanday ma’lumotlar borligini sudga ma’lum qiladi. Sud hozir bo‘lganlarning shaxsini aniqlaydi, shuningdek, mansabdar shaxslar va vakillarning vakolatini tekshiradi (FPKning 167-m.).

Agar ishda tarjimon ishtirok etsa, raislik qiluvchi uning qonunda nazardautilgan burchlarini, vazifalarini tushuntiradi va noto‘g‘ri tarjima qilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi JKning 238-moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortilishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantiradi.

Sud majlisida hozir bo‘lgan guvohlar so‘roq uchun chaqirilishlariga qadar sud majlisi zalidan chiqarib turiladi. Raislik qiluvchi sudda so‘roq

qilingan guvohlarning so‘roq qilinmagan guvohlar bilan birga bo‘imasliklari uchun choralar ko‘radi. Bundan so‘ng raislik qiluvchi sudning tarkibini e’lon qiladi, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisi kotibi sifatida kimlar ishtirok etishini ma’lum qiladi. Sudya va protsessning boshqa ishtirokchilarini chetlashtirish (rad qilish) tartibi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ularning sudya, prokuror va protsessning boshqa ishtirokchilariga chetlatish berishga (rad etishga) bo‘lgan huquqlari, ya’ni ulardan biri yoki bir nechtasini ishda ishtirok etishdan chetlatish to‘g‘risida arz qilishlari mumkinligini tushuntiradi va ulardan chetlatishlar bo‘lish-bo‘lmasligi so‘raladi. Agar chetlatish e’lon qilingan bo‘lsa, uning sabablari belgilanadi, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarni va kimga nisbatan chetlatish bildirilgan bo‘lsa, uning bayonoti eshitiladi va sudyalar chetlatish to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun alohida xonaga kirdilar.

Fuqarolik ishini ko‘rishda ishtirok etishdan chetlatish asoslari va bu masalaga oid boshqa qoidalar FPKning 25–30-moddalarida belgilangan. Jumladan, sudya, prokuror, sud majlisining kotibi shaxsan bevosita yoki bilvosita ishning oqibatidan manfaatdor bo‘lsalar yoki ularning beg‘arazliklariga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa, ular ishni ko‘rishda ishtirok eta olmaydilar va ishdan chetlatilishlari lozim.

Chetlatish to‘g‘risidagi arz asoslantirilgan bo‘lishi va ishni mazmuni bo‘yicha ko‘rishdan oldin bildirilishi kerak. Chetlatish to‘g‘risida keyinchalik arz qilishga, faqat buning uchun asoslarning bo‘lishi sudga yoki kimga nisbatan arz qilinadigan bo‘lsa, shu shaxsga ishning ko‘rilishi boshlanganidan so‘ng ma’lum bo‘lgan bo‘lsagina yo‘l qo‘yiladi.

Chetlatish uchun asos deganda, kimga nisbatan chetlatish to‘g‘risida arz qilingan bo‘lsa, bu shaxsning ishda ishtirok etuvchi shaxslar bilan do‘stlik, qarindoshlik munosabatlarida bo‘lishi, xizmat jihatidan yoki boshqacha manfaatdor bo‘lishi tushuniladi.

FPKning 25–26-moddalarida ko‘rsatilgan holatlar mavjud bo‘lsa, sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon, sud majlisining kotibi bu haqda sudga arz qilishga majbur, ya’ni o‘zini o‘zi chetlatish to‘g‘risidagi masalani qo‘yishlari kerak. Shu asoslar bo‘yicha ishni ko‘rishda ishtirok etuvchi shaxslarga ham chetlatish berilishi mumkin.

Chetlatish berish to‘g‘risida arz qilingan taqdirda sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning fikrlarini, shuningdek, ishni ko‘rishdan chetlatilishi talab qilingan shaxsning so‘zini, agar u izoh berishni xohlasa eshitishi kerak.

Yuqori sudlarda ishni ko‘rishdan chetlatish masalasi chetlatish berilgan sudyaning ishtirokisiz qolgan sudyalar tomonidan hal qilinadi. Chetlatish masalasi bo‘yicha berilgan ovozlar soni teng bo‘lsa, suda ishni ko‘rishdan chetlatilgan hisoblanadi.

Ikki suda yoki sudning hamma tarkibiga chetlatish berish to‘g‘risida qilingan arz o‘sha sudning to‘liq tarkibida oddiy ko‘pchilik ovoz bilan hal qilinadi.

Prokurorga, ekspertga, tarjimon va sud majlisining kotibiga berilgan chetlatish to‘g‘risidagi masalani ishni ko‘rayotgan sud hal qiladi.

Suda yoki sudning hamma tarkibi ishni ko‘rishdan chetlatilgan taqdirda, ish shu tumanlararo yoki tuman (shahar) sudida, lekin sudyalarning boshqa tarkibida ko‘riladi yoki ish ko‘rish uchun boshqa tumanlararo yoki tuman (shahar) sudiga o‘tkaziladi.

Ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy Sudida, viloyat sudida, Toshkent shahar sudida ko‘rilayotganda suda yoki sudning hamma tarkibi chetlatilsa, ish shu sudda, lekin sudyalarning boshqa tarkibida ko‘riladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy sudida, viloyat yoki Toshkent shahar sudida chetlatish to‘g‘risidagi arz qanoatlantirilganidan so‘ng FPKning 25-moddasida ko‘rsatilgan sabablar bo‘yicha ishni ko‘rish uchun sudning yangi tarkibini tashkil qilish mumkin bo‘lmasa, ishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga o‘tkazish lozim bo‘ladi.

Sud majlisi boshlanishi bilan raislik qiluvchi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga va vakillarga ularning protsessual huquqlari va burchlarini tushuntiradi, shu bilan birga, ular muayyan protsessual harakatlarni qilishlari yoki qilmasliklarining oqibatlari to‘g‘risida ogohlantiriladi.

Yuqoridagi harakatlar amalga oshirilganidan so‘ng sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarning yangi dalillar talab qilib olish hamda ishning ko‘riliши bilan bog‘liq bo‘lgan barcha boshqa masalalar bo‘yicha iltimoslarni hal qilishga kirishadi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarning bu to‘g‘ridagi fikrlari, shuningdek, prokurorning fikri eshitilganidan so‘ng sud iltimosni qanoatlantirish yoki uni rad qilish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Sudning bu ajrimi darhol sud majlisida eshittiriladi.

Sudda hozir bo‘lmagan taraflarning ishtirokisiz ishni hal qilish kelmagan tarafning sud himoyasidan foydalanish huquqini jiddiy ravishda buzishi mumkin. Binobarin, taraflarning ishning ko‘riliши vaqt va joyi to‘g‘risida qonun bilan belgilangan tartibda xabardor qilinganliklari sud tomonidan tekshirilishi kerak. Agar taraflar xabardor qilinmagan bo‘lsalar, ishning ko‘riliши boshqa vaqtga qoldirilishi lozim.

Agar sud majlisiga kelmagan shaxslar yoki ekspertlarning yo‘qligida ishni ko‘rishga ta’sir etmagan deb topsa, ish ko‘rilishini davom ettirish to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

Fuqarolik ishini sudda mazkur tartibda va hozir bo‘lgan shaxslarning ishtirokida, to‘plangan dalillar bo‘yicha ko‘rish mumkinligi to‘g‘risida fikrga kelinsa, sud ishni mazmuni bo‘yicha ko‘rishga o‘tadi.

Fuqarolik ishining sudda mazmunan ko‘rilishi qismi raislik qiluvchining qanday ish ko‘rilishi, kimning kimga nisbatan nima to‘g‘risidagi da’vosi yoki biror-bir yuridik faktning belgilanishi haqida iltimos bilan murojaat qilinganligi to‘g‘risidagi ma’ruza bilan boshlanadi. So‘ngra raislik qiluvchi da’vogardan o‘z talablarini quvvatlash-quvvatlamasligini, javobgardan da’vogarning talablariga iqrор bo‘lishini yoki iqrор emasligini va taraflarning ishni kelishuv bitimi bilan tamomlashni istash-istamasliklarini so‘raydi.

Keyin sudya taraflarga va uchinchi shaxslarga ish bo‘yicha qo‘llarida bo‘lgan dalillarga asoslanib, tushuntirishlar berishga taklif qiladi. Avvalo, da’voning mazmuni da’vogardan eshitiladi, shundan so‘ng da’vogar tarafida turib ishda qatnashuvchi uchinchi shaxs tushuntirish beradi. So‘ngra taraflarning teng huquqlilik prinsipiga binoan tushuntirishni javobgar va uning tarafida turib ishda ishtirok etuvchi uchinchi shaxsga beradi. Prokuror, shuningdek, boshqa shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun da’vo qo‘zg‘atgan shaxslar birinchi bo‘lib so‘zlaydilar (da’voning mazmunini bayon qiladilar). Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud majlisida erkin huquq prinsipiga ko‘ra bir-birlariga savollar berishga haqlidirlar.

Ishda ishtirok etayotgan shaxslarning yozma bayonotlari va FPKning 63-65, 72-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sud tomonidan olingan bayonotlar va bayonnomalarni raislik qiluvchi o‘qib eshittiradi.

Taraflar va uchinchi shaxslarning ko‘rsatmalari, tushuntirishlari eshittirilgandan so‘ng ish holatini tushuntirish uchun so‘z ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga beriladi.

Ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarning tushuntirishlari eshitilgandan so‘ng sud guvohlarni, ekspertlarni so‘roq qilish va ish holatini aniqlash uchun zarur bo‘lgan boshqa isbotlash vositalarini tekshirish tartibini belgilaydi. Bu masalani hal qilishdan oldin sud ishda ishtirok etuvchi shaxslar hamda prokurorning fikrini eshitadi va sudning ajrimiga muvofiq, sud majlisi zaliga birma-bir guvohlar chaqiriladilar.

Guvohlarni so‘roq qilish tartibi guvohlarni so‘roq qilish tartibiga va ularning ko‘rsatmalariga oid qoidalar FPKning 183–186-moddalarida

berilgan. Bu qoidalarda ko'rsatilishicha, har bir guvoh alohida so'roq qilinadi. Raislik qiluvchi guvohni so'roq qilishdan oldin uning shaxsini, yoshini, kasbini, shu ishga aloqasini, taraflar va boshqa shaxslar bilan o'zaro munosabatini aniqlaydi, shuningdek, uni ko'rsatma berishdan bosh tortgani yoki bo'yin tovlangani va bilan turib yolg'on ko'rsatma bergani uchun O'zbekiston Respublikasi JKning 239 va 240-moddalari bo'yicha javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantiradi.

Guvohlardan ularga burchlari va mas'uliyatlari tushuntirilganligi to'g'risida tilxat olinadi. Tilxat sud majlisi bayonnomasiga qo'shiladi. Hali ko'rsatma bermagan guvohlar ishni ko'rish vaqtida sud majlisi zalida bo'lishlari mumkin emas.

Guvoh kimning arizasi bo'yicha chaqirilgan bo'lsa, shu shaxs va uning vakili guvohga birinchi bo'lib savol beradi, so'ngra unga ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar va vakillar savol beradilar. Sudning tashabbusi bilan chaqirilgan guvohga savollarni birinchi bo'lib da'vogar beradi. Raislik qiluvchi va boshqa sudyalar guvoh so'roq qilinayotgan vaqtda unga istaganlariga savol berishga haqlidirlar.

So'roq qilingan guvohlar ishni ko'rish tamom bo'lgunga qadar sud majlisi zalida qolishlari lozim. Sud so'roq qilingan guvohlarni ishni ko'rish tamom bo'lmasdan oldin sud majlisi zaldan chiqib ketishiga taraflarning roziligi bilan ruxsat eta oladi.

Zarur bo'lganda sud guvohni o'sha yoki kelgusi majlisda qaytadan so'roq qilishi, shuningdek, guvohlarning guvohliklarida bo'lgan ziddiyatlarni aniqlash uchun ularni yuzlashtirishi mumkin. Guvoh guvohlik berishda uning guvohliklari biror hisoblar yoki xotirada qolishi qiyin bo'lgan boshqa ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan hollarda, u yozma xotiralardan foydalanishi mumkin. Bu xotiralar sudga va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko'rsatiladi va sudning ajrimi bilan ishga qo'shib qo'yilishi mumkin.

Raislik qiluvchi 16 yoshga yetmagan guvohlarga ish bo'yicha hamma bilganlarini rostgo'ylik bilan aytib berishga majbur ekanliklarini tushuntiradi, lekin ular ko'rsatma berishdan bosh tortganlik yoki bo'yin tovlaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirilmaydilar.

O'n turt yoshgacha bo'lgan guvohlarni so'roq qilishda sud lozim topgan taqdirda, o'n to'rt yoshdan un olti yoshgacha bo'lgan guvohlarni so'roq qilishda ham pedagog, zarur hollarda esa ularning ota-onalari, vasiy hamda homiylari chaqiriladi. Bu shaxslar raislik qiluvchining ruxsati bilan guvohga savollar berishi mumkin.

Alovida hollarda voyaga yetmagan guvohni so‘roq qilish vaqtida sud majlisi zalidan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan birortasi sudning ajrimi bo‘yicha chiqarib yuborilishi mumkin. O‘sha shaxs majlis zaliga qaytib kirganidan so‘ng, unga voyaga yetmagan guvohning ko‘rsatmasi o‘qib eshittirilishi va guvohga savollar berish imkoniyati ta’minlanishi zarur.

O‘n olti yoshga yetmagan guvoh so‘roq qilib bo‘lingach, sud majlisi zalidan chiqarib yuboriladi, bu guvohning majlis zalida bo‘lishini sud zarur deb topgan hollar bundan mustasno.

Guvohlarning FPKning 65–68 va 75-moddalarida ko‘rsatilgan tartibda sud tomonidan olingan ko‘rsatmalari sud majlisida o‘qib eshittiriladi.

Yozma dalillarni tekshirishda sud og‘zakilik prinsipiga binoan ularni to‘liq yoki oid bo‘lgan qismini o‘qib eshittirishi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, lozim bo‘lganda ekspertlarga, mutaxassisga hamda guvohlarga ko‘rsatishi kerak, shundan so‘ng ishda ishtirok etuvchi shaxslar ular yuzasidan tushuntirishlar berishlari mumkin.

Fuqarolarning shaxsiy yozishmalari kabi dalillar sud majlisida, bunday yozishmalar kimlar o‘rtasida bo‘lgan bo‘lsa, ularning roziligi bilan o‘qilishi mumkin. Ularning roziligi bo‘lmaganida esa sud ularni faqat yopiq majlisdagina tekshiradi.

Agar taraflar uzrli sabablar bo‘yicha dalillarni o‘z vaqtida topshira olmagan bo‘lsalar, sud ish yuzasidan haqiqatni belgilash maqsadida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarni sud majlisida ham qabul qilishi mumkin.

Taqdim qilingan hujjatlarning qalbakiligi to‘g‘risidagi arizalar bo‘yicha sud ekspertizasi tayinlanadi. Agar sud hujjatni qalbaki degan xulosaga kelsa, uni dalillar qatoridan chiqarishi va zarur hollarda sud hujjatlarni tekshirish uchun prokurorga yuborishi mumkin. Agar ishda ashyoviy dalillar bo‘lsa, ular sud tomonidan ko‘zdan kechirib chiqiladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, vakillarga, zarur bo‘lganda esa ekspert, mutaxassis va guvohlarga ham ko‘rsatiladi.

Ashyoviy dalillarni ko‘zdan kechirish to‘g‘risidagi qoidalar FPKning 191–192-moddalarida berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenum qarorida ishni sudda ko‘rish jarayonida ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarni aniqlash zarurligi haqida ta’kidlangan. Masalan, sha’n va qadr-qimmatga oid ishlarni ko‘rishda:

∞raddiya berilishi talab qilinayotgan ma’lumotning tarqatilgan-tarqatilmaganligi;

∞bu ma'lumotlar fuqaro yoki tashkilotning qadr-qimmatiga putur yetkazgan-yetkazmaganligi;

∞bu ma'lumotlarning haqiqatga to'g'ri kelish-kelmasligi va hokazolar ko'rsatilgan¹.

Sudga keltirish mumkin bo'lman ashayoviy va yozma dalillar turgan joyida ko'zdan kechiriladi va tekshiriladi. Joylarda ko'zdan kechirishni o'tkazish to'g'risida sud ajrim chiqaradi.

Ko'zdan kechirish joyiga borganda raislik qiluvchi sudning ish ko'rishni davom ettirishi to'g'risida e'lon qiladi, ishni ko'rish fuqarolik protsessual qonunlarda belgilangan qoidalar bo'yicha olib boriladi. Ko'zdan kechirishning natijalari sud majlisi bayonnomasiga kiritiladi. Bayonnomaga ko'zdan kechirish paytida tuzilgan yoki tasdiqlangan rejalar, chizmalar, suratlarni ham qo'shish mumkin. Protsessda ishtirok etishga sud jalg qilgan yoki o'z tashabbuslari bilan kirishgan davlat boshqaruv idoralarining fikrlari sud majlisida bayon qilinadi, so'ngra sud va ishda ishtirok etuvchi shaxslar mazkur vakillarga ko'rilib yozilgan ish bo'yicha savollar berishlari mumkin.

Sud majlisi boshidan oxirigacha taraflarning tortishuvchanlik prinsipi asosida o'tkaziladi. Taraflar da'voni isbotlash yoki rad qilish uchun barcha dalillarni keltiradilar.

Sud ham qonunda (FPKning 15-m.) ko'rsatilganidek, taqdim qilingan materiallar va bayonotlar bilan cheklanmasdan, ishning haqiqiy holatini, taraflarning huquq va burchlarini har taraflama, to'liq va xolisona ravishda aniqlash uchun barcha choralarini ko'radi. Ish bo'yicha yig'ilgan hamma dalillar tekshirilib bo'lingandan so'ng raislik qiluvchi ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillardan ish materiallarini biror narsa bilan to'ldirish-to'ldirmasligini so'raydi. Bunday arzlar bo'lmasa, raislik qiluvchi ishni mazmunan tekshirish tamom bo'lganligini e'lon qiladi va sud muzokarasini hamda prokurorning fikrini eshitishga o'tadi (FPKning 197-m.).

Sud muzokaralari. Birinchi instansiya sudi majlisining muzokaralari ishda ishtirok etuvchi shaxslarning chiqishlari va prokurorning xulosalaridan iborat bo'ladi. Bu qismda taraflar: avval da'vogar, so'ngra javobgar yoki ularning vakillari sud majlisida da'veoning qanday dalillar bilan isbotlanganligini yoki isbotlanmaganligini, qanday huquqlar yoki burchlar belgilangan yoki belgilanmaganligini tegishli huquq normalariga

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1992. – № 3. 20–21-б.

havola qilib (asoslanib) ko'rsatadilar. Sud majlisining shu qismida da'vogar qoida bo'yicha, da'vening qanoatlantirilishini, javobgar esa, agar da'veni tan olmagan bo'lsa, uning rad qilinishini iltimos qiladi.

Sud muzokaralari belgilangan tartibda o'tkaziladi va ishda ishtirok etuvchi shaxslar va vakillarning chiqishlaridan iborat bo'ladi. Sud muzokaralarida dastlab da'vogar va uning vakili, so'ngra javobgar va uning vakili so'zlaydi. Boshlangan protsessda nizo predmetiga mustaqil talabi bo'lgan uchinchi shaxs va uning vakili taraflardan so'ng gapiradi. Nizoning predmetiga mustaqil talab bildirmagan uchinchi shaxs va uning vakili ishda qaysi da'vogar yoki javobgar tomonidan ishtirok etayotgan bo'lsa, shu da'vogar yoki javobgardan keyin gapiradi.

Prokuror, shuningdek davlat boshqaruv idoralari, kasaba uyushmasi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda fuqarolar FPKning 5-moddasida ko'rsatilgan tartibda ish boshlagan bo'lsalar, sud muhokamasida birinchi bo'lib so'zlaydilar.

Protsessda ishtirok etishga sud tomonidan jalb qilingan yoki o'z tashabbusi bilan kirishgan davlat boshqaruv idoralari vakillariga so'z sud muzokarasida taraflar va uchinchi shaxslardan so'ng beriladi (FPKning 198-m. 5-q.).

Muzokara so'ngida ishtirokchilar bir-birlariga qarshi e'tiroz (replika) bildirishlari, ya'ni keltirilgan vajlar, asoslar to'g'risida yana qayta so'zga chiqishlari mumkin. Oxirgi e'tirozni aytish hamma vaqt javobgar va uning vakiliga tegishli bo'ladi.

Sud majlisida prokurorning fikr berish qismi. Ishda ishtirok etuvchi prokuror, o'zi da'vo qo'zg'atganidan yoki ishga kirishganidan qat'i nazar, ishning to'liq mazmuni bo'yicha o'z xulosasini sud muzokarasidan keyin beradi (FPKning 199-m.).

Prokuror sud majlisida tekshirilgan dalillarni tahlil qilib, qanday faktlarning aniqlanganligi, ish bo'yicha qaysi qonunga asoslanish lozimligi, da'vening qanoatlantirilishi yoki qanoatlantirilmasligi to'g'risida xulosa beradi. Agar sudda ko'rileyotgan ish jamoatchilik manfaatlari bilan bog'liq bo'lsa, uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tishi kerak bo'ladi.

Ba'zan prokuror sudga og'zaki fikr berish bilan birga, sud majlisining bayonnomasi to'g'ri va to'liq yozilishini ta'minlash va bayonnomaga qo'shish uchun o'z xulosani yozma ravishda ham berishi maqsadga muvofiqdir. Sud muzokarasida qatnashuvchilar yoki xulosa beruvchi prokuror o'z so'zida sudda aniqlanmagan, shuningdek, sud majlisida tekshirilmagan dalillarga asoslanishga haqli emas.

Sud muzokarasida yoki prokuorning xulosa berish vaqtida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan yangi holatlarning aniqlanishi yoki dalillarni tekshirish zarur deb topilsa, sud ishni mazmunan ko‘rishni qaytadan boshlash to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Ishni mazmunan ko‘rish tamom bo‘lganidan so‘ng, sud muzokarasi va prokuorning xulosasi umumiy tartibda tinglanadi.

Sud majlisining qaror qilish qismi. Sud majlisining oxirgi qismi hal qiluv qarorini chiqarish va bu qarorni eshittirish to‘g‘risida bo‘ladi.

FPKning 201-moddasida ko‘rsatilganidek, sud muzokarasi va prokuorning xulosasi tinglanib bo‘lgach, sud hal qiluv qarori chiqarish uchun alohida xonaga (maslahatxona) kiradi. Raislik qiluvchi sud majlisida hozir bo‘lganlarga shu haqda e’lon qiladi. Hal qiluv qarorini chiqarishga oid asosiy qoidalar FPKning 203–205-moddalarida berilgan. Bu qoidalarda ko‘rsatilishicha, ishni mazmunan hal qiladigan birinchi instansiya sudining qarori hal qiluv qarori shaklida, O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi.

Amaldagi FPKda sudning hal qiluv qarori ish ko‘rib bo‘linganidan so‘ng darhol chiqariladi. Alovida murakkab ishlar yuzasidan asoslantirilgan hal qiluv qarorini tayyorlash ko‘pi bilan uch kunga kechiktirilishi mumkin, lekin qarorning xulosa qismini sud ishni ko‘rib chiqish tamomlangan majlisning o‘zidayoq e’lon qilishi kerak. Ayni vaqtda sud ishda qatnashuvchi shaxslar va vakillar asoslantirilgan qaror bilan qachon tanishtirib chiqishlari mumkinligini e’lon qiladi. Qarorning e’lon qilingan xulosa qismi hamma sudyalar tomonidan imzolanishi va ishga qo‘sib qo‘yilishi nazarda tutilgan.

Alovida xonada (maslahatxona) boshqa shaxslarning hozir bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori qonuniy va asosli bo‘lishi lozim. Sud o‘z hal qiluv qarorini faqat sud majlisida tekshirilgan dalillar bilangina asoslaydi.

Sud hal qiluv qarorini chiqarishda dalillarga baho beradi, ish bo‘yicha ahamiyatli bo‘lgan qanday holatlar aniqlanganligi va qandaylari aniqlanmaganligini, qanday qanoatlantirish lozim bo‘lish-bo‘lmasligini belgilaydi.

Sud shuningdek sud xarajatlarini taqsimlaydi. Hal qiluv qarorini ijro etish tartibi va muddatini belgilaydi hamda boshqa qo‘sishimcha masalalarni hal qiladi.

Agar maslahat vaqtida ish uchun ahamiyatli yangi holatni aniqlash yoki yangi dalilni tekshirish zarur bo‘lib qolsa, sud hal qiluv qarori

chiqarmasdan, ishni sudda tekshirishni yangidan boshlaydi va bu to‘g‘rida ajrim chiqaradi. Bunday holatda sud tekshiruvi faqat qo‘sishma tekshirish zarur bo‘lgan holatlar doirasidagina olib boriladi.

Sudning hal qiluv qarori agar ish hay’at tartibida ko‘rilsa, ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. U raislik qiluvchi yoki sudya tomonidan yozma shaklda bayon qilinadi va hal qiluv qarorini chiqarishda ishtirok etgan (sudya) sudyalar tomonidan imzolanadi. Sudya, ozchilikda qolgan sudya o‘zining alohida fikrini yozma shaklda bayon qilishga haqli. Sudning alohida fikri sud majlisida o‘qib eshittirilmaydi, lekin ishga qo‘sib qo‘yiladi.

Hal qiluv qarori imzolangandan so‘ng sud majlis zaliga qaytib kiradi. Sudya sudning hal qiluv qarorini o‘qib eshittiradi. So‘ngra raislik qiluvchi hal qiluv qarorining mazmunini tushuntiradi va taraflardan sudning hal qiluv qaroriga nisbatan hamda uni darhol ijro qilishga qarshiligi boryo‘qligini aniqlaydi. Taraflar hal qiluv qarorini darhol ijro qilishga bo‘lgan roziligi sud majlisining bayonnomasiga kiritilib, ikkala taraf tomonidan imzolanadi. Uning ustidan shikoyat qilish tartibi va muddatini tushuntiradi hamda mazkur ish yuzasidan sud masalani yopiq deb e’lon qiladi (FPKning 202-m.).

4. Ish yuritishni to‘xtatib turish, arizani ko‘rmasdan qoldirish va ish yuritishni tugatish asoslari

Ish yuritishni to‘xtatish fuqarolik ishining sudda hal qilinishiga to‘sinqlik qiladigan muayyan holatlarning ro‘y berishi tufayli ish yuzasidan protsessual harakatlarning to‘xtalishini bildiradi. Ish ko‘rishga to‘sinqlik qiladigan holatlar turlicha bo‘lib, u sudga ham, taraflarga ham bog‘liq bo‘lmaydi va qachon bunday to‘siq bartaraf qilinishi noma’lum bo‘ladi. Shuning uchun sud ishni aniq muddatga ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Shu sababli protsessual harakatlarni vaqtincha to‘xtatadi. Ish yuritishni to‘xtatish asoslari *majburiy* va *fakultativ* asoslarga bo‘linadi.

Ish yuritishni to‘xtatishning majburiy asoslari FPKning 92-moddasida belgilangan. Ushbu moddada ko‘rsatilishicha, sud quyidagi hollarda:

1) ishda taraf bo‘lgan fuqarolarni vafot etib, nizolashilayotgan huquqiy munosabat huquqlarning boshqalarga o‘tkazilishiga yo‘l qo‘ysa yoki ishda taraf bo‘lgan yuridik shaxs qayta tashkil etilsa;

2) fuqaro muomala layoqatini yo‘qotsa;

3) javobgar Qurolli Kuchlarning harakatdagi qismida bo‘lsa yoki Qurolli kuchlarning harakatidagi qismida bo‘lgan da’vogar iltimos qilsa;

4) mazkur ishni fuqarolik, jinoiy yoki ma’muriy tartibda ko‘rilayotgan boshqa ish hal qilinmasdan ilgari ko‘rish mumkin bo‘lmasa, ish yuritishni to‘xtatishga majbur bo‘ladi.

Ish yuritishning fakultativ, ya’ni qo‘s Shimcha, majburiy bo‘l magan asosi FPKning 93-moddasida belgilangan. Bu qonunda ko‘rsatilishicha, quyidagi hollarda:

1) taraflar Qurolli Kuchlar tarkibida haqiqiy muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan bo‘lsa yoki mazkur shaxslar davlatning birorta majburiyatini bajarish uchun jalg qilingan bo‘lsa;

2) taraflar shifoxonada bo‘lsa, shuningdek ulardan birida sudga kelishga to‘sqinlik qiladigan va tibbiy muassasaning ma’lumotnomasi bilan tasdiqlangan kasallik bo‘lsa;

3) taraf uzoq vaqt xizmat safarida bo‘lsa yoki boshqa uzrli sababga ko‘ra yo‘q bo‘lsa;

4) FPKning 140-moddasida nazarda tutilgan hollarda javobgar qidirilayotgan bo‘lsa;

5) sud tomonidan ekspertiza o‘tkazish tayinlangan bo‘lsa;

6) Sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosi yoki o‘z tashabbusi bilan ish yuritishni to‘xtatishga haqli.

Sudda ishning yuritilishi qaysi vaqtgacha to‘xtatilib turilishi FPKning 94-moddasida ko‘rsatilgan. Ish yuritishni to‘xtatish to‘g‘risida sud asoslantirilgan ajrim chiqarishi lozim. Sudning ish yuritishni to‘xtatish to‘g‘risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirish mumkin (FPKning 95-m.). Ish yuritish uni to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar bartaraf qilingach, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning arizasi yoki sudning tashabbusi bilan qayta tiklanadi.

Sud ish yuritishni qaytadan boshlaganida ishda ishtirok etuvchi shaxslarni umumiylashtirishga muvofiq chaqiradi (FPKning 96-m.).

Ish yuritilishi to‘xtatilishida arizani ko‘rmay qoldirishni (FPKning 97-m.) ishni ko‘rishni keyinga qoldirishdan (FPKning 177-m.) ajrata bilish kerak. Ularning farqi yuqorida keltirilgan moddalarning mazmunini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi ish yuritishni to‘xtatish masalasiga jiddiy e’tibor berish lozimligini ta’kidlagan. Masalan, «Sud amaliyotida fuqarolar va tashkilotlarning sha’n va qadr-qimmatini himoya qilish haqidagi qonunlarni qo’llash to‘g‘risida»gi 1992-yil 19-iyun Plenumi qarorida ishni ko‘rishni bir necha marotaba qoldirish ish

yuritishni asossiz harakatdan to‘xtatib qo‘yish oqibatida nizoning muhimligi mohiyati yo‘qolishi tufayli da’vogarlar talablardan voz kechayotganliklari, anchagina arizalar esa, ko‘rilmasdan qoldirayotganligi ko‘rsatilgan¹.

Ish yuritishni tugatish o‘zining mazmuni bilan da’vo talabini qo‘zg‘atgan shaxsning huquqini sudda himoya qilishga ega emasligidan dalolat beradi, sud esa bunday ishlarni o‘z ish yurituviga qabul qilishga haqli emas. Shuning uchun sud, tarafni sud himoyasidan foydalanish huquqiga ega emasligi sababli ish yuritishni tugatadi. Bu manfaatdor shaxsni shu ish bo‘yicha qaytadan sudga murojaat etish huquqidan mahrum qilish, demakdir.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual qonunchiligi sudda ish yuritishni nizo yuzasidan hal qiluv qarori chiqarmasdan tamomlashning ikki shakli (formasi)ni:

- 1) ish yuritishni tugatish;
- 2) arizani ko‘rmay qoldirish shakllarini belgilaydi.

Ish yuritishni tugatish sudning ish yuzasidan faoliyati da’vogarning xuddi shu ish bo‘yicha sudga qaytadan murojaat qilish huquqidan mahrum qilish bilan tugatilishini nazarda tutadi.

Arizaning ko‘rilmay qoldirilishida esa, ish yuritish tamomlansa ham, ammo da’vogarga da’voning ko‘rilmay qoldirilishiga asos bo‘lgan to‘sinqinliklar bartaraf qilinganidan so‘ng xuddi shu ish bo‘yicha qaytadan murojaat qilish huquqi beriladi.

FPKning 100-moddasiga muvofiq, sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi:

- 1) agar ish sud organlarida ko‘rishga tegishli bo‘lmasa;
- 2) agar mazkur ish yuzasidan, xuddi shu taraflar o‘rtasida o‘sha predmet to‘g‘risida va o‘sha asoslar bo‘yicha qilingan nizo yuzasida sudning chiqargan va qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori bo‘lsa yoki da’vogar da’vodan voz kechishni qabul qilish to‘g‘risida yoxud taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlash to‘g‘risida sudning ajrimi bo‘lsa;
- 3) agar da’vogar arz qilgan talablaridan voz kechgan va sud voz kechishni qabul qilgan bo‘lsa;
- 4) agar taraflar kelishuv bitimi tuzgan bo‘lsalar, va bu bitim sud tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa;

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1992. – №3. – 18-б.

5) ishni sudda ko‘rishga tayyorlash vaqtida da’vogarning talablariga javobgar iqror bo‘lsa va bu iqrorlik sud tomonidan qabul qilingan bo‘lsa;

6) taraflar o‘rtasida ushbu nizoni hal qilish uchun hakamlik sudiga topshirish haqida hakamlik bitimi tuzilgan bo‘lsa;

7) ish bo‘yicha taraflardan biri bo‘lgan fuqaroning vafotidan so‘ng nizoli huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa.

Ish yuritishni to‘xtatishning yuqorida sanab o‘tilgan asoslari qat’i bo‘lib, kengaytirilmaydi va unga boshqa asoslar qo‘shilmasligi kerak. Ish yuritish sudning ajrimi bilan tugatiladi. Agar ish yuritish ishning sudga taalluqli bo‘lmaganligi sababli tugatilsa, sud ariza beruvchiga qaysi idoraga murojaat qilish kerakligini ko‘rsatishi shart. Ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim ustidan xususiy shikoyat berilishi va xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 101-m.).

Ish yuritish tugatilgan taqdirda xuddi shu taraflar o‘rtasida o‘sha narsa to‘g‘risida va o‘sha asoslar bo‘yicha qilingan nizo yuzasidan sudga qaytadan murojaat qilishga qonunda yo‘l qo‘yilmaydi.

Arizani ko‘rmasdan qoldirish. Sud majlisida arizani ko‘rmasdan qoldirish asoslari FPKning 97-moddasida belgilangan. Bu moddada aytilishicha, sud quyidagi hollarda arizani ko‘rmasdan qoldiradi:

1) ariza muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan berilgan bo‘lsa;

2) manfaatdor shaxs nomidan arizani ish yuritishga vakolati bo‘lmagan shaxs bergen bo‘lsa;

3) sud ayni bir taraflar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha chiqqan nizo yuzasidan ish yuritayotgan bo‘lsa;

4) ishni o‘zlarining ishtirokisiz ko‘rishni iltimos qilmagan taraflar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha ham uzrli sabablarsiz sudga kelmasalar, sud esa ishga oid mavjud materiallar asosida ishni hal qilish mumkin emas, deb hisoblasa;

5) ishni o‘zining ishtirokisiz ko‘rishni iltimos qilmagan da’vogar ikkinchi chaqiruv bo‘yicha sudga kelmasa, javobgar esa, ishni mazmunan ko‘rishni talab qilmasa.

Yuqorida ko‘rsatilgan besh asosdan tashqari yana boshqa ba’zi holatlarda ham, masalan, sudda qo‘zg‘atilgan ishning FPKning 279–281-moddalari bo‘yicha alohida tartibda ko‘rilishi lozimligi aniqlanganida, ish hal qiluv qarori chiqarilmasdan tamomlangan hisoblanadi va arizachiga ishning sud majlisida ko‘rilmay qoldirilishi va alohida ish yuritish tartibida ko‘rilishi tushuntiriladi.

Sud qonunda ko‘rsatilgan hollarda arizani ko‘rmasdan qoldirish to‘g‘risidagi ajrimni bekor qilishi mumkin. Agar taraflar sud majlisiga

kelmaganlik sabablarini uzrli ekanligini tasdiqlovchi dalillar taqdim etsalar, yo‘l qo‘yiladi.

Ariza ko‘rilmay qoldirilgan hollarda ish yuzasidan, yuqorida aytilganidek, hal qiluv qarori chiqarilmasdan ishning ko‘rilmay qoldirilishi to‘g‘risida ajrim chiqarish bilan tamom qilinadi. Ajrimda ishni hal etishga to‘sinqinlik qiladigan, ya’ni FPKning 98-moddasida ko‘rsatilgan holatlarni bartaraf etish kerakligi ko‘rsatiladi.

Ishni ko‘rmay qoldirish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilganidan so‘ng manfaatdor shaxs umumiyl tartibda ariza bilan sudga murojaat qilish va yangidan ish qo‘zg‘atishga haqlidir (FPKning 99-m.).

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Sud majlisining qismlarini aytib bering?*
2. *Sud hal qiluv qarorlarining mazmuni nimadan iborat?*
3. *Sirdan hal qiluv qarorini chiqarish tartibini bilasizmi?*
4. *Kelishuv bitimining mohiyatini bilasizmi?*
5. *Sud majlisi bayonnomasining ahamiyatini tushuntirib bering.*
6. *Sudga kelmaslik oqibatlarini aytинг.*
7. *Ish yuritishni to‘xtatib turishning ish yuritishni tugatishdan farqi nimada?*
8. *Arizani ko‘rmasdan qoldirish asoslarini sanab bering.*

6-MAVZU. DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA ORGANLAR, SHUNINGDEK, MANSABDOR SHAXSLARNING XATTI- HARAKATLARI (QARORLARI) USTIDAN BERILGAN SHIKOYATLAR VA ARIZALAR BO‘YICHA HAMDA ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH

∞ *Idoralar va mansabдор shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib hal etishning umumiy tavsifi.*

∞ *Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabдор shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalarga oid ishlarning sudda ko‘rilishi.*

∞ *Alohida tartibda ko‘rildigan ishlar tushunchasi, mohiyati va turlari.*

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabдор shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ish yuritish tartibi FPKning 264–278-moddalarida ko‘rsatilgan. FPKning 31-moddasiga binoan, sudlarning sudlovligiga FPKning 264-moddasida sanab o‘tilgan ishlar ham taalluqlidir. Bulardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan shikoyatlarni sudlarda ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida»gi 1996-yil 19-iyul qarori bilan tartibga solinadi. Bu huquqiy me’yorlarda shikoyat qilish uchun asoslar va boshqa qoidalar o‘z ifodasini topgan.

Shuningdek, Alohida tartibda ish yuritish mamlakatimiz Fuqarolik protsessual kodeksining 279–282-moddalarida o‘z aksini topgan bo‘lib, 279-moddasiga binoan, alohida tartibda ish yuritishning besh turi belgilangan. Albatta, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik ishlar bo‘yicha sudlari faoliyatida alohida tartibda ish yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, biz mavzuni o‘rganish jarayonida sizning e’tiboringizga bu masalalarni yetkazishga harakat qilamiz.

1. Idolar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib hal etishning umumiy tavsifi

Fuqarolik sud ishlarni yuritish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ko‘rsatilganidek, sudlar da’vo tartibida yuritiladigan ishlardan tashqari davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ishlarni hamda alohida tartibda yuritiladigan ishlarni ko‘rib chiqish va hal etish tartibini belgilaydi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar bo‘yicha ishlar faqat qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazarda tutilgan hollardagina sudlarga taalluqli bo‘ladi.

Umumiy qoida bo‘yicha, bunday ma’muriy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar (kelishmovchiliklar) asosan ma’muriy tartibda ko‘riladi. Ammo, amaldagi qonunchilik bu turkumga kiradigan ba’zi nizolarning ko‘riliши va hal qilinishini sudning vakolatiga kiritgan. Jumladan, FPKning 264-moddasiga asosan, davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar bo‘yicha ishlarga quyidagilar kiradi:

1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar;

2) notariusning, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlarining harakatlarni bajarishni rad etganligi yoxud ularni noto‘g‘ri bajarganligi ustidan shikoyatlar;

3) prokurorning huquqiy aktni g‘ayriqonuniy deb topish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha ishlar.

Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlarni sudda ko‘rib chiqish tartibi FPKning 26–29-boqlarida ko‘rsatilgan istisno va qo‘sishchalar bilan birgalikda fuqarolik sud ishlari yuritishning umumiy qoidalariga binoan ko‘riladi.

Fuqarolarning ishtiroki bilan bo‘ladigan bunday ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rib hal etishning sud tartibi sudsiz ma’muriy tartibda ko‘riladigan ishlarga nisbatan muayyan ustunliklarga ega bo‘lishi nizolarning to‘g‘ri hal qilinishiga katta kafolatlar yaratilganligini, fuqarolar, davlat va boshqa idoralarning huquq va manfaatlarining jiddiy qo‘riqlanishi bilan farqlanadi.

Amaldagi qonunga asosan, ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ustidan shikoyat manfaatdor shaxs – jabrlanuvchi, uning qonuniy vakillari va advokatlari tomonidan berilishi mumkin. Shikoyatni yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) yoki ma'muriy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudiga, sudning ma'muriy ishlar bo'yicha chiqargan qarori ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat bilan murojaat etish tartiblari belgilangan.

Shikoyat ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror qabul qilgan organga (mansabdor shaxsga) yoki bevosita sudga yuboriladi. Ish yuzasidan qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs) shikoyatni olgach, uni uch kun ichida ish bilan birga shikoyatni ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan organga (mansabdor shaxsga) yuboradi.

Qonunga binoan, qaror ustidan shikoyat bergen shaxs davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

Shikoyat qarorning nusxasini olgan kundan boshlab o'n kun ichida beriladi. Agar shikoyat muddati uzrli sabablar bilan o'tkazib yuborilsa, bu muddat shikoyatni ko'rib chiqishga vakolatli organ (mansabdor shaxs) tomonidan tiklanishi qonunda nazarda tutilgan.

Prokuror tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi qarori ustidan tuman (shahar) sudining raisiga yoki yuqori turuvchi sudga, boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Ma'muriy ish yuzasidan chiqarilgan qarorga nisbatan berilgan shikoyat va bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar) shikoyat va protest tushgan kundan boshlab o'n kun muddat ichida ko'rib chiqishlari lozim.

Berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosliligi vaadolatlilagini tekshirishi lozim.

Ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha appellatsiya instansiya sudida ish yuritish tartibi ayrim istisnolardan tashqari, qonunda ko'rsatilgan qoidalarga asosan hal etiladi.

Appellatsiya instansiya sudi ma'muriy ishlar bo'yicha sudyaning qarori yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo'yicha ajrim chiqaradi va u chiqarilgan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish yuzasidan berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) chiqarilgan qarorni o‘zgartirishsiz, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmasdan qoldiradi;

2) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni qayta ko‘rib chiqish uchun yuboradi;

3) chiqarilgan qarorni bekor qiladi va ishni yuritishni tugatadi;

4) jazo chorasin kuchaytirmagan holda uni ma’muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi normativ hujjatda nazarda tutilgan doirada o‘zgartiradi.

Qarorni bekor qilish yoki o‘zgartirish uchun organ (mansabdor shaxs) tomonidan ishni to‘liq bo‘lman holda yoki bir tomonlama ko‘rib chiqilishi, organ (mansabdor shaxs) hal qiluv qarorining va qonunda nazarda tutilgan normalar hamda ma’muriy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa normativ hujjatlar ishning faktik holatlariga mos kelmasligi, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish qoidalarini jiddiy buzilishi, qo‘llanilgan ma’muriy jazoning adolatsizligi asos hisoblanishi mumkin.

Berilgan shikoyat yoki bildirilgan protest bo‘yicha qabul qilingan qarorda: u chiqarilgan vaqt va joy, shikoyat yoki protestni ko‘rib chiqayotgan mansabdor shaxs, prokuror va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslar, shikoyat yoki protestning mohiyati, chiqarilgan qarorning asoslanishi ko‘rsatilishi lozim.

Sud hal qiluv qarorining nusxasi ish yuzasidan qaror chiqarilgach, uch kun muddat ichida ishi yuzasidan qaror chiqarilgan shaxsga yuboriladi. Protestni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida esa prokurorga ma’lum qilinishi lozim.

Agar sud ma’muriy ishni ko‘rishda uni tugatish bilan qarorni bekor qilsa, undirib olingan pul summalarini va narsalarini qaytarib beradi, shuningdek, ilgari qabul qilingan qaror bilan bog‘liq chiqimlar va cheklashlar bekor qilinadi. Narsani qaytarib berish mumkin bo‘lman hollarda uning qiymati, basharti bu narsalar tadbirkorlik uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, boy berilgan foydasi ham qoplanadi. Bunday ishlar qaytarma da’vo talablariga oid qoidalar asosida tartibga solinadi.

Idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar yuzasidan kelib chiqadigan va fuqarolik sud ishlarini yurgizish qoidalari bo‘yicha ko‘riladigan ishlar sudning yoki sudyaning yakka holda ma’muriy jazoga tortish to‘g‘risida ko‘riladigan ishlardan, chunonchi, mayda bezorilik uchun qamoqqa olish yoki jarima solish to‘g‘risidagi va shu kabi boshqa ishlarni ko‘rishdan farq qilishi kerak.

Yuqorida qayd qilingan ma'muriy huquqbuzarlik tufayli sudda ko'rildigan ishlarni, idoralar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar yuzasidan kelib chiqadigan ishlarni da'vo tartibida ko'rildigan fuqarolik ishlariga aralashtirmslik kerak. Agar ma'muriy aktga asoslangan fuqarolik, mehnat yoki boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlar buzilsa, bu holda ish da'vo ishini yuritish tartibida ko'rildi. Bunday ishlar, masalan, turar joy maydoniga berilgan orderni haqiqiy emas deb topish, notarial organning ijro xati haqida nizolashish, mulkni xatlashdan chiqarish, fuqarolik holati dalolatnomasi yozish daftarida otalikni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi, ma'muriy jazo berilishi haqidagi buyruqni bekor qilish va shu kabi boshqa da'volar ko'rildi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlarga nisbatan fuqarolik sud ishini ko'rib chiqish qoidalariga hech qanday istisnolar va qo'shimchalar belgilanmagan.

Bunday ishlar da'vo ishini yuritish tartibida ko'rildi. Davlat yoki shirkat xo'jaliklarining ekinlarini payhon qilish tufayli yetkazilgan zararning to'lanishi to'g'risidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralarining qarorini ixtiyoriy ravishda bajarmagan fuqarolarga nisbatan qo'zg'atiladigan da'volar ham da'vo ishini yuritish tartibida ko'rildi.

FPKning 266-moddasida ko'rsatilganidek, sudga shikoyat qilinishi mumkin bo'lган xatti-harakatlar (qarorlar) jumlasiga quyidagi xatti-harakatlar kiradi:

- fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilishiga doir;
- fuqaroning o'z huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish yo'lida to'sqinliklar vujudga kelishiga doir;
- fuqaro zimmasiga birorta g'ayriqonuniy majburiyat yuklatilishiga yoki uning javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlar (qarorlar) sudga shikoyat qilinishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarga oid ishlar FPKning 264–275-moddalarida ko'rsatilgan.

Bulardan mustasno tariqasida, agar:

- a) qonun hujjatlariga binoan bunday ishlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatiga kirgan xatti-harakatlar (qarorlar);
- b) qonunda yoki boshqa huquqiy normalarda tegishli xatti-harakatlar (qarorlar)ga nisbatan shikoyat qilishning boshqa tartibi belgilangan xatti-harakatlar (qarorlar) sndlarga taalluqli bo'lmaydi, Bu FPKning 267-moddasida belgilangan.

Organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan, sudlovlik to‘g‘risidagi qoidalarga amal qilgan holda, fuqaro o‘zi yashab turgan joydagi sudga yoki davlat organi hamda mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan hududdagi sudga shikoyat qilishga haqli.

Organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyatlar qonunda ko‘rsatilgan turkumdagи ishlarga tegishli bo‘lib, qoidaga asosan, suda organlar va mansabdor shaxslardan zarur bo‘lgan hujjatlarni talab qilishga hamda fuqaroning iltimosi yoki o‘zining tashabbusi bilan qilingan xatti-harakatlarning ijrosini sudda hal etgunga qadar to‘xtatish masalasini ham hal etishga haqlidir.

2. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalarga oid ishlarning sudda ko‘rilishi

FPKning 269-moddasida shu turkumdagи ishlar yuzasidan shikoyat berish tartibi ko‘rsatilgan.

Unga ko‘ra fuqaro o‘zining huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar (qarorlar) ustidan bevosita sudga yoki bo‘ysunuv tartibida yuqori organga, mansabdor shaxsga murojaat qilishga haqli

Bo‘ysunuv tartibidagi yuqori organ va mansabdor shaxslar shikoyatni bir oy muddat ichida ko‘rib chiqishi shart. Agar fuqaroning shikoyatiga rad javobi berilsa yoki u shikoyat bergen kunidan e’tiboran bir oy ichida javob olmasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Shikoyat huquqlari va erkinliklari buzilgan fuqaro yoki uning vakili, shuningdek, fuqaroning iltimosiga binoan tegishli ravishda vakolat berilgan jamoat birlashmasi, mehnat jamoasining vakili tomonidan berilishi mumkin.

Harbiy xizmatchi o‘zining huquqlari va erkinliklarini buzayotgan harbiy boshqaruv organlari va harbiy mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan ushbu moddada nazarda tutilgan tartibda harbiy sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli.

Berilgan shikoyatlar FPKning 148–149-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq rasmiylashtirilishi va O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilgan «Davlat boji to‘g‘risida»gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrda qabul qilgan 533-sonli «Davlat boji stavkalari haqida»gi qarorida belgilangan tartibda davlat boji undirilishi ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996-yil 19-iyuldagи Plenumi qarorlarida berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi (yangi tahrirda)gi qonunining 3-moddasiga asosan, fuqarolar davlat organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqiga ega.

Fuqarolarning murojaat etish huquqidan foydalanishlari boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak.

Fuqarolarning shikoyatlari, ularda qo‘yilgan masalalarni hal etish vakolat doirasiga kiradigan davlat organiga yoki bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga beriladi.

Fuqaro shikoyatni shaxsan o‘zi berishga, shuningdek, bu boradagi vakolatni o‘z vakiliga berishga yoxud shikoyatni aloqa bo‘linmalari orqali yuborishga haqli.

Voyaga yetmaganlar hamda muomalaga layoqatsiz shaxslar manfaatini ko‘zlab, shikoyatni ularning qonuniy vakillari beradi.

Shikoyat fuqaroning xohishiga ko‘ra o‘zi yashab turgan joydagi sudga yoki davlat organi va boshqa organ yoxud mansabdor shaxsning ish joyi joylashgan hududdagi sudga beriladi.

Sudga shikoyat bilan murojaat qilish uchun FPKning 270-moddasida quyidagi muddatlar belgilangan:

– fuqaroga o‘zining huquqlari va erkinliklari buzilganligi ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran *uch oy*;

– fuqaro yuqori organdan, mansabdor shaxsdan shikoyatini qanoatlantirish rad etilganligi to‘g‘risida yozma ma’lumot olgan kundan e’tiboran *bir oy* yoki fuqaro o‘zining shikoyatiga yozma javob olmagan bo‘lsa, shikoyat berilgan kundan e’tiboran *bir oy o‘tgandan* keyin.

Shikoyat berish muddati uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa, sud bu muddatni tiklashi mumkin.

Sudya shikoyatni ko‘rib chiqish uchun qabul qilib, quyidagi harakatlarni bajarishi lozim:

1) tegishli organlar va mansabdor shaxslardan zarur hujjatlarni talab qilib oladi;

2) fuqaroning iltimosi yoki o‘zining tashabbusi bilan shikoyat qilingan xatti-harakatning (qarorning) ijrosini to‘xtatish masalasini hal etadi.

Sud shikoyatni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha hal qiluv qarori chiqaradi.

Sud shikoyatning asosli ekanligini aniqlasa, shikoyatga sabab bo‘lgan xatti-harakatni (qarorni) g‘ayriqonuniy deb topadi, fuqaroning talabini

qanoatlantirish vazifasini tegishli organga yuklaydi, unga nisbatan qo'llangan javobgarlik choralarini bekor qiladi yoki uning buzilgan huquqlari va erkinliklarini boshqa yo'llar bilan tiklaydi.

Agar sud shikoyatga sabab bo'lgan xatti-harakatni (qarorni) qonuniy, fuqaroning huquqlari va erkinliklari buzilmagan deb topsa, u shikoyatni qanoatlantirishni rad etadi.

Sudning hal qiluv qarori tegishli organ yoki mansabdor shaxsga, shuningdek, fuqaroga hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin o'n kundan kechiktirmay yuboriladi.

Hal qiluv qarorining ijrosi haqida hal qiluv qarori olingan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay sud va fuqaroga ma'lum qilinishi lozim. Hal qiluv qarori ijro etilmagan taqdirda sud FPKning 381-moddasida nazarda tutilgan choralarni qo'llaydi.

FPKning 211-moddasiga binoan agar javobgar hal qiluv qarorini belgilangan muddatda bajarmasa, da'vogar bu harakatlarni javobgarning hisobidan bajarib, qilgan xarajatlarini keyinchalik javobgardan undirib olishga haqlidir.

Sud amaliyotida saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar kam uchrasa-da, bunday ishlar ham sudlarga taalluqli ekanligi belgilangan (FPKning 272-m.). Bu turkumdagi ishlar asosan uchastka komissiyalarida yoki tegishli hokimiyat organlarida hal etiladi. O'zbekiston Respublikasining «Saylov haqida»gi qonuniga ko'ra, har qanday fuqaro saylovchilar ro'yxatidagi xato va noaniqliklar to'g'risida saylov komissiyasiga arz qilish huquqiga ega. Saylovchilar ro'yxatidagi xato va noaniqliklarga ro'yxatga kiritilmaslik, ro'yxatdan chiqarilganlik, familiyasi, ismi va otasining ismi buzib yozilganligi va boshqalar kiradi.

Uchastka saylov komissiyasi saylovchilardan tushgan arizani yigirma to'rt soat ichida ko'rib chiqishi lozim.

Uchastka saylov komissiyasi tomonidan chiqarilgan qarorlardan norozi tomon shu qaror ustidan tegishli saylov uchastkasi joylashgan hududdagi tumanlararo yoki tuman (shahar) sudiga shikoyat berishlari mumkin.

Sudga beriladigan bunday shikoyatga shikoyatchining arizasi rad qilinganligi to'g'risidagi uchastka saylov komissiyasining asoslantirilgan ma'lumotnomasi ilova qilinadi.

FPKning 272-moddasiga ko'ra:

Saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e'tiboran uch kundan

kechiktirmay ko‘rib chiqilishi, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo‘lsa, darhol ko‘rib chiqilishi lozim.

Shikoyat sud tomonidan arizachini va tegishli saylov komissiyasining vakilini, shuningdek, prokurorni, agar shikoyat arizachiga emas, balki boshqa fuqaroga daxldor bo‘lsa, o‘sha shaxsni ham chaqirgan holda ko‘rib chiqiladi. Ushbu shaxslarning kelmasligi ishni ko‘rib chiqishga to‘sinqinlik qilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori chiqarilishi bilanoq darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

Sud saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni prokurorning ishtirokida ko‘radi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qabul qilgan «Notariat to‘g‘risida»gi qonuni hamda FPKning 273-moddasida aytilishicha, notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan manfaatdor shaxslar sudga shikoyat berishga haqli. FPKning 273-moddasida ko‘rsatilishicha:

Manfaatdor shaxs bajarilgan notarial harakatlarni yoki notarial harakatni bajarish rad etilganligini noto‘g‘ri deb hisoblasa, bu haqda u notarial idora, shaharcha, ovul o‘zini o‘zi boshqarish organi joylashgan hududdagi sudga shikoyat berishga haqli.

Mansabdar shaxslar tomonidan vasiyatnomalar va ishonch qog‘ozlari noto‘g‘ri tasdiqlanganligi yoki ularni tasdiqlash rad etilganligi haqidagi shikoyatlar tegishli kasalxona, boshqa statsionar davolash-profilaktika muassasasi, sanatoriy, qariyalar va nogironlar uyi, ekspeditsiya, gospital, harbiy davolash muassasasi, harbiy qism, qo‘shilma, harbiy o‘quv yurti, jazoni ijro etish joyi o‘rnashgan hududdagi sudga beriladi.

Notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki bunday harakatni bajarish rad etilganligi arizachiga ma’lum bo‘lgan kundan e’tiboran yigirma kunlik muddatda beriladi.

Shikoyatda bajarilgan notarial harakatning yoki bunday harakatni bajarishni rad etishning noto‘g‘riliqi nimalardan iborat ekanligi ko‘rsatilishi lozim.

Shikoyat berish muddati o‘tkazib yuborilganda uni tiklash haqidagi iltimos sud tomonidan umumiylashtirilishi asoslarda hal qilinadi.

Qarzdor notarius yoki konsul tomonidan berilgan ijro xati xususida umumiylashtirilishi da’vo taqdim etish yo‘li bilan nizolashishi mumkin.

Bajarilgan notarial harakat negizida manfaatdor shaxslar o‘rtasida kelib chiqqan huquqqa doir nizo taalluqliligiga qarab, sud tomonidan ko‘riladi.

Notarial harakat, notarial harakatni kechiktirish yoki uni amalga oshirishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilish asoslari «Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 39-moddasida ham belgilangan.

Fuqarolik holati aktlarini qayd etishdagi noto‘g‘riliklar ustidan sudga shikoyat berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1995-yil 2-noyabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi FHDYO idoralarida fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi haqidagi yo‘riqnomani tasdiqlash va amalga kiritish to‘g‘risida»gi 81-sonli Hay’at qarori va FPKning 274-moddasida ko‘rsatilganidek, agar fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlari fuqarolik holati to‘g‘risidagi yozuvga tuzatishlar kiritishni rad etsa, fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftaridagi noto‘g‘riliklarni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sud ko‘rib chiqadi.

Shikoyatda fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftaridagi xatoliklar nimadan iborat ekanligi, tuzatish kiritish qachon va qaysi fuqarolik holati aktlarini qayd etish organi tomonidan rad etilganligi ko‘rsatilishi lozim.

Bu turkumdagи ishlarni tug‘ilish, farzandlikka olish, ajralish va o‘lim faktlarini belgilashga oid ishlardan farqi shundaki, noto‘g‘riliklarni belgilashda dalolatni tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo‘lib, ular o‘zida noaniqliklar mavjudligi bilan farq qiladi.

Daftarlardagi yozuvlarning noto‘g‘riliгини belgilash to‘g‘risida sudga manfaatdor shaxslar, ya’ni hujjat egalari, vorislar, shuningdek, prokuror murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalari daftaridagi noto‘g‘ri yozuvlarni belgilash to‘g‘risidagi shikoyat shikoyatchi yashaydigan joydagi sudga beriladi. Shikoyatda FHDYO noto‘g‘riliги nimadan iborat ekanligi, qachon va qaysi FHDYO organi yozilgan yozuvni tuzatishni rad etganligi ko‘rsatilishi lozim.

FPK 275-moddasining 2-qismiga muvofiq, fuqarolik holati aktlarini qayd etish daftaridagi noto‘g‘riliklar ko‘rsatilgan sudning hal qiluv qarori fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarining bunday yozuvlarga tuzatish kiritish uchun asos bo‘ladi.

FHDYO idorasi yozuvni bekor qilish to‘g‘risidagi sud qarorini olgach, uning ustidan qiya chiziq tortib, bu haqda belgi qo‘yadi va arizachiga ma’lumotnomaga beradi hamda birinchi dalolatnomaga yozuvi

qayd etilgan joydagi FHDYO idorasiga arizachiga guvohnoma berishi uchun xabarnomalar yuboradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasida ko‘rsatilanidek, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar.

Demak, prokuror o‘ziga berilgan vakolat doirasida qonunlarning aniq bajarilishi yuzasidan nazorat olib boruvchi mansabdor shaxs bo‘lib, fuqarolik ishlari bo‘yicha ham sudlar tomonidan qonuniy, adolatli va asosli hal qiluv qarorini chiqarishga ko‘maklashishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilgan «Prokuratura to‘g‘risida» (yangi tahrirda)gi qonuning 2-moddasiga asosan, prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarlikning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga, shuningdek, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish ham kiradi.

Bulardan tashqari, prokuratura organlari sndlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilayotganda davlat ayblovini qo‘llab-quvvatlash, sndlarda fuqarolik ishlarini, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni hamda xo‘jalik nizolarini ko‘rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo‘lgan sud hujjatlariga protest keltirishi mumkinligi «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunning 4-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan.

Prokuror keltirgan protest u topshirilgan vaqtidan boshlab o‘n kunlik muddat ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

FPKning 276-moddasida belgilanishicha, prokuror qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra huquqiy hujjatni g‘ayriqonuniy deb topish haqida ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Prokurorning sudga ariza berishi ish sudda ko‘rib chiqilgunga qadar huquqiy hujjatning amal qilishini to‘xtatib qo‘yadi.

FPKning 277-moddasida aytilganidek, prokurorning arizasini sud yigirma kun ichida uning ishtirokida va protestni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan yoxud protestni ko‘rib chiqmagan organning rahbari yoki uning vakili ishtirokida ko‘rib chiqadi.

Sud majlisiga organ rahbari yoki uning vakili uzsiz sabablarga ko‘ra kelmaganligi prokurorning arizasini ko‘rib chiqish uchun to‘sinqinlik qilmaydi, biroq, sud bu shaxsnинг kelishini shart deb topishi mumkin.

Fuqaroning sud tartibida himoya qilinadigan huquq va erkinliklari buzilsa, lekin fuqaro sog‘lig‘iga, yoshi yoki boshqa sabablarga ko‘ra sudda o‘z huquq va erkinliklarini shaxsan o‘zi himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, da’vo qo‘zg‘atish, ya’ni da’voni taqdim etish va sudda quvvatlash huquqi FPKning 5-moddasiga asosan prokurorga yuklatilgan.

Prokuror, fuqarolik ishlarni qo‘zg‘atish, unda ishtirok etish shaklidan qat’i nazar, hamma vaqt davlat vakili, qonunning bajarilishi ustidan nazorat qiluvchi organ hisoblanadi.

3. Alovida tartibda ko‘riladigan ishlar tushunchasi, mohiyati va turlari

Aksariyat hollarda fuqarolik ishlari biror-bir buzilgan shaxsiy yoki mulkiy huquqning himoya qilinishi maqsadida, da’vo ishlari tarzida qo‘zg‘atiladi. Ammo, ba’zi hollarda fuqarolik ishlari huquq to‘g‘risidagi nizo, ya’ni birovning birovga da’vosi bo‘lganida ham sudlarda qo‘zg‘atilib, ko‘riliши va hal qilinishi mumkin. Masalan, fuqarolar pensiya yoki meros olishi uchun zarur bo‘lganida biron bir faktning mavjudligini, aytaylik, birovning farzandi yoki boquvida bo‘lganligini tasdiqlatish zarur bo‘lganida birovlarga nisbatan da’vo qo‘zg‘atmasdan, balki sudga ariza bilan, muddaosini aytib, murojaat etadi.

Bunday hollarda fuqarolik ishlari da’vo ishlarni yuritish tartibida ko‘rilmasdan, balki alovida ish yuritish tartibida ko‘riliadi. Sudlarda bu tartibda ham subyektiv huquqlar va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarni himoya qilish maqsad qilib qo‘yiladi.

Sud tomonidan alovida ish yuritish tartibida ko‘riladigan nizosiz ishlar jumlasiga, FPKning 279-moddasiga ko‘ra, quyidagi ishlar kiradi:

- 1) yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash to‘g‘risidagi;
- 2) fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va fuqarolarni o‘lgan deb e’lon qilish to‘g‘risidagi ishlar;
- 3) fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlar;
- 4) mol-mulkni (ashyon) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ishlar;
- 5) taqdim etuvchiga deb berilgan hujatlar yo‘qolgan taqdirda, ular bo‘yicha huquqlarni tiklash to‘g‘risidagi ishlar (chaqirib ish yuritish).

Nizosiz ishlar, ya’ni FPKning 279-moddasida ko‘rsatilgan ishlar, sudlar tomonidan FPKning 30–35-boqlarida ko‘rsatilgan istisno va qo‘shimchalar bilan fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalariga muvofiq ko‘riladi.

Bu turkumdagи ishlar ham, FPKning 31-moddasiga asosan, sudga taalluqli ishlar turiga kiradi.

Alovida tartibda ko‘riladigan ishlarda huquq haqida nizo bo‘lmaydi, shu belgisi bilan u da’vo ishlarini yuritishdan farq qiladi. Alovida tartibda ish yuritishdan maqsad fuqarolarning biror-bir huquqlari vujudga kelganligi, o‘zgarganligi yoki bekor bo‘lganligini, ya’ni yuridik faktlarning mavjudligi yoki ularning yo‘qligini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Da’vo ishlarini yuritishda esa sud faoliyati birmuncha kengroq bo‘ladi. Bunda sud yuridik faktlarni aniqlabgina qolmay, aniqlangan faktlarga moddiy-huquqiy normalarni tatbiq etishi, taraflarning huquq va majburiyatları haqida tegishli xulosaga kelishi, ya’ni fuqarolik huquqiy nizolarni hal etishi lozim bo‘ladi.

Alovida tartibda ko‘riladigan ishlarda huquq to‘g‘risida nizo bo‘limgani tufayli taraflar, ya’ni javobgar, da’vogar, uchinchi shaxslar ham bo‘lmaydi, faqat o‘z muddaosini aytib, sudga murojaat qiluvchi arizachi va boshqa manfaatdor shaxslargina bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham alovida tartibda ko‘riladigan fuqarolik ishlarida ba’zi fuqarolik protsessual normalarning, masalan, sherik ishtirokchilik, tegishsiz tarafni tegishli taraf bilan almashtirish, kelishuv bitimi va shu kabi protsessual harakatlarga oid normalar qo‘llanilmasligi mumkin.

Alovida tartibda ko‘riladigan ishlarni sud fuqarolik protsessual huquqning barcha prinsiplariga e’tibor bergan holda (oshkoraliq, og‘zakilik, erkin huquq, tortishuvlik va hokazo) ko‘rishi lozim. Bunday turkumdagи ishlarda nizo bo‘lmasa ham, biroq dalillarni isbotlash vazifasi arz qiluvchi shaxs zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi.

Alovida tartibda yuritiladigan ishlarni sud ariza beruvchi va manfaatdor fuqarolarning, tashkilotlarning ishtirokida ularni xabardor qilgan holda ko‘radi. FPKning 281-moddasiga binoan, arizachi (da’vogar), ishning yakunidan manfaatdor bo‘lgan shaxs, prokuror, davlat boshqaruvi organlari alovida tartibda yuritiladigan ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb e’tirof etiladi.

Sudya bu turkumdagи ishlarni ham sudda ko‘rishga tayyorlaydi, ish uchun ahamiyatli hujatlarni talab qiladi, muhim guvohlik berishi mumkin bo‘lgan guvohlarni, tegishli tashkilot vakillarini sudga taklif qiladi,

lozim bo'lsa ekspertiza tayinlaydi, sudda ko'riladigan ishlarning qandayligini aniqlashga harakat qiladi va ishni sud majlisida ko'rishga tayinlaydi.

Agar alohida tartibda yuritilayotgan ishni ko'rish vaqtida sudga taalluqli huquq to'g'risida nizo bo'lsa, sud arizani ko'rmasdan qoldirib, manfaatdor shaxslarga umumiyl tartibda da'vo qo'zg'atishni taklif qiladi (FPKning 282-m.).

Yuridik ahamiyatga ega bo'lган faktlarni belgilashning sud tartibi fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan shaxsiy va mulkiy huquqlari, mehnatga, nikoh va oilaga oid hamda boshqa huquqlarining himoya qilinishini, shuningdek, mulkiy huquqlarning olinishida qo'riqlanishini kafolatlaydi¹.

Yuridik faktning belgilanishi to'g'risidagi ariza faqat quyidagi hollardagina:

1) agar bu fakt shaxsiy yoki mulkiy huquqlarni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki bekor qiladigan bo'lsa;

2) bu fakti belgilash sud vakolatiga taalluqli bo'lsa;

3) yuridik fakti belgilash to'g'risidagi hujjatlarda boshqa tartibda ariza beruvchi tomonidan olinishi mumkin bo'lmanida ko'rish uchun sud tomonidan qabul qilinishi lozim.

Masalan, yo'qolgan fuqarolik holati aktlarini tiklash ishi bunday holatlarni qayd qiluvchi idoralar tomonidan manfaatdor shaxslarning arizalariga binoan tiklanadi, agar bu organlardan rad javobi olinsa, fuqarolik holati aktining, chunonchi: bolaning tug'ilishi, nikohdan o'tganlik, fuqaroning o'lganligi va hokazolar to'g'risidagi aktning qayd qilinishi fakti sud tomonidan belgilanishi mumkin. Binobarin sud fuqarolik holati aktini qayd qilganligi to'g'risidagi faktning belgilash to'g'risidagi ariza qabul qilishida ariza beruvchi shaxsning bu to'g'rida fuqarolik holati aktlarini yozish idorasiga murojaat qilganligini, agar murojaat etgan bo'lsa, qanday sabablar bo'yicha iltimosi rad qilinganligini aniqlashi lozim.

Bunday fakti belgilash sndlarga taalluqli bo'lган huquq to'g'risidagi nizoni hal qilish bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Agar yuridik fakti belgilash ariza beruvchiga, keyinchalik sudda biror-bir ish bo'yicha da'vo qo'zg'atish, chunonchi, merosga bo'lган huquq to'g'risida yoki yetkazilgan zararni undirish to'g'risidagi, shuningdek, boshqa fuqaro-

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – Т., 1992. – № 2. – 12-б.

lik da'volari uchun zarur bo'lgan hollarda, uning arizasi alohida ish yuritish tartibida ko'rilmasligi kerak, chunki bunday faktni belgilash da'vening sudda hal qilinishi bilan bir vaqtida ko'rlishi mumkin.

FPKning 283-moddasida fuqarolar yoki tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlarining kelib chiqishi, o'zgarishi yoki tugashiga sabab bo'ladigan faktlarni, ya'ni yuridik ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy oqibatlar tug'diradigan faktlarni sud belgilashi ko'rsatilgan. Unda sud quyidagi faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarni ko'radi:

1. *Shaxsning qarindoshlik aloqalari faktini belgilash.* Oliy sudning yuqarida ko'rsatilgan Plenumi qarorida, qarindoshlik munosabatlari deganida, to'g'ri qarindoshlik, biri ikkinchisidan yoki bir umumiyl urug'dan kelib chiqqan shaxslarning qon-qarindoshligi nazarda tutiladi. Qon-qarindoshlikning yo'qligi qarindoshlikning yo'qligidan dalolat berishi ta'kidlangan.

Bunday faktning belgilanishi vorislik huquqini olish, boquvchisini yo'qotganlik tufayli pensiya olishga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish, ko'p bolali onalarga (oilalar) beriladigan davlat yordamini olish, avtomashinaning hadya qilinishini notarial tartibda rasmiylashtirish uchun va boshqa ba'zi hollarda zarur bo'lishi mumkin.

Demak, shaxslarning qarindoshlik aloqalarini belgilash arz qiluvchi uchun qandaydir huquqiy oqibat keltirib chiqarishi kerak.

Bunday faktlarni belgilash suddan tashqari boshqa idoralarda hal qilishning iloji bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

2. *Shaxsning birovning qaramog'ida bo'lganligi faktini belgilash.* Bunday faktning belgilanishi asosan vorislik huquqini yoki pensiya olishga yoxud boquvchining o'limi tufayli ko'rgan zarar haqini olishga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish uchun talab qilinadi.

Agar faktning belgilanishi vorislik rasmiylashtirish uchun zarur bo'lsa, ariza beruvchidan marhumning o'limiga qadar kamida bir yil uning qaramog'ida bo'lganligi va mehnatga layoqatsizligi aniqlanadi. Bunday hollarda meros qoldiruvchi bilan qaramog'ida bo'lgan shaxs o'rtasida qarindoshlik munosabatlari bor-yo'qligi ahamiyatli emas (FKning 1141-m.).

3. *Otalikni tan olish faktini, bolaning u yoki bu onadan tug'ilganligi faktini, shuningdek, tug'ilgan vaqtini belgilash.* Bunday faktlarning belgilanishi ham meros olish, pensiya ta'minotini olish, yetkazilgan zararni undirishda zarur bo'ladi va arizachilarining qo'llarida bu to'g'rida hujjatlari bo'lmasanida sudga murojaat qiladilar.

4. Bolalikka olish, nikoh, ajralish va o'limning qayd etilganligi faktini belgilash. Yuqorida ko'rsatilgan yuridik faktlarning rasmiylash-tirilganligini (qayd qilinganligi) tasdiqlaydigan hujjatlar yo'qotilgan bo'lsa va ularni tiklash ham mumkin bo'lmasa (fuqarolik holati aktlarini yozish idoralari ularni tiklashdan bosh tortgan bo'lsalar), bunday faktlarning qayd qilinganligini belgilash to'g'risida ariza bilan sudga murojaat qilish mumkin bo'ladi.

5. Er-xotindan birining o'limi natijasida fuqarolik holatlari aktlarini qayd qilish organlarida nikohni ro'yxatdan o'tkazish mumkin bo'lmasa, qonunda belgilangan hollarda, ularning haqiqatda er-xotinlik munosabatlarida bo'lganlik faktini belgilash. Oila kodeksining 13-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolik holati aktlarini yozish davlat idoralarida tuzilgan nikohgina er bilan xotinning huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi. Mazkur moddaning mazmuniga ko'ra nikohlarini rasmiylashtirmagan shaxslar er-xotin hisoblanmasdan, balki birga yashovchilargina bo'lib ko'rildilar. Bunday shaxslar o'zлari va farzandlarini manfaatlari uchun nikohlarini tegishli tartibda rasmiylashtirishlari zarur.

6. Shaxsning huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlarda (jamoat birlashmalariga a'zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati aktlarini qayd qilish organlari beradigan guvohnomalardan tashqari) ko'rsatilgan ismi, otasining ismi va familiyasi uning pasportdagagi ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagani taqdirda, mazkur hujjatlarning unga tegishli emasligi faktini sud aniqlaydi. Huquq tug'diradigan hujjatlarda ko'rsatilgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi shu shaxsning pasportdagagi yoki guvohnomasidagi ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagani taqdirda, sud mazkur hujjatlarning unga tegishli ekanligi faktini belgilaydi.

Kasaba uyushmasi biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar va fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish organlari beradigan guvohnomalarning muayyan shaxsga tegishliligi faktini belgilash to'g'risidagi ishlar sudda ko'rilmaydi. Agar bunday hujjatlarning berilishida familiya, ism yoki otaning ismi noto'g'ri yozilgan bo'lsa, ular tegishli vakolatli idoralar tomonidan almashtiriladi.

Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish idoralari beradigan guvohnomalarda ba'zi ma'lumotlar noto'g'ri yozilgan bo'lsa, ularning noto'g'riliqini belgilash to'g'risidagi arizalar FPKning 274–275-moddalarida ko'rsatilgan fuqarolik holati dalolatnomaga yozuvlaridagi

noto‘g‘riliklarni belgilash haqidagi qoidalarga muvofiq sud tomonidan ko‘riladi.

Qonunda fuqarolik holati aktlarini yozish organlari tomonidan beriladigan hujjatlarni tegishliligi faktini belgilash to‘g‘risidagi arizalarni sndlarga taalluqli emasligi, ular faqat yozuvlar tuzatish va o‘zgartirish kiritish rad qilinganlik haqida sudga murojaat qilishga haqli ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

7. *Baxtsiz hodisa faktini belgilash.* Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olib borish Mehnat kodeksining 222-moddasida ko‘rsatilganidek, ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan baxtsiz hodisa to‘g‘risida dalolatnomaning tuzilishi yoki bunday faktning tasdiqlanmaganligini vaj qilib, rasmiy hujjat berilishining rad qilinishi masalasi sudda ko‘rilmaydi. Mehnatni muhofaza qilishning norma va qoidalariga rioya etilishi ustidan jamoat tekshiruvini kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari amalga oshiradilar. Bu xodimlarning ishiga bog‘liq ravishda mayib bo‘lishi yoki salomatligi boshqa yo‘sinda shikastlanishi sababli yetgan zararning o‘rnini korxonalar, muassasalar, tashkilotlar qoplashi to‘g‘risidagi masalalar O‘zbekiston Respublikasi FKning 1006–1007-moddalariga muvofiq hal qilinadi.

O‘lganlik faktini belgilash haqidagi hal qiluv qarori tayyorlash sudga tegishli bo‘lib, o‘lim sabablarining keltirish aniq holatlarini, ya’ni qachon va qanday holatda sodir bo‘lganligini belgilaydi.

8. *Imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini belgilash.* Sud, agar arizada egalik qilish to‘g‘risidagi hujjat bo‘lib, lekin u yo‘qolgan yoki uni tiklash mumkin bo‘lmaganida belgilaydi. Umumiyl qoida bo‘yicha imoratga bo‘lgan egalik huquqi to‘g‘risidagi nizolar da’vo tartibida ko‘riliishi lozim. O‘zboshimchalik bilan ko‘rigan yoxud ko‘rib bitkazilmagan va foydalanish uchun qabul qilinmagan binolarni, shuningdek, oldin boshqa shaxs nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki arizachi tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirilmasdan sotib olingan egalik huquqini belgilash haqidagi arizalar alohida ish yuritish tartibida sudda ko‘rilmasligi haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarning belgilash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti haqida» 1991-yil 20-dekabrda (1997-yil 2-may va 1998-yil 11-sentabrda kiritilgan o‘zgartirishlar bilan) qabul qilgan qarorlarining 18-bandida ko‘rsatilgan.

Bulardan tashqari, shu qarorda, agar fuqaro notarial tartibda tasdiqlanmagan yozma shartnoma bilan uy sotib olgan bo‘lsa, bu uyga

uning egalik huquqini belgilash to‘g‘risidagi masala FKning 112-moddasining qoidalari bo‘yicha da’vo tartibida hal etilishi belgilangan. Imoratga xususiy mulk asosida egalik qilish faktini belgilashda sud egalik qilish emas, balki shu imoratga arizachini huquqini tasdiqllovchi hujjatlarni mavjudligini tasdiqlaydigan faktlarni belgilaydi.

9. *Merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi yangi Fuqarolik protsessual kodeksining 283-moddasining 9-bandida sudlarda alohida tartibda yuritiladigan ishlar qatorida ko‘rish lozimligi ko‘rsatilgan.* Bunday ishlarning sudga taalluqli bo‘lishi uchun notarial organlari arizachiga merosga bo‘lgan huquq haqida guvohnoma berishni rad etgan bo‘lishi kerak. Arizachining notarial tartibda merosxo‘rning vorislik mulkini olishga kirishi va egalik qilish faktini tasdiqlash uchun tegishli hujjatlarning yo‘qligi yoki bu hujjatlarning yetarli bo‘lmasligi asos bo‘ladi.

10. *Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa faktlarni belgilash.* Agar amaldagi qonunlarda biron-bir yuridik fakti belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo‘lsa, chunonchi, sud fuqaroning muayyan vaqtda va muayyan holatlarda vafot etganligi faktini, merosning qabul qilinganligi faktini, merosning ochilishi joyini belgilashi va boshqa faktlarni ham belgilashi amaldagi FPKda belgilangan.

Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish shartlari FKning 33-moddasida nazarda tutilgan. Bu qonunda ko‘rsatilishicha, agar fuqarolarning qayerdaligi haqida uning doimiy turar joyiga bir yil mobaynida xabar kelmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq, u sud orqali bedarak yo‘qolgan deb topilishi mumkin.

Fuqaroni vafot etgan deb e’lon qilish uchun asoslar FKning 36-moddasida berilgan. Bu qoidaga ko‘ra, agar fuqaroning qayerda turganligi haqida uning yashash joyida uch yil mobaynida ma’lumot bo‘lmasa, basharti u o‘lim xavf solib turgan yoki muayyan baxtsiz hodisadan halok bo‘lgan deb taxmin qilish uchun asos bo‘ladigan vaziyatlarda bedarak yo‘qolgan bo‘lib, uning qayerdaligi haqida olti oy mobaynida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq, sud uni vafot etgan deb e’lon qilish mumkin.

Harbiy harakatlar munosabati bilan bedarak yo‘qolgan harbiy xizmatchi yoki boshqa bir fuqaro urush harakatlari tamom bo‘lgan kundan boshlab kamida ikki yil o‘tgach sud orqali vafot etgan deb e’lon qilinishi mumkin (FKning 36-m.).

Bunday ishlar biron-bir huquq to‘g‘risida nizo bo‘lmagan va shu sababli javobgar bo‘lmasani tufayli alohida tartibda ish yuritish qoidalari (FPKning 286–290-m.) bo‘yicha ko‘riladi.

Fuqarolarni bedarak yo‘qolgan deb topish to‘g‘risidagi ariza arizachining yashash joyidagi sudga beriladi. Sud fuqarolarni bedarak yo‘qolgan deb topish to‘g‘risidagi arizani ko‘rishga FKning 33-moddasida belgilangan muddat o‘tgandan so‘ng kirishadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollar va tartibdan tashqari hech kimning huquq layoqati yoki muomala layoqati chekhanishi mumkin emas (FKning 23-m.).

Fuqarolarning muomala layoqatini sud tartibida cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish alohida hollarda va faqat kimlar to‘g‘risida ish qo‘zg‘atilgan bo‘lsa, shu shaxslarning va oila a’zolarining huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida belgilanadi.

Sud fuqarolarning muomala layoqati cheklangan deb topish to‘g‘risidagi ishni shaxsning o‘zi, prokuror hamda vasiylik va homiylik organlari vakili ishtirokida ko‘radi.

Fuqaroni muomala layoqati cheklangan deb yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha sud xarajatlari ariza beruvchidan undirilmaydi.

Agar, sud arizani fuqaroning muomala layoqatini asossiz cheklashga yoki uni muomala layoqatidan mahrum etish maqsadida berilgan deb topsa, ish yuritish xarajatlarini ariza bergen oila a’zolaridan undiradi (FPKning 297-m.).

Umumiy qoida bo‘yicha egasi bo‘lmagan yoki egasi noma’lum bo‘lgan mulk egasiz ashyo hisoblanadi. FKning 191-moddasida egasiz ko‘chmas ashylar tegishli davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining arizasiga muvofiq, ko‘chmas mol-mulkni davlat ro‘yxatiga oluvchi organ tomonidan hisobga olinadi. Egasiz ko‘chmas ashyo hisobga olinganidan keyin uch yil muddat o‘tgach, davlat mol-mulkini boshqarishga vakolatli bo‘lgan organ yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi bu ashyni davlat mulkiga yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi mulkiga kirgan deb hisoblash to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat etish belgilangan. Mol-mulkni (ashyni) egasiz deb topish to‘g‘risidagi ariza moliya organi yoki FKda ko‘rsatilgan boshqa vakolatli organ tomonidan mol-mulk (ashyo) turgan joydagi sudga beriladi. Sud bunday turkumdagи ishlarni ko‘rishda arizada ko‘rsatilgan talab va shu mulk egasini aniqlashga qaratilgan harakatlar, to‘plangan dalillar, isbotlash vositalariga ahamiyat berishi lozim.

Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qotilganida yo‘qotilgan hujjatlar yuzasidan bo‘lgan huquqlarni tiklashning (chaqirib ish

yuritishning) sud tartibi belgilangan. Bunday tartib hujjat egalarining shaxsiy va mulkiy manfaatlarini himoya qilish maqsadlarida o‘rnatilgan. Qanday hujjatlar bo‘yicha huquqlarning tiklanishi mumkinligi FPKning 301-moddasida belgilangan. Bu qonunga ko‘ra shaxs pul mablag‘lari qo‘yilganligi haqida yoki qimmatli narsalar yoxud davlat zayomi, obligatsiyalari saqlash uchun topshirilganligi to‘g‘risida bank tomonidan taqdim etuvchiga berilgan qimmatli hujjatni yo‘qotgan taqdirda, shuningdek, qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda suddan yo‘qolgan hujjatni haqiqiy deb topish va yo‘qolgan hujjat bo‘yicha huquqlarni tiklash to‘g‘risida iltimos qilishi mumkin. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjat yo‘qolgan taqdirda uni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ariza hujjatni bergen muassasa joylashgan sudga beriladi. Hujjatlarning yo‘qotilganligi to‘g‘risidagi arizada arz qiluvchi shaxs hujjat qanday vaziyatda yo‘qotilganligi, taqdim etuvchiga deb hujjat bergen muassasaning, hujjatning nomi, uning alohida belgilari va yo‘qotilgan hujjatning haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi fikrlari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim. Sudya arizani olgandan keyin FPKning 302-moddasiga ko‘ra, qator protsessual harakatlarni amalga oshiradi, jumladan, ariza beruvchining hisobidan mahalliy gazetada e’lon chiqaradi; taqdim etuvchiga deb hujjat bergen muassasaning yo‘qolgan hujjat bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirishni va pul berishni ish sudda mazmunan hal bo‘lgunga qadar taqiqlash va hokazo. Bulardan tashqari, qonunda taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatni topib olgan, xullas hujjatni saqlovchi ham o‘z navbatida shu hujjatga bo‘lgan huquqi to‘g‘risida sudga ariza berishi va bunda o‘zining fikr-mulohazalarini bayon qilish mumkinligi ko‘rsatilgan¹.

Ariza bo‘yicha davlat boji eng kam ish haqining 10% miqdorida undiriladi. Aloida tartibda ko‘riladigan ishlar turkumiga kirgan taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo‘qolganligi to‘g‘risidagi ishlar ayrim hollarda da’vo yuritish ishlariga ham aylanishi mumkin. Agar hujjatni saqlovchiga nisbatan arz qiluvchi qarshi da’vo qo‘zg‘atgan hollarda asos bo‘lishi nazarda tutiladi. Umuman ishni ko‘rish va hal qilishga oid qoidalar FPKning 301–309-moddalarida ko‘rsatilgan. Sud ishni mazmunan ko‘rib bo‘lgach, hal qiluv qarorini chiqaradi, sudning ariza qanoatlantirilgan hal qiluv qarorida yo‘qolgan hujjatni haqiqiy emasligi

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – Т., 1993. – № 2. – 15–17-б.; Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – Т., 1997. – № 3. – 36–38-б.

ko‘rsatiladi. Hal qiluv qarori arz qiluvchiga haqiqiy emas deb topilgan hujjat o‘rniga yangisini berish uchun asos bo‘ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tartibi qanday?*
2. *Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish tartibini aytib bering.*
3. *Alohiba tartibda ko‘riladigan ishlarning da’vo tartibida hamda ma’muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlardan farqi nimada?*
4. *Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarning qanday turlari bor?*
5. *Prokuroarning huquqiy aktini g‘ayriqonuniy deb topish to‘g‘risidagi arizasi bo‘yicha ishlarga nimalar kiradi?*
6. *Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish va o‘lgan deb e’lon qilish uchun qanday protsessual harakatlar qilinadi?*
7. *Qaysi holatlarda fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish mumkin?*

7-MAVZU. AYRIM FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA KO'RISHNING XUSUSIYATLARI

- ∞ *Nikohni tugatish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari.*
- ∞ *Aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual jihatlari.*
- ∞ *Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning xususiyatlari.*
- ∞ *Mehnatga oid nizolarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari*

Oila jamiyatning negizidir. U turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. U o‘zining ko‘p asrlik mustahkam va ma’naviy tomirlariga ega bo‘lib, bu go‘sada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi Oliy Majlis tomonidan 1998-yili tasdiqlandi. Oila kodeksi qabul qilinib kuchga kirganidan so‘ng, 1999-yil 12-aprelda Vazirlar Mahkamasining 171-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori e’lon qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga kiritish to‘g‘risida»gi 1998-yil 30-aprel qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra:

- fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari 1-ilovaga muvofiq;
- O‘zbekiston Respublikasida vasiylilik va homiylik to‘g‘risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq;
- voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Sudlarning faoliyati, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan qoidalari asosida, oilani har tomonlama himoyalashga, bolalarni Vatanga va oilaga sadoqat ruhida tarbiyalashga, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish nikoh va oila munosabatlari borasidagi qonunlarni mustahkamlashga, fuqarolarni oila va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etgan holda tarbiyalashga qaratilgan. Bu vazifalar Oila kodeksi, «O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan

nikohdan ajratish haqdagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorida ham ko‘rsatilgan.

1. Nikohni tugatish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-moddasida belgilanganidek, nikoh er-xotinning hayotligida ulardan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq ajralish yo‘li bilan tugatilishi mumkin. Sud ajralish to‘g‘risida ariza bergen er va xotinni yarashtirish uchun barcha choralarni ko‘rishga majbur.

Sud er-xotinning kelgusida birgalikda oilaviy turmush qurishi va oilani saqlab qolish imkoniyati yo‘q deb topganda nikohni bekor qilishi mumkin.

Voyaga yetmagan farzandlari bo‘lmagan er va xotinning ajralishiga o‘zaro roziliklari bo‘lgan taqdirda, agar ular o‘rtasida mulk to‘g‘risida va bir-birlarining ta’mnoti uchun aliment undirilishi to‘g‘risida da’vo bo‘lmasa, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi (FHDYO)da bekor qilinishi mumkin.

Belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb topilgan shaxslar, ruhiy kasallik yoki aqli zaif bo‘lganligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar, shuningdek, kamida uch yil muddatga ozodlikdan mahrum etilishga hukm qilingan shaxslar bilan bo‘lgan nikoh ham fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida, ammo nizo bo‘lgan taqdirda, bunday nikoh sud tartibida ko‘rib hal qilinadi.

Demak, nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlar ikki guruhga: birinchidan, nizosiz bo‘lganligi tufayli fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ko‘riladigan ajralish to‘g‘risidagi ishlar va ikkinchidan, ajraluvchilar o‘rtasida nizo bo‘lgani tufayli umumiy da’vo ishi tartibida sudda ko‘riladigan ajralish to‘g‘risidagi ishlarga bo‘linadi.

Ajralish to‘g‘risidagi ishlarning ikki guruhga bo‘linishiga asos er va xotinning ajralishga bo‘lgan huquqlarini nizoli yoki nizosiz (ma’muriy tartibda) bo‘lishidir. Er va xotin ajralishga bo‘lgan huquqlarini fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ikki holatda, ya’ni: birinchidan, ajralish uchun er va xotinning o‘zaro roziliqi bo‘lganda ikkinchidan, ajraluvchi er va xotinning voyaga yetmagan farzandlari bo‘lmanida amalga oshiradilar.

Ajralishga bo‘lgan huquqning nizosiz bo‘lishi tufayli fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajralish huquqini beradigan boshqa yuridik faktlar ham bor. Bunday ishlarning ayrimlarini alohida tartibda ko‘riladigan ishlar turkumiga kiritish mumkin. Bular:

- 1) er yoki xotinning belgilangan tartibda bedarak yo‘qolgan deb topilishi fakti;
- 2) er yoki xotinning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb tanilishi fakti;
- 3) er yoki xotinning jinoyat qilganligi uchun kamida uch yil muddatga hukm qilinishi fakti.

Ammo yuqorida ko‘rsatilgan faktlar o‘z-o‘zicha ajralishga bo‘lgan huquqning nizosiz bo‘lishini va, binobarin, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga ajralish to‘g‘risida murojaat qilish mumkinligini bildiradigan asoslar hisoblanmaydi. Qonun fuqarolik dalolatnomalarini qayd qilish organida nikohning bekor qilinishi uchun yana qo‘sishimcha shartlarni ham belgilaydi. Nikohni qayd qilish organida ajralishni rasmiylashtirish uchun qamoqda bo‘lgan er yoki xotinning arizasi yoki muomalaga layoqatsiz tarafning vasiysi tomonidan berilgan bolalar to‘g‘risidagi, er va xotinning umumiyl mulki bo‘lgan mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi arizasi bo‘lmasligi yoxud mehnatga layoqatsiz er va xotinning muhtoj bo‘lganligi sababli ta’minot to‘lanishi to‘g‘risida nizo bo‘lmasligi talab qilinadi.

Er va xotinning nikohni qayd qilish organlariga birgalikda yozma ariza berishlari va bu arizada nikohni bekor qilish to‘g‘risida har ikki tarafning iltimosi bayon etilishi kerak bo‘ladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga taalluqli bo‘lgan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlarni bu idoralarda ko‘rib hal etishning iloji bo‘lmasligi haqda dalillar (bu organga ajraluvchilardan birining kelmasligi yoki ariza berishdan bosh tortganligi va hokazo to‘g‘risida shu idoralardan tegishli ma’lumotlar) bo‘lsa, sud bunday ishlarni da’vo qo‘zg‘atish tartibida ko‘rishga haqli. O‘zbekiston Respublikasining 1969-yilgi «Nikoh va oila» kodeksida nikohni bekor qilish ishlarini fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organlariga arizani qabul qilganidan so‘ng uch oy o‘tganidan keyin ajratish qayd qilingan. Bunda uch oylik muddat er va xotinning o‘zaro yarashib ketishlari ehtimolini nazarda tutib belgilangan. Agar ko‘rsatilgan uch oylik muddat davomida er va xotindan biri ajralishni istamasligini bildirsa, ajralish to‘g‘risidagi ish nizoli bo‘lganligi tufayli sudda ko‘rilgan. Amaldagi Oila kodeksida bunday huquqiy norma kiritilmagan. Bunday qoidani kiritilmaganligi ushbu turkumdagisi ishlarni

ko‘rishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yilishiga asos bo‘lishi mumkinligini nazarda tutgan.

Agar er va xotinning ajralish to‘g‘risidagi niyatlari qat’i bo‘lsa, uch oy o‘tgandan so‘ng fuqarolik holati aktlarini yozish organi nikohning bekor qilinganligini qayd qilishi va ajralish to‘g‘risidagi er va xotinga guvohnoma berishi lozim bo‘ladi.

Er va xotinning voyaga yetmagan farzandlari bo‘lmagan holda o‘zaro ajralishga rozi bo‘lganlarida fuqarolik holati aktlarini yozish organi ajralishni qayd qilishda qonunda belgilangan miqdorda davlat boji undiradi.

Bedarak yo‘qolgan yoki ruhiy kasallik yoxud aqli zaiflik tufayli qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar bilan yoki jinoyat qilganligi uchun kamida uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar bilan bo‘lgan nikohni bekor qilishni qayd qilishda boj belgilangan eng kam ish haqining ikki foizi miqdorida olinadi¹.

Oila kodeksining 39-moddasida belgilanganidek, xotinning homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida er nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishni xotinning rozilgisiz qo‘zg‘atishga haqli emas. Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun xotinning roziligi bo‘lmasa, sud erdan da’vo arizasini qabul qilishni rad etadi, agar qabul qilingan bo‘lsa, ish yuritishni tugatadi. Bulardan tashqari, agar xotinning homiladorligi va nikohdan ajralishga roziligi yo‘qligi ishni appellatsiya, kassatsiya va nazorat bosqichida ko‘rish vaqtida ma’lum bo‘lsa, ish rad etish asoslarini kengaytiradi.

«O‘zbekiston Respublikasi sndlari tomonidan nikohdan ajratish haqdagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida»gi 1998-yil 11-sentabr Plenum qarorida «sudlovlik» tushunchasiga yanada aniqlik kiritilib, bunga ko‘ra, agar Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga kirgan davlatlarga ketgan va manzili ma’lum bo‘lgan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqdagi da’vo, da’vogarning xohishiga qarab (javobgarning oxirgi yashash joyi yoki uning yangi yashash joyida), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi tarkibiga kirmaydigan boshqa davlatlarga ketgan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqdagi da’volar esa da’vogarning yashash joyidagi sudda qo‘zg‘atilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.

¹ Qarang: Конун номи билан // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. –1995. – № 1–2. – 35–36-б.

Nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi ariza faqat er-xotinning har ikkisi tomonidan yoki ularning biri tomonidangina berilishi mumkin. Bu holat nikoh munosabatlarining birinchi navbatda shaxsiy munosabat bo‘lishidan va ajralishga bo‘lgan huquqning shaxsiy ekanligidan kelib chiqadi.

Ajralish to‘g‘risidagi ariza sudya tomonidan qabul qilingan paytdan e’tiboran, ajrashuvchi er va xotin fuqarolik protsessual taraflar bo‘lib hisoblanadilar va qonun bilan belgilangan hamma protsessual huquqlarni oladilar.

Ajraluvchilarning farzandlari bo‘lganida arizada ularning nomlari, yoshlari, shuningdek, kimning tarbiyasida bo‘lishlari, er-xotindan qaysi biri bolalarni o‘z qaramog‘i va tarbiyasiga olishi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, bolalarni kelgusida boqish va tarbiyalash tartibi to‘g‘risidagi masala yuzasidan takliflar beradi.

Agar oilaviy mulkni bo‘lish to‘g‘risida talab bo‘lsa, er va xotinning mulkiy ahvoli to‘g‘risida ma’lumotlar va mulkni bo‘lish to‘g‘risidagi takliflar ko‘rsatiladi.

Agar ariza beruvchi o‘zining nikohga qadar bo‘lgan familiyasini saqlashni xohlasa, u o‘zining bu to‘g‘ridagi iltimosini arizada bayon etishi mumkin.

Ariza ajralish to‘g‘risida murojaat qilgan er yoki xotin tomonidan imzolanishi kerak. Arizaga bolalar to‘g‘risidagi va ularning ajralishi to‘g‘risidagi masalani hal qilish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar: fuqarolar holati dalolatnomalarini yozish organlaridan olingan guvohnomalar, bolalarni tug‘ilishi to‘g‘risidagi hujjatlar, bolalarning kim bilan yashashlari va haqiqatda kimning boqimida bo‘lishlari to‘g‘risida o‘zini o‘zi boshqarish idorasining bergan ma’lumotnomasi, bolalarning ota-onalari oladigan ish haq to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Oilaviy mulkni bo‘lish talab qilinganda, mulkning qiymati da’vogarning arizasida ko‘rsatiladi.

Ajralish to‘g‘risidagi ariza tumanlararo, tuman (shahar) sudiga berilishida eng kam ish haqning 50 foiz miqdorida davlat boji olinadi¹.

Ishni sudda ko‘rishga tayyorlash. Ajralish to‘g‘risidagi ishni sudda ko‘rish uchun tayyorlash ham hamma fuqarolik ishlari kabi fuqarolik protsessining majburiy bosqichi hisoblanadi. Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishga tayyorlash muhim ahamiyatga

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг «Давлат божи ставкалари ҳақида»ги 1994 йил 3 ноябрь қарори // Конун номи билан. – 1995. – № 1– 2. – 35-б.

egadir. Binobarin, sudlar tomonidan bunday ishlar tayyorlashda qonunda belgilangan hamma talablarga qat'i amal qilishlari lozim.

Nikohdan ajratish haqdagi ishni ko'rishda sud er-xotinni yarashtirish va oilaviy vaziyatni sog'lomlashтирish choralarini ko'rishga majbur.

Er-xotinni yarashtirish choralarini ko'rishda sud taraflarning yoki ulardan birining iltimosiga yoxud o'z tashabbusiga ko'ra ishning ko'riliшini boshqa vaqtga qoldirishga va er-xotinga yarashishlari uchun Oila kodeksida ko'rsatilgan doirada, lekin olti oydan kam bo'lмаган muhlat belgilashga haqli ekanligi ko'rsatilgan.

Sudya yarashtirish uchun berilgan muddatda er-xotinni yarashtirish maqsadida, zarur hollarda ajrim nusxalarini ular yashaydigan joydagi xotin-qizlar qo'mitalariga va o'zini o'zi boshqarish organlariga muhokama qilish va yarashtirish uchun yuborishi mumkin.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishni sudda ko'rishga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari boshqa fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlashdan farqlanadi. Bunday ishlarda er va xotinning nikohdan ajralishga qaratilgan, o'yamasdan, shoshma-shosharlik bilan qilingan harakatlarning oldini olish choralarini belgilash ham nazarda tutiladi.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishga tayyorlash FPKning 158–160-moddalariga muvofiq o'tkaziladi.

Ishni sudda mazmunan ko'rish jarayoni. Sud majlisiga chaqirilgan taraflarning kelmasliklari quyidagi oqibatlarni tug'diradi: birinchidan, taraflardan biri kelmaganida ishning ko'riliшi boshqa vaqtga qoldiriladi, taraflar qaytadan chaqiriladilar; ikkinchidan, agar javobgar ikkinchi marotaba chaqirilishda ham uzsiz sabablar bilan kelmasa, agar unga chaqiruv xatining topshirilganligi to'g'risida sudda ma'lumotlar bo'lsa, ish uning ishtirokisiz ko'rildi.

Ajralish to'g'risida ariza bergen er yoki xotin uzsiz sabablar bo'yicha ikkinchi marotaba chaqirilishda ham sud majlisida hozir bo'lmasa, agar ish uning ishtirokisiz ko'riliшi mumkinligi to'g'risida undan ariza tushmagan bo'lsa, sud ishni ko'rmasdan qoldiradi (FPKning 97-м. 5-б.).

Ajralish to'g'risidagi ishni sudya ochiq sud majlisida ko'radi. Er va xotinning iltimosiga ko'ra hamda sud ajrimi bo'yicha zarur hollarda ajralish to'g'risidagi ish yopiq sud majlisida ko'riliшi mumkin.

Oilani mustahkamlash masalasi muhimligini e'tiborga olib, qonunlarimiz sudlarga zarur hollarda ajralish to'g'risidagi ishning ko'riliшini boshqa vaqtga qoldirish hamda er va xotinga yarashish uchun muhlat tayinlash huquqni berdi. Bu muddat da'vo ishining holatlariga qarab sud

tomonidan belgilanadi, ammo Oila kodeksining 40-moddasida ko'rsatilganidek, olti oydan oshmasligi kerak.

Ajralish to'g'risidagi ish mazmunan faqat er va xotin o'rtasida yarashishga erishilmagan holdagina hal qilinishi mumkin. Sud har bir holatda ham er va xotin o'rtasida bo'lgan munosabatlarni va ishning barcha holatlarini diqqat bilan tekshirishga, ishning barcha holatlarini odillik bilan baholashga majbur.

Agar sud ajralish to'g'risidagi ishning qo'zg'atilishi chuqur o'yangan va asoslantirilgan vajlar bo'yicha bo'lganligini va nikohni kelgusida saqlash ahloq prinsiplariga zid keladi deb bilsa va er-xotinning kelgusida birga yashashlari uchun lozim darajadagi sharoitlar yaratilishi mumkin emasligiga va bolalarni tarbiyalash uchun kerakli sharoitlar bo'lmasligiga ishonsa, nikohdan ajralish to'g'risida qaror chiqarishi lozim.

Sudning hal qiluv qarori va uning mohiyati. Nikohdan ajralish to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqariladigan sudning hal qiluv qarori katta huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, ajralish kelgusida er va xotin uchun nihoyatda jiddiy oqibatlarni tug'diradi.

Sudning nikohdan ajralish to'g'risidagi talabni qanoatlantiradigan qarori qonuniy kuchga kirganidan boshlab, ajralishni qayd qilish uchun FHDYO organiga murojaat qilganda bunday ajralish qayd qilingan vaqtidan e'tiboran er va xotinning bir-birlariga nisbatan bo'lgan huquq va burchlari tugatgan bo'ladi (OKning 47-m.).

Sudning nikohdan ajratish to'g'risidagi qarori faqat ajralishga bo'lgan huquqning tan olinganligini bildiradi. Nikohdan ajralish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarilgandan so'ng ham er va xotinlarga o'zlarining harakatlari oqibatlari to'g'risida yana bir marotaba qaror qonuniy kuchga kirgunga qadar o'yash, mulohaza qilish uchun fursat beriladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan sudning hal qiluv qarori ustidan FPKning 310–323-moddalariga muvofiq, umumiy asoslarda shikoyat qilinishi mumkin.

Bu turkumdag'i ishlarni appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko'rishda quyi sudlarda yo'l qo'yilgan moddiy va protsessual huquq normalarining jiddiy buzilganligini aniqlash zarur bo'ladi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha olinadigan davlat boji ishni yuritish bo'yicha sud xarajatlarining bir qismini qoplash maqsadida belgilanadi. Nikohdan ajrash to'g'risidagi ishlar bo'yicha olinadigan davlat boji esa chuqur o'yamasdan qaror qabul qilgan ajraluvchi er va xotinlarga iqtisodiy, moddiy ta'sir etish chorasi sifatida belgilanadi.

Boj summalarining miqdorini belgilashda sud taraflarning moddiy ahvolini, ishning haqiqiy holatini, ajraluvchilarning aybdorlik darajalarini e'tiborga oladi. Sud taraflarning ahvoliga qarab, er-xotindan birini yoki har ikkisini bojni to'lashdan ozod qilish huquqga ham ega.

Nikohning o'zaro rozilik va ixtiyoriy asosda tuzilishi oilaning barqaror va mustahkam bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Erkak va ayolning o'zaro roziligi bilan nikoh tuzilganligining ahamiyati va muhimligi BMT Bosh Assambleyasining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham ta'kidlab o'tilgan. Deklaratsiyaning 16-moddasida shunday deyiladi: «Nikoh, nikohdan o'tayotgan ikkala tomonning xohishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin». Nikohning erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik chinakam bo'lishi lozim. Nikohni tuzishga qo'rqtish, zo'rlik, aldash yoki nikohlanuvchining biri yoxud har ikkisiga ruhan ta'sir etilgan holatda majbur qilish taqiqlanadi.

Nikohga kirishning o'zaro rozilik asosida bo'lishi shartining buzilishi uning haqiqiy emas deb topilishigagina emas, balki g'ayriqonuniy xattiharakat sodir etib, nikohga kirishga zo'rланган, aldagan va qo'rqtigan shaxslarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksining 136-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilangan. Uzrli sabablar bo'lganda, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi tomonidan nikoh yoshi ko'pi bilan bir yilga kamaytirilishi mumkin.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqdagi ishlarni ko'rishda hal qilish tartibi nikohdan ajralish to'g'risidagi da'volar va ularning ko'riliшining protsessual tartibidan farq qiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'volar ham sudga taalluqli. Bunday turkumdagи ishlar nizoli ishlar bo'lganligi sababli, umumiyl da'vo ishlarini ko'rish tartibida hal qilinadi (OKning 40-m., FPKning 239-m.).

Qonunda belgilangan nikoh tuzish shartlarini buzib qayd qilingan nikoh sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Jumladan, nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilarning o'zaro roziliklari bo'lmasa, boshqa bekor qilinmagan nikoh mavjud bo'lsa, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb tanilgan shaxs bilan, nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan nikohga kirilgan bo'lsa.

Taraflarning yoki ulardan birining oila qurish maqsadini ko'zlamay qayd qilingan nikohlari (soxta nikoh) ham haqiqiy emas deb topiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda sudning vazifalari ham nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishdan boshqacha. Bunday ishlarni ko‘rishda qonun sudlarga er va xotinni yarashtirish va oilani saqlash majburiyatini yuklamaydi, chunki davlat ham, jamiyat ham qonunni buzib tuzilgan nikohni himoya qilmaydi.

Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual xususiyatlari nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlarga joriy qilinmaydi. Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘volar nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da‘volardan: da‘voning asoslari, ishning predmeti jihatidan ham, bunday da‘volarni qanoatlantiradigan hal qiluv qarorlarining huquqiy oqibatlari jihatidan ham farq qiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘voning asoslari Oila kodeksining 49-56-moddalarida ko‘rsatilgan. Bunday da‘volarning predmeti nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi talab, ya’ni ish bo‘yicha da‘vogar va javobgar o‘rtasida huquqiy munosabat (nikoh)ning bo‘lmaganligini belgilash to‘g‘risidagi talab bo‘ladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘voni qanoatlantirib chiqarilgan sudning hal qiluv qarori mazkur nikohning qayd qilinishi fakti - huquqiy munosabatning (nikohning) vujudga keltirilmaganligini, er va xotin uchun o‘zaro huquq va majburiyatlar tug‘dirmaganligini tasdiqlaydi. Ammo nikohning haqiqiy emas deb topilishi bunday nikohda bo‘lgan davrda tug‘ilgan bolalarning huquqlariga ta’sir etmaydi (OKning 56-m. 3-q.). Haqiqiy emas deb topilgan nikohda bo‘lgan shaxslardan tug‘ilgan bolalar boshqa bolalar bilan teng huquqqa ega bo‘ladilar.

Ajralish haqidagi da‘voni qanoatlantirish to‘g‘risida chiqarilgan sudning qarori ajralish uchun huquqning bo‘lishini tasdiqlaydi. Sudning bunday qarori kuchga kirgan paytdan e’tiboran nikoh tugatilgan hisoblanadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgach, o‘n kun muddat ichida undan ko‘chirma nikoh tuzilganligi ro‘yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborilishi lozim (OKning 50-m.).

2. Aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual jihatlari

Oila kodeksda ko‘rsatilganidek oila huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar bilan aliment munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar ham sudlarga taalluqlidir.

Aliment undirish huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarning xususiyat shundan iboratki, u hamisha shaxsiy munosabatlardan kelib chiqadi, bunday turkumdag'i ishlarda protsessual huquq qabul qilinishiga yo'1 qo'yilmaydi.

Demak, aliment undirish to'g'risidagi ishlar muayyan xususiyatga ega, bu xususiyatni e'tiborga olmaslik, taraflar va boshqa mansabdor shaxslarning qonuniy huquqlari jiddiy buzilishiga, g'ayriqonuniy va asoslantirilma-gan qararlarning chiqarilishiga olib kelishi mumkin.

FPKning 105-moddasi hamda «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini 3-moddasining «v» bandiga muvofiq aliment undirish to'g'risidagi da'volar yuzasidan faqat javobgarning turgan joyi bo'yicha emas, balki da'vogarning turar joyi bo'yicha ham sudga murojaat qilinishi mumkin. Bu qoidalar bunday turkumdag'i ishlar bo'yicha da'vogarlar uchun muhim protsessual imtiyozlar belgilaydi. Ularning maqsadi sud tartibida aliment undirishni osonlashtirishdir. Ammo, bu qoida aliment majburiyatlari bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarga joriy etilmaydi, chunonchi, alimentlarning miqdorini kamaytirish va uni to'lashdan ozod qilish to'g'risidagi ishlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Bolalar ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risidagi da'volar mustaqil, shuningdek, nikohdan ajratish, ota-onalik huquqdan mahrum qilish, bolani tarbiyaga berish, otalikni belgilash to'g'risidagi da'volar bilan birga ham qo'zg'atilishi mumkinligini nazarda tutish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrdagi 22-sonli qarorining 16-bandida sud nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlarni ko'rishda voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish maqsadida, ishda aniqlangan holatlarga muvofiq, manfaatdor shaxs tomonidan da'vo qo'zg'atilgan-qo'zg'atilmaganligidan qat'i nazar, bolalar tarbiyasi uchun nafaqa undirish masalasini muhokama qilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Bolalar manfaatlarining muhimligini e'tiborga olgan holda qonun-qoidalar nikohdan ajralish to'g'risida ariza bergan er-xotinga yarashtirish to'g'risida muddat berishni nazarda tutgan bo'lsa ham nizo bo'limgan hollarda ajralish ishlari ko'rilmanga qadar nafaqa undirish masalasini ishni qo'zg'atmasdan turib sud muhokama qilishga haqli ekanligi asoslab berilgan¹.

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг «Ўзбекистон Республикаси судлари томонидан никоҳдан ажратиш ҳақидаги ишларни кўришда қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида»ги 22-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1998. – № 3. – 54–55-б.

Bulardan tashqari, aliment undirish to‘g‘risidagi masala, bu to‘g‘rida ota-onalik huquqdan mahrum qilish haqdagi ish yuzasidan qaror chiqarish chog‘ida o‘z tashabbusi bilan hal qilishi mumkin.

Ota-onalik huquqdan mahrum qilish ota-onani bolalarni ta‘minlash majburiyatidan ozod etmaydi. Shu tufayli da‘vo qo‘zg‘atilgan-qo‘zg‘atilmaganligidan qat‘i nazar, bu masalalar birgalikda hal etilishi shartligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentabrda qabul qilgan qarorida ko‘rsatilgan.

Sudlar da‘vogarning turar joyi noma‘lum bo‘lgan taqdirda ham da‘vo arizasini qabul qilishni rad etmasdan, o‘z tashabbuslari bilan javobgarning turar joyini aniqlashga va da‘vo ishining sudda ko‘rilishi kuni to‘g‘risida xabardor qilish choralarini ko‘rishga majburlar.

Voyaga yetmagan bolalar va muomalaga layoqatsiz shaxslarning manfaatlarini va ularning aliment olishga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashning muhim kafolati Oila qonunchiligidagi belgilangan. Unga ko‘ra, agar javobgarning yashab turgan joyi noma‘lum bo‘lganida uni ichki ishlar organlari orqali qidirtirish majburiyati belgilangan (FPKning 140-m.).

Bu normaga muvofiq, sudya da‘vo arizasini qabul qilishga va javobgarni qidirish to‘g‘risida ajrim chiqarishga majbur. Shu bilan birga aliment undirish to‘g‘risidagi ishning yuritilishini vaqtincha to‘xtatish to‘g‘risidagi masala hal qilinadi (FPKning 93-m. 3-q.). Oila kodeksining 96–102-moddalari ham shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bu qonunlarga asoslanib sud da‘vo arizasini qabul qilish bilan birga, ishning sudda hal qilinishiga qadar bolalarning ta‘minoti uchun javobgar qanday xarajatlarni ko‘tarishi lozimligi to‘g‘risida ajrim chiqaradi, ya’ni ona va bolalarning manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan choralarini ko‘radi. Vaqtincha undirilishi lozim bo‘lgan summaning miqdori javobgarning ish haq (daromadi)ning tegishli qismi miqdorida yoki qat‘i summa bilan belgilanishi mumkin. Bu normaning tatbiq etilishi javobgarning ishni mazmuni bo‘yicha hal qilinishini cho‘zishga qaratilgan harakatining oldini oladi.

Da‘vo arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi: bolaning tug‘ilishi to‘g‘risidagi guvohnoma; nikohning qayd qilinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma; bolaning ariza beruvchi bilan birga yashashi va uning boquvida bo‘lishi to‘g‘risidagi ma‘lumot; javobgarning ishlab turgan joyidan, uning ish haq to‘g‘risidagi va uning ish haqdan boshqa shaxslarning foydasiga ijro hujjatlari bo‘yicha qancha summa undirilishi

to‘g‘risidagi ma’lumot; agar javobgar fermer bo‘lsa, javobgarning tomorqa uchastkasidan oladigan qo‘srimcha daromadlari to‘g‘risida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish idoralaridan ma’lumot ilova qilinadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlardan birortasi bo‘lmasa, da‘vogarga bunday hujjatlarni mumkin qadar qisqa vaqt ichida topshirish qiyin bo‘lsa, sudya ularni tegishli muassasalardan o‘z tashabbusi bo‘yicha talab qilib olishga majbur (FPKning 57, 158-m.).

Bolalar ta’mnoti uchun aliment undirish to‘g‘risidagi da‘volar ota-onalarning nikohdan ajralgan-ajralmaganligidan qat‘i nazar qo‘zg‘atilishi mumkin. Sudya ishni sudda ko‘rishga tayyorlashda javobgarning boshqa onadan bo‘lgan bolalari uchun ham aliment to‘lash-to‘lamasligini aniqlashi va bu onani mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs sifatida ishga jalg qilishi lozim.

Mazkur turkumdagagi ishlar oddiy tartibda, ammo quyida ko‘rsatilgan xususiyatlar e’tiborga olingan holda ko‘riladi. FPKning 131-moddasi bunday ishlarni ko‘rish uchun qisqartirilgan muddatlar belgilaydi. Chunonchi: taraflar bir shahar yoki bir tumanda yashasalar, ish 10 kundan kechiktirilmasdan ko‘riladi, boshqa hollarda esa ariza qabul qilingan kundan boshlab 20 kundan kechiktirilmasdan ko‘riladi. Ammo bu qoida bunday da‘voning boshqa ishlarga qo‘sib ko‘rinishida tatbiq etilmaydi. Masalan, otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishga aliment undirish to‘g‘risidagi ishlar qo‘silganida tatbiq etilmaydi. Bunday hollarda ish bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rishi mumkin.

Javobgarning sud majlisiga hozir bo‘lishini ta’minalashga alohida e’tibor beriladi. Aliment undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha javobgarning sudga kelishi umumiy qoida bo‘yicha majburiy hisoblanadi. Agar javobgar sud tomonidan uzsiz deb topilgan sabablar bo‘yicha sud majlisiga kelmasa, unga eng kam ish haqining besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi va majburiy ravishda keltirilishi mumkin (FPKning 261-m.).

Javobgar boshqa shaharda yoki tumanda yashasa va uning sudga kelishi qiyinroq bo‘lsa, u kasalligi va boshqa uzrli sabablar bilan protsessda qatnasha olmasa, sud uni majlisga kelishdan ozod qilishi mumkin. Bunday holda ishni ko‘rvuchi sud javobgardan ishning holatlari va qo‘zg‘atilgan da‘vo yuzasidan bat afsil tushuntirish olishi kerak.

Sud aliment undirish to‘g‘risidagi ish bo‘yicha hal qiluv qarori qabul qila turib, bu qarorni FPKning 205 va 206-moddalari talablariga muvofiq ravishda tuzadi.

Aliment sudga da'vo bilan murojaat qilingan paytdan boshlab undiriladi. Agar sud aliment undirish uchun hamma choralarni ko'rishga qaramay, javobgar uni to'lashdan bosh tortgani sababli aliment undira olmagani, shuningdek, da'vogar oilani saqlash maqsadida yoki boshqa uzrli sabablar bilan o'z vaqtida da'vo qilmagani aniqlasa, sud ishdagi ahvollarga qarab, o'tgan vaqt uchun ham, ammo uch yildan oshiq bo'lman muddatga aliment undirishi mumkin (OKning 136-m.).

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99-moddasiga binoan, agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqda ota-onada o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haq va boshqa daromadining bir bola uchun – to'rtadan bir qismi, ikki bola uchun – uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. To'lov miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvoli va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak.

Favqulodda holatlar tufayli, masalan, bolaning og'ir kasal bo'lishi, mayib bo'lishi va shu kabi holatlar sodir bo'lganida alimentdan tashqari ota-onalardan qo'shimcha xarajatlar ham undirilishi mumkin (OKning 103-m.).

Agar sud aliment to'lovchi shaxsning boshqa voyaga yetmagan bolalari borligini aniqlasa va undan qonun bilan belgilangan miqdorda aliment undirilganida bu bolalar, aliment oluvchi bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanadigan bo'lib qolsalar, shuningdek, aliment to'lovchi birinchi va ikkinchi guruh nogironi bo'lsa yoxud aliment oladigan bolalar ishlasalar, ularning yetarli ish haq bo'lsa, undiriladigan alimentning miqdori sud tomonidan kamaytirilishi lozim.

Aliment undirish to'g'risidagi hal qiluv qarorida uning darhol ijro etilishi ko'rsatiladi (FPKning 219-m.). Bu ijro varaqasining qaror chiqarilgandan so'ng kechiktirilmasdan yozilishi kerakligini bildiradi. Aliment undirish to'g'risidagi qarorning ijro etilishi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda boshqa ba'zi xususiyatlar ham bor. Chunonchi, qarorlarning ijro etilishi, umumiy qoida bo'yicha, aliment undiruvchining o'zi tomonidan qo'zg'atilsa, ammo mazkur turkumdagi ishlar bo'yicha, sudning tashabbusi bilan ham ijro varaqasi ijro etishga yuborilishi mumkin (FPKning 373-m.).

Qonun aliment undirishni birinchi navbatda qanoatlantiradigan talablar qatoriga qo'yadi. Aliment to'lovlari muntazam xarakterga ega bo'lib, javobgarning ish haqidan uning ish joyida undiriladi.

Agar qarzdorning yashash joyi va ish joyi noma'lum bo'lsa, sud ijrochisi qarzdorni ichki ishlar organi orqali qidirtirish to'g'risidagi masalani sud oldiga qo'yishi kerak. Qarzdor topilganidan keyin ijro varaqasini uning ish joyiga yuborib, undiriladigan summaning miqdorini va undiruvchining manzilini ko'rsatishi lozim. Shu bilan birga, ijro varaqasi qarzdorning ish joyiga yuborilganligi to'g'risida aliment undiruvchi xabardor qilinadi. Korxona, muassasa yoki tashkilotning ish beruvchisi ijro varaqasini olgandan so'ng, aliment to'lovchining ish haqidan (pensiya, stipendiya, nafaqasi va shu kabilardan) har oyda ushlab qolishga va ijro varaqasida ko'rsatilgan shaxsga, ish haq berilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmasdan, qarzdor ishdan bo'shangani holda esa - shu muddat davomida, aliment undiruvchiga sud qarori ijro etiladigan joydagi sud ijrochisiga, aliment to'lovchi shaxsning ishdan bo'shab ketganligi va agar ma'lum bo'lsa, uning yangi ish joyi yoki turar joyi to'g'risida ma'lumot berishga majbur (OKning 137–138-m.).

Ushlab qoltingan summalar ko'chirilishida qarzdorning ish haq miqdori va alimentning qancha vaqt uchun undirilganligi ko'rsatiladi. Qarzdor tomonidan olinayotgan ish haqi miqdori o'zgargan holda yoki ish haqining to'lanishi 15 kundan oshiq muddatga kechiktirilsa, bu to'g'rida aliment undiruvchi xabardor qilinishi kerak.

Undirish aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning hisob varaqalariga, pul mablag'iga va uning boshqa mol-mulkiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaratiladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv yoki ijro varaqasi asosida o'tgan davrdagi aliment qarzi aliment uchun taqdim qilingunga qadar o'tgan uch yildan ortiq bo'limgan muddat uchun undiriladi.

Aliment undirish to'g'risidagi ishlarning yana o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, to'lanishi lozim bo'lgan alimentning summasi qarzdorning qarshi da'vosi hisobiga o'tkazilishi mumkin emas. To'langan aliment summalarini qayta talab qilib olib bo'lmaydi. Ammo aliment ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlarning da'vo qo'zg'atgan shaxs tomonidan keltirilgan yolg'on ma'lumotlar yoki yolg'on hujjatlarga asoslangan bo'lishi hollari bundan mustasno (FPKning 385-m. hamda OKning 143-m.).

To‘lovlarning miqdori xodim ish haqini 50 foizidan oshmasligiga ham ma’muriyat e’tibor berishi lozim. Aliment to‘lovchi ish joyini o‘zgartirsa, bu haqda ma’lum qilishi kerak va hokazo. Aliment to‘lashni ixtiyoriy tartibi aliment undirilishi to‘g‘risida da’vogarni xohlagan vaqtida sudga murojaat etish huquqdan mahrum qilmaydi (OKning 135-m.).

3. Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibi

Bolalarning ota-onalari qonun bilan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan nikohda bo‘lganlarida otalikni belgilash to‘g‘risidagi masala qo‘yilishi, ya’ni nizo qo‘zg‘atilishi mumkin bo‘lmaydi. Agar nikohlari qonuniy rasmiylashtirilmagan ota-onaning farzandlari bo‘lsa, bunday bolalarning nasabi ota-onalarining nikohni qayd qilish organlariga bergen arizalariga binoan belgilanadi. Bordi-yu, bunday ariza berilmasa, (ota bolaning otasi bo‘lishini tan olmasa) bolaga nisbatan otalik sud tartibida da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan belgilanishi mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi talabning sudda ko‘rilishi masalasini hal qilish uchun sudya protsessual ahamiyatga ega bo‘lgan va oila qonunchiligidan nazarda tutilgan qator holatlarni tekshiradi. Otalikni sud tartibida belgilash da’vo ishi va alohida tartibda ko‘riladigan ishlarga oid qoidalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarning uch turkumini ajratib ko‘rsatadi. Bulardan birinchisi, da’vo ishini yuritish tartibida ko‘riladigan otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlar; ikkinchi va uchinchisi, alohida ish yuritish tartibida ko‘riladigan otalikka iqror bo‘lish faktini va otalik faktini belgilash to‘g‘risidagi ishlardir.

Otalikni sud tartibida belgilashning moddiy-huquqiy oqibatlari birdek bo‘lsa ham, ammo bu uch turkumdagagi ishlarning har qaysilari o‘ziga xos protsessual va moddiy-huquqiy ta’rifga ega. Ularning sudda ko‘rinishida har xil faktik holatlar belgilanadi, shu bilan birga, sudga murojaat qilish uchun bo‘lgan huquq asoslari, isbotlash predmeti, sud qarori ham har xil bo‘ladi.

Otalikning da’vo ishini yuritish tartibida belgilanishi va alohida tartibda ish yuritishda otalik faktini belgilash to‘g‘risidagi talablarning qanoatlantirilishi ishning sudda ko‘riliishi davomida Oilan kodeksining 61-63-moddalarida sanab o‘tilgan holatlardan birining tasdiqlanishi bilan

bog‘liqdir¹. Bolani o‘z tarbiyasiga olgan va otasi ekanligiga iqror bo‘lgan shaxs vafot etgani holda otalikni tan olish fakti Oila kodeksining 60-moddasiga asosan belgilanadi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘ata turib, sudya mazkur talabning sudda ko‘rishga tegishli bo‘lish-bo‘lmasligini belgilashnigina emas, balki bu ishning qaysi turkumdagi ishlarga oid bo‘lishini ham belgilashi lozim. Buning uchun muayyan protsessual ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning bo‘lish yoki bo‘lmasligi tekshiriladi. Bulardan ba’zilari otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sudga murojaat qilish huquqni beradigan asos sifatida ko‘rilsa, boshqalari boshqacha ahamiyatga, masalan, ishlarni qaysi turkumga doir bo‘lishini chegaralash uchun ahamiyatga ega bo‘ladi. Chunonchi, bolaning otasi sifatida faraz qilingan shaxsnинг vafot etishi fakti alohida tartibda ish yuritishda ko‘rilishi lozimligini bildiradi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish uchun umumiylashtirilgan nikohning yo‘qligi hisoblanadi. Boshqa holatlar da’vo ishini yoki alohida tartibda ko‘riladigan ishlarni qo‘zg‘atish uchun har xil ta’sir qiladi.

Alohida tartibda ko‘riladigan ariza bilan murojaat qilinganida sudya ishni qo‘zg‘atishda qanday faktning belgilanishi kerakligini aniqlaydi.

Bolaning tug‘ilishi vaqtida nikohni qayd qilish organida bolaning otasi to‘g‘risida yozilgan yozuv alohida protsessual ahamiyatga ega bo‘ladi. Bolaning tug‘ilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinishi, qoida bo‘yicha bolaning muayyan ota-onadan tug‘ilganligini isbotlovchi dalil bo‘lib ko‘riladi. Ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida huquq va burchlarning vujudga kelishi faqat nikohning qayd qilinishi bilangina emas, balki nikoh bo‘limganida otalikning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd qilinishi fakti bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ariza qabul qilinishida otalik haqda yozilgan yozuv tekshiriladi. Bunday yozuvning bo‘lishi muayyan holatlardagina ishning sudda ko‘rilihiga to‘sinqinlik qilmaydi. Birinchidan, bu bolaning tug‘ilishini qayd qilish vaqtiga bog‘liqdir. Agar bola fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga, bolaning onasi bilan nikohda bo‘limgan otasining ismiga qayd qilingan bo‘lsa, bunday

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. – Т., 2012. – 38 – 45-б.

yozuvlar huquqiy oqibatlar tug‘diradi, ammo bu holat arizaning qabul qilinishini rad qilish uchun asos bo‘lmaydi. Bunday hollarda, agar bolaning otasi vafot etgan bo‘lsa, otalikning tan olinishi fakti to‘g‘risidagi ish sudda ko‘rlishga tegishli bo‘ladi. Aks holda, bolaning subyektiv huquqlarini, chunonchi: davlat pensiyasini, meros olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish mumkin bo‘lmay qoladi.

Bolaning otasi to‘g‘risidagi yozuvning FHDYO organlarida yozilishi muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar bolaning otasi to‘g‘risidagi yozuv Oila kodeksining 207-moddasi 3-qismiga asoslanib yozilgan bo‘lsa, uning bo‘lishi otalikni belgilash uchun sudga murojaat qilishga to‘sinqlik qilmaydi va ishning yuritilishini to‘xtatish uchun asos ham bo‘lmaydi.

Aksariyat hollarda otalikni belgilash to‘g‘risidagi da’vo arizalari aliment undirish to‘g‘risidagi talablar bilan birga qo‘sib beriladi. Oila qonunchiligida otalikni belgilash va aliment undirish to‘g‘risidagi da’volarni ko‘rish nazarda tutilmagan. Ammo, shu bilan birga, Oliy sud Plenumining 2011-yil 25-noyabrda chiqargan qarorining 2-bandida otalikni belgilash to‘g‘risidagi da’vo bilan bir vaqtida bolaning ta’minoti uchun aliment undirish to‘g‘risidagi da’vo ham birga qo‘zg‘atilishi mumkinligi tushuntiriladi.

Oila kodeksining 62-moddasiga muvofiq, otalikni belgilash to‘g‘risidagi ariza bilan sudga bolaning ota-onalaridan biri yoki vasiysi (homiysi), bolani tarbiyalab turgan shaxs, shuningdek, bolaning o‘zi ham voyaga yetganidan so‘ng murojaat qilishi mumkin. Alohida ish yuritish tartibida ko‘riladigan ishlarda manfaatdor shaxslarning ishtirok etishi, ishning holatlarini birmuncha to‘la aniqlashga yordam beradi. Ammo bunday hollar ariza beruvchi bilan manfaatdor shaxslar o‘rtasida sudga taalluqli huquq to‘g‘risida nizo chiqqanida otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlar, agar ota deb faraz qilingan shaxs vafot etgan bo‘lsa, alohida ish yuritish tartibida ko‘rilmasdani, balki da’vo ishini yuritish tartibida ko‘riladi.

Qonuniy nikohda bo‘limgan shaxslardan tug‘ilgan bolaning otasini sud yo‘li bilan belgilash uchun muayyan yuridik faktlarning mavjudligini aniqlash talab qilinadi.

Sud otalikni belgilash to‘g‘risidagi nizolarni ko‘rishda:

- 1) bolaning onasi bilan javobgarning bola tug‘ilishiga qadar birga yashaganliklari va umumiy ro‘zg‘or yuritganliklarini;
- 2) bolani birgalikda tarbiyalaganliklarini yoxud uni ta’minlab turganliklarini;

3) javobgarning otalikni tan olganligini (otalikka iqror bo‘lganligini) aniq tasdiqlaydigan dalillarning bo‘lishini e’tiborga oladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar bolaning javobgar shaxsdan tug‘ilishi faktini tasdiqlaydigan dalillar bo‘lishi bilan bir qatorda, moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ya’ni otalik huquqlari va burchlarini vujudga keltiruvchi shartlar bo‘lib ham ko‘riladi va mazkur turkumdagи ishlар bo‘yicha da’voning asosini tashkil etadi.

Otalikni belgilashda sud tomonidan e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan holatlar orasida Oila kodeksining 62-moddasida, avvalo, bolaning otasi bilan onasi birgalikda yashagan bo‘lishlari va birgalikda umumiyo ro‘zg‘or yuritganliklari ko‘rsatiladi. Oliy sud Plenumining 2011-yil 25-noyabrdagi chiqarilgan qarori¹ning 3-bandida tushuntirilishicha, bolaning onasi javobgar bilan birgalikda yashashlari va birgalikda umumiyo ro‘zg‘or, xo‘jalik olib borishlari, oilaviy munosabatlar uchun xarakterli holat bo‘lishi bilan, chunonchi, bir uyda yashashlari, birgalikda ovqatlanishlari, bir-birlari to‘g‘risida o‘zaro g‘amxo‘rlikda bo‘lishlari, birgalikda foydalanish uchun uy-ro‘zg‘or buyumlari olishlari va boshqa holatlar bilan tasdiqlanishi mumkinligi aytiladi. Sud amaliyotida O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 61-moddasi talablari bo‘yicha bolaning nasabini belgilash bilan bog‘liq bo‘lgan holatlarni yetarli tekshirilmagani holda sud otalikni belgilash haqdagi da’voni qanoatlantirish hollari mayjudligi to‘g‘risida Respublika Oliy Sudi Plenumi qarorida ko‘rsatib o‘tilgan.

Otalikni tan olganlikni isbotlaydigan dalillar: javobgarning xatlari, anketalari, arizalari va boshqa faktik ma’lumotlar hisoblanadi. Bular bilan birga, otalikka iqror bo‘lish faktini aniq tasdiqlaydigan, protsessual qonunlarda nazarda tutilgan boshqa isbotlash vositalaridan ham, masalan, javobgarning otalikka iqror bo‘lganligini isbotlaydigan aktlar yoki hujjatlarning muallifi ekanligini belgilash to‘g‘risida ekspertlarning fikrlaridan ham foydalanish mumkin bo‘ladi.

Javobgarning sud majlisida otalikka iqror bo‘lishi alohida ahamiyatga egadir. Javobgar sudda da’voni tan olsa, otalikka iqror bo‘lsa, qonunda nazarda tutilgan shartlar bo‘lmasa ham sud otalikni belgilash to‘g‘risida qaror chiqarishga haqli.

Ba’zi hollarda javobgar o‘ziniki bo‘lmagan bolaga nisbatan ham iqror bo‘lishi mumkin. Bunday iqror taraflarning qonunda belgilangan

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий суди ахборотномаси. – Т., 2011. – № 6. – 10–13-б.

tartibdan chiqib, bolani sud orqali farzand qilib olishni istashlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Otalikka yolg‘ondan iqror bo‘lish rad qilinishi kerak. Chunki sudning qarori barcha hollarda ish holatlariga muvofiq bo‘lishi va chin haqiqatga qarama-qarshi bo‘lmasligi kerak. Binobarin, javobgarning sud majlisida otalikka iqror bo‘lishi sudni bolaning haqiqatan kimdan tug‘ilganligini aniqlash burchidan ozod etmaydi.

Otalikka iqror bo‘lish faktini va otalik faktini belgilash to‘g‘risidagi arizalar chiqariladigan sud qarorlarining mazmuni va shakliga nisbatan qo‘yiladigan barcha talablarga javob berishi lozim. Shu bilan birga, bunday ishlar bo‘yicha sud qarorlarining mazmuni ba’zi xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar qaror tuzishda e’tiborga olinishi kerak.

Ishda javobgar bo‘lmagani uchun alohida ish ko‘rish tartibida sud tomonidan belgilanadigan yuqorida ko‘rsatilgan yuridik faktlarning bir-biriga o‘xhash bo‘lishiga qaramasdan, ular faktik tartibi bo‘yicha farqlanadi. Shu sababli ularni alohida tartibda ko‘riladigan ishlarning bir turkumiga birlashtirish mumkin emas. Chunonchi: *birinchidan*, bolaning faraz qilingan otasi vafot etganida; *ikkinchidan*, bola o‘lgan shaxsning hayotligida, uning boquvida bo‘lganligida; *uchinchidan*, otalikka uning iqrorligi bo‘lganida sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida belgilanishi mumkin.

Otalik fakti esa quyidagi hollarda: *birinchidan*, bolaning onasi faraz qilingan otasi bilan birgalikda umumiy xo‘jalik olib borgani; *ikkinchidan*, bolaning faraz qilingan otasi o‘lganda shu yuqorida ko‘rsatilgan tartibda belgilanishi mumkin.

Sud amaliyotini o‘rganishi shuni ko‘rsatadiki, sudlar barcha holatlarda ham bunday ishlar o‘rtasidagi farqni to‘g‘ri aniqlamaydilar. Ba’zan otalikning iqrorligi fakti o‘rniga otalik faktini, ba’zi aksincha holatni belgilaydilar.

4. Mehnatga oid nizolarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar fuqarolik sud ishlarini yuritishning umumiy qoidalari, ya’ni da’vo ishlarini yuritish tartibida sudlar tomonidan ko‘rildi.

Bunday turkumdagи fuqarolik ishlari uchun qonun bilan belgilangan qator o‘ziga xosliklar mavjud. Bu xususiyatlar nizoli moddiy-huquqiy munosabat bilan belgilanib, faqat moddiy huquq (mehnat huquq)

normalarida emas, balki protsessual huquq normalarida (FPK) ham nazarda tutilgan. Bu xususiyatlar sudyalar tomonidan mehnat ishlari bo'yicha da'vo arizalarini qabul qilishda, ularni sud majlisida ko'rish uchun tayyorlashda va ish yuritishning boshqa keyingi bosqichlarida ham e'tiborga olinishi kerak.

Mehnat nizosini ko'rishni so'rab sudga murojaat qilish huquqga quyidagilar egadirlar:

1) xodim, kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi;

2) mehnatning huquq bo'yicha inspektori;

3) ish beruvchi, mehnat nizolari komissiyasining qaroriga rozi bo'limgan taqdirda, shuningdek, unga xodim tomonidan yetkazilgan zararni qoplash haqdagi nizolar bo'yicha;

4) prokuror.

Sudya bunday ishlar bo'yicha arizalar qabul qilishda FPKning 31 va 239-moddalarida nazarda tutilgan umumi qoidalarga amal qilib, mazkur ishning sudga taalluqli bo'lish-bo'lmashligini belgilashi lozim. Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni sudga taalluqli bo'lish va taalluqli bo'lmaydigan ishlar haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1998-yil 17-apreldagi Plenumi qarorida ko'rsatib o'tilgan.

Nizoning predmetiga va ishda qatnashuvchi subyektlarga qarab, mehnat huquqi normalari bunday ishni hal qilishning har xil tartibini belgilaganini nazarda tutish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 260-moddasida ko'rsatilganidek, mehnat nizolari bo'yicha xodim mehnat nizolari komissiyasiga yoki bevosita sudga murojaat etishga haqlı. Qonunga ko'ra xodim mehnat nizosini hal qilish uchun o'z xohishiga asosan (MKning 269-m.) mehnat nizolari komissiyalariga murojaat etmasdan turib, quyidagi hollarda bevosita tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ish qo'zg'atishga haqlidirlar:

1) mehnat nizolari komissiyasi saylanmaydigan yoki biror sababga ko'ra bunday komissiya tuzilmagan korxonalarda kelib chiqqan mehnat nizolari bo'lsa;

2) mehnat shartnomasini bekor qilish asoslaridan qat'i nazar, ishga tiklash, mehnat shartnomasini bekor qilish vaqt va sabablari ta'rifini o'zgartirish, majburiy progul yoki kam haq to'lanadigan ishlarni bajargan vaqt uchun haq to'lash haqdagi masalalarga doir bo'lsa;

3) ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni xodimdan undirib olish haqda bo'lsa;

4) mehnat nizolari mehnat vazifalarini bajarayotganida xodimning sog'ligiga shikast yetkazilgani oqibatidagi zararni, shu jumladan ma'naviy zararni yoki uning mol-mulkiga yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to'lanishi haqida bo'lsa;

5) Mehnat kodeksining 78-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan hollarda ishga qabul qilish rad etilganligi haqda bo'lsa;

6) ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan oldindan kelishib hal etilgan masalalar yuzasidan kelib chiqqan bo'lsa, shuningdek, boshqa korxonalardan o'tkazish tartibida ishga taklif etilgan shaxslarni ishga qabul qilishni rad etish, bandlik hisobidan ishga yuborilgan 18 yoshga to'lmagan shaxslarni, nogironlarni, homilador ayollarni va 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni, 14 yoshga to'lmagan bolasi bor (16 yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor) onalarni, qonunga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi shart bo'lган boshqa shaxslarni ishga qabul qilishni rad etganlik to'g'risidagi nizolar bo'yicha bo'lsa.

Mehnat kodeksi 269-moddaning 1-qismida sanab o'tilgan mehnat nizolaridan boshqa nizolar ham xodimning xohishiga ko'ra bevosita tumanlararo va tuman (shahar) sudlarida ko'rildi.

Qonun mehnat nizosi mehnat nizolari komissiyasida ko'rilmagan degan vaj bilan xodimning arizasini sudda ko'rib chiqishni rad etishga yo'l qo'yaydi.

Mehnat nizolarini tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ko'rish tartibi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sudlar tomonidan mehnat shartnomasi (kontrakt)ni tuzish, o'zgartirish va bekor qilishni tartibga soluvchi qonunlarning qo'llanishi haqda»gi 1998-yil 17-aprel qarorida berilgan.

Da'vo arizasini qabul qilishning rad etilishi va mehnat ishi bo'yicha qo'zg'atilgan ishning bekor qilinishi FPKning 152 va 160-moddalarida nazarda tutilgan barcha asoslar bo'yicha amalga oshiriladi.

Da'vo arizasi FPKning 145-moddasida ko'rsatilganidek, javobgarning yashab turgan joyidagi sudga beriladi.

Mehnat haqini undirish to'g'risidagi va mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan boshqa talablar bo'yicha bo'lган da'volar yuzasidan xodimlar davlat daromadlariga sud xarajatlarini, bojini to'lashdan ozod qilinadilar. Bunday talablar qanoatlantirilganida sud xarajatlari da'veoning qanoatlantirilgan qismiga nisbatan javobgardan undiriladi. Agar da'vo talablari rad etilsa, sud xarajatlari davlat hisobiga o'tkaziladi. Bu holat

mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlarni o‘ziga xos xususiyatlaridandir.

Sudga avvalo mehnat nizolarini ko‘rish komissiyasida ko‘rilgan nizo bo‘yicha ariza tushsa, sud bu masala bo‘yicha mehnat nizolarini ko‘rish komissiyasi majlisining bayonnomasidan ko‘chirma topshirilishini talab qilishi lozim.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarning protsessual xususiyatlaridan biri shuki, bunda boshqa fuqarolik ishlariga nisbatan qisqa muddat belgilanadi.

Mehnat nizosini hal qilishni so‘rab sudga yoki mehnat nizolari komissiyasiga murojaat qilish uchun quyidagi muddatlar belgilanadi:

- ishga tiklash nizolari bo‘yicha – xodimga u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqdagi buyruqning nusxasi berilgan kundan boshlab *bir oy*;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan moddiy zararni to‘lash haqdagi nizolar bo‘yicha – zarar yetkazilganligi ish beruvchiga ma’lum bo‘lgan kundan boshlab *bir yil*;

- boshqa mehnat nizolari bo‘yicha – xodim o‘z huquqi buzilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan kundan boshlab *uch oy*;

- xodimning sog‘ligiga yetkazilgan zararni qoplashga doir nizolar bo‘yicha sudga murojaat qilish uchun muddat belgilanmaydi.

Mehnat nizolari komissiyasi yoki sudning qarori bilan xodim g‘ayriqonuniy asosda ishdan bo‘shatilgan taqdirda darhol ishga qayta tiklanishi lozim.

Mehnat nizolari komissiyasi yoki sud ishga tiklash to‘g‘risida qaror qabul qilish bilan bir vaqtida xodimga majburiy progul vaqt uchun o‘rtacha ish haqini to‘lash yoki kamroq haq to‘lanadigan ishni bajargan vaqt uchun maoshidagi farqni to‘lash haqda qaror qabul qiladi, biroq bu muddat bir yildan oshmasligi kerak.

Shuningdek, xodimni g‘ayriqonuniy ravishda ishdan bo‘shatish yoki boshqa ishga o‘tkazishda aybdor bo‘lgan mansabdor shaxs zimmasiga qilingan progul vaqt uchun yoki kamroq haq to‘lanadigan ishni bajargan vaqt uchun mansabdor shaxsning uch oylik maoshidan oshmaydigan miqdorda javobgarlik yuklatiladi.

Ishdan bo‘shatish noto‘g‘ri yoki amaldagi qonunlarga muvofiq emas deb topilgan taqdirda, mehnat nizolari komissiyasi yoki sud uni o‘zgartirishi va ishdan bo‘shatish sababini amaldagi qonunlarga muvofiq ta’riflashi shart.

Agar ishdan bo'shatish ta'rifining noto'g'riliqi xodimning ishga joylashishiga to'sqinlik qilsa, bir vaqtning o'zida xodimga majburiy progul vaqtiga uchun o'rtacha ish haq to'lash to'g'risida qaror chiqariladi, biroq bu muddat bir yildan oshmasligi kerak.

Bunday hollarda mehnat daftarchasiga kiritilgan yozuvlar haqiqiy emas deb hisoblanadi, xodim esa mehnat daftarchasining haqiqiy emas deb topilgan yozushi qayd etilmagan dublikatini berishni talab qilishga haqlidir.

G'ayriqonuniy ravishda ishdan bo'shatilgan yoki boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishga tiklash to'g'risidagi, ishdan bo'shatish sababining ta'rifi o'zgartirish haqdagi, shuningdek, xodimga ish haq berish to'g'risidagi qaror darhol ijro etilishi lozim. Agar qarorning ijrosi ish beruvchi tomonidan kechiktirilsa, sud unga barcha kechiktirilgan davr uchun o'rtacha ish haq yoki shu ish haq o'rtasidagi farqni to'lash to'g'risida ajrim chiqaradi.

FPKning 131-moddasiga ko'ra, mehnat nizolari birinchi instansiya sudi tomonidan 10 kunlik muddat ichida ko'riliishi lozim. Ishni boshqa muddatda ko'riliishi shu qonunda belgilangan.

Mehnat ishlarini sudda ko'rish uchun tayyorlash alohida ahamiyatga egadir. Sudya ishni ko'rishga tayyorlashga kirishishda FPKning 158–160-moddalari talablarini aniq bajarishi lozim. Ishga tiklash to'g'risidagi va boshqa nizolar bo'yicha mehnat nizolari komissiyasining qarori ish beruvchi va kasaba uyushmasi qo'mitasi yoxud xodimlarning boshqa vakillik organi vakillari o'rtasidagi kelishuvga binoan qabul qilgan taqdirda sud shu ish to'g'risidagi qarorning nusxasini talab qilib olishi kerak.

Mehnat intizomini buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni ko'rishda sudlar, xodim tomonidan mehnat intizomini buzadigan xatti-harakatlarni qilingan-qilinmaganligi, xodimga nisbatan ta'sir etish choralarining ish beruvchi tomonidan qo'llangan-qo'llanmaganligini belgilash talab qilinadi.

Da'vogar da'vordan har qachon voz kechishga haqli bo'lgani tufayli mehnat nizolarining sudda ko'riliishi kelishuv bitimi bilan tugatilishi mumkin.

Mehnatga oid ko'p masalalar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinganligi tufayli bunday masalalar yuzasidan kelishuv bitimlarini tuzish kamdan-kam uchraydi.

Ishga tiklanish to'g'risidagi da'vo qanoatlantirilganida qarorda xodimning qayerga va qanday ishga (mansabga) tiklanishi lozimligi

ko'rsatiladi. Uning noiloj bekor yurgan vaqt uchun korxonadan undiriladigan summaning miqdori belgilanadi.

Qonunga binoan ish haqini undirish to'g'risidagi nizo kelib chiqqan taqdirda, mehnat nizolarini ko'rvuchi organ xodimning pul undirishga doir quyidagi talablarini to'liq qondiradi:

- mehnat shartnomasi bekor qilinganida xodimga mehnat daftarchasini o'z vaqtida bermaganlik oqibatida kelib chiqqan majburiy progul vaqt uchun haq to'lash to'g'risidagi;

- mehnat nizolarini ko'rvuchi organning xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi qarorini ish beruvchi ijro etmaganligi oqibatida kelib chiqqan majburiy progul uchun;

- foydalanilmagan ta'til uchun xodimga tegishli bo'lgan kompensatsiyani to'lash to'g'risida.

Bunday talablar 1 yildan ortiq bo'limgan muddat uchun qondiriladi. Xodimning pul undirishga doir boshqa talablari 3 yildan ortiq bo'limgan muddat uchun qondiriladi.

Xodimlar mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha sudga murojaat qilganlarida sud xarajatlarini to'lashdan ozod etiladilar.

Mehnat nizolari yuzasidan mehnat nizolarini ko'rish komissiyasi, shuningdek, sud chiqargan qaror asosida xodimga to'langan pul summalarini qaror bekor qilingan taqdirda ham qaytarib olinishi (qaytarma ijro qilinishi) mumkin emas.

Xodim yolg'on ma'lumotlar taqdim etgan, soxta hujjatlar bergenligi tufayli bunday g'ayriqonuniy qaror qabul qilgan taqdirda to'langan pullar xodimdan qaytarib olinishi mumkin.

Ish beruvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda, shu jumladan qonunlarni noto'g'ri qo'llash natijasida ortiqcha to'lab yuborilgan pul summalarini ham, basharti, xodim yolg'on ma'lumotlar yoki soxta hujjatlar taqdim etishi oqibatida yuz bermagan bo'lsa, xodimdan qaytarib olinishiga yo'l qo'yilmaydi. Xodimning yolg'on ma'lumotlari yoki soxta hujjatlar bergani sud qarori yoki hukmi bilangina belgilanishi lozim.

Mehnatga oid fuqarolik ishlarining muhim protsessual xususiyatlaridan yana biri, ishga tiklash va ish haqini undirish to'g'risidagi ishlar bo'yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarining darhol ijro etilishidir. Hal qiluv qarorining darhol ijro etilishida sudya qaror chiqarilgan vaqtida undiriladigan summani undirish uchun da'vogarga ijro varaqasini berishi lozim.

Mehnat nizolarini ijro bosqichida ham uning o‘ziga xos xususiyati mavjud. Ijro aktlarini ijro qilish haqidagi qonunga muvofiq xodimlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan talablari birinchi navbatda qanoatlantiriladi.

Xodimni ishga tiklash to‘g‘risidagi va ish haqini undirish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlari darhol ijro etilishi lozim bo‘lganligi tufayli bunday qarorlarning ijrosi to‘xtatilishi mumkin emas.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Nikohni bekor qilish to‘g‘risidagi ishlarning taalluqlilagini ayting.*
2. *Aliment to‘lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik bormi?*
3. *Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish uchun asoslarni aytib bering.*
4. *Nikohni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da’vo arizasi yozing.*
5. *Aliment undirish to‘g‘risida da’vo arizasi yozing.*
6. *Mehnatga oid nizolarning taalluqliligi va sudlovllilagini bilasizmi?*
7. *Bevosita tumanlararo va tuman (shahar) sudlariga taalluqli mehnat nizolarini aytib bering.*
8. *Mehnatga oid nizolar bo‘yicha da’vo arizasi yozing.*

8-MAVZU. SUD QARORLARI USTIDAN SHIKOYAT BERISH VA ULARNI QAYTA KO'RISH

∞ *Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) huquqi.*

∞ *Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan cassatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi.*

∞ *Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko'rish.*

∞ *Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010-yil 12-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma'ruzasida sud-huquq tizimini isloh etish masalasiga alohida e'tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bayon etdi: «Bugungi kunda fuqarolar qonuniy kuchga kirgan birinchi instansiya sud qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini cassatsiya instansiyasida, o'z advokati ishtirokida bevosita himoya qilish imkoniga ega bo'lishdi. Shu tariqa fuqarolarning birinchi instansiya sudlarining qarorlariga nisbatan shikoyatlarini yashirin, yopiq tarzda ko'rib chiqish tartibi batamom tugatilganini ta'kidlash lozim. Amalga oshirilgan o'zgarishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo'l qo'ymaslikning muhim kafolatiga aylandi.

Shu borada quyidagi raqamlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Agar 2000 yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuza-tilgan bo'lsa, 2009-yil yakunlariga ko'ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig'i appellatsiya va cassatsiya tartibida bartaraf etilgan»¹.

¹ Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010. – 18-б.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik ishlari sudlarida birinchi instansiya tartibidan tashqari, ishlari appellatsiya, kassatsiya, nazorat tartibida hamda qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish holatlari ham mavjud.

Mazkur holatlarni amalga oshirilishi, albatta, sud-huquq islohotlarini hamda odil sudlov xolisona olib borish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini qonun nuqtai nazaridan himoya qilish, shu bilan birga, ta’minlashga qaratilgandir.

1. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) huquqi

Fuqarolik sud ishlarida ishtirok etuvchilarining huquqlari faqat birinchi instansiya sudidagina emas, balki ishning appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasida ko‘rilishida ham himoya qilinadi.

FPKning 310-moddasida aytilganidek, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshirish haqidagi shikoyat (ariza) bilan qonunda belgilangan tartibda murojaat qilishga haqlidirlar.

Prokuror muayyan ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat’i nazar, sudning hal qiluv qarori, ajrimi, qarori ustidan o‘z vakolati doirasida protest keltiradi.

Demak, sudda qabul qilingan qarorlar taraflarning subyektiv huquq va manfaatlariga ta’sir qilganligi sababli, ishning ko‘rilishi natijasidan norozi bo‘lgan shaxslar yuqori sudga shikoyat yoki protest bilan murojaat etib, ishning tekshirilishini iltimos qilishlari mumkin.

Sudning qarori qonuniy, asosli va adolatli ekanligi yuzasidan tekshiruv quyidagi asoslar bo‘yicha qo‘zg‘atiladi:

1) qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan berilgan appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha;

2) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo‘yicha;

3) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori ustidan berilgan kassatsiya shikoyati yoki kassatsiya protesti bo‘yicha;

4) birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan ajrimi ustidan berilgan xususiy shikoyat yoki xususiy protest bo‘yicha;

5) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qaror ustidan nazorat tartibida protest keltirish haqida berilgan ariza bo‘yicha;

6) qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim va qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish haqida berilgan ariza bo‘yicha.

Sud qarorlarini tekshirishning yuqorida ko‘rsatilgan usullarining har biri o‘ziga xos xususiyatga ega. Sud qarorlari ko‘pincha appellatsiya va cassatsiya tartibida tekshiriladi.

Appellatsiya tartibi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 14-dekabrdagi to‘rtinchi sessiyasida qabul qilingan qonunga ko‘ra, FPKga maxsus bob sifatida kiritildi.

«Appellatsiya» lotincha so‘z bo‘lib, «murojaat» degan ma’noni anglatadi.

FPKga appellatsiya tartibida ish yuritishning kiritilishi protsessual qonunchilikda katta burilish bo‘ldi, chunki bu tartibda ish yuritishning maqsad va vazifalari inson manfaatlarini, ularning haq-huquqlarini har taraflama himoya qilishga qaratilgandir.

Ikkinchi instansiya tariqasida ish ko‘rvuchi appellatsiya sudi birinchi instansiya sudining ko‘rgan ishlarini qayta, mazmunan to‘liq ko‘radi va ish yuzasidan yangi qaror (ajrim) chiqarishga haqlidir.

Appellatsiya sudida ishlarni qayta ko‘rishdan maqsad, amaldagi FPKga ko‘ra, fuqarolik ishlari birinchi instansiya tartibida tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida yakka sudya tomonidan o‘zi ko‘rishi tufayli moddiy va protsessual huquqiy normalarni tatbiq etishda yo‘l qo‘ylgan xato va kamchiliklarni hay’at tarkibida yuqori sudda tuzatish imkoniyatini yaratishdir.

Birinchi instansiya sudining hal qiluv qaroridan norozi bo‘lgan manfaatdor shaxs shikoyat qilish huquqidan foydalanadi. Bunday subyektlar jumlasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslar kiradi.

FPKning 312-moddasiga ko‘ra sudning qarorini appellatsiya, cassatsiya va nazorat tartibida bekor qilishga quyidagilar asos bo‘ladi:

1) ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning to‘liq aniqlanmaganligi;

2) sud aniqlangan deb hisoblagan, ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning isbotlanmaganligi;

3) sudning hal qiluv qarorida bayon qilingan xulosalarning ish holatlariga muvofiq kelmasligi;

4) moddiy huquq normalari yoki protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligidir.

FPKning 313-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda moddiy huquq normalari buzilgan yoki noto‘g‘ri qo‘llangan hisoblanadi:

1) sud tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llamagan bo‘lsa;

- 2) sud tatbiq qilinmasligi lozim bo‘lgan qonunni qo‘llagan bo‘lsa;
- 3) sud qonunni noto‘g‘ri talqin qilgan bo‘lsa.

FPKning 314-moddasida ko‘rsatilganidek, protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto‘g‘ri qo‘llanganligi ishning noto‘g‘ri hal etilishiga sabab bo‘lgan yoki sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan taqdirdagina hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorning bekor qilinishiga asos bo‘ladi.

Agar:

- ish sud tomonidan g‘ayriqonuniy tarkibda ko‘rilgan bo‘lsa;
- ish sud muhokamasida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan, ammo sud

majlisining vaqtি va joyi to‘g‘risida xabar berilmagan shaxslardan birortasining yo‘qligida ko‘rilgan bo‘lsa;

– ish ko‘rilayotganida ish yuritiladigan tilga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

– sud ishda qatnashishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlariga doir masalani hal qilgan bo‘lsa;

– hal qiluv qarori, ajrim, qaror chiqarishda sud maslahatining sir saqlanishiga doir qoidalar buzilgan bo‘lsa;

– hal qiluv qarori, ajrim, qaror sudyalardan birortasi (sudya) tomonidan imzolanmagan yoki hal qiluv qarori, ajrim, qaror, ularda ko‘rsatilmagan sudyalar (sudya) tomonidan imzolangan bo‘lsa;

– hal qiluv qarori, ajrim, qaror ishni ko‘rmagan sudyalar tomonidan chiqarilgan bo‘lsa;

– ishda sud majlisi bayonnomasi mavjud bo‘lmasa yoki u imzolanmagan bo‘lsa, hal qiluv qarori, ajrim, qaror majburiy tartibda bekor qilinishi shart.

Shikoyat berish (protest keltirish) huquqi sudning hal qiluv qarori chiqarilganidan keyin vujudga keladi. Bu huquq appellatsiya shikoyati berilishi bilan amalga oshiriladi. Appellatsiya shikoyati yuqori sud instansiyasiga yozilib, fuqarolik ishiga qo‘silib, qaror chiqargan sud orqali yuboriladi.

Sudning qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarorlari va ajrimlari shikoyat qilish huquqining obyektlari bo‘ladi.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran *yigirma kun* (jinoyat ishlari bo‘yicha *o‘n kun*) ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati berishlari, prokuror esa protest keltirishi mumkin.

Ko'rsatilgan muddat o'tganidan so'ng berilgan shikoyat (protest) ko'rilmasdan qoldiriladi va shikoyat (protest) bergan shaxsga qaytariladi. O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash masalasi umumiyl tartibda hal etiladi.

Apellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi va mazmuni FPKning 322 va 323-moddalarida belgilangan. Jumladan, appellatsiya shikoyati yoki protestida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- 1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi;
- 3) shikoyat qilinayotgan yoki protest keltirilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;
- 4) hal qiluv qarorining noto'g'rili ni madan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxat.

Apellatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Apellatsiya protesti, ushbu ishda ishtirok etgan-etmaganligidan qat'i nazar, prokuror yoki uning o'rribosari tomonidan keltiriladi va imzolanadi.

Agar appellatsiya shikoyati berish yoki protest keltirish paytida FPKning 322 va 323-moddalarida ko'rsatilgan talablar buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa yoki davlat bojini to'lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat berish uchun boj to'lamagan bo'lsa, appellatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldiriladi.

Apellatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish to'g'risida sudya bu shikoyat yoki protestning harakatsiz qoldirilishiga asos bo'lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko'rsatib, ajrim chiqaradi.

Shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxs ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergan yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Sudya yoki sud raisi appellatsiya shikoyati yoki protestini olgandan so'ng:

- 1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nusxalarini yuborishi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga appellatsiya instansiyasida ishni ko'rish vaqtini va joyi to'g'risida ma'lum qilishi;

3) hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish uchun belgilangan muddat o‘tgan vaqtdan e’tiboran o‘n kun ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga appellatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

Hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish va protest keltirish uchun belgilangan muddat ichida hech kim ishni suddan talab qilib olishi mumkin emas. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protest bilan tanishishga haqlidirlar.

Amaldagi qonunga ko‘ra, appellatsiya shikoyati bergen shaxs uni to‘ldirishi, o‘zgartirishi yoki undan voz kechishga haqlidir, agar bunday voz kechish qonunga zid yoki birovning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga xilof bo‘lmasa, sud uni qabul qilishi mumkin.

Apellatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlanguniga qadar protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki qaytarib olishga haqli.

Apellatsiya instansiya sudiga shikoyat (protest) berish muddatlari FPKning 320-moddasida belgilangan. Ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan keyin berilgan shikoyat (protest) ko‘rilmaydi.

O‘tkazib yuborilgan muddatni tiklash masalasi FPKning 130-moddasiga asosan hal etiladi. FPKning 331-moddasiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sndlari, O‘zbekiston Respublikasining Harbiy sudi appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran *yigirma kundan kechiktirmay* ko‘rishi lozim. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana *o‘n kunga uzaytirishi* mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran *bir oydan kechiktirmay* ko‘rishi lozim. Alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki o‘rinbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana *bir oyga kechiktirishi* mumkin.

Ishni appellatsiya instansiyasida ko‘rish muddati kechiktirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish ko‘riladigan kun oldindan xabar qilib qo‘yilishi lozim.

Ishning appellatsiya sudida ko‘rishi vaqtি to‘g‘risida xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi ishni ko‘rishga to‘sinqilik qilmaydi.

Lekin, sud bunday hollarda kelmaslik sabablarini uzrli deb topsa, ishni keyinga qoldirishga haqli.

Ishning appellatsiya sudida ko‘rilishiga qadar ham, ko‘rilishi davomida ham appellatsiya shikoyatidan voz kechish, appellatsiya protestini esa, sud majlisining boshlanguniga qadar qaytarib olish mumkin bo‘lganidek, qonun da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da’vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishlariga yo‘l qo‘yadi.

Sud da’vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da’vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi.

Appellatsiya instansiysi sudi da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishini qabul qilganida yoki taraflarning kelishuv bitimini tasdiqlaganida chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi.

Agar da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo‘lsa yoxud birovning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga xilof bo‘lsa, sud voz kechishni rad qiladi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamay, ishni appellatsiya tartibida ko‘radi.

Ikkinci instansiya sudi ishni appellatsiya tartibida ko‘rish vaqtida ishga oid materiallar bo‘yicha birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining shikoyat qilingan qismi shaxslarga nisbatan qanchalik qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshiradi.

Appellatsiya instansiya sudida ishni ko‘rish raislik qiluvchining yoki sudyalardan birining ma’ruzasi bilan boshlanadi. Ma’ruzachi ishda to‘plangan materiallarga, ayniqsa, birinchi instansiya sudining bayonnomasiga asoslangan bo‘lishi lozim.

Appellatsiya instansiya sudining vakolatlari FPKning 343-moddasida ko‘rsatilgan. Sud ishni appellatsiya tartibida ko‘rib chiqqach, o‘z ajrimi bilan:

1) hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni qanoatlantirmaslikka;

2) ishni yangidan ko‘rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o‘zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) ushbu Kodeks 314-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va ishni birinchi instansiya sudiga yangidan ko‘rib chiqish uchun yuborishga;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ushbu Kodeksning 97 va 100-moddalarida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko‘rmasdan qoldirishga haqli.

Ishning appellatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha qayta ko‘rilishi natijasida ikkinchi instansiya sudi tomonidan chiqarilgan qaror *appellatsiya ajrimi* deb aytiladi.

Apellatsiya ajrimi ham sudning hal qiluv qarori kabi to‘rt qismdan iborat.

Apellatsiya instansiya sudi birinchi instansiya sudiga nisbatan u tomondan ish ko‘rilihida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, qonunning buzilishi hollarini ko‘rsatib, shuningdek, FPKning 19-moddasida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham xususiy ajrim chiqarishi mumkin.

FPKning 345-moddasida ish appellatsiya tartibida ko‘riganidan keyin tushgan appellatsiya shikoyatini (protestini) ko‘rish tartibi belgilangan. Unda aytilishicha, belgilangan muddatda yoki o‘tkazib yuborilgan muddat tiklangandan keyin berilgan appellatsiya shikoyati yoki keltirilgan appellatsiya protesti appellatsiya instansiyasiga ish boshqa shikoyatlar yoki protest bo‘yicha ko‘rib chiqilganidan keyin kelib tushsa, sud ularni qabul qilishi va ko‘rishi shart.

Apellatsiya instansiyasi bunday shikoyat yoki protestni ko‘rib, shikoyat yoki protest bo‘yicha chiqariladigan ajrim muqaddam chiqarilgan ajrimning o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishiga olib kelishi lozim, degan xulosaga kelsa, u ajrim chiqarib, ishni tavsiyanoma bilan sud raisiga yuboradi. Sud raisi bir yoki har ikkala ajrim ustidan nazorat tartibida protest keltirish masalasini hal qiladi.

Birinchi instansiya sudi chiqargan ajrim ustidan manfaatdor shaxsning beradigan shikoyatiga xususiy shikoyat, prokurorning keltirgan protesti esa *xususiy protest* deyiladi.

Qonun birinchi instansiya sudining chiqargan barcha ajrimlari ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish mumkin emasligini belgilaydi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan shikoyat berish yoki protest keltirish masalasi, avvalo, ajrim qaysi sud tomonidan chiqarilgan bo‘lishiga qarab hal qilinadi. Bu qoidaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi chiqargan ajrimlar ustidan shikoyat berib bo‘lmaydi.

Boshqa hamma sndlarning ajrimlari ustidan shikoyat berish, protest keltirish mumkin bo‘ladigan va mumkin bo‘lmaydigan ajrimlarga bo‘linadi. Shikoyat berilishi yoki protest keltirilishi mumkin bo‘lgan ajrimlarga FPKning 94, 108, 125, 130, 147, 152, 213, 214, 215, 216, 220, 256 va 374-moddalarini ko‘rsatish mumkin.

Xususiy shikoyat berish va protest keltirish hamda ularni ko‘rish tartibi FPKning 37-bobida ko‘rsatilgan.

Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko‘radigan appellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari FPKning 348-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, appellatsiya instansiyasi sudi xususiy shikoyat yoki xususiy protestni ko‘rib chiqib:

1) ajrimni o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlanmaslikka;

2) ajrimni bekor qilishga va ishni mazmunan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;

3) ajrimni butunlay yoki qisman o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga va masalani mazmunan hal qilishga haqli.

Xususiy shikoyat yoki protest bo‘yicha appellatsiya instansiya sudi chiqargan ajrim ustidan shikoyat berish mumkin emas, bunday ajrim chiqarilishi bilan darhol qonuniy kuchga kiradi.

2. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan cassatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi

Sud qarorlari aksariyat hollarda appellatsiya va cassatsiya tartibida tekshiriladi. Ko‘rilgan ayrim fuqarolik ishlari bo‘yicha appellatsiya tartibida shikoyat berilmasa va u qonuniy kuchga kirsa, ular qonunda ko‘rsatilgan hollarda cassatsiya va nazorat tartibida tekshirilishi va qayta ko‘rilihiga qonun yo‘l qo‘yadi.

Kassatsiya tartibida ish ko‘rish fuqarolik ishlarini qayta ko‘rish hisoblanadi.

«Kassatsiya» fransuzcha so‘z bo‘lib, «buzish» degan ma’noni bildiradi va ko‘rilgan fuqarolik ishlarini qayta ko‘rishni anglatadi. FPKning 348¹ -moddasida cassatsiya shikoyatini berish (protest keltirish) huquqi va muddati ko‘rsatilgan. Unda aytishicha, qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko‘rilmagan hal qiluv qarorlari ustidan sudning hal qiluv qarori chiqqan kundan e’tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar tomonidan cassatsiya shikoyati berilishi va prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

Kassatsiya shikoyatlari va protestlari cassatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi, lekin hal qiluv qarori chiqargan sudga beriladi.

Kassatsiya shikoyati yoki protestida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

- 1) shikoyat berilayotgan yoki protest keltirilayotgan sudning nomi;
- 2) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 3) shikoyat berilayotgan hal qiluv qarori va uni chiqargan sud;
- 4) hal qiluv qarorining noto‘g‘riliqi nimadan iborat ekanligi;
- 5) shikoyat berayotgan yoki protest keltirayotgan shaxsning iltimosi;
- 6) shikoyat yoki protestga ilova qilingan yozma materiallarning ro‘yxatি.

Kassatsiya shikoyatini shikoyat berayotgan shaxs yoki uning vakili imzolaydi. Kassatsiya protesti ushbu ishda qatnashgan-qatnashmaganligidan qat‘i nazar, prokuror yoki uning o‘ribbosari tomonidan keltiriladi va imzolanadi.

Kassatsiya shikoyati (protesti) sudda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab nussxalar bilan qo‘shib beriladi.

Kassatsiya shikoyatini beruvchi shaxs belgilangan miqdordagi davlat bojini to‘lashi lozim. Davlat bojining miqdori da’vo talablarining 50 foizi miqdorida bo‘lishi qonunda belgilangan.

Agar kassatsiya shikoyati berish yoki protest keltirish paytida FPKning 348³ va 348⁴-moddalari talablari buzilishiga yo‘l qo‘ylgan bo‘lsa yoki davlat boji to‘lashdan ozod qilinmagan shaxs shikoyat bergenlik uchun boj to‘lamagan bo‘lsa, kassatsiya shikoyati yoki protesti harakatsiz qoldiriladi.

Kassatsiya shikoyati yoki protestini harakatsiz qoldirish to‘g‘risida sudya bu shikoyat yoki protestning harakatsiz qoldirilishiga asos bo‘lgan kamchiliklarni va ularni tuzatish uchun berilgan muddatni ko‘rsatib ajrim chiqaradi.

Agar shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxs ajrimda ko‘rsatilgan kamchiliklarni belgilangan muddatda tuzatsa, shikoyat yoki protest dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi. Aks holda, shikoyat yoki protest berilmagan hisoblanib, shikoyat bergen yoki protest keltirgan shaxsga qaytariladi va bu haqda ajrim chiqariladi.

Sudya yoki sud raisi kassatsiya shikoyati yoki protestini olgandan so‘ng:

- 1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protestning nussxalarini yuborishi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rish vaqtি va joyi to‘g‘risida ma’lum qilishi;
- 3) sud qarori ijrosini (agar u ijro etilmagan bo‘lsa) ish kassatsiya tartibida ko‘rilguniga qadar to‘xtatib qo‘yishi va bu xususda manfaatdor shaxslar, tashkilotlarni xabardor etishi;

4) kassatsiya shikoyati yoki protesti kelib tushgan kundan e'tiboran yigirma kunlik muddat ichida ishni tushgan shikoyat yoki protest bilan birga kassatsiya instansiyasi sudiga yuborishi shart.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar sudda ish materiallari va tushgan shikoyatlar yoki protestlar bilan tanishishga haqli.

Bu harakatlar kassatsiya instansiya sudida ishlarni har tomonlama obyektiv va tezda ko'rinishini ta'minlashga qaratilgandir.

Kassatsiya instansiyasi sudi zarur hollarda:

1) ishda ishtirok etuvchi shaxslarga shikoyat yoki protest yuzasidan tushuntirish berishni (e'tiroz bildirishni) taklif qiladi. Tushuntirishlarning (e'tirozlarning), shuningdek, ularga ilova qilingan hujjatlarning nusxalarini sud ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshiradi;

2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning iltimosnomasi bo'yicha dalillarni talab qilib olishga ko'maklashadi.

Apellatsiya bosqichiga o'xshab, kassatsiya sudida ham kassatsiya shikoyati bergen shaxs uni to'ldirish, o'zgartirish yoki undan voz kechishga haqli.

Kassatsiya protesti keltirgan prokuror, shuningdek, yuqori turuvchi prokuror sud majlisi boshlanguniga qadar protestni to'ldirish, o'zgartirish yoki qaytarib olishga haqli. Agar hal qiluv qarori ustidan boshqa shaxslar shikoyat bermagan bo'lsa, shikoyatdan voz kechish qabul qilinganligi to'g'risida va protest qaytarib olingan taqdirda, kassatsiya instansiyasi sudi ajrim chiqarib, kassatsiya tartibida ish yuritishni tugatadi.

Kassatsiya instansiyasida ish ko'rish FPKning 14, 333 va 342-moddalarida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Da'vogar qo'zg'atilgan da'vo talablaridan nafaqat birinchi instansiya sudida, balki yuqori sudlarda ham voz kechishga haqli.

Javobgarning da'vo talablarini tan olishi sud protsessida ishning hal etilishini bir muncha tezlashtirishga imkon beradi.

Bulardan tashqari, taraflar fuqarolik ishlarini ish ko'rishning har qanday bosqichida kelishuv bitimi bilan yakunlashlari ham mumkin. Bu haqda FPKning 348¹¹-moddasida quyidagilar belgilangan, ya'ni kassatsiya shikoyati berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarning da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda bayon etilib, kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi lozim. Agar ishni ko'rish vaqtida da'vogar arz qilgan talablaridan voz kechsa, javobgar arz qilingan talablarni tan olsa yoki taraflar kelishuv bitimi tuzsalar, bu haqda

sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yiladi va bayonnomani da’vogar, javobgar yoki har ikki taraf imzolaydi.

Sud da’vodan voz kechishni qabul qilishdan yoki kelishuv bitimini tasdiqlashdan oldin da’vogarga yoki taraflarga bunday protsessual harakatlarning oqibatlarini tushuntiradi. Da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi qabul qilingan yoki taraflarning kelishuv bitimi tasdiqlangan taqdirda kassatsiya instansiyasi sudi chiqarilgan hal qiluv qarorini bekor qiladi va ish yuritishni tugatadi. Agar da’vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi yoki taraflarning kelishuv bitimi qonunga zid bo‘lsa yoxud kimningdir huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo‘lsa, sud voz kechishni rad qiladi yoki tuzilgan kelishuv bitimini tasdiqlamaydi hamda ishni kassatsiya tartibida ko‘radi.

Ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rish muddatlari FPKning 348¹²-moddasida ko‘rsatilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik ishlari bo‘yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran bir oydan kechiktirmay ko‘rib chiqishi lozim. Ish o‘ta murakkab bo‘lgan yoki boshqa alohida hollarda tegishli sudning raisi bu muddatni ko‘pi bilan yana yigirma kunga uzaytirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi kassatsiya shikoyati yoki protesti bo‘yicha tushgan ishni u kelib tushgan kundan e’tiboran *bir oydan* kechiktirmay ko‘rib chiqishi lozim. Alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi yoki o‘rnbosari bu muddatni ko‘pi bilan yana bir oyga uzaytirishi mumkin.

Ishni kassatsiya instansiyasida ko‘rish muddati uzaytirilgan taqdirda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ish ko‘riladigan kun oldindan xabar qilib qo‘yilishi lozim.

Ishni kassatsiya tartibida ko‘rayotgan sud birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniy, asosli va adolatli ekanligini tekshiradi. U yangi dalillarni o‘rganib chiqishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin.

Kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to‘liq hajmda tekshirishi shart.

Fuqarolik ishi kassatsiya instansiyasi sudida protsessual qoidalar asosida ko‘rib chiqilganidan so‘ng, sud o‘ziga berilgan vakolat doirasida FPKning 348¹⁵-moddasida belgilangan protsessual harakatlarni bajarib, o‘z ajrimi bilan:

1) hal qiluv qarorini o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaslikka;

2) hal qiluv qarorini o‘zgartirishga yoxud butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga;

3) FPKning 314-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga haqli;

4) hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga hamda FPKning 97 va 100-moddalarida ko‘rsatilgan asoslarga ko‘ra, ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko‘rmasdan qoldirishga haqli.

Kassatsiya instansiyasi sudining vakolati bilan appellatsiya instansiya sudining vakolatida farq yo‘qdek ko‘rinadi. Bunga sabab, appellatsiya sudida ko‘rilmagan fuqarolik ishlari qonuniy kuchga kirgan bo‘lsa ham yuqori sudlar tomonidan ko‘rib chiqilishi nazarda tutilgan.

Kassatsiya instansiyasi sudi fuqarolik ishini sud protsessida ko‘rib chiqqanidan so‘ng, ajrim chiqarish uchun maslahatxonaga kiradi.

Bu instansiya sudining ajrimi darhol chiqariladi va e’lon qilinadi. Bu bosqichdagi sudda, appellatsiya sudi kabi, ajrim chiqarishni kechiktirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kassatsiya instansiya sudining ajrimi chiqarilishi bilanoq qonuniy kuchga kiradi, uning ajrimi ustidan faqat vakolatli mansabdor shaxslargina nazorat tartibida protest keltirishga haqli bo‘ladi.

Birinchi instansiya sudining ajrimlari ustidan kassatsiya tartibida shikoyat berish va protest keltirish huquqi FPKning 348¹⁶-moddasida bayon etilgan. Unga ko‘ra, birinchi instansiya sudining appellatsiya tartibida ko‘rilmagan ajrimlari ustidan sudning hal qiluv qaroridan alohida holda kassatsiya instansiyasi sudiga sud ajrimi chiqarilgan kundan e’tiboran bir yil ichida taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar tomonidan shikoyat berilishi hamda prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin. Birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan shikoyat berilganligi (protest keltirilganligi) munosabati bilan ishni ko‘radigan kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlari FPKning 348¹⁷-moddasida bayon qilingan. Unga ko‘ra kassatsiya instansiya sudi xususiy shikoyat yoki xususiy protestni ko‘rib:

1) ajrimni o‘zgarishsiz qoldirishga, shikoyat yoki protestni qanoatlanmaslikka;

2) ajrimni bekor qilishga va ishni mohiyatan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudiga yuborishga;

3) ajrimni butunlay yoki qisman o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga hamda masalani mohiyatan hal qilishga haqli.

Apellatsiya instansiyasi sudi kabi xususiy shikoyat (protest) bo‘yicha cassatsiya sudi chiqargan ajrim ustidan ham shikoyat berilmaydi, bunday ajrim darhol kuchga kiradi.

3. Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish

Fuqarolik ishida ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida yuqori sud organlari quyi sudlarning chiqargan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va ajrimlarining to‘g‘riligini, asosliligini tekshirish uchun nazorat tartibida ishni ko‘rib, tegishli qaror chiqarish huquqiga egadirlar.

Ma’lumki, agar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, ajrimi ustidan taraflar shikoyat bermasalar, prokurorning protesti bo‘lmasa, bunday qarorlar qonuniy kuchga kiradi. Ammo fuqarolik ishini har tomonlama tekshirish natijasida sud, prokuratura organlarining vakolatli vakillari birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori, apellatsiya va cassatsiya instansiya sudlarining esa ajrimlari g‘ayriqonuniy, asoslan-tirilmasdan chiqarilgan degan xulosaga kelsalar, ishni nazorat tartibida qayta ko‘rish uchun protest keltiradilar va ish nazorat tartibida ko‘riladi.

Fuqarolik ishlarini sudda nazorat tartibida qayta ko‘rishning sud ishlarini yuritishning apellatsiya va cassatsiya bosqichlaridan farqi to‘g‘risida shuni aytish kerakki, sudning hal qiluv qarorlari apellatsiya, cassatsiya tartibida ko‘rilishida ishda ishtirok etuvchi subyektlar: taraflar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari, prokuror bo‘lsa, qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko‘rishda, ko‘rishga huquqga ega bo‘lgan yuqori sud va prokuratura organlarining vakillari subyekt bo‘lib qatnashadilar.

Agar fuqarolik ishining cassatsiya tarzidagi shikoyat yoki protest bo‘yicha ko‘rilishida ham sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va ajrimlari obyekt hisoblansa, ishning nazorat tartibida ko‘rilishida ham sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va ajrimlari obyekt hisoblanadi.

Kassatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) uchun protsessual muddat *bir yil* belgilangan bo‘lsa, ishning nazorat tartibida ko‘rilishida, FPKning 350-moddasiga ko‘ra, fuqarolar uchun sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan e’tiboran uch yil muddat ichida ariza berilishi belgilangan. Bu ikki bosqichda ish ko‘rish tartibi asosan ana shu belgilar bilan bir-biridan farq qiladi.

Fuqarolik ishlarining nazorat tartibida ko‘rlishida bir qator protsessual harakatlar qilinadi. Bu harakatlar ishni talab qilib olish, tekshirish, lozim hollarda protest keltirish va ishni qayta ko‘rish, sud organlari yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratiladi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari yoki ajrimlarini nazorat tartibida bekor qilishga ularning asossizligi, qonunning qo‘pol buzilishi yoki davlat va fuqarolarning manfaatiga ochiqdan-ochiq zid kelishi asos bo‘ladi.

Agar cassatsiya sudi ko‘rilgan ish yuzasidan ajrim qabul qilsa, nazorat sudi qaror qabul qiladi.

Nazorat tartibida ishni ko‘rish vaqt va joyi haqida zarur hollardagina taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga xabar beriladi. FPKning 355-moddasiga asosan ularning ishi bo‘yicha keltirilgan protestning nusxasi yuboriladi. Nazorat tartibida ish ko‘rlishida taraflarning ishtiroki qonun bo‘yicha majburiy bo‘lmasa-da, nazorat sudi ularga demokratik prinsiplardan kelib chiqib, sud majlisida qatnashishlariga ruxsat beradi.

Nazorat tartibida ishni qayta ko‘rish majburiy va zarur bosqich emas. Taraflar tomonidan keltirilgan shikoyatlar o‘z-o‘zidan ishni nazorat tartibida qayta ko‘rishga asos bo‘la olmaydi. Nazorat instansiysi ishni faqat sud va prokuratura organlarining qonun bo‘yicha protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslarining protestlariga asoslangan holda ko‘radi. Nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasi qonun bilan qat’i cheklangan.

Sud va prokuratura organlarining mansabdor shaxslaridan kimlarning nazorat tartibida protest keltirish huquqiga ega bo‘lishi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Sudlar va Prokuratura to‘g‘risidagi qonunlari, FPK va boshqa qonun hamda huquqiy normalar bilan belgilangan. Bu mansabdor shaxslar kimlar, qaysi sudlarning qaror va ajrimlari ustidan qaysi sud nazorati organlariga protest keltirish mumkinligi FPKning 349-moddasida aytilgan. Aksariyat hollarda ishni chaqirib olib, sudning hal qiluv qarori yoki ajrimining qonuniy va asosli ekanligini tekshirishga taraflarning, uchinchi shaxslarning hamda ishda qatnashgan davlat va jamoat organlarining ariza va shikoyatlari asos bo‘ladi.

Sud va prokuratura organlarining protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslaridan har bir shikoyatni o‘z vaqtida va unda keltirilgan vajlarni to‘la va chuqur tekshirish talab qilinadi. Agar ish materiallarini o‘rganish natijasida chiqarilgan hal qiluv qarori yoki ajrimiga protest keltirish lozim degan xulosaga kelinsa, protest keltirish huquqiga ega bo‘lgan shaxs tegishli sud nazorati nomiga protest tuziladi.

Shunday qilib, nazorat tartibida ish yuritishni *uch bosqichga* bo‘lish mumkin:

1) sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari yoki ajrimlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish haqidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish va lozim topilgan hollarda sudning hal qiluv qarori yoki ajrimining qonuniyligi va asosli ekanligini tekshirish maqsadida fuqarolik ishini chaqirib olish;

2) ishni o‘rganish yo‘li bilan sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori yoki ajrimining qonuniyligi,adolatli va asosli ekanligini tekshirish hamda zarur hollarda nazorat tartibida protest kiritish;

3) protest bo‘yicha sud nazorati tartibida ishni qayta ko‘rish.

FPKning 352-moddasiga muvofiq, nazorat tartibida protest keltirishga huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar nazorat tartibida ish yuritish tamom bo‘lgunga qadar tegishli hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning ijrosini to‘xtatib turishlari mumkin. Protest kiritish uchun asos topilmagan hollarda, ishni chaqirib olgan va ish bo‘yicha chiqarilgan tegishli hal qiluv qarori yoki ajrimning ijrosini to‘xtatgan mansabdor shaxs ijroning to‘xtatilishini bekor qiladi va bu haqda manfaatdor shaxslarga xabar qiladi. Protest sud nazorati instansiyasining sud majlisida ko‘rilihiga qadar chaqirib olinishi mumkin.

FPKning 354-moddasida nazorat tartibida keltirilgan protestlarni ko‘rvuchi sudlar ko‘rsatib o‘tilgan.

FPKning 355-moddasida ko‘rsatilishicha, taraflarga va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga ularning ishi bo‘yicha keltirilgan protestning nusxasi yuboriladi. Taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar ishni ko‘rish vaqtini va joyi to‘g‘risida xabardor qilinadi.

Protestning nusxalari ishda ishtirok etuvchi shaxslarga sud tomonidan yuboriladi. Sud ishni ko‘rish vaqtini tayinlashda ishda ishtirok etuvchi shaxslar protest yuzasidan yozma tushuntirishlar (e’tirozlarini) va qo‘sishimcha materiallarni sudga taqdim qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini xisobga oladi.

Nazorat tartibida protest keltirgan mansabdor shaxs protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki qaytarib olishga haqli.

Prokuror keltirgan protestni yuqori turuvchi prokuror ham to‘ldirishi, o‘zgartirishi yoki qaytarib olishi mumkin.

Protestni to‘ldirish, o‘zgartirish yoki qaytarib olishga protest ko‘rildigan sud majlisi boshlanguniga qadar yo‘l qo‘yiladi. Protest to‘ldirilganligi, o‘zgartirilganligi yoki qaytarib olinganligi haqida ishda ishtirok etuvchi shaxslar xabardor qilinadilar.

Ishni nazorat tartibida ko‘rayotgan sudning vakolatlari FPKning 361-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Unda aytishicha, nazorat tartibida ish

ko‘rvuchi sud o‘zining ajrimi yoki qarori bilan quyidagilarni amalgalashishga haqli:

1) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni o‘zgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmay qoldirishga;

2) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni butunlay yoxud qisman bekor qilishga va ishni yangidan ko‘rish uchun birinchi instansiya sudi yoki appellatsiya yoxud kassatsiya instansiya sudiga yuborishga;

3) hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni butunlay yoki qisman bekor qilishga va ish yuritishni tugatishga yoxud arizani ko‘rmasdan qoldirishga;

4) ish bo‘yicha ilgari chiqarilgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarordan birini o‘z kuchida qoldirishga;

5) agar ish bo‘yicha dalillar to‘plash yoki dalillarni qo‘sishimcha tekshirish zarur bo‘lmasa, birinchi instansiya sudi ish holatlarini to‘liq va to‘g‘ri aniqlagan, lekin moddiy huquq normalarini tatbiq qilishda xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lsa, ishni yangidan ko‘rishga yubormasdan, hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga va ishni yangidan ko‘rib chiqish uchun yubormasdan, hal qiluv qarorini, ajrim yoki qarorni o‘zgartirishga yoki yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli.

Yuqorida keltirilgan qoidaning mazmunidan kassatsiya instansiya sudi vakolatidan sud nazorati organlarining vakolati keng ekanligi ko‘rinib turibdi.

Sud nazorat tartibida hal qiluv qarorini va ajrimini tekshirishda ishdagi dalillarga baho bermasdan turib, sud qarorlarining qonuniyligini aniqlay olmaydi. Shuning uchun ham nazorat tartibida ishni qayta ko‘rvuchi sud dalillarning asoslantirilganligini tekshiradi, ularni taqqoslab baholaydi.

Sudning hal qiluv qarorlari, ajrimlari yoki qarorlarini nazorat tartibida bekor qilish asoslari FPKning 97, 100, 312, 314-moddalarida ko‘rsatilgan.

4. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qaror-larni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish

Fuqarolik protsessining yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorlarini qaytadan ko‘rish ham fuqarolik ishlarini appellatsiya, kassatsiya va sud nazorati tartibida ko‘rilishi kabi ish yuzasidan fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan qonuniy huquqlari hamda manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy, asoslantirilgan va adolatli qarolarning chiqarilishini ta’minlashga qaratilgandir.

Yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha sud qarorlarini qaytadan ko‘rish faqat aniq ish bo‘yicha qaror qabul qilinishida ma’lum bo‘lmagan va e’tiborga olinmagan, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlarning ochilishi munosabati bilan ishni qaytadan ko‘rish zarur bo‘lgan holatlardagina qo‘llanilishi mumkin.

Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarning yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qaytadan ko‘rilishiga oid asosiy qoidalar FPKning 362–369-moddalarida berilgan. FPKning 362-moddasida ko‘rsatilishicha hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni yangidan ochilgan holatlar bo‘yicha qaytadan ko‘rish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

1. Arz qiluvchiga ma’lum bo‘lmagan va ma’lum bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, lekin ish uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar kiradi. Masalan, qonuniy vorislar o‘rtasida meros mulkning taqsimlanishi to‘g‘risidagi da’vo ishi yuzasidan qaror chiqarilganidan so‘ng, meros mulkning yoki uning bir qismining boshqa shaxs yoki shaxslarga vasiyat qilinganligi to‘g‘risida tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vasiyatnomanining keltirilishi yangidan ochilgan va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holat bo‘lib ko‘riladi.

2. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan va hal qiluv qarorini noqonuniy yoki asossiz chiqarishga sabab bo‘lgan holatlar kiradi. Bular:

- guvohlarning bila turib atayin yolg‘on bergen ko‘rsatmalar;
- ekspertrning bila turib bergen yolg‘on xulosasi;
- bila turib noto‘g‘ri qilingan tarjima;
- hujjatlar yoki ashyoviy dalillarning qalbakiligi.

3. Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan taraflarning, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning yoki ularning vakillarining hamda sudyalarining muayyan ishni ko‘rishda sodir etgan jinoiy faoliyatları kiradi.

4. Shu hal qiluv qarori yoki ajrimni chiqarishga asos bo‘lgan sud hal qiluv qarori, hukmi, ajrimining yoki qarorining bekor qilinganligi asos bo‘ladi.

Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni qaytadan ko‘rish haqidagi ariza ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki prokuror tomonidan shu hal qiluv qarorini, ajrimni yoki qarorni chiqargan sudga beriladi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bunday arizani hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qaytadan ko‘rish uchun asos bo‘lgan holatlar ma’lum bo‘lgan kundan *olti oy* muddat ichida berishlari mumkin.

Ariza berish muddati quyidagicha hisoblanadi:

1) FPKning 362-moddasi 1-bandida ko‘rsatilgan hollarda ish uchun muhim ahamiyatli holatlar ochilgan kundan boshlab;

2) FPKning 362-moddasi 2 va 3-bandlarida ko‘rsatilgan hollarda, ya’ni jinoyat ishi bo‘yicha hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab;

3) FPKning 362-moddasi 4-bandida ko‘rsatilgan hollarda qaytadan ko‘rilayotgan hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorga mazmunan qarama-qarshi chiqarilgan sud hukmining, hal qiluv qarorining qonuniy kuchga kirgan kunidan yoki davlat organi tomonidan qaror chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qaytadan ko‘rish to‘g‘risidagi arizani sud ariza beruvchini va ishda ishtirok etuvchi shaxslarni xabardor qilgan holda ko‘radi, lekin ularning kelmasligi arizani ko‘rishga to‘sqinlik qilmaydi.

Sud arizani tekshirib, uni qanoatlantiradi va hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni bekor qiladi yoki ishni yangidan ko‘rishni rad etadi.

Arizani qanoatlantirish to‘g‘risida sudning chiqargan ajrimi ustidan shikoyat qilish mumkin emas.

Arizani rad qilish to‘g‘risidagi ajrim ustidan FPKning 346–348-moddalarida ko‘rsatilgan tartibda shikoyat qilish yoki protest keltirish mumkin.

Hal qiluv qarori, ajrim yoki qarorni qaytadan ko‘rish to‘g‘risidagi iltimos qanoatlantirilgan taqdirda, sud ishni umumiy asoslarda ko‘radi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Sudning hal qiluv qarori va ajrimlari ustidan appellatsiya berish (protest keltirish) va tekshirish deganda nimani tushunasiz?*

2. *Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyatini berish (protest keltirish) huquqiga kimlar ega?*

3. *Appellatsiya instansiya sudining vakolatlarini aytинг.*

4. *Sudning qarorini bekor qilish asoslari nimalardan iborat?*

5. *Protsessual huquq normalarini buzish yoki noto‘g‘ri qo‘llash deganda nimani tushunasiz?*

6. *Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qarorlarni cassatsiya tartibida ko‘rishning nazorat instansiya sudidan farqini aytib bering.*

7. *Yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish asoslari nimalardan iborat?*

9-MAVZU. SUD QARORLARINING IJROSI

- ∞ *Sud va boshqa idoralarning ijro etilishi lozim bo‘lgan qarorlari.*
- ∞ *Ijro hujjatlari.*
- ∞ *Hal qiluv qarorlarining fuqarolarga nisbatan ijrosi.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, shuningdek, huquqiy mezonlar ham o‘zgardi. Balandparvoz iboralardan, nohayotiy va noodatiy tushunchalardan astasekin yiroqlashyapmiz. Endilikda hamma narsani o‘z nomi bilan atash, ijtimoiy hodisalarining hayotga, kishilar ongiga chuqur kirib borishiga erishishga harakat qilyapmiz. Bularning barchasi huquqiy-demokratik davlat barpo etish yo‘lidagi qadamlardir.

Sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta’minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug‘ullanish vazifasi maxsus organ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo‘yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma – Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta’minlash departamenti faoliyat yurityapti. Bu esa sudlarning ularga xos bo‘lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos bo‘lishi va butun diqqat-e’tiborini o‘zlarining asosiy burchi bo‘lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berdi¹.

Respublikamizda uchinchi hokimiyat bo‘lmish sud hokimiyati tomonidan chiqarilgan qaror, hal qiluv qarori, ajrim va buyruqlar «Sudlar to‘g‘risida» (yangi tahrirda)gi hamda «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari asosida to‘g‘ri va xolisona amalga oshirilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

¹ Qarang: *Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.* – Т., 2010. – 18-б.

1. Cud va boshqa idoralarning ijro etilishi lozim bo‘lgan qarorlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga ko‘ra, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy bo‘lib, ushbu hujjatlar ijrosini bajarmaslik O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgarlikni yuzaga keltiradi. Har bir qaror amalga oshgandagina obro‘ va qudratga ega. Binobarin, u loyihalanayotgan paytidanoq bajarilishi uchun real imkoniyatlarni e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Zero, deklarativ, quruq safsata uchun qabul qilinib, ijro etilmaydigan qonun-qoidalar oddiy qog‘ozdan iborat bo‘lib, pirovardida qonunbuzarlikni keltirib chiqaradi va qaror qabul qilingan idoraning salohiyatiga jiddiy putur yetkazadi.

Odil sudlovni amalga oshirish maqsadida fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini qo‘riqlash yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish fuqarolik protsessining yakunlovchi bosqichidir.

Sudning hal qiluv qarorlari yuzasidan shikoyat (protest) berilmasa, u tasdiqlanganidan so‘ng qonuniy kuchga kiradi.

Bu qarorlar, shuningdek, fuqarolik ishlari to‘g‘risidagi boshqa organlarining qarorlari odatda ixtiyoriy ravishda ijro etiladi. Agar bunday qarorlarni ijro etishga (tegishli summani to‘lashga, narsalarni topshirishga, muayyan ishlarni bajarishga) majbur bo‘lgan shaxs yoki shaxslar uni ixtiyoriy ravishda ijro etmasalar, sud qarorlari FPKning 370–385- moddalari va O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilinib, 2002-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonunida belgilangan tartibda ijro etiladi. Fuqarolik ishlari bo‘yicha hal etiladigan masalalarga ko‘ra sud qarorlari *ikki* turga:

- hal qiluv qarorlari;
- ajrimlarga bo‘linadi.

FPKning 203-moddasiga asosan, birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qiladigan qarori *hal qiluv qarori* hisoblanadi.

Bunday hal qiluv qarori sud tomonidan ko‘rilayotgan fuqarolik sud ishlarini yuritish turlariga taalluqli asosiy masalalarga javob tariqasida qabul qilinadi.

Birinchi instansiya sudining ishni mazmunan hal qilmaydigan qarori *ajrim* deb aytildi.

FPKning 237-moddasiga ko‘ra, ajrim fuqarolik protsessining yuritilishi yoki uning to‘xtatilishi, tugatilishi masalalari bo‘yicha dalillarni

to‘plash, protsessga yangi shaxslarni jalb qilish, sudning hal qiluv qarorini ijro etish bo‘yicha, shuningdek, tashkilotlarning ishlaridagi jiddiy kamchiliklar hamda fuqarolar tomonidan qonunning buzilishi masalalari va boshqa ba’zi masalalar bo‘yicha chiqariladi.

Yuqori sud organlarining ajrimlari va qarorlari birinchi instansiya sudlarining chiqargan qarorlari qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishini tekshirish munosabati bilan qabul qilinadi. Ular ham nizoni mazmuni bo‘yicha hal qilmaydi.

Sudning hal qiluv qarorlari va boshqa hujjatlarni majburiy tartibda ijro etilishini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs *sud ijrochisi* hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonunga binoan, oliy yoki o‘rta maxsus yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi sud ijrochisi bo‘lishi mumkin.

Sud ijrochilarini lavozimga tayinlash va ozod qilish O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan ta’minalash departmentining hududiy bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sud ijrochisi hokimiyat vakili hisoblanadi.

Sud ijrochisi o‘z tashabbusi bilan hal qiluv qarorini tez va aniq ijro etilishi uchun hamma qonuniy choralarini ko‘rishga va taraflarga, ularning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda faol yordam berishga majbur.

Sud ijrochilar o‘zlariga berilgan huquqlardan qonunga muvofiq foydalanishlari hamda o‘z faoliyatlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

Sud ijrochilar iじro etiladigan hujjatlarni bajarishda qator burch va huquqlarga ega bo‘lib, ularga amal qilgan holda ish tutishi lozim.

Sud ijrochilarining huquqlari quyidagilardan iborat:

1) ijro harakatlarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha zarur axborot, tushuntirishlar va ma’lumotnomalar olish;

2) ish beruvchilarning ularda ishlayotgan qarzdorlarga nisbatan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijro etilishini va moliyaviy hujjatlarning yuritilishi ijrosini tekshiruvdan o‘tkazish;

3) ijro ishini yuritishda ishtirok etayotgan fuqarolar va yuridik shaxslarga muayyan ijro harakatlarini amalga oshirish masalalari yuzasidan topshiriqlar berish;

4) qarzdorlar egallab turgan yoki ularga qarashli bo‘lgan binolar va omborlarga kirish, mazkur binolar va omborlarni ko‘zdan kechirish, zarurat bo‘lganda ularni ochish, shuningdek, sud ajrimi asosida bunday harakatlarni boshqa shaxslar egallab turgan yoki ularga qarashli bo‘lgan binolar va omborlarda amalga oshirish;

5) qonunga muvofiq, mol-mulkni xatlash, xatlangan mol-mulkni olib qo‘yish, saqlashga topshirish va realizatsiya qilish;

6) qarzdorning banklarda va boshqa kredit muassasalarida hisobvaraqlarida turgan, omonatga yoki saqlash uchun qo‘yilgan pul mablag‘lari hamda boshqa qimmatliklarini qonun hujjatlariga muvofiq xatlash;

7) olib qo‘yilgan mol-mulkni vaqtincha saqlash uchun davlat tasarrufidagi yashash uchun mo‘ljallanmagan joylardan, mulkdorning roziligi bilan esa, boshqa joylardan foydalanish, bunday mol-mulkni saqlash majburiyatini tegishli shaxslar zimmasiga yuklash, undiruv-chining yoki qarzdorning transport vositasidan, sarf-xarajatlarni qarzdorning hisobiga kiritgan holda mol-mulkni tashish uchun foydalanish;

8) ijro harakatlari amalga oshirilayotganda asos bo‘lgan ijro hujjatidagi talablarda noaniqlik bo‘lgan taqdirda, suddan yoki ijro hujjatini bergen boshqa organdan uni ijro etish tartibini tushuntirib berishni so‘rash;

9) qarzdorga, uning mol-mulkiga yoki bolaga nisbatan qidiruv e’lon qilish;

10) ish yuritishda bo‘lgan ijro hujjatlari bo‘yicha fuqarolar va mansabdor shaxslarni chaqirish;

11) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshirish.

Sud ijrochisi quyidagi majburiyatlarga ega:

1) ijro ishini yuritishda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning protsessual huquq va majburiyatlarini tushuntirish;

2) ijro hujjatlarining o‘z vaqtida, to‘liq va to‘g‘ri ijro etilishi choralarini ko‘rish;

3) taraflarga yoki ularning vakillariga ijro ishini yuritish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar, nusxalar olish imkoniyatini berishi;

4) taraflarning ijro ishini yuritish borasidagi arizalari va iltimosnomalarini ko‘rib chiqish, shikoyat qilish muddatlari va tartibini tushuntirgan holda tegishli qarorlar chiqarish;

5) agar o‘zi ijro ishini yuritish jarayonidan manfaatdor bo‘lsa yoki uning beg‘arazligiga shubha tug‘diradigan boshqa holatlar mavjud bo‘lsa, o‘zini o‘zi rad etish;

6) qonun hujjatlariga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Sud ijrochisining o‘z vakolatlari doirasidagi talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida barcha organlar, yuridik shaxslar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Sud ijrochilariga o‘z vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur bo‘lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari bepul va sud ijrochisi tomonidan belgilangan muddatda taqdim etiladi.

Sud ijrochisining talablarini bajarmaslik, uning zimmasiga yuklangan vazifalarni bajarishga monelik qiluvchi xatti-harakatlar sodir etish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka olib keladi.

Sud ijrochisining xatti-harakatlari ustidan yuqori mansabdar shaxsga yoki sudga shikoyat qilish mumkin. Yuqori mansabdar shaxsga shikoyat bilan murojaat qilish sudga murojaat etishga monelik qilmaydi.

Sud ijrochilarini sodir etgan huquqbazarliklari uchun qonunga muvofiq javob beradilar.

Sud ijrochisi tomonidan fuqarolarga va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o‘rni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qoplanishi lozim.

Sud ijrochilarini sudning hal qiluv qarorlarini iじro qilishning yagona organi emas, ba’zi hollarda soliq organlari, banklar va yuridik muassasalar ham bu ishni amalga oshiradilar.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari talablarining ijrosi o‘zga organlar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan ham iじro etilishi mumkin.

Sud qarorlarini iじro qilish protsessda odatda ikki taraf: hal qiluv qarorining iじro qilinishini talab etuvchi taraf – undiruvchi va sud qarorlarini iじro qilishga majbur bo‘lgan taraf – qarzdor ishtirok etadi.

Ularning huquq va majburiyatlarini quyidagilardan iborat:

- taraflar iじro harakatlarini amalga oshirishda iじro ishini yuritish materiallari bilan tanishish, ulardan ko‘chirmalar, nusxalar olish;
- qo‘shimcha materiallar taqdim etish;
- iltimosnomalar berish;
- iじro harakatlarini amalga oshirishda ishtirok etish;
- iじro harakatlari jarayonida og‘zaki va yozma tushuntirishlar berish;
- iじro ishini yuritish davomida paydo bo‘ladigan barcha masalalar yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish;
- iじro ishini yuritishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, dalillari va fikr-mulohazalariga qarshi e’tiroz bildirish;

– sud ijrochisini rad qilish, uning harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

Taraflar ijro harakatlarini amalga oshirishda sud va boshqa organlar hujjatlarining ijrosi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablarini bajarishi shart.

Har bir hal qiluv qarori bo‘yicha bitta ijro varag‘i beriladi. Lekin ijro turli joylarda o‘tkaziladigan bo‘lsa yoki hal qiluv qarori bir qancha da’vogarlarning foydasiga yoki bir necha javobgarlarga nisbatan chiqarilgan bo‘lsa, undiruvchilarning iltimosi bo‘yicha sud ijro joyini yoki hal qiluv qarorining ijro etilishiga tegishli qismini aniq qilib ko‘rsatib, bir necha ijro varag‘i berishi mumkin. Sud ijrochisi qarzdorni sudga majburiy keltirish huquqiga ega emas va uning turar joyini cheklab qo‘ya olmaydi hamda ijro qilish protsessida har ikki tarafning huquqlarini qo‘riqlashga majburdir. Sud ijrochisi ijro hujjatini olgan kundan boshlab *uch kundan* kechiktirmay ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqaradi. U qarorning ijrosiga kirishishdan oldin qarzdorga hal qiluv qarorini *besh kunlik* muddat ichida ixtiyoriy ravishda ijro qilish to‘g‘risida taklif yuboradi. Qarzdor belgilangan muddatda qarorni ijro qilmasa yoki ixtiyoriy ijro qilishni rad etsa, sud ijrochisi qarorni majburiy ijro qildirishga kirishadi.

Majburiy ijro choraları:

- qarzdorning shaxsiy mulkini xatlash va mulkni sotish yo‘li bilan undirish;
- qarzdorning boshqa shaxslarda bo‘lgan shaxsiy mulkidan va pul mablag‘laridan undirish;
- qarzdorning ish haqi, pensiyasi, stipendiyasi va boshqa turdag‘i daromadlaridan undirish;
- hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan ma’lum narsalarni qarzdordan olib undiruvchiga berish;
- qonunga muvofiq hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan boshqa choralar tarzida bo‘ladi.

Ijro ishida prokurorning ishtiroki qonunda nazarda tutilgan.

FPKning 46-moddasiga muvofiq, prokuror ishga protsessning har qanday bosqichida kirisha oladi.

Prokuror sud qarorlarining qonuniy va asosli bo‘lishinigina nazorat qilib qolmasdan, u qarorlarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ijro qilinishi ustidan ham nazorat olib boradi.

Sudning hal qiluv qarorlari, darhol ijro etish hollaridan tashqari (FPKning 220–221 m.) barcha holatlarda qonuniy kuchga kirgandan so‘ng ijro etiladi.

Sud va boshqa organlarning qarorlarini majburiy ijro etish ma'lum muddat bilan cheklangan.

FPKning 377-moddasida belgilanganidek, sudning hal qiluv qarori u qonuniy kuchga kirgan paytdan boshlab *uch yil* ichida majburiy tartibda ijro etish uchun topshirilishi mumkin.

Ijro varaqasini yoki notariusning ijro xatini ijroga topshirish muddatini o'tkazib yuborgan undiruvchilarga, agar qonunda boshqacha belgilangan bo'lmasa, o'tkazib yuborilgan shu muddat sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra tiklab berilishi mumkin.

O'tkazib yuborilgan muddatni tiklash rad qilinganda xususiy shikoyat berilishi yoki xususiy protest keltirilishi mumkin (FPKning 379-m.).

2. Ijro hujjatlari

Ijro etilishi lozim bo'lgan sud hujjatlari (hal qiluv qarori, ajrim va qaror) va boshqa organlarning ijro bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarini ijro qilish to'g'risidagi qoidalar O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilinib, 2002-yil 1-yanvardan kuchga kirgan, 12 bob, 90 moddadan tashkil topgan «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunida belgilangan. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) fuqarolik ishlari va xo'jalik nizolari bo'yicha sudlarning hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari;
- 2) sudlarning jinoyat ishlari bo'yicha chiqargan hukmlari, ajrimlari va qarorlarining mulk undirishga oid qismi;
- 3) sudya yoki sud ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha chiqargan qarorning mulk undirishga oid qismi;
- 4) aliment to'lash to'g'risidagi notarial tarzda tasdiqlangan bitimlar;
- 5) notariusning ijro ustxatlari;
- 6) mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarning qarorlari;
- 7) ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar)ning qarorlari;
- 8) hakamlar sudlarining qarorlari;
- 9) O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari yoki xalqaro shartnomasida nazarda tutilgan hollarda chet el sudlari va arbitrajlarining qarorlari;
- 10) o'zboshimchalik bilan uy-joyni egallab olgan yoki bosib qolish xavfi bo'lgan uylarda yashovchi shaxslarni ma'muriy tartibda ko'chirish to'g'risidagi prokurorlarning qarorlari;

11) ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollarda sud ijrochisining qarorlari;

12) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

Yuqoridagi qonunning 7-moddasiga ko‘ra, quyidagilar ijro hujjatlari hisoblanadi:

¤sudlar tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari asosida sudlar beradigan ijro varaqalari;

¤hakamlar sudlarining qarorlarini majburiy ijrosi yuzasidan sudlar tomonidan beriladigan ijro varaqalari;

¤O‘zbekiston Respublikasi sudlarining chet el sudlari va arbitrajlari qarorlari asosida beradigan ijro varaqalari;

¤sud buyruqlari;

¤aliment to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan bitimlar;

¤notariuslarning ijro ustxatlari;

¤mehnat nizolari komissiyalarning qarorlari asosida beriladigan guvohnomalar;

¤ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) qarorlari;

¤¤‘zboshimchalik bilan uy-joyni egallab olgan yoki bosib qolish xavfi bo‘lgan uylarda yashovchi shaxslarni ma’muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurorlarning qarorlari;

¤sud ijrochisining qarorlari;

¤qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

Ijro hujjati asosida berilgan ijro hujjati sudya tomonidan imzolanadi va sudning gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

Boshqa organning hujjati asosida berilgan ijro hujjati mazkur hujjatni qabul qilgan organning vakolatli mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va tegishli organning muhri bilan tasdiqlanadi.

Ijro hujjatlarini ijroga topshirish muddatlari quyidagicha:

1) sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari *uch yil* mobaynida, xo‘jalik sudlarining ijro varaqalari esa *olti oy* mobaynida;

2) hakamlar sudining qarorlarini majburiy ijrosi to‘g‘risidagi sud hujjatlari asosida beriladigan ijro varaqalari *olti oy* mobaynida;

3) aliment to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan bitimlar va notariusning ijro xatlari *uch yil* mobaynida;

4) mehnat nizolari bo‘yicha komissiyalarning guvohnomalari *uch oy* mobaynida;

5) ishlarni ma’muriy tartibda ko‘rib chiqishga vakolatli organlarning, mansabdar shaxslarning qarorlari *uch oy* mobaynida.

Boshqa ijro hujjatlarini ijroga topshirish muddatlari tegishli ijro hujjatlarini berish shartlari va tartibini belgilovchi qonun hujjatlarida ko‘rsatiladi.

Sud ijrochisi ijro hujjatining ijro harakatlarini va talablarini ijro hujjati kelib tushgan kundan e’tiboran ko‘pi bilan *ikki oy* muddat ichida amalga oshirishi va ijro etishi lozim.

Ijro hujjatlarining quyidagi talablari darhol ijro etilishi kerak:

– aliment undirish to‘g‘risidagi; uch oydan oshmagan ish haqini undirish to‘g‘risidagi; mayib bo‘lib qolganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik, shuningdek, boquvchisining o‘limi bilan bog‘liq zararni qoplash uchun belgilangan to‘lovlarini undirish to‘g‘risidagi; bir oy uchun hisoblab chiqarilgan to‘lovlar doirasidagi boshqa mehnat haqlarini undirish to‘g‘risidagi talablar;

– qonunga xilof ravishda mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki boshqa ishga o‘tkazilgan xodimni ishga tiklash to‘g‘risidagi; mehnat shartnomasini bekor qilish asosining tavsifini o‘zgartirish to‘g‘risidagi talablar;

– ijro hujjatida bayon etilgan talablar darhol ijro etilishi ko‘rsatilgan yoxud darhol ijro etilishi qonunda nazarda tutilgan boshqa ishlarga doir talablar darhol ijro etilishi kerak.

Sud ijrochisi ijro harakatlarini keyinga qoldirgan taqdirda qaror chiqaradi va bu haqda ijro ishi yuritish taraflari, ijro hujjatini bergen sud yoki boshqa organga ma’lum qiladi.

Quyidagi holatlarda ijro ishi yuritishni to‘xtatib turish majburiydir:

– agar sud tomonidan aniqlangan huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ysa, qarzdor vafot etganda, u vafot etgan deb e’lon qilinganda yoki bedarak yo‘qolgan deb topilganda;

– qarzdorning nochorligi (bankrotligi) to‘g‘risidagi ish bo‘yicha xo‘jalik sudi tomonidan ish qo‘zg‘atilganda;

– qarzdor muomala layoqatini yo‘qotganda;

– qarzdor muddatli harbiy xizmatda bo‘lganda yoki muddatli harbiy xizmatda bo‘lgan undiruvchi iltimos qilganda;

– agar qonun hujjatlarida nizolashishga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, qarzdor ijro hujjati yuzasidan sud tartibida nizolashayotgan paytda;

– ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organlar (mansabdar shaxslar)ning harakatlari ustidan sudga shikoyat berilganda;

– ijro hujjatini berish uchun asos bo‘lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatining ijrosini to‘xtatib turish uchun qonun asosida huquqqa ega bo‘lgan mansabdar shaxs tomonidan qaror chiqarilganda;

– ijro hujjati bo‘yicha undiruv qaratilgan mol-mulkni ro‘yxatdan chiqarish (xatlashdan ozod qilish) to‘g‘risida sudga da’vo arizasi berilganda.

Demak, quyidagi hollarda ijro ishini yuritish to‘xtatib turilishi mumkin:

∞sud ijrochisi ijro etilishi lozim bo‘lgan sud hujjati yoki boshqa organ hujjatini izohlab berish to‘g‘risida ijro hujjatini bergan tegishli sudga yoki boshqa organga ariza bilan murojaat qilganda;

∞qarzdor uzoq vaqt xizmat safarida bo‘lganda;

∞qarzdor davolash muassasasida yotib davolanayotganida;

∞sud ijrochisining harakatlari ustidan yoki uning ishtirokini rad etish to‘g‘risidagi iltimos qabul qilinmaganligi yuzasidan shikoyat berilganda;

∞qarzdor, uning olib qo‘yiladigan mol-mulki yoki bolasi qidirilayotganda;

∞undiruvchi iltimos qilganda.

Ijro ishini yuritishni to‘xtatish asoslari quyidagi hollarda nazarda tutilgan:

– undiruvchi undiruvdan voz kechganda, agar voz kechish sud tomonidan qabul qilingan bo‘lsa;

– undiruvchi va qarzdor o‘rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimi tuzilgan bo‘lsa;

– agar sud hujjati yoki boshqa organning hujjatida qo‘yilgan talablar yoki majburiyatlar huquqiy vorisga yoki bedarak yo‘qolganning mol-mulkini ishonchli boshqarib turgan shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lmasa, undiruvchi yoki qarzdor hisoblangan fuqaro vafot etganda, u vafot etgan deb e’lon qilinganda, bedarak yo‘qolgan deb topilganda;

– tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki undiruvchining talablarini qondirish uchun yetarli bo‘lmasa;

– mazkur turdaggi undiruv uchun qonunda belgilangan muddat o‘tganda;

– ijro hujjatini berishga asos bo‘lgan sud hujjati yoki boshqa organning hujjati yoxud qonunga ko‘ra ijro hujjati hisoblanadigan hujjat bekor qilinganda;

– qarzdordan olib qo‘yilgan ashylarni undiruvchiga topshirish to‘g‘risidagi ijro hujjatini ijro etishda undiruvchi ashylarni olishdan voz kechganda.

Ijro hujjatlarida ko‘rsatilgan undiruv amalga oshirilmagan yoki qisman amalga oshirilgan bo‘lsa, qonun vaziyatga qarab, quyidagi hollarda undiruvchiga qaytarilishini kafolatlaydi:
undiruvchining arizasiga binoan;

∞ agar ijro hujjatini ijroga topshirish muddati o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa;

∞ agar qarzdorning manzilini yoki uning mol-mulki turgan joyni aniqlash yoxud banklar yoki boshqa kredit muassasalaridagi hisob-varaqlar va omonatlarda qarzdorga qarashli pul mablag‘lari va boshqa boyliklar turganligi yoki saqlanayotganligi to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin bo‘lmasa (yuqorida qayd etilgan Qonunga muvofiq qarzdorni yoki uning mol - mulkini qidirish nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

∞ agar qarzdorning undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan mol-mulki yoki daromadlari bo‘lmasa va uning mol-mulki yoki daromadlarini qidirish yuzasidan sud ijrochisi tomonidan qonunda yo‘l qo‘yiladigan doirada ko‘rilgan barcha choralar natijasiz bo‘lsa;

∞ agar undiruvchi ijro hujjati ijro etilayotganda qarzdorning sotilmagan mol-mulkini o‘ziga olishni rad qilsa;

∞ agar undiruvchi o‘zining harakati (harakatsizligi) bilan ijro hujjatining ijro etilishiga to‘sqinlik qilsa.

3. Hal qiluv qarorlarining fuqarolarga nisbatan ijrosi

Amaldagi qonunlarga asosan, fuqarolardan undiriladigan tegishli haq qarzdorning shaxsiy mulkidan, shuningdek, er-xotin o‘rtasida bo‘lgan umumiyl mulkdagi hissasidan undiriladi.

Undiruvchiga sudning hal qiluv qarorida ko‘rsatilgan narsalarni undirib berish lozim bo‘lganida sud ijrochisi bu narsalarni qarzdordan undiruvchiga olib beradi. Agar undiriladigan haqning miqdori qarzdorning oylik ish haqidan yoki daromadidan, pensiyasi yoki stipendiyasidan qonun bo‘yicha undirilishi mumkin bo‘lgan hissadan oshmasa, qarz qarzdorning mulki hisobiga undirilmaydi.

Undiruvni qarzdorning pul mablag'lari va boshqa mol-mulkiga qaratish tartibi «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonunining 47-moddasida ko'rsatib o'tilgan. Ushbu moddaga ko'ra, undiruvni qarzdorning mol-mulkiga qaratish qarzdorning mol-mulkini xatlash (ro'yxatga olish), olib qo'yish va majburiy sotishdan iboratdir.

Ijro hujjatlari bo'yicha fuqarolardan va yuridik shaxslardan undiruv, birinchi navbatda qarzdorning so'm va chet el valutasidagi pul mablag'lariga hamda boshqa boyliklariga, shu jumladan banklar va boshqa kredit muassasalaridagi mablag'lariga qaratiladi.

Qarzdorning ma'lum naqd pul mablag'lari olib qo'yiladi.

Qarzdorning banklardagi yoxud boshqa kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarida va omonatlarida turgan yoki saqlashga qo'yilgan pul mablag'lari va boshqa boyliklari to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lsa, ular xatlanadi. Agar ma'lumot mavjud bo'lmasa, sud ijrochisi bunday ma'lumotlarni berish to'g'risida soliq organlariga so'rovnama yuboradi. Soliq organlari *uch kunlik* muddat ichida sud ijrochisiga zarur ma'lumotni taqdim etishi shart. Qarzdorning ma'lum bo'lib qolgan naqd yoki banklardagi so'm mablag'lari yetarli bo'lmasa, undiruv qarzdorda mavjud bo'lgan naqd yoki uning banklardagi yoxud boshqa kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarida, omonatlarida bo'lgan yoki saqlanayotgan chet el valutasiga qaratiladi.

Qarzdorning undiruvchi talablarini qanoatlantirish uchun yetarli pul mablag'lari bo'lmasa, undiruv qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mol-mulkka qaratiladi, qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lman mol-mulk bundan mustasno.

Qarzdor undiruv birinchi navbatda qaratilishi lozim bo'lgan mol-mulk turlari yoki ashyolarni o'zi ko'rsatishga haqli. Qarzdor mol-mulking u yoki bu turiga undiruv qaratish tartibini sud ijrochisi uzilkesil belgilaydi.

Qarzdorning mol-mulkiga, shu jumladan naqd pul mablag'lari va bank yoxud boshqa kredit muassasalarida hamda saqlashga qo'ygan boyliklariga undiruv ijro xarajatlarini hisobga olgan holda ijro hujjatining ijrosi uchun zarur bo'lgan miqdorda va hajmda qaratiladi.

Qarzdor boshqa shaxslar bilan umumiylar bilan huquqida tegishli mol-mulkka ega bo'lgan hollarda undiruv uning qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ulushiga qaratiladi.

Haq undirish qarzdorning mulkini xatlash va uni sotish yo'li bilan amalga oshiriladi. Mulkni xatlash ikki turdag'i harakatlardan: *birinchidan*,

mulkni xatlashdan; *ikkinchidan*, qarzdorga bu mulkni tasarruf qilishning man etilganligini bildirishdan iborat bo‘ladi. Shu ikki harakat qilingandagina mulk xatlangan hisoblanadi. Mulkni xatlash hamma vaqt unga arest solish bilan bog‘liq bo‘lmaydi.

Qarzdor o‘zining qaysi mulki hisobidan haq undirish mumkinligini ayta oladi. Agar uning ko‘rsatgan mulki bilan qarz qoplanishi mumkin bo‘lsa, sud ijrochisi bu iltimosni qanoatlantiradi. Protsessual qonunchilik undirishni qarzdorning hamma mulkiga qaratishga yo‘l qo‘ymaydi. Qonun fuqaro va tashkilotlarning mulkiy huquqlarini himoya qilib, ijro varaqasi va unga barobar bo‘lgan ijro hujjatlari bo‘yicha haq undirilishi mumkin bo‘lgan mulklarning ro‘yxatini belgilaydi. Ijro hujjatlari ijro etilayotganda jismoniy shaxslarga nisbatan undiruv qarzdorning oilasi normal turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan uy-joy, kvartira, uy anjomlari hamda jihozlariga qaratilishi mumkin emas.

Sud ijrochisi mulkni xatlashdan oldin qarzdorni ijro hujjati bo‘yicha undirilishi mumkin bo‘lmagan mulklar ro‘yxati bilan tanishtirishi lozim. Bunday qilish qarzdorda sud ijrochisi harakatining qonuniyligi to‘g‘risida ishonch tug‘diradi va shikoyat qilishining oldi olinadi.

Mulkni xatlash to‘g‘risidagi dalolatnama ikki nusxada tuzilib, uning biri qarzdorga beriladi. Agar mulk saqlash uchun boshqa shaxslarga topshiriladigan bo‘lsa, dalolatnama uch nusxada tuziladi va biri saqlovchiga beriladi. Mulk xatlangandan keyin uni tasarruf qilish mumkin emas.

Saqlashga topshirilgan mulk sarflansa, yashirilsa, saqlovchi yetkazgan zarari uchun mulkiy javobgar bo‘lishidan tashqari, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Sud ijrochisi qarzdorning boshqa shaxslarda bo‘lgan pul mablag‘lari va mulkidan haq undirishi mumkin. Sud ijrochisi boshqa shaxslarda qarzdorning mulki borligi to‘g‘risida javob olishi bilanoq, bu mulkni ro‘yxatga oladi.

Undiruvni qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lov larga qaratish quyidagi hollarda amalga oshiriladi, ya’ni undiriladigan summani to‘liq uzish uchun qarzdorning mol-mulki mavjud bo‘lmasa yoki yetarli bo‘lmasa, davrli to‘lov larni undirish, eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan oshmagan miqdordagi summani undirish to‘g‘risidagi qarorlarni ijro etishda undiruv qarzdorning ish haqiga va boshqa turdagilari daromadlariga qaratiladi.

Undiruvni ish haqiga qaratgan sud ijrochisi qarzdorga chaqiriq qog‘ozini yuborish bilan bir vaqtida, ijro hujjatini qarzdorning ish joyiga yuboradi va bu haqda undiruvchiga ma’lum qiladi.

Qarzdorning ish joyi to‘g‘risidagi ma’lumotni sud ijrochisiga qarzdorning o‘zi yoki undiruvchi ma’lum qiladi. Tashkilotlar sud ijrochisining talabiga muvofiq qarzdorning o‘zida ishslash-ishlamasligi, uning oylik ish haqi, shu jumladan unga doimiy va bir yo‘la beriladigan haqlar to‘g‘risida ma’lumot berishga majbur.

Ish haqi fuqarolarning yashash vositasi bo‘lgani uchun ish haqidan faqat qonunda belgilangan hollardagina haq undiriladi. Qoida bo‘yicha, qarzdorning ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlardan ushlab qolinadigan summalar miqdori, ijro hujjatlari ko‘rsatilgan qarz to‘liq uzilgunga qadar, tenglashtirilgan to‘lovlarning ko‘pi bilan 50% dan oshmasligi kerak.

Bir nechta ijro hujjati bo‘yicha undiruv ish haqiga va unga tenglashtirilgan to‘lovarga qaratilganda, xodim ish haqining 50% saqlanib qolishi lozim.

Mehnat qilish yo‘li bilan axloq tuzatish koloniyalarda jazoni o‘tayotgan qarzdorlardan tegishli aliment to‘liq undiriladi va sud hukmi bo‘yicha ushlanilayotgan summa e’tiborga olinmaydi.

Undiruv quyidagi pul summalariga qaratilishi mumkin emas:

- mayib bo‘lganlik yoki sog‘liqqa boshqacha tarzda shikast yetkazganlik, shuningdek boquvchisining vafot etganligi sababli ko‘rilgan zararni to‘lash summalariga;

- xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida mayib bo‘lgan (yaralangan, shikastlangan, kontuziyaga uchragan) shaxslarga va mazkur shaxslar halok bo‘lgan (vafot etgan) taqdirda ularning oila a’zolariga to‘lanadigan summalarga;

- bola tug‘ilganligi munosabati bilan; ko‘p bolali onalarga; yolg‘iz onalarga; nafaqaxo‘rlarga va I-guruh nogironlariga qarab turish bo‘yicha; jabrlanganlarga qo‘srimcha oziq-ovqat va boshqa davolanish uchun; aliment majburiyatlar bo‘yicha to‘lanadigan summalarga;

- mehnat sharoiti zararli yoki og‘ir vaziyatlardagi ishlar uchun, shuningdek, AESdagi halokat yoki avariylar oqibatida radiatsiya ta’siriga uchragan fuqarolarga va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda to‘lanadigan summalarga;

- homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha to‘lanadigan summalarga;

- qisman haq to‘lanadigan ta’til davrida bolani parvarishlash uchun to‘lanadigan summalarga;

- bola tug‘ilishi, qarindoshlar vafot etishi, nikoh tuzish munosabati bilan korxona, muassasa, tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan summalarga;

– mehnat munosabatlari to‘xtatilganda ishdan bo‘shatish nafaqasi tariqasida to‘lanadigan summalarga.

Qarzdor ishlab turgan joydagi buxgalteriya sud ijrochisining tegishli buyrug‘i bo‘lmasdan turib, undirishni to‘xtatishga, o‘zgartirishga yoxud bekor qilishga haqli emas. Buxgalteriya undirilgan summani undiruvchi tashkilotning hisobiga o‘tkazishi yoki undiruvchi fuqaroning qo‘liga berishi yoxud unga pochta orqali yuborishi lozim. Pochta xarajatlari undiruvchi hisobidan bo‘ladi.

Agar qarzdor xizmatdan bo‘shatilgan bo‘lsa, korxona ijsro hujjatiga bu haqda belgi qo‘yib va qarzdorning yangi ish joyini ko‘rsatib sud ijrochisiga qaytaradi. Shuningdek, qarz summasi to‘la undirilgandan so‘ng ijsro hujjatlari ham sud ijrochisiga qaytarilishi lozim.

Sud ijrochisida bir qarzdorga nisbatan bir necha kreditorlarning talablari to‘planib qolib, ularni qanoatlantirish uchun undirilgan pul summasi yetarli bo‘lmasa, uni undiruvchilar o‘rtasida taqsimlash masalasi paydo bo‘ladi.

Undiruvchilarning talablari quyida belgilangan navbatda qanoatlantiriladi:

Birinchi navbatda budjetga va budjetdan tashqari fondlarga to‘lovlar bo‘yicha talablar; xodimlarning mehnatga oid munosabatlaridan kelib chiqadigan talablari; aliment undirish bo‘yicha talablar; mualliflik shartnomalariga doir bo‘yicha haq to‘lash bo‘yicha talablar; advokatlar tomonidan ko‘rsatilgan yuridik yordam haqini to‘lash bo‘yicha talablar qanoatlantiriladi.

Ikkinci navbatda ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar; jinoyat yoki ma’muriy huquqbazarlik tufayli fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha talablar qanoatlantiriladi.

Uchinchi navbatda majburiy sug‘urta organlarining talablari qanoatlantiriladi.

To‘rtinchi navbatda garovga qo‘yilgan mol-mulk qiymatidan undirish to‘g‘risidagi garov bilan ta‘minlangan talablar qanoatlantiriladi.

Beshinchi navbatda fuqarolar va yuridik shaxslarning garov bilan ta‘minlanmagan talablari qanoatlantiriladi.

Oxirgi navbatda barcha qolgan talablar qanoatlantiriladi.

Qoida bo‘yicha, sud ijrochisining o‘zi bevosita qarzdordan undiruv pulini olishi mumkin emas.

Fuqarolar va mansabdor shaxslarning ijro hujjatini bajarmaganliklari uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasining «Sud hujjatlari va

boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida»gi qonunining 82-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra, ijro hujjati uni ixtiyoriy ravishda ijro etish uchun belgilangan muddatda uzsiz sabablarga ko‘ra ijro etilmagan taqdirda, qarzdor zimmasiga muayyan harakatlarni amalgalashirish yoki bunday harakatlardan o‘zini tiyish majburiyatini yuklovchi ijro hujjati uzsiz sabablarga ko‘ra sud ijrochisi belgilagan muddatda ijro etilmagani taqdirda, sud ijrochisi fuqarolarga eng kam oylik ish haqining o‘n baravarigacha miqdorda, mansabdor shaxslarga eng kam oylik ish haqining o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima soladi.

Fuqarolar va mansabdor shaxslar sud ijrochisining ijro hujjatining ijrosi bo‘yicha qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Ijroni bajarish vaqtini tushuntirib bering.*
2. *Majburiy ijro choralarini aytib bering.*
3. *Ijro harakatlarini to‘xtatib turish muddatlarini bilasizmi?*
4. *Ijroni to‘xtatish asoslarini sanab bering.*
5. *Sud buyrug‘i deganda nimani tushunasiz?*
6. *Ijro varaqasini berish tartibini tushuntiring.*
7. *Ijro harakatlarining ishtirokchilarini aytib bering.*

10-MAVZU. FUQAROLARNING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISHNING BOSHQA TURDAGI SHAKLLARI: XO‘JALIK SUDLARI, HAKAMLIK SUDLARI VA NOTARIAT

- ∞ *Xo‘jalik sudlari va ularda xo‘jalik nizolarining ko‘rilishi.*
- ∞ *Hakamlik sudlari va ularda fuqarolik nizolarining ko‘rilish tartibi.*
- ∞ *O‘zbekiston Respublikasida notariat.*

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlat qurish va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish amaldagi qonunlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni milliy xususiyatlarimizni ifodalaydigan qilib yangilab borishni taqozo etish bilan birga, yangi-yangi ijtimoiy munosabatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib borish, o‘z navbatida, yangi qonunlarni qabul qilishni talab etadi. Bu sohada ko‘p ishlar qilinmoqda. Bugunga qadar mustaqil mamlakatimizda bir qator muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qonunlar qabul qilindi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksi, «Mulkchilik to‘g‘risida», «Korxonalar to‘g‘risida», «Ijara to‘g‘risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish to‘g‘risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida», «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Bu qonunlar respublikamiz xalq xo‘jaligining barcha jabhalaridagi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib borishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston bozor munosabatlariga izchillik bilan o‘tayotgan bir paytda iqtisodiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish asosiy masallardan biri hisoblanadi. Shu bois ham xo‘jalik nizolarini o‘z vaqtida ko‘rib hal etishga muhim e’tibor qaratilmoqda. Shu sababli ham sobiq xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal etadigan arbitraj organi zamirida xo‘jalik sudlari tashkil etildi.

O‘zbekistonda xo‘jalik nizolarini ko‘rishning dastlabki qonuniy mexanizmi 1924-yildan shakllana boshlagan. U qonuniy, sud tartibida emas, balki hakamlik komissiyasi deb nomlanuvchi uchlik tomonidan ko‘rilgan.

1927-yil 28-dekabrda tashkil etilgan Oliy hakamlik komissiyasi va uning joylardagi bo‘g‘inlari cheklangan vakolat doirasida bir-ikki yil faoliyat ko‘rsatgan, chunki bu komissiya qarorlari majburiy kuchga ega bo‘lmay, balki tavsiya etishga yaqin mazmun kasb etgan. Uning qaror-tavsiyalarining ijro mexanizmi deyarli bo‘lмаган. Shu sababli 1931-yildan so‘ng bu komissiyalar davlat hakamiga (arbitrajga) aylantirilgan. Bu ham Nizom asosida ish ko‘radigan, hatto xususiy shaxs nari tursin, bir soha yoki boshqaruv idorasi tizimidagi xo‘jaliklar o‘rtasidagi nizolarni ham ko‘rishga vakolati bo‘lмаган, ularni ko‘rish tartibi ham aniqlanmagan idora bo‘lgan.

Ana shu mahkama o‘z ishini to mustaqilligimizga qadar «baholi qudrat» bajarib kelgan.

1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan dastlabki qonunlardan biri «Hakamlik sudi va xo‘jalik nizolarini hal qilish tartibi to‘g‘risida»gi qonundir. E’tibor bergen bo‘lsangiz, birinchi bor «sud» so‘zi ishlatilmoxda.

Keyinchalik esa Konstitutsiyamizda yana ham to‘g‘ri nomda – «Xo‘jalik sudi» tarzida aks ettirilib, u davlatimiz sud tizimining Konstitutsiyaviy sud va Oliy sudlari kabi mustaqil bir tarmoq sifatida o‘z o‘rnini egalladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «...xolis hakamlik sudlari imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozim», deb bejizga ta’kidlamagan. Chunki, bugungi kunda mamlakatimiz sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida 1995-yilda «Chet el arbitraj qarorini tan olish va uni ijro etish haqida»gi BMTning 1958-yilgi Nyu-York konvensiyasiga qo‘silgan, hozirda 142 ta davlat ushbu konvensiya a’zosi hisoblanadi. Bu konvensiya arbitraj (hakamlik sudlari, «treteykiy sud») qarorlarini a’zo davlatlar o‘zaro tan olishlarini belgilaydi.

1. Xo‘jalik sudlari va ularda xo‘jalik nizolarining ko‘rilishi

Oliy xo‘jalik sudi sud hokimiyatini amalga oshiruvchi boshqa sudlar kabi, o‘ziga qarashli bo‘lgan viloyat xo‘jalik sudlari bilan birgalikda Respublikamizning asosiy qonuni bo‘lgan Konstitutsianing 106-moddasiga asosan sud hokimiyatini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning hozirgi bosqichida chet davlatlarining ishtirokida vujudga keladigan qo‘shma korxonalarning barpo bo‘lishi, turli bank tizimlarining tashkil topishi, birja, konsernlarning joriy etilishi xo‘jalik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasini yanada kengaytirib yubordi. Bu munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solib borishda xo‘jalik huquqi, xo‘jalik munosabatlarida qatnashuvchi korxona, muassasa va tashkilotlar o‘rtasida kelib chiqqan xo‘jalik nizolarini hal qilishda, sud hokimiyatini amalga oshiruvchi xo‘jalik sudi asosiy rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning bozor iqtisodiyotiga o‘tishi munosabati bilan xalq xo‘jaligida ishlab chiqarish aloqalari rivojlanib va chuqurlashib, uning ko‘lami kun sayin kengayib, iqtisodiyotning darajasi ham bevosita o‘sib boradi.

Xo‘jalik subyektlari o‘rtasida kelib chiqqan xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal qilish vakolatiga ega bo‘lgan xo‘jalik sndlari davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal qilish yo‘li bilan xo‘jalik munosabatlarida qonunchilikni mustahkamlash, xo‘jalik aloqalarini har tomonlama rivojlantirish, xo‘jalik subyektlari o‘rtasida tuziladigan xo‘jalik shartnomalarining rolini yanada oshirish borasida o‘z ta’sirini ko‘rsatishi lozim. Chunki, xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal qilish xo‘jalik sndlarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Xo‘jalik protsessual kodeksi qabul qilingunga qadar xo‘jalik sudi hisoblangan davlat arbitraji, keyinchalik hakamlar sudi, hozirda esa xo‘jalik sudi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal qilish vakolatiga ega edilar. Xo‘jalik munosabatlarida qatnashuvchi subyektlar davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari hisoblangan.

Hozirgi kunda xo‘jalik munosabatlarida qatnashuvchi subyektlarning doirasi kengaytirildi. Masalan, yakka tartibda faoliyat ko‘rsatuvchi tadbirkorlar, fermerlar, jamoa xo‘jaliklari, chet el firmalari va qo‘shma korxonalar shular jumlasidandir.

Xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal qilish yo‘li bilan sud hokimiyatini amalga oshiradigan xo‘jalik sudi o‘z tizimiga ega. Uning tizimiga O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining xo‘jalik sudi, Toshkent shahar va viloyatlarning xo‘jalik sndlari kiradi.

Xo‘jalik sndlari xo‘jalik nizolarini hal qilish jarayonida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Xo‘jalik protsessual kodeksi va boshqa tegishli qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar

o‘rtasidagi ko‘p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar hamda bitimlarga, xalqaro shartnomalarga amal qilgan holda, o‘z qarorlarini chiqaradi.

Xo‘jalik sudiga manfaatdor shaxs o‘zining buzilgan yoxud nizolashilayotgan huquqi yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarning himoya qilinishini so‘rab, belgilangan tartibda murojaat qilishga haqli.

Xo‘jalik sudi iqtisodiy soha va uni boshqarish jarayonida kelib chiqadigan nizolar hamda qonunlar bilan uning vakolatiga kiritilgan boshqa ishlarni hal qilish yo‘li bilan odil sudlovni amalga oshiradi.

Xo‘jalik sud ishlarni yuritish vazifalari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy sohada korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan va nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

2) iqtisodiy sohada qonunchilikni mustahkamlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga ko‘maklashish.

Xo‘jalik sudlarining maqomi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Sudlar to‘g‘risida»gi qonun, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik protsessual kodeksi (XPK) bilan belgilanadi. XPK 1997-yil 30-avgustda qabul qilinib, 1998-yil 1-yanvardan kuchga kirgan va 5 bo‘lim, 24 bob, 226 moddadan tashkil topgan. Xo‘jalik sudi faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik sudlari tarkibini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 1996-yil 25-iyul hamda «Xo‘jalik sudlarining qarori ijrosini ta’minlashga oid chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1997-yil 5-fevral farmonlari alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Xo‘jalik sudlari ham umumiyligi sudlar singari besh yil muddatga saylanadigan Oliy xo‘jalik sudidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudidan va shu muddatga tayinlanadigan viloyatlar va Toshkent shahar xo‘jalik sudlaridan iborat (Konstitutsiyaning 107-m.).

Oliy xo‘jalik sudining sudyalari Prezidentning tavsiyasiga ko‘ra, Oliy Majlis deputatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudlari esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi tomonidan saylanadilar.

Viloyat, Toshkent shahar xo‘jalik sudlarning sudyalari Oliy xo‘jalik sudi raisi tavsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yuqorida ko‘rsatilganidek, besh yil muddatga tayinlanadilar.

Xo‘jalik sudlarining quyi bo‘g‘ini Toshkent shahar va viloyat sudlari hisoblanadi, tuman (shahar)larda xo‘jalik nizolarini ko‘rib hal etadigan sudlar faoliyat ko‘rsatmaydi.

Sobiq arbitraj sudlari zamirida tuzilgan amaldagi Xo‘jalik sudlari o‘zining mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan tubdan farq qiladi, jumladan:

1) agar arbitraj sudlariga odil sudlovni amalga oshirishdek muhim funksiya yuklatilmagan bo‘lsa, xo‘jalik sudlari esa umumiylar kabi odil sudlovni amalga oshiradigan organ sifatida ko‘riladigan bo‘ldi;

2) agar arbitraj, boshqaruvi organlariga bo‘ysunuvchi va bu organlarga xos muayyan vazifalarni bajargan bo‘lsa, Xo‘jalik sudlari Konstitutsiyaga asosan, sud hokimiyati tizimiga kiritildi;

3) xo‘jalik sudlarida appellatsiya bosqichi faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi;

4) guvohlarning bergen guvohliklaridan foydalanish kabi qator huquqiy normalar arbitraj organlaridan farq qilishini ko‘rsatuvchi omillar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy xo‘jalik sudi xo‘jalik sudlovi sohasida sud hokimiyatining eng yuqori organi hisoblanadi. U tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat’i va O‘zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi shart. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jalik sudi, viloyatlar, Toshkent shahar xo‘jalik sudining sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega.

Oliy xo‘jalik sudi Plenumining dasturiy ko‘rsatmalarini xo‘jalik sudlari tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, quyi xo‘jalik sudlari faoliyatini tekshiradi, xo‘jalik sudlarining ishlarini tashkil etish borasidagi ijobjiy tajribani o‘rganadi, umumlashtiradi va ommalashtiradi.

Oliy xo‘jalik sudining tarkibi «Sudlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrirda)gi qonunda o‘z ifodasini topgan. Oliy xo‘jalik sudi – rais, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, sudlov hay’atlari raislari, Oliy xo‘jalik sudi sudyalaridan iborat.

Oliy xo‘jalik sudida:

- Oliy xo‘jalik sudining Plenumi;
- Oliy xo‘jalik sudining Rayosati;
- Fuqarolik va ma’muriy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etish bo‘yicha sudlov hay’ati faoliyat ko‘rsatadi.

Xo‘jalik sudlari qarorlarining qonuniyligi va asosligini tekshirish bo‘yicha sudlov hay’ati faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining raisi Oliy xo‘jalik sudi faoliyatiga tashkiliy rahbarlik qiladi va «Sudlar to‘g‘risida» (yangi tahrirda)gi qonunning 52-moddasida ko‘rsatilgan vazifalarni amalgamoshiradi.

Xo‘jalik sudlari iqtisodiy islohotlarni o‘tkazish jarayonida davlat organlari orasida muhim o‘rin egallaydi. Iqtisodiy sohada va uni boshqarish jarayonida korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlarini yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi. Uning qonunchilikni mustahkamlash va shartnoma munosabatlaridagi huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilganligi Xo‘jalik protsessual kodeksining 3-moddasida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, bu sudlarning asosiy vazifasi ekanligini bildiradi.

Amaldagi qonunlarda xo‘jalik nizolarini hal qilishga qaratilgan xo‘jalik sudlarining vakolatlari birmuncha kengaytirilib, jamoa xo‘jaliklari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi fuqarolarning ham iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolari shu sudlarga taalluqli.

Xo‘jalik sudlarida ish ko‘rish taalluqlilik qoidasiga rioya qilgan holda amalgamoshiriladi. Xo‘jalik protsessual kodeksda manfaatdor taraf xo‘jalik nizolaridan qaysi turdagisi ishlar yuzasidan sudga murojaat etishi mumkinligi berilgan, ularga:

1) yuridik shaxslar o‘rtasidagi, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalgamoshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tartibda olgan fuqarolar o‘rtasidagi fuqaroviyligi, ma’muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga doir ishlar;

2) iqtisodiyot sohasida tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari paydo bo‘lishi, o‘zgarishi yoki tugatilishi uchun ahamiyat kasb etuvchi faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlar;

3) tashkilotlar va fuqarolarning bankrotligi to‘g‘risidagi ishlar kiradi.

Xo‘jalik sudlariga taalluqli bo‘lgan ishlar tomonlarning kelishuviga asosan xolislar sudiga hal etish uchun o‘tkazilishi mumkin.

Fuqaroviyligi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hamda xo‘jalik sudiga taalluqli bo‘lgan nizolar tomonlarning kelishuviga binoan, xo‘jalik sudi qaror chiqargunga qadar xolislar sudi ko‘rib chiqishiga o‘tkazilishi mumkin.

Xo‘jalik ishlariga taalluqli ishlarning sud bo‘g‘inlari (zvenolari) o‘rtasida taqsimlanishi qonunlarda o‘z ifodasini topgan. Taalluqlilik umumiy sudlarda ko‘rsatib o‘tilganidek, xo‘jalik sudlarida ham nizoli

ishlarni ko‘rish va hal qilishda sudlar bilan boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida huquq doirasidagi vakolatlar bilan bog‘liq bo‘lgan farqlar nazarda tutilgan bo‘lsa, sudlovlikda esa, bir tomondan hal etiladigan nizoli ishlarni sudga taalluqliligi, ikkinchi tomondan, yagona xo‘jalik sud tizimi ichida har bir sud qanday vakolatga ega ekanligi anglanadi.

Demak, xo‘jalik nizolarini sudlovligi deganda, sud idoralariga taalluqli bo‘lgan barcha ishlarning sudlar o‘rtasida taqsimlanishi tushuniladi. Ishning sudlovligini aniqlash deganda, mazkur ishni xo‘jalik sudning qaysi bo‘g‘ini ko‘rishi va hal etishi mumkin (vakolatli) ekanligi nazarda tutiladi.

Xo‘jalik sudi tomonidan hal etiladigan nizolarga quyidagilar kiradi:

1) tuzilishi qonunda nazarda tutilgan shartnoma yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar yoki shartnoma yuzasidan kelib chiqqan bo‘lib, hal etish uchun xo‘jalik sudiga topshirish haqida taraflar o‘zaro kelishgan ixtiloslar;

2) shartnoma shartlarini o‘zgartirish yoki shartnomani bekor qilish haqidagi nizolar;

3) mulk huquqini tan olish to‘g‘risidagi nizolar;

4) majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi to‘g‘risidagi nizolar;

5) mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish to‘g‘risidagi nizolar;

6) mulkdor yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘limgan holda buzilganligi to‘g‘risidagi nizolar;

7) yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risidagi nizolar;

8) sha’n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi nizolar;

9) davlat organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarning qonun hujjatlariga muvofiq bo‘limgan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qO‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi nizolar;

10) undirish so‘zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to‘g‘risidagi nizolar;

11) davlat ro‘yxatiga olishni rad etganlik yoki belgilangan muddatda davlat ro‘yxatiga olishdan bosh tortganlik ustidan berilgan shikoyat;

12) agar qonunda so'zsiz (akseptsiz) tartibda jarima undirilishi nazarda tutilmagan bo'lsa, tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan tashkilotlar va fuqarolardan jarimalar undirish to'g'risidagi nizolar;

13) tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda so'zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chiqarilgan pul mablag'larini budgetdan qaytarish to'g'risidagi nizolar.

Xo'jalik sudi o'zining vakolat doirasiga kiritilgan boshqa nizolarni ham hal qiladi.

Sud bo'g'inlari o'rtasida taqsimlangan nizoli xo'jalik ishlarini sud da'vogar yoki javobgar yoxud ulardan birining yashab, ishlab turgan hududida ko'rib hal etilishini aniqlashi lozim. Umumiy qoida bo'yicha da'volar javobgar joylashgan yerdagi xo'jalik sudiga taqdim etiladi (XPKning 27-m.).

Yuridik shaxsga nisbatan uning alohida bo'linma faoliyatidan kelib chiqadigan da'volar alohida bo'linma joylashgan yerga taqdim etiladi.

Fuqarolik protsessual huquqida sudlovlikni turlarga bo'linishi va shular asosida nizoli ishlarni qaysi sud bo'g'inida ko'rib hal etilishiga birmuncha aniqlik kiritilgan.

Xo'jalik protsessual kodeksida ham bu masalaga ahamiyat berilgan. Unga ko'ra, sudlovlik instituti: umumiy sudlovlik, da'vogarning ixtiyori bo'yicha sudlovlik, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'g'risidagi ishlarning sudlovligi, bankrotlik to'g'risidagi ishlarning sudlovligi, mustasno (mutlaq) sudlovlik hamda shartnomaviy sudlovlik turlariga bo'linib, bular xo'jalik nizolarini xususiyatlariga qarab ish tutilganligi bilan farqlanishi ko'rsatilgan.

Ish yuritishda yuqorida keltirilgan har bir sudlovlik turi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularga rioya qilmaslik taraflarning huquq va manfaatlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Amaldagi xo'jalik protsessual kodeksida ishlarni bir xo'jalik sudidan boshqasiga o'tkazish masalasiga ham alohida huquqiy norma bilan tartibga solingan.

XPKning 33-moddasiga ko'ra, xo'jalik sudi ishni boshqa xo'jalik sudiga quyidagi hollarda o'tkazadi:

1) agar ishning sudlovga tegishlilik qoidasini buzib qabul qilinganligi ishni sudda ko'rish vaqtida ma'lum bo'lsa;

2) agar bir yoki bir necha sudyalar rad qilinganidan keyin ularni ushbu sudda almashtirish mumkin bo'lmay qolsa, shuningdek, ishni

ushbu sudda ko‘rish mumkin bo‘lmay qolgan boshqa hollarda ishni boshqa xo‘jalik sudida ko‘rishga o‘tkazish to‘g‘risida ajrim chiqariladi.

Bir suddan boshqa sudga ko‘rish uchun yuborilgan ish qabul qilib olinishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Xo‘jalik sudlari o‘rtasida sudlovga tegishlilik to‘g‘risidagi nizolarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Xo‘jalik sudi xo‘jalik nizolarini ko‘rish jarayonida jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda mansabdor shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari qo‘zg‘atish, iqtisodiy huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarga ma‘muriy javobgarlik choralarini qo‘llash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga yetkazilgan mulkiy zararni aybdor mansabdor shaxslar hisobidan undirish pul mablag‘lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to‘lov intizomini buzganlik, shartnomaga majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik darajasigacha olib kelganlik uchun korxona rahbarlari va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod qilishga qadar bo‘lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli idoralarga taqdimnomalar kiritishga haqli.

Xo‘jalik sudida ishlar manfaatdor shaxslar, prokuror, davlat va boshqa idoralarning arizalari asosida qo‘zg‘atiladi. Basharti, nizolarni sudgacha hal qilish tartibi, ya’ni talabnama yuborish qonun hujjatlarida yoki taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan bo‘lsa, u holda xo‘jalik sudida taraflar o‘zaro munosabatlarini ixtiyoriy tarzda hal qilish choralarini ko‘rib bo‘lganlaridan keyin ish qo‘zg‘atiladi.

Huquqi buzilgan shaxslar, tashkilotlar, fuqarolar xo‘jalik sudlariga o‘z huquqlarini himoya qilish maqsadida murojaat etish uchun beradigan da’vo arizasini yozma ravishda berishlari va ariza tegishli da’vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanishi lozim. Da’vo arizalarida quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- 1) ariza berilayotgan xo‘jalik sudining nomi;
- 2) ishda ishtirok etayotgan shaxslarning nomi va pochta manzillari;
- 3) agar da’vo baholanishi lozim bo‘lsa, da’voning bahosi;
- 4) da’vo talablariga asoslantirilgan holatlar;
- 5) da’vo talablari asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 6) undiriladigan yoki bahslashishga sabab bo‘lgan summaning miqdori;
- 7) da’vogarning qonunlarga va boshqa qonun hujjatlariga havola qilingan talablari, da’vo bir necha javobgarga nisbatan qo‘zg‘atilganda, ularning har biriga qo‘ylgan talablar;

8) nizoni sudga qadar e'tiroz talabi tartibida javobgar bilan birga hal etishga rioya qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar, agar bu shunday turkumdag'i nizolarni hal etish uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

9) ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati.

Da'vo arizasida, agar nizoni to'g'ri hal qilish uchun zarur bo'lsa, boshqa ma'lumotlar ham, shuningdek, da'vogarda mavjud iltimosnomalar ko'rsatiladi.

Da'vo arizasiga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar XPKning 114-moddasida aniq ko'rsatib o'tilgan. Bu moddaga ko'ra da'vo arizasiga quyidagilarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

o'belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to'langanligini;

o'da'vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligini;

o'nizoni javobgar bilan sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etilganligini, agar bu shu toifadagi nizolar uchun qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa;

o'da'vo talablariga asos bo'lgan holatlarni.

Agar da'vo arizasi da'vogarning vakili tomonidan imzolangan bo'lsa, uning da'vo taqdim etishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi ishonchnoma ilova qilinadi.

Shartnomaga tuzishga majbur etganlik to'g'risidagi arizaga shartnomaga loyihasi ilova qilinadi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs da'vo arizasi bo'yicha o'zining e'tirozlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan yozma fikrini ishda ishtirok etuvchi shaxslarga hamda ularga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillarni ish ko'rildigan kungacha xo'jalik sudiga taqdim etishga haqlidir. Yozma fikrda ushbu fikr yuborilayotgan xo'jalik sudi va da'vogar nomi, ishning tartib raqami, da'vo talablarini to'liq yoki qisman rad etishning qonun hujjatlariga asoslangan sabablari, e'tirozlarini asoslovchi dalillar, hujjatlar ro'yxati, boshqa ma'lumotlar, javobgarning iltimosnomalari ko'rsatilishi lozim.

Xo'jalik sudlarida ishlar birinchi, appellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyalarida ko'rildi.

Sud ishlari birinchi instansiyada sudyaning yakka o'zi tomonidan, Respublika Oliy xo'jalik sudida va boshqa instansiyalarda esa hay'at tarkibida ko'rildi.

Qoida bo'yicha da'volar javobgar joylashgan yerdagi xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Turli joydagi bir qancha javobgarga nisbatan

da'volar da'vogarning xohishiga ko'ra, ulardan biri joylashgan yerdagi, qayerdaligi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan da'volar esa uning mulki joylashgan yoki ma'lum bo'lgan oxirgi turar joyidagi xo'jalik sudiga taqdim etilishi mumkin.

Xo'jalik sudlarida ishlarni yuritish oshkorlik, taraflarning tortishuvi va teng huquqliliqi asosida amalga oshiriladi. Sud ishlari o'zbek, qoraqalpoq yoki ko'pchilik aholi so'zlashadigan boshqa tilda olib boriladi.

XPKning 34-moddasida ishda ishtirok etuvchi shaxslar ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa organlar o'z zimmalariga yuklatilgan vakolatga ko'ra, shuningdek, arizachilar hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi va tashkilotlar hamda fuqarolar bankrotligi to'g'risidagi ishlardan manfaatdor boshqa shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar hisoblanadilar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari XPKning 35-moddasida yoritib berilgan. Ushbu moddaga asosan, ishda ishtirok etuvchi shaxslar ish materiallari bilan tanishish, ulardan ko'chirmalar olish, nusxa ko'chirish, rad qilish to'g'risida arz qilish, dalillar taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, savollar berish, iltimosnomalar kiritish, arz qilish, xo'jalik sudiga og'zaki va yozma tushuntirishlar berish, ishni ko'rish davomida tug'iladigan barcha masalalar bo'yicha o'z vajlarini, xulosalarini taqdim qilish, ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosnomalari, vajlariga e'tiroz bildirish, sud hujjatlari ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) hamda qonun bo'yicha ularga berilgan boshqa protsessual huquqlardan foydalanish huquqiga egadirlar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar XPKda nazarda tutilgan protsessual majburiyatlarga egadir va ular o'zlariga tegishli barcha protsessual huquqlardan insofli ravishda foydalanishlari shart.

Xo'jalik sudlarida ishlarni ko'rish muddati bir oy etib belgilangan. Alovida holatlarda bu muddat xo'jalik sudi raisi tomonidan yana bir oy muddatga uzaytirilishi mumkin.

Xo'jalik sudi tomonidan qabul qilingan hal qiluv qarori bir oy muddat o'tgach, qonuniy kuchga kiradi va ijro etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar bir oy ichida xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya shikoyati, qonuniy kuchga kirgan hamda appellatsiya instansiysi qarori ustidan

kassatsiya shikoyati berishga, prokuror esa kassatsiya protesti keltirishga haqlidir. Apellatsiya shikoyati birinchi bosqichda hal qiluv qarorini qabul qilgan xo‘jalik sudining appellatsiya instansiyasi, kassatsiya shikoyati yoki protesti Respublika Oliy xo‘jalik sudi tomonidan ko‘riladi. Kassatsiya shikoyati (protesti) Oliy xo‘jalik sudiga hal qiluv qarorini qabul qilgan xo‘jalik sudi orqali beriladi.

Protest keltirishga asoslar mavjud bo‘lganda, shu jumladan, ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi munosabati bilan, xo‘jalik sudlarining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va Respublika Oliy xo‘jalik sudi raisi, Bosh prokurori, ularning o‘rnbosarlari protesti asosida nazorat tartibida Oliy xo‘jalik sudi Rayosati tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Xo‘jalik sudining hal qiluv qarori, ajrimi, qarori, sud buyrug‘i sud hujjatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 114-moddasiga asosan, sud hokimiyati chiqargan hujjatlar barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiy kuchga ega bo‘lib, butun mamlakatimiz hududida ijro etilishi shart.

Sud hujjatini majburiy ijro etish xo‘jalik sudi beradigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi. Sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan so‘ng ijro varaqasi qarzni undirish uchun undiruvchiga, pul mablag‘larini budjetga undirish uchun soliq idorasiga beriladi. Ijro varaqasi ijro uchun olti oy ichida taqdim etilishi mumkin.

Ijro varaqasi topshirilgan bank yoki boshqa kredit muassasasi pul mablag‘larini undirish to‘g‘risidagi sud hujjatini ijro etmaganligi uchun unga xo‘jalik sudi undirilishi lozim bo‘lgan summaning 50% gacha, ijro varaqasida ko‘rsatilgan harakatlarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs ularni bajarmaganligi uchun unga eng kam ish haqining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima soladi. E’tiborli tomoni shundaki, jarimani to‘lash sud hujjatini ijro qilish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Shuningdek, XPK chet el va xalqaro tashkilotlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritishni ham tartibga soladi.

2. Hakamlik sndlari va ularda fuqarolik nizolarining ko‘rilishi

Hakam termini arabcha «hakammu» so‘zidan olingan bo‘lib, xolis, uchinchi bir shaxsning sudya bo‘lishini anglatadi. Hakamlik sndlari rus

tilida «третейский суд» deb atalib, uchinchi shaxslar (трети лица) sudi, degan ma’noda tushuniladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan «Hakamlik sudlari to‘g‘risida»gi qonun qabul qilinib, 2007-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Ushbu qonun 9 bob, 59 moddadan tashkil topgan. Uning 9-moddasida ko‘rsatilishicha, fuqaro (ma’muriy, mehnat va oila munosabatlariga doir nizolardan tashqari) boshqa fuqaro bilan o‘rtasida kelib chiqqan har qanday nizoni hakamlik sudlarining ko‘rishi uchun topshirishi mumkin.

Ushbu qonun asosida 2009-yilning may oyida O’zbekiston Hakamlik sudlari Assotsiatsiyasi (O’zHSA) tashkil etilib, 2011-yildan O’zHSA Toshkent shahar filiali huzurida barcha tumanlarda doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi hakamlik sudlari o‘z faoliyatini boshladi.

Hakamlik sudlari deb, fuqarolar bilan fuqarolar va tashkilotlar bilan tashkilotlar o‘rtasida kelib chiqqan ba’zi fuqaroviy-huquqiy xarakterdagi nizolarning uchinchi shaxs yoki shaxslar (xolislar) tomonidan ko‘rilishiga aytildi.

O’zbekiston Respublikasining 2007-yil 1-avgustdagi O’RQ-106-sonli qonuni bilan Fuqarolik protsessual kodeksiga 35^1-35^3 -boblar, 309^1-348^{13} -moddalar kiritilgan¹.

Fuqarolik protsessual kodeksining 309^2 -moddasida Hakamlik sudining hal qiluv qarori bilan bog‘liq ishlarni ko‘rish tartibi belgilangan, unga ko‘ra, **sudlar** ushbu Kodeksning 309^1 -moddasida sanab o‘tilgan ishlarni uning 35^1-35^3 - boblarida ko‘rsatilgan istisno va qo‘shimchalar bilan birgalikda fuqarolik sudlov ishlarini yuritishning umumiyligini qoidaligiga binoan ko‘rib chiqadi.

Manfaatdor taraflarning fuqarolik huquqlari faqat davlat sudi tomonidan emas, balki hakamlik sudlari yo‘li bilan ham himoya qilinishi mumkin. Hakamlik sudlari nizolashuvchilarining alohida kelishuvi bilan bir yoki toq sondan iborat bir necha shaxslar tarkibida fuqaroviy-huquqiy xarakteridagi nizoni hal etish uchun tashkil etiladi.

Hakamlik sudi nodavlat sud organi bo‘lib, uning asosiy vazifasi fuqarolar va tadbirkorlarga huquqiy yordam berish, ularning huquqlarini himoya qilishdan iboratdir.

Hakamlik sudining xo‘jalik sudlari va fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlardan farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. – 2007. – № 31–32. – 315-м.

1. Hakamlik sudi tomonidan nafaqat xo‘jalik ishlari, balki fuqarolik ishlari ham ko‘rib chiqilib, qonuniy hal qilinadi (Xo‘jalik sudlarida faqat yuridik shaxslarga oid xo‘jalik nizolari ko‘riladi, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda faqat fuqarolarga oid nizolar ko‘riladi. Hakamlik sudlari, jumladan yuridik shaxslar o‘rtasidagi qarz oldi-berdisiga oid nizolarni ko‘rib chiqadi. Fuqarolar o‘rtasida qarz shartnomasi, yozma tilxat bor yoki yo‘qligidan qat’i nazar, hakamlik sudida ko‘rilib, qonuniy qaror qabul qiladi).

2. Hakamlik sudida ishlar tezkorlik bilan hal qilinadi (chunki hakamlik sudida faqat bitta instansiya nazarda tutilgan bo‘lib, boshqa sudlar kabi appellatsiya, nazorat instansiyalari mavjud emas, hakamlik sudining qarori yakuniy hisoblanadi).

3. Asosiy maqsad taraflarning kelishuviga yo‘naltiriladi hamda taraflar o‘rtasidagi hamkorlik saqlab qolinadi (birinchi o‘rinda taraflarni murosaga keltirish yo‘llari izlanadi, ularni keyinchalik ham hamkorlik qilishlari uchun oralaridagi munosabatlar buzilmasligi yo‘lida harakat qilinadi).

4. Hakamlik muhokamasining maxfiyligi qonun bilan kafolatlanadi (Hakamlik sudida ish yopiq majlisda ko‘rib chiqiladi, bu taraflar o‘rtasida nizo mavjudligi, shuningdek, nizoning biror-bir o‘ziga xos tomonlari oshkor qilinmasligini, tijorat siri saqlanishini ta’minlaydi. Masalan, kimdir qo‘ni-qo‘shnidan, kimdir ishdagi hamkorlaridan birovni sudga bergenini yashirib qolishi mumkin. Boshqa kimdir uni ishi sudda ko‘rilayotganini boshqalar bilmasligini xohlaydi, shundan kelib chiqib, hakamlik sudida faqat sud tarkibi va nizolashayotgan tomonlar qatnashadi, sud muhokamasida hatto prokuror ham ishtirok etmaydi).

5. Tomonlar jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortilmaydi (Masalan, muddati o‘tgan debtorlik va kreditorlik qarzdorlik uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan, fuqarolik ishlari bo‘yicha va xo‘jalik sudlari shunday holatlarni aniqlaganlarida qonunga ko‘ra jinoyat ishi qo‘zg‘atish masalasini ko‘rib chiqishlari shart, hakamlik sudi esa tomonlar faoliyatida kamchiliklar aniqlangan taqdirda ham jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortish vakolatga ega emas).

6. Hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi (Masalan, fuqarolik ishlari bo‘yicha va xo‘jalik sudlarining hal qiluv qarorlari 20 kundan keyin kuchga kiradi, agar shu muddat ichida appellatsiya shikoyati berilsa, appellatsiya muhokamasi yakunlanmagunga qadar qaror kuchga kirmasdan turadi. Hakamlik sudlarining hal qiluv qarori esa e’lon qilingan kundan boshlab, darhol kuchga kiradi).

7. Xo‘jalik sndlari va fuqarolik ishlari bo‘yicha sndlар hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqishga haqli emas (Masalan, taraflardan biri hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilishni so‘rab, xo‘jalik sudi yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga murojaat qilishi mumkin. Ushbu holda bu sndlар hakamlik sudi aniqlagan holatlarni yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko‘rib chiqa olmaydilar, ular faqat qo‘pol protsessual kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, jumladan taraflardan biri sudga chaqirilmagan, ko‘rishga vakolati bo‘lmagan masala yuzasidan qaror chiqargan hollarda hakamlik sudi qarorlarini bekor qilishlari mumkin).

8. Hakamlik sndlari yig‘imi miqdori xuddi shunday toifadagi ishlarni xo‘jalik sudi yoki fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda ko‘rib chiqilganda to‘lanishi lozim bo‘lgan davlat bojining yarmidan oshmaydi.

9. Hakamlik sndlari ma’muriy, oila, mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi, shuningdek, soliq, bojxona va hokimiyat organlari ishtirokidagi nizolarni ko‘rmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida hakamlar sudi nizoli huquqiy munosabatlarning subyektlariga va nizoning predmetiga qarab quyidagi turlarga:

1) fuqarolar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun tuziladigan;

2) tashkilotlar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini hal qilish uchun tuziladigan;

3) tashqi savdoga oid nizolarni ko‘radigan va dengiz huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni hal qilish uchun tuziladigan hakamlar sndlарiga bo‘linadi.

Nizoni hakamlik sudi ko‘rishi uchun topshirish to‘g‘risidagi shartnoma yozma shaklda (hakamlar yozushi shaklida) tuzilgan bo‘lishi hamda unda: taraflarning nomi va ularning yashash joyi; nizoning predmeti; saylangan sudyalarning nomlari; nizoni hal qilish muddati; shartnomaning tuzilgan joyi va vaqtি ko‘rsatilishi lozim.

Hakamlik sudi har safar nizo ishtirokchilarining alohida kelishuvi bilan tashkil etiladi va har bir taraf tomonidan baravar miqdorda saylangan bir yoki bir necha sudyalarning tarkibida tuziladi. Agar sud hay’at tartibida tuzilsa, sudyalardan biri o‘zaro kelishuv bo‘yicha rais qilib saylanadi.

Voyaga yetgan (18 yoshga to‘lgan) har bir fuqaro hakamlar sudining a’zosi qilib saylanishi mumkin. Ammo ayrim shaxslar: chunonchi, voyaga yetmaganlar, vasiylik yoki homiylik ostida bo‘lganlar, sudning

hukmi bilan sud organlarida va prokuratura organlarida mansab egallash huquqidan yoki advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etilganlar (hukmda ko‘rsatilgan muddat davomida), jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar hakamlik sudlarining a’zosi bo‘la olmaydilar.

Ishning ko‘rilishi tamomlanmaguncha sudyalar almashtirilmaydi.

Sudyalardan birortasining ko‘rileyotgan ish oqibatlaridan manfaatdorligini va bu holat shartnoma tuzish vaqtida o‘ziga ma’lum bo‘Imaganligini isbot qilgan taraf kelishuvdan voz kechishga haqlidir.

Sudyalardan biri vafot etgan, boshqa yoqqa ketib qolgan yoki kasal bo‘lib qolgan taqdirda, nizoni hal qilishni sudyalarning mavjud tarkibiga topshirish yoki chiqib ketgan sudyani saylagan tarafning tayinlashi bo‘yicha yangi sudya saylash taraflarning kelishuviga bog‘liq. Bu to‘g‘rida hakamlar yozuvining o‘zida qayd qilinadi va uni qolgan hamma sudyalar va taraflar imzolaydi.

Nizoni hakamlar sudi ko‘rishi uchun topshirish to‘g‘risida shartnoma tuzgan fuqarolar, Nizomning 6-moddasida ko‘rsatilgan holatlardan boshqa barcha holatlarda, hakamlar yozuvida ko‘rsatilgan muddat o‘tmasdan oldin bu shartnomadan voz kechishga haqli emaslar.

Hakamlik sudlarida ishlar jamoatchilik asosida, xizmat haqi olinmasdan ko‘riladi.

Hakamlik sudining faoliyati FPKda bayon qilingan sud ishlarini yuritish qoidalaridan farq qiladi. Ammo tomonlardan biri yoki har ikkisi sudga kelishdan bosh tortgan bo‘lsa, hakamlik sudi taraflarning bayonotlarini eshitmasdan ishni hal qila olmaydi.

Hakamlik sudlari quyidagi hollarda bo‘Imagan deb hisoblanadi:

1) ishni hal qilish muddati o‘tganda;

2) sudyalardan birortasi ishni ko‘rishda ishtirok etishdan voz kechishi yoki chetlatilgani holda;

3) agar ishni ko‘rishda taraflarning birortasiga nisbatan jinoiy ta’qib qo‘zg‘atishga asos beradigan holatlar ochilib qolsa va bu hol ishning oqibatiga ta’sir qiladigan bo‘lsa;

4) taraflardan biri vafot etgan taqdirda.

Hakamlik sudining hal qiluv qarori ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Yozma shaklda tuzilgan bu hal qiluv qarorida uning chiqarilgan joyi va vaqt hamda hakamlik sudining tarkibi; nizolashuvchilarning nomi; nizoning predmeti; hakamlik sudlari o‘z xulosalariga qanday dalillarni asos qilib olganliklari va hakamlar sudining qarori ko‘rsatiladi.

Hal qiluv qarorini hamma sudyalar imzolaydi. Sudyalardan birortasi imzo qo‘yishdan bosh tortsa va o‘z fikrida qolsa, bu haqda hal qiluv qarorining o‘zida qayd qilib qo‘yiladi. Sudyalarning ko‘pchiligi tomonidan imzolangan hal qiluv qarori qonuniy kuchga egadir. Bu qaror taraflarga sud majlisida o‘qib eshittiriladi va ular hal qiluv qaroriga imzo qo‘yadilar. Agar taraflardan biri imzo qo‘yishdan bosh tortsa yoki sud majlisiga uzrsiz sabab bilan kelmasa, hal qiluv qarori unga eshittirilgan hisoblanib, bu to‘g‘rida rais hal qiluv qaroriga yozib qo‘yadi.

Hakamlik sudlarining hal qiluv qarori ixtiyoriy ravishda ijro etilmasa, tegishli sudning beradigan ijro varaqasiga asosan majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin. Sudya ijro varaqasini berishda hakamlik sudining hal qiluv qarori qonunga muvofiqligini tekshiradi. Sudya ijro varaqasini berishni rad qilganida bu to‘g‘rida xususiy shikoyat berish yoki xususiy protest keltirish mumkin. Sudyaning ijro varaqasi berishni rad etish to‘g‘risidagi ajrimi qonuniy kuchga kirgandan so‘ng, nizo manfaatdor tarafning arizasi bo‘yicha sudda fuqarolik ishini yuritish tartibida hal qilinishi mumkin.

Hakamlik sudlarining ish yuritishga oid hamma materiallari ishni ko‘rish tamomlangandan so‘ng saqlash uchun hakamlik sudlari ish ko‘rgan joydagи tuman (shahar) sudiga topshiriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasida notariat

Notariat atamasi lotincha «notarius» so‘zidan olingan bo‘lib, xat yozuvchi, kotib ma’nosini bildiradi.

Notariat deb, jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini hamda yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni guvohlantiruvchi va bu huquqlar hamda faktlarni tasdiqlash bilan bog‘liq bo‘lgan harakatlarni amalga oshiruvchi davlat idoralari va xususiy idoralarga aytildi.

Notariat (notarial idoralar) yuridik faktlarni belgilaydigan va fuqarolik huquqlari to‘g‘risidagi nizolarni hal qiluvchi sud organlaridan farqlanadi. Notarial idoralar fuqarolar bilan bevosita uchrashish yo‘li bilan yoki qonunda ko‘rsatilgan hollarda hujjatlarga asosan nizosiz huquqlarni va yuridik faktlarni guvohlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida notariatning tashkil etilishi prinsiplari va faoliyati O‘zbekiston Respublikasining «Notariat to‘g‘risida»gi 1996-yil

26-dekabr qonuni¹, Vazirlar Mahkamasining «Notariat to‘g‘risida»gi qarorlari bilan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarining notariuslari va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi 1997-yil 28-aprel qo‘llanmasi, 1997-yil 28-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi davlat notarial idoralarda xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarning ish yuritish tartibi haqida»gi qo‘llanma, ushbu Vazirlik Hay’atining 1997-yil 28-aprelda tasdiqlagan «O‘zbekiston Respublikasi shaharchalar, qishloqlar va ovullar fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollari) tomonidan belgilangan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida»gi qo‘llanma hamda boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlarni bajarish davlat yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarial idoralarga yuklatilgan. Notarial idoralar bo‘lmagan aholi yashaydigan joylarda (punktarda) ba’zi notarial harakatlar fuqarolar yig‘inlarining raislari (oqsoqollari) tomonidan amalga oshiriladi.

Chet mamlakatlarda notarial harakatlarni O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining notarial harakatlarni amalga oshirish vakolati berilgan mansabdar shaxslari amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasida notarius lavozimiga oliv yuridik ma’lumotga ega bo‘lgan, davlat notarial idorasida yoki xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius huzurida kamida *bir yillik* muddatli stajirovkani o‘tab, malaka imtihonini topshirgan, notarial faoliyat bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyaga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi tayinlanadi. Notariusning oliv yuridik ma’lumotli stajori va yordamchisi bo‘lishi mumkin. Notarial idoralar o‘z faoliyatlarini amalga oshirishda amaldagi qonunlarga, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Mehnat va uy-joy kodekslari, Oila kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga asoslanadilar.

Notariat faoliyatiga xos bo‘lgan alohida qoida shundan iboratki, notariuslar va notarial idoralarning boshqa xodimlari, umuman notariat

¹ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг 1996-йил 26-декабрда қабул қилган «Нотариат тўғрисида»ги қонуни (2010 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) / Масъул мухаррир М. Мирсамадов. – Т., 2010. – 148 б. Ўзбек (кирилл, лотин алифбоси) ва рус тилларида (бундан буён нотариат қонуни деб аталади).

faoliyatini amalga oshiruvchilar o‘zлari bajargan notarial harakatlarining sir saqlanishini ta’minlashga majburlar. Binobarin, qilingan notarial harakatlar to‘g‘risida ma’lumotlar va hujjatlar kimgarga nisbatan bunday harakatlar qilingan bo‘lsa, shu shaxslarning o‘zlariga yoki ularning vakillariga yoxud qonunda nazarda tutilgan hollarda tergov va sud organlariga beriladi. Fuqarolar mulkiga o‘tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma’lumotnomalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda soliq organlariga taqdim etiladi.

Vasiyatnama to‘g‘risidagi ma’lumotlar kimlarning foydasiga mazkur vasiyatnomalar tuzilgan bo‘lsa, shu shaxslarga vasiyat qoldiruvchi fuqaro vafotidan so‘ng beriladi.

Amalga oshirilgan notarial harakatlarning maxfiyligini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Davlat va xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariat organlarining vazifasi jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo‘riqlashdan, qonunchilikni va huquq-tartibotni mustahkamlashdan, shartnomalar va bitimlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida guvohlantirish, vorislik huquqlarini rasmiylashtirish, ijro xatlarini yozish va boshqa notarial harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan huquq buzilishining oldini olishdan iboratdir.

«Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 23-moddasiga muvofiq davlat notariat idoralari quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) bitimlarni tasdiqlaydi;
- 2) vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;
- 3) er-xotinning umumiyligi mol-mulkidagi ulushiga mulk huquqi to‘g‘risida guvohnomalar beradi;
- 4) mol-mulkni o‘zga shaxsga o‘tkazishni taqiqlab qo‘yadi va taqiqni bekor qiladi;
- 5) merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnoma beradi;
- 6) meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;
- 7) hujjatlar nuxxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlaydi;
- 8) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 9) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi;
- 10) ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida guvohnoma beradi;
- 11) fuqaroning hayot ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 12) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

- 13) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- 14) hujjatlar taqdim etilgan vaqt ni tasdiqlaydi;
- 15) jismoniy va yuridik shaxslarning arizalarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga topshiradi;
- 16) pul summalarini va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 17) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilib oladi;
- 18) pul to'lash uchun cheklarni taqdim etadi va cheklar bo'yicha pul to'lanmaganligini tasdiqlaydi;
- 19) ijro xatlarini yozadi;
- 20) veksellarning protestlarini amalga oshiradi;
- 21) dengiz protestlarini amalga oshiradi;
- 22) notarial tasdiqlagan hujjatlarning dublikatlarini hamda reyestralardan ko'chirmalarni beradi.

Davlat notarial idoralarda ishlovchi notariuslar qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat notarial idoralari bo'limgan aholi punktlarida, shahar, qishloq va ovullarda fuqarolar yig'inlarining raislari notariat to'g'risidagi qonunning 25-moddasiga muvofiq, quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

▫vasiyatnomalarni tasdiqlaydi;

▫ishonchnomalarni tasdiqlaydi, avtotransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

▫meros mol-mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko'radi;

▫hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi, ma'lumot haqidagi hujjat nusxalari bundan mustasno;

▫hujjatdagi imzoning haqiqiyligini shahodatlaydi.

Qonunning 26-moddasiga binoan, quyidagi hujjatlar notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladi:

– kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki qariyalar va nogironlar uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo'yicha o'rnibosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek, gospitallarning boshliqlari, qariyalar va nogironlar uylarining direktorlari va boshqa shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga o‘xhash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

– harbiy xizmatchilarning, notariuslar bo‘lmagan punktlarda joylashgan harbiy qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxslarning, ularning oila a’zolari hamda harbiy xizmatchilar oila a’zolarining ana shu harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari;

– ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari va ishonchnomalari.

– Vasiyatnomalar va ishonchnomalarni ushbu moddada aytib o‘tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan belgilab qo‘yilgan tartibda amalga oshiriladi.

Notariuslik vazifasini bajarish huquqi berilgan mansabdor shaxslar o‘zları tasdiqlagan vasiyatnomalarning bir nusxasini vasiyatchi doimiy yashaydigan joydagi davlat notarial idorasiga saqlash uchun tezda, kechiktirmay topshirishlari lozim.

Konsullar tomonidan amalga oshiriladigan *o‘n beshta* notarial harakatlar qonunning 28-moddasida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari quyidagi notarial harakatlarni amalga oshiradi:

1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va hokazolarni) tasdiqlaydi, ushbu Qonunning 44-moddasi 2-qismida nazarda tutilgan va O‘zbekiston Respublikasida joylashgan mol-mulkni boshqa shaxsga o‘tkazish va garovga quyish to‘g‘risidagi shartnomalar bundan mustasno;

2) fuqaroning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;

3) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;

4) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;

5) hujjatlar taqdim etilgan vaqtini tasdiqlaydi;

6) meros mol-mulkning qo‘riqlanishiga doir chora-tadbirlar ko‘radi;

7) merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar beradi;

8) er-xotinning umumiy mulkidagi ulushiga mulk huquqi haqida guvohnomalar beradi;

9) hujjatlarning nusxalari va hujjatlardan olingan ko‘chirmalar to‘g‘riligini shahodatlaydi;

10) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini shahodatlaydi;

11) hujjatlarning bir tildan boshqa tilga to‘g‘ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;

12) pul summalari va qimmatli qog‘ozlarni depozitga qabul qilib oladi;

13) saqlash uchun hujjatlarni qabul qilib oladi;

14) ijro xatlarini yozadi;

15) dengiz protestlarini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi konsullik muassasalarining konsullari qonunlarda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat notariusi saqlash uchun topshirilgan vasiyatnomaning qonuniyligini tekshirishi va uning qonunga muvofiq emasligini aniqlagani taqdirda bu haqda vasiyatatchiga va vasiyatnomani tasdiqlagan mansabdor shaxsga ma’lum qilishi shart.

Notarial harakatlarni bajarishda notariuslar mustaqil ish ko‘radilar va faqat qonunga itoat qiladilar.

Notariuslar o‘z nomlaridan shaxsan o‘zlari uchun, o‘zlari nomidan xotini yoki eri nomiga hamda o‘zining qarindosh-urug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari) nomiga notarial harakatlar qila olmaydilar. Bundan tashqari, notarius mazkur notarial idorada ishlovchi xizmatchilar nomidan notarial harakatlar qila olmaydi. Bunday qoidalar notarius ishida ba’zi bir suiste’molchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida belgilanadi.

Umumiyl qoida bo‘yicha notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi. Ammo, agar fuqaro uzrli sabab bilan, masalan, kasalligi, qariligi sababli notarial idoraga kela olmasa, notarius tegishli notarial harakatlarni mazkur shaxsning uyida, kasalxonada yoki boshqa joyda qilishi mumkin.

Odatda, notarial harakatlar barcha zarur hujjatlar topshirilgan kunning o‘zidayoq amalga oshiriladi. Ayrim hollarda notarius, notarial harakatlarni bajarishni boshqa vaqtga qoldirishi mumkin, ammo o‘n kundan oshiql muddatga kechiktirilmasligi kerak.

Hujjatning matni aniq va ravshan yozilgan bo‘lishi kerak. Hujjatning mazmuniga taalluqli sanalar, sonlar va muddatlar hech bo‘lmaganda bir marta so‘z bilan, yuridik shaxslarning nomlari esa bir marta bo‘lsa ham

qisqartirilmasdan to‘la yoziladi, shuningdek, ularning manzillari ko‘rsatiladi.

Bir varaqdan ortiq bo‘lgan hujjat ip o‘tkazib tikilgan, varaqlari raqamlangan va muhr bosib tasdiqlangan bo‘lishi kerak. FPKning 283-moddasida qayd etilganidek, fuqarolar va tashkilotlarning shaxsiy, mulkiy huquqlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi yoki tugashiga sabab bo‘ladigan quyidagi faktlarni sud aniqlaydi:

- 1) shaxslarning qarindoshlik aloqalarini;
- 2) shaxs birovning qaramog‘ida ekanligi faktini;
- 3) otalikni tan olish (belgilash) faktini, bolaning u yoki bu onadan tug‘ilganligi faktini, shuningdek, tug‘ilgan vaqtini;
- 4) farzandlikka olish, nikoh, ajralish va o‘limning qayd etilganlik faktini;
- 5) er-xotindan birining o‘limi natijasida fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlarida nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish mumkin bo‘lmay qolsa, qonunda belgilangan hollarda ularning haqiqatdan er-xotinlik munosabatlarida bo‘lganlik faktini;
- 6) shaxsning huquqni vujudga keltiruvchi hujjatlarda (jamoat birlashmalariga a’zolik biletlari, harbiy hujjatlar, pasportlar, fuqarolik holati aktlarini qayd etish organlari beradigan guvohnomalardan tashqari) ko‘rsatilgan ismi, otasining ismi va familiyasi bilan mos kelmagan taqdirda mazkur hujjatlarning unga tegishliligi yoki tegishli emasligi faktini;
- 7) baxtsiz hodisa faktini;
- 8) imoratga xususiy mulk huquqi asosida egalik qilish faktini;
- 9) merosni qabul qilish va merosning ochilish joyi faktini;
- 10) yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa faktlarni, agar qonun hujjatlarida ularni belgilashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa.

Arizachi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni tasdiqlaydigan tegishli hujjatlarni boshqacha tartibda olishi mumkin bo‘lmasa yoki yo‘qotilgan hujjatlarni tiklashning imkonini bo‘lmanan taqdirdagina sud bu faktni aniqlaydi.

Notariuslar quyidagi yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni tasdiqlaydi:

- 1) fuqaroning tirik ekanligi faktini;
- 2) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini;
- 3) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini;
- 4) hujjatlarni taqdim etgan vaqtini;

- 5) imzolarning haqiqiyligini;
- 6) jismoniy va yuridik shaxslarga arizalar topshirish faktini;
- 7) birovlarga topshirish uchun pul summalarini depozitga qabul qilishni;
- 8) dalillarning ta'minlanish faktini;
- 9) garov shartnomalari bo'yicha imoratlarga taqiq (arest) solish faktini;
- 10) hujjatlarni saqlash uchun qabul qilish faktini.

Bulardan tashqari, qonunda nazarda tutilgan boshqa yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlar ham notariuslar tomonidan tasdiqlanishi yoki shahodatlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Notariat to'g'risida»gi qonuning 18-moddasida notariusning majburiyatlari ko'rsatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

▫ jismoniy va yuridik shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirish va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashish, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berish;

▫ tomonlar taqdim etgan bitimlar loyihalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, ushbu bitimlarning mazmuni tomonlarning asl maqsadiga mos kelish-kelmasligini va qonun talablariga zid kelish-kelmasligini tekshirish;

▫ yuridik jihatdan bexabarlik jismoniy va yuridik shaxslarning zarariga ishlamasligi uchun amalga oshirilayotgan notarial harakatlarning oqibatlari haqida ularni ogohlantirish;

▫ qonun hujjatlariga mos kelmaydigan notarial harakatni amalga oshirishni rad etish;

▫ notarial harakatlarni amalga oshirish vaqtida fuqarolar yoki mansabdor shaxslar tomonidan qonunchilik buzilganligini aniqlagan taqdirda, zarur chora-tadbirlar ko'riliши uchun tegishli yuridik shaxslarga yoki prokurorga bu haqda xabar qilish;

▫ qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ko'chmas mulk ijarasi shartnomalarini tasdiqlash va ijara haqining miqdori to'g'risidagi, meros yoki hadya tartibida fuqarolar mulkiga o'tayotgan mol-mulkning qiymati haqidagi ma'lumotnomalarni davlat soliq xizmati organiga taqdim etish;

▫ sud, prokuratura, tergov organlari talabiga binoan mazkur organlarning yurituvida bo'lgan ishlar bilan bog'liq notarial harakatlarni amalga oshirganlik to'g'risida ma'lumotnomalar (ma'lumotlar) berish;

øjinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq amalga oshirilgan notarial harakatlar to‘g‘risidagi ma'lumotnomalarni (ma'lumotlarni) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishi shart.

Davlat notarial idorasida ishlovchi notariuslar qonun hujjatlariga zid xatti-harakatlar sodir etsa, belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

Notariusning notarial harakatlar yoki bunday harakatlarni bajarishni rad etganligi yoki noto‘g‘ri bajarganligi ustidan shikoyat berish tartibi FPKning 273-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Bu moddaga ko‘ra,

– manfaatdor shaxs bajarilgan notarial harakatlarni yoki notarial harakatni bajarish rad etilganligini noto‘g‘ri deb hisoblasa, bu haqda u notarial idora, shaharcha, qishloq, ovul o‘zini o‘zi boshqarish organi joylashgan hududdagi sudga shikoyat berishga haqli.

– Mansabdor shaxslar tomonidan vasiyatnomalar va ishonch qog‘ozlari noto‘g‘ri tasdiqlanganligi yoki ularni tasdiqlash rad etilganligi haqidagi shikoyatlar tegishli kasalxona, boshqa statsionar davolash-profilaktika muassasasi, sanatoriy, qariyalar va nogironlar uyi, ekspeditsiya, gospital, harbiy davolash muassasasi, harbiy qism, qo‘silma, harbiy o‘quv yurti, jazoni ijro etish joyi o‘rnashgan hududdagi sudga beriladi.

– Notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki uni bajarish rad etilganligi haqidagi shikoyatlar notarial harakat noto‘g‘ri bajarilganligi yoki bunday harakatni bajarish rad etilganligi arizachiga ma'lum bo‘lgan kundan e’tiboran *yigirma kunlik* muddatda beriladi. Shikoyatda bajarilgan notarial harakatning yoki bunday harakatni bajarishni rad etishning noto‘g‘riliqi nimalardan iborat ekanligi ko‘rsatilishi lozim.

Shikoyat berish muddati o‘tkazib yuborilganda uni tiklash haqidagi iltimos sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi.

«Notariat to‘g‘risida»gi qonunning 38-moddasiga muvofiq notarius quyidagi hollarda notarial harakatni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega:

▫ bunday harakatni amalga oshirish qonunga zid bo‘lsa;

bu harakat boshqa notarius tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lsa;

▫ muomalaga layoqatsiz fuqaro yoxud zarur vakolatlari bo‘lmagan vakil notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan bo‘lsa;

▫ yuridik shaxs nomidan amalga oshiriladigan bitim uning ustavida yoki nizomida ko‘rsatilgan maqsadlarga zid bo‘lsa;

▫ bitim qonun talablariga muvofiq bo‘lmasa;
▫ notarial harakatni amalga oshirish uchun taqdim etilayotgan hujjatlar qonun talablariga muvofiq bo‘lmasa.

Notarial harakatni amalga oshirish rad etilgan taqdirda, uni amalga oshirishni rad etish haqida notarius murojaat qilingan kundan boshlab uch kun ichida qaror chiqaradi va murojaati rad etilgan shaxsning iltimosiga binoan rad etish sababini yozma ravishda bayon etishi va rad etish ustidan shikoyat qilish tartibini tushuntirib berishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010-yil 5-maydagi PF 4216-sonli «O‘zbekiston Respublikasida notariat institutini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida»gi farmoniga ko‘ra, 2010-yil 15-maydan e’tiboran xususiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi notaruslar tizimi tugatildi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Xo‘jalik sudlarining vazifalari nimalardan iborat?
2. Hakamlik sudi nima va uning boshqa sudlardan farqini aytib bering.
3. Kimlar notarius bo‘lishi mumkin?
4. Notariusning majburiyatları va ularni bajarmaslikdan kelib chiqadigan oqibatlarni tushuntiring.
5. Xo‘jalik sudida ishtirok etuvchi shaxslar tarkibini sanab o‘ting?
6. Notarial harakatlarni bajarishni rad etganlik ustidan shikoyat berish tartibi qanday?

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

- Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.
- Каримов И. А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.
- Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996 – 366 б.
- Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.
- Каримов И. А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.
- Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.
- Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.
- Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.
- Каримов И. А.* Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т. 9. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.
- Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 336 б.
- Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
- Каримов И. А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз қуч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Т.: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
- Каримов И. А.* Ўзбек ҳалқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т.: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.
- Каримов И. А.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. Т. 14. – Т.: Ўзбекистон, 2006. – 280 б.
- Каримов И. А.* Жамиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва ҳалқимизни ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т. 15. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 320 б.
- Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. – Т. 16. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – 368 б.
- Каримов И. А.* Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш – бизнинг олий мақсадимиз. Т. 17. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 278 б.
- Каримов И. А.* Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т. 18. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 280 б.

Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 176 б.

Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.

Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2010. – 8 дек.

Каримов И. А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди // Халқ сўзи. – 2011. – 22 янв.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодекси: (2011 йил 1 ноябргача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2011. – 356 б.

Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси: (2011 йил 1 июлгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2011. – 556 б.

Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодекси: (2010 йил 1 марта бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2010. – 276 б.

Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси: (2012 йил 1 майгача бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2012. – 192 б.

Ўзбекистон Республикасининг Уй-жой кодекси: (2010 йил 1 марта бўлган ўзгартиш ва қўшимчалар билан) Расмий нашр. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. – Т.: Адолат, 2010. – 164 б.

Ўзбекистон Республикасининг «Судлар тўғрисида»ги (янги таҳрирда) 2000 йил 14 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 1–2. – 10-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги (янги таҳрирда) 2001 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 168-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Ҳакамлик судлари тўғрисида»ги 2006 йил 16 октябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари тўплами. – 2006. – № 42. – 416-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Нотариат тўғрисида»ги 1996 йил 26 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. – 42-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Адвокатура тўғрисида»ги 1996 йил 27 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1997. – № 2. – 50-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этиш тўғрисида»ги 2001 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 168-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг мурожаатлари тўғрисида»ги (янги таҳтирида) 2002 йил 13 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 1. – 7-м.

Ўзбекистон Республикасининг «Фуқаролар ҳукуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти-харакатлари ва қарорлар устидан судга шикоят қилиш тўғрисида»ги 1995 йил 30 август қонуни // Ўзбекистоннинг янги қонунлари. – 1995. – № 11. – 112–116-б.

Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги 1999 йил 14 апрель қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 1999. – № 5. – 110-м.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 3 ноябрда қабул қилган «Давлат божи ставкалари ҳақида»ги 533-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1995. – № 1–2. – 34–51-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хўжалик суди Пленумларининг 1996 йил 20 декабрда қабул қилган «Суд ҳокимияти тўғрисида»ги 1-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1997. – № 1–2. – 16–20-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 20 декабрда қабул қилган «Фуқаролик ишлари бўйича суд харажатларини ва жиноят ишлари юзасидан суд чиқимларини ундириш амалиёти тўғрисида»ги 42-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1997. – № 1–2. – 51–54-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1992 йил 13 ноябрда қабул қилган «Судлар томонидан меҳнат шартномаси (контракт)ни тузиш, ўзгартириш ва бекор қилишни тартибга солувчи қонунларнинг қўлланилиши ҳақида»ги 92-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1994. – № 4. – 3–12-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 19 июлда қабул қилган «Ўзбекистон Республикаси судлари томонидан никоҳдан ажратиш ҳақидаги ишларни кўришда қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида»ги 17-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1996. – № 3–4. – 49–61-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 11 сентябрда қабул қилган «Ўзбекистон Республикаси судлари томонидан никоҳдан ажратиш ҳақидаги ишларни кўришда қонунларни қўллаш амалиёти тўғрисида»ги 22-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1998. – № 3. – 16–29-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 19 июлда қабул қилган «Фуқароларнинг ҳукуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти-

ҳаракатлар ва қарорлар устидан келтирилган шикоятларни судларда қўриш амалиёти тўғрисида»ги 18-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 1996. – № 3–4. – 62–66-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2003 йил 19 декабрда қабул қилган «Фуқаролик процессуал қонун ҳужжатлари айrim нормаларининг судлар томонидан қўлланилиши ҳақида»ги 19-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 2003. – № 4. – 40–53-б.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2004 йил 21 майда қабул қилган «Фуқаролик ишларини апелляция тартибида қўриш амалиёти ҳақида»ги 5-сонли қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг ахборотномаси. – 2004. – № 2. – 8–14-б.

БМТ Бош Ассамблеясининг 1948 йил 10 декабрдаги Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар тўплами. – Т.: Адолат, 2004. – 520 б.

Международные нормативные акты ЮНЕСКО. Конвенции, соглашения, протоколы, рекомендации, декларации / Сост. И.Д. Никулин. – М., 1993. – 420 с.

«Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисида»ги халқаро пакт (1966 й.) // Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар тўплами. – Т.: Адолат, 2004. – 520 б.

Гражданский процесс: Учебник / Отв. ред. – В. В. Ярков. – М.: Волтерс Клювер, 2006. – 736 с.

Гражданский процесс: Учебник / Под ред. В. А. Мусина, Н. А. Чечиной, Д. М. Чечота. – М.: ПБОЮЛ, 2001. – 544 с.

Давтян А.Г. Гражданское процессуальное право Германии. – М.: Городец, 2000. – 320 с.

Даъвони қўрмасдан қолдириш бўйича суд амалиётининг таҳлили // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1998. – № 10–11. – 11–16-б.

Дўстбабаев А. Суд харажатлари ҳақидаги қонунчиликни қўллаш // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1998. – № 7. – 24–34-б.

Ишбеков М. Тааллуқлилик масаласи // Ҳаёт ва қонун. – 2004. – № 2. – 20–21-б.

Мамасиддиқов М. М. Прокурор ваколати // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2004. – № 4. – 39–40-б.

Мамасиддиқов М. М. Суд фаолияти ва меҳнат ҳуқуқлари // Ҳаёт ва қонун. – 2004. – № 1. – 47–48-б.

Мамасиддиқов М.М. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуки: Ўқув-услубий қўлланма. – Фарғона, 2005. – 184 б.

Мамасиддиқов М.М. Маъмурият сизни ишдан бўшатса: Рисола. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 40 б.

Мамасиддиқов М.М., Хабибуллаев Д.Ю. Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуки (Схема ва жадваллар): Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 168 б.

Мамасиддиқов М.М. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексининг «Буйруқ тартибида иш юритиш» номли 201 бобига шарҳ: Илмий-амалий қўлланма. – Т.: Ал-фаба-сервис, 2008. – 116 б.

Мамасиддиқов М.М. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал ҳуқуки: Ўқув-услубий қўлланма. –Т.: АҚҲМИ, 2008. – 332 б.

Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процессуал ҳуқуки. Умумий қисм: Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 534 б.

Миренский Б. А. Ўзбекистон Республикасининг процессуал қонунчилигини қиёсий таққослаш // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1998. – № 10–11. – 27–32-б.

Отахонов Ф. X. Республика хўжалик судлари ҳал қилувчи қарорларининг қонунийлиги ва асосийлигини текшириш амалиёти тўғрисида // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1996. – № 8–9. – 28–34-б.

Отахонов Ф. X. Халқ хўжалигига юридик хизмат ва талабнома – даъво ишларини юритиш: Ўқув қўлланма. – Т.: Адолат, 1997. – 200 б.

Отахонов Ф.Х. Хорижий мамлакатлар ҳакамлик судлари қарорларини эътироф этиш ва ижро этиш бўйича суд амалиётининг тафсилотномаси // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 1998. – № 5. – 5–11-б.

Охунова Д. Апелляция институти – адолат мезони // Хўжалик ва ҳуқуқ. – 2004. – № 2. – 27-б.

Холмўминов Ж.Т., Дусманов А.Х., Тиллаев Т.Н. Фуқаролик процесси: Маъruzalар курси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2004. – 198 б.

Шораҳметов Ш. Ш. Фуқаролик процессуал ҳуқуки: Дарслик. – Т.: Адолат, 2001. – 512 б.

Шораҳметов Ш. Ш. Конституциявий ҳуқуқлар ва одил судлов // Ҳаёт ва қонун. – 2002. – № 6. – 36-б.

Шораҳметов Ш.Ш. Фуқаролик процессуал ҳуқуқини ўрганиш услубияти ҳақида кўрсатмалар: Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 45 б.

Шораҳметов Ш.Ш. Фуқаролик ишларини судда кўришга оид процессуал хужжат намуналарига шарҳ. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 361 б.

Shorahmetov Sh. Sh. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual huquqi: Darslik.– Т.: Adolat, 2007. – 539 б.

Шораҳметов Ш.Ш. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 960 б.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик жараёни ҳуқуқида даъво муаммолари. – Т.: Адолат, 1994. – 182 б.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик процессуал ҳуқуқий муносабатлар. – Т.: Адолат, 2000. – 78 б.

Эгамбердиев Э. Фуқаролик суд ишларини юритиш турлари.– Т.: Камалак, 1996. – 98 б.

Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш тўғрисидаги ишларни даъво тартибида судда кўриши: Ўқув қўлланма. –Т.: Янги аср авлоди, 2002. – 61 б.

Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш нима? Рисола. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 40 б.

Эсанова З.Н., Собирова С. Фуқаролик ишлари бўйича сиртдан иш юритиш: Рисола. – Т.: МЧЖ «Ношир», 2007. – 48 б.

Esanova Z.N. Fuqarolik protsessual huquqini o‘rganish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar. – Т.: TAQI, 2007. – 426 b.

Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш түғрисидаги фуқаролик ишини судда күриш: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2007. – 137 б.

Эсанова З.Н. Ота-оналик ҳуқуқ ва мажбуриятлари билан боғлиқ низоларни судда кўрилиши: назария ва амалиёт: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 120 б.

Эсанова З.Н. Фарзандликка олиш: моддий ва процессуал жиҳатлар: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2010. – 101 б.

Ҳабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқининг конституциявий тамойиллари: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2006. – 68 б.

М У Н Д А Р И Ж А

SO'Z BOSHI.....3

1-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQINING TUSHUNCHASI, PREDMETI, MANBALARI, TIZIMI VA PRINSIPLARI

1. Fuqarolik protsessual huquqining tushunchasi va predmeti.....	6
2. Fuqarolik protsessual huquqining manbalari va tizimi.....	15
3. Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari.....	22

2-MAVZU. FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQIY MUNOSABATLAR VA ULARNING SUBYEKTLARI

1. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar tushunchasi, subyektlari, ularning huquq va muomala layoqati.....	35
2. Fuqarolik protsessida taraflar.....	42
3. Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar.....	45
4. Fuqarolik protsessida prokurorning ishtiroki.....	50

3-MAVZU. FUQAROLIK ISHLARIDA TAALLUQLILIK VA SUDLOVLIK. FUQAROLIK PROTSESSUAL MUDDATLAR. SUD XARAJATLARI VA JARIMALARI

1. Fuqarolik ishlarining sud va boshqa organlarga taalluqliligi.....	58
2. «Cudlovlik» tushunchasi va uning turlari.....	64
3. Fuqarolik protsessual muddatlar.....	68
4. Cud xarajatlari va jarimalari.....	72

4-MAVZU. BUYRUQ VA DA'VO TARTIBIDA ISH YURITISH. FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR

1. Buyruq va da'vo tartibida ish qo'zg'atish va uni ta'minlash tartibi.....	80
2. «Da'vo» tushunchasi, uning elementlari va turlari.....	89
3. Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar tushunchasi.....	96
4. Dalillarning turlarga bo'linishi va ularni ta'minlash asoslari.....	101

5-MAVZU. BIRINCHI INSTANSIYA SUDIDA ISH YURITISH

1. Fuqarolik ishlarini sudda ko'rishga tayyorlashning ahamiyati va uning mazmuni.....	109
--	-----

2. Суд хабарлари ва чакириклари.....	115
3. Sudda ishni ko‘rish tushunchasi, ahamiyati va uning protsessual tartibi.....	118
4. Ish yuritishni to‘xtatib turish, arizani ko‘rmasdan qoldirish va ish yuritishni tugatish asoslari.....	130

**6-MAVZU. DAVLAT ORGANLARI VA BOSHQA ORGANLAR, SHUNINGDEK,
MANSABDOR SHAXSLARNING XATTI-HARAKATLARI (QARORLARI)
USTIDAN BERILGAN SHIKOYATLAR VA ARIZALAR BO‘YICHA HAMDA
ALOHIDA TARTIBDA ISH YURITISH**

1. Idoralar va mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib hal etishning umumiy tavsifi.....	136
2. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdar shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalarga oid ishlarning sudda ko‘rilishi.....	140
3. Alovida tartibda ko‘riladigan ishlar tushunchasi, mohiyati va turlari.....	146

**7-MAVZU. AYRIM FUQAROLIK ISHLARINI SUDDA
KO‘RISHNING XUSUSIYATLARI**

1. Nikohni tugatish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari.....	157
2. Aliment undirish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishning protsessual jihatlari.....	164
3. Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibi.....	170
4. Mehnatga oid nizolarni sudda ko‘rishning protsessual xususiyatlari.....	174

**8-MAVZU. SUD QARORLARI USTIDAN SHIKOYAT BERISH
VA ULARNI QAYTA KO‘RISH**

1. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan appellatsiya shikoyati berish (protest keltirish) huquqi.....	182
2. Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorlari va ajrimlari ustidan cassatsiya shikoyati berish (protest keltirish) tartibi.....	189
3. Sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko‘rish.....	194
4. Qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, ajrimlar va qaror-larni yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish.....	197

9-MAVZU. SUD QARORLARINING IJROSI

1. Cud va boshqa idoralarning ijro etilishi lozim bo‘lgan qarorlari.....	201
2. Ijro hujjatlari.....	206
3. Hal qiluv qarorlarining fuqarolarga nisbatan ijrosi.....	210

**10-MAVZU. FUQAROLARNING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI
HIMOYA QILISHNING BOSHQA TURDAGI SHAKLLARI: XO‘JALIK
SUDLARI, HAKAMLIK SUDLARI VA NOTARIAT**

1. Xo‘jalik sudlari va ularda xo‘jalik nizolarining ko‘rilishi.....	217
2. Hakamlik sudlari va ularda fuqarolik nizolarining ko‘rilishi.....	227
3. O‘zbekiston Respublikasida notariat.....	232
TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR	242

Juma Toshtemirovich XOLMO‘MINOV,
yuridik fanlar doktori, professor;
Abdujamil Xo‘rozovich DUSMANOV;
Temur Nabijanovich TILLAYEV,
yuridik fanlar nomzodi;
Oybek Axmatovich KAMALOV,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent;
Oybek Jumayevich XOLMUMINOV

FUQAROLIK PROTSESSI

Ma’ruzalar kursi

*Muharrir B. A. Yarov
Texnik muharrir D. X. Hamidullayev*

Bosishga ruxsat etildi 07.07.2012. Nashriyot hisob tabag‘i 14,0
Adadi 100 Buyurtma № Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.